

UMUMIY PEDAGOGIKA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

UMUMIY PEDAGOGIKA

I QISM

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	110 000 – Pedagogika
	120 000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishlari:	5111400 – Xorijiy til va adabiyoti (tillar bo'yicha)
	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (roman-german filologiyasi)

**YOSHLAR NASHRIYOT UYI
TOSHKENT – 2020**

Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurmonova [va boshq.]. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 376 b.

Tuzuvchi mualliflar:

A.Musurmanova, X.Ibragimov, O.Jamoldinova, K.Risqulova, S.Yo'ldosheva,
A.Jumayev, F.Babashev, P.Isamova, S.Sharianova, G'.Salohiddinova,
K.Todjibayeva.

Taqrizchilar:


F.Xalilov - Pedagogika fanlari doktori, professor
N.Isaqulova - Pedagogika fanlari doktori, professor

Texnik muharrir:

Katta o'qituvchi D.Polvanova.

Mazkur o'quv qo'llanma umumiy pedagogika fani mazmuniga bag'ishlangan bo'lib, oliv o'quv yurtlarining umumiy pedagogika dasturida ko'zda tutilgan talablar asosida tuzilgan. Kitobda jahon pedagogika fanlari sohasida qo'lga kiritilgan so'nggi ilmiy-nazariy ma'lumotlar, ilmiy izlanishlar, xorij pedagog olimlarining qarashlari va nazariyalaridan milliy mentalitetimizga moslashtirilgan holda foydalanilgan. O'quv qo'llanmada umumiy pedagogika fanining mazmun-mohiyati, pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, didaktika-ta'limga nazariyasi, tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayonlari, O'zbekiston Respublikasi ta'limga tizimi, uzuksiz ta'limga tuzilishi, ta'limga tizimidagi modernizatsiya jarayonlari, ta'limga tizimi menejmenti, boshqaruv organlari huquq va vakolatlari, rahbar shaxsi va unga qo'yiladigan talablar, kompetentsiya, kompetentlik, pedagogik kompetentsiya, pedagogik mahorat, pedagogik diagnostika va korreksion pedagogika asoslari, ta'limga tarbiya jarayonini tashkil etuvchilar, ta'limga usullari, shakllari, vositalari, pedagogik jarayon ishtiroychilar, dars, dars turlari va darslarni to'g'ri tashkillashtirish qonun-qoidalari va qonuniyatlar, elektron pedagogika asoslari kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi oliv va o'rta maxsus ta'limga vazirligining 2019-yil 9-fevraldag'i 133-sonli buyrug'iga asosan chop etildi.



ISBN 978-9943-6679-0-7

© A.MUSURMANOVA, X.IBRAGIMOV,
O.JAMOLDINOVA, K.RISQULOVA,
S.YO'LDOSHEVA, A.JUMAYEV,
F.BABASHEV, P.ISAMOVA,
S.SHARIPOVA, G'.SALOHIDDINOVA,
K.TODJIBAYEVA, 2020
© YOSHLAR NASHRIYOT UYI, 2020

MUQADDIMA

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan uzlusiz ta'lim tizimini isloh qilish, yangi avlod darsliklarini yaratish va uzlusiz ta'lim tizimini modernizatsiyalashda xorijiy tillarni o'qitish va o'rgatishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda pedagogika fanlarini o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlat ravnaqini belgilab beradigan asosiy omillardan biri kadrlarning o'z sohasi bo'yicha mukammal ta'lim oлганлиги va uni amaliyotda qo'llay olishi, shaxsning ma'naviy yetukligi, o'zligini anglashi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak xislatlarning rivojlantirilganlik darajasi bilan bog'liq.

Hozirgi davrda umumiy pedagogika fanini o'qitish bo'lg'usi o'qituvchilarda pedagogik bilimlarini shakllantirish, umumiy pedagogika fanining mazmun-mohiyati, pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, didaktika-ta'lim nazariyası, tarbiya nazariyası, tarbiya jarayonları, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi, uzlusiz ta'lim tuzilishi, ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonları, ta'lim tizimi menejmenti, boshqaruv organları huquq va vakolatlari, rahbar shaxsi va unga qo'yiladigan talablar, kompetentsiya, kompetentlik, pedagogik kompetentsiya, pedagogik mahorat, pedagogik diagnostika va korreksion pedagogika asoslari haqidagi bilimlarni ilmiy-nazariy jihatdan umumiy tayyorgarlik ko'rgan holda egallahsga yo'naltirilgan.

Har bir bo'lajak o'qituvchi o'quv-tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatliligi olib borishi uchun ta'lim-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchilar, ta'lim usullari, shakllari, vositalari, pedagogik jarayon ishtirokchilari, dars, dars turlari va darslarni to'g'ri tashkillashtirish qonun-qoidalari va qonuniyatlarini bilishi, elektron pedagogika asoslardan unumli va samarali foydalana olishi lozim. Shunga ko'ra har bir bo'lajak mutaxassis-o'qituvchi umumiy pedagogika fanidan chuqr bilim, malaka va ko'nikmalarini egallashi bugungi kun talabidir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida izchil olib borilayotgan islohotlar samarasи sifatida Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida «Umumiy pedagogika» fani bo'yicha xorijiy adabiyotlardan olingan nazariy va amaliy ma'lumotlar bilan

takomillashtirilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktabrdagi F-4724-sonli farmoyishi bilan tashkil qilingan ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalari, «2017-2021-yillarda Oliy ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish dasturi» bo'yicha zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari bilan ta'minlash va xorijiy adabiyotlar asosida darslarni innovatsion ta'lim shakllarida olib borish haqida ilgari surilgan fikrlariga muvofiq ushbu o'quv qo'llanma tayyorlandi.

Yuqorida ko'zda tutilgan ezgu niyat va maqsadlarni amalgalashirishda ushbu o'quv qo'llanmada mavzular mohiyatini yoritib berish jarayonida antik dunyoning buyuk allomalari asarlaridagi pedagogik g'oyalaridan, Sharqning buyuk allomalari ta'lumotlaridan, Yevropa Uyg'onish davridan ilmiy pedagogik go'yalarining vujudga kelguniga qadar ilmiy maktablardagi pedagogik manbalardan, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan ilmiy-pedagogik maktablar (Rossiya, AQSH, Yevropa mamlakatlari misolida) ma'lumotlaridan, mamlakatimiz pedagoglari tomonidan qo'liga kiritilgan eng so'nggi yutuqlardan, xususan o'quv qo'llanmaning «Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativligi» mavzusini tayyorlashda K.Risqulovaning, «Ta'lim-tarbiya jarayonida ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish» mavzusini tayyorlashda S.Sharipovaning tadqiqot natijalaridan hamda amerikalik pedagog tadqiqotchi Alex Murning «Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture» nomli kitobida berilgan ma'lumotlardan keng va samarali foydalanildi.

UMUMIY PEDAGOGIKA – TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI. UMUMIY PEDAGOGIKANING ILMIY TADQIQOT METODLARI

Reja:

- 1. Pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi.*
- 2. Umumiy pedagogikaning obyekti, predmeti va tuzilishi.*
- 3. Pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari.*
- 4. Pedagogikaning tarmoqlari.*
- 5. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.*
- 6. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari.*

Tayanch tushunchalar: pedagogika, pedagogikaning tuzilishi, pedagogika tarmoqlari, bilim, ko'nikma, malaka, maxsus pedagogika, pedagogik tizim, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari, kuzatish metodi, suhbat metodi, eksperiment metodi.

Mavzuning qisqacha mazmuni: pedagogikaning fan sifatida vujudga kelishi, umumiy pedagogikaning obyekti, predmeti va tuzilishi, pedagogikaning asosiy kategoriyalari va tushunchalari, pedagogikaning tarmoqlari, pedagogikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi, pedagogik tizimlar tushunchasi, uning manbalari va asosiy tarkibiy qismlari, ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari haqida so'z yuritiladi.

PEDAGOGIKANING FAN SIFATIDA VUJUDGA KELISHI

XXI asrga kelib ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar rivojida inson aql-zakovati va ma'naviyati asosiy muvofiqlashtiruvchi, rivojlantiruvchi omil va vosita ekanligini tobora namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun insonparvarlik, ma'naviy barkamollik, ezgulik, tashabbuskorlik, dunyoviy va diniy uyg'unlik, milliy, bozor

iqtisodiyoti asosidagi huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh tamoyil sifatida qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov: «Mamlakatimizning istiqlol yo'lidiagi birinchi qadamlaridan oq, buyuk ma'naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari va ko'nikmalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Zamonaviy ta'lim tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bo'lmog'i darkor»¹ ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda sodir bo'layotgan demokratik o'zgarishlar, yangi jamiyat barpo etish yo'lidan dadil yetaklovchi, harakatlantiruvchi ichki kuchga aylanmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgach, yangi ijtimoiy tuzumning maqsadi, vazifalariga mos keladigan va uni amalga oshiradigan kadrlarni tayyorlash ehtiyojidan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya tizimini yangilash vazifasi qo'yildi. Shu sababli ta'lim davlatimiz ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Har bir bolaning dunyoga kelishi, faqat tabiiy biologik jarayon emas, balki u ma'lum qobiliyat kurtaklari bilan tug'iladi. Lekin u inson, shaxs sifatida oilada, shuningdek, turli jamoalardagi faoliyatida ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanadi.

Jamiyat rivojlanchani sari yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash ehtiyoji ham ortib boradi. Shu sababli ta'lim va tarbiya jarayoni ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qaraladi, chunki ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib bormasdan turib jamiyatni, davlatni, shaxsni rivojlantirishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jamiyatning tarbiyaga bo'lgan ehtiyoji juda qadimdan mavjud bo'lib, ana shu ehtiyoj tufayli pedagogika fan sifatida vujudga kelgan.

Har bir ijtimoiy tizimda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogika fanidagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroflicha o'rganishni taqozo etadi.

Pedagogik g'oyaarning tarqalishida Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari Suqrot, Aflatun, Arastu, Demokrit va

¹ Karimov.I. Barkamol avlod orzusi. –T.: Sharq, 1999. 95-bet.

boshqalarning hissasi katta. Ular o‘z faoliyatida yoshlarni o‘qitish hamda tarbiyalash vazifalariga mos ravishda o‘z davrida ta’lim-tarbiya nazariyasini ishlab chiqdilar. Yunonistonda pedagogikaning rivojiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Sugrot

Suqrotning falsafiy va pedagogik qarashlari tarbiyadan kutilgan maqsad – insonning bilimlarning bilib olishiga erishish, uni yuksak axloqli qilib kamol toptirishda o‘z ifodasini topgan. U o‘z ta’limotida mardlik, donolik,adolatlilik tushunchalarini belgilab beradi. Mardlik qo‘rquvni daf qilish, donolik – jamiyat qonunlariga rioya qilish, mo‘tadillik – o‘z hissiyotlariga erk bermaslik, adolat – yaxshilikni amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatishdir deb ta’kidlagan.

Suqrotning ta’limoticha, inson eng avvalo, umumiy axloq mezonlarini, o‘zi uchun muqaddas bo‘lgan fazilatlarni egallab olishi kerak. Insoniy fazilat egasi yaxshi fazilatlarni namoyon eta oladi. Inson axloqiy fazilatlarni ilm-fan, ta’lim orqali egallaydi, axloqning yagona sohibi bo‘ladi. Aql bilan axloq o‘rtasida ziddiyat bo‘lishi mumkin emas. Hunardan yaxshiroq, ilmdan ulug‘roq narsa yo‘q. Sharm-u hayodan yaxshiroq bezak, zeb-u ziynat yo‘q, badfe’llikdan yomonroq dushman yo‘qdir.

Suqrotning axloq xususidagi ta’limotiga ko‘ra, ezbilik – bilim, donishmandlik – yaxshilikni biluvchiga yaxshilik qilishdir. Yomonlik qiluvchi yaxshilikni yo bilmaydi yoki yaxshilikning tantana qilishiga qarshilik qiladi.

Suqrot o‘zining pedagogik qarashlarida mehnat tarbiyasiga alohida e’tibor beradi, mehnatni axloqiy go‘zallik deb biladi. Suqrotning ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limoti qadimgi Yunonistonda falsafiy-pedagogik fikrlar rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan.

Aristotel

Yunon falsafasi va fani taraqqiyotida yangi davr yaratgan buyuk mutaffakkirdir. Aristotel o‘zining axloqqa oid «Nikomax etikasi», «Endem etikasi» asarlarida tarbiyaning maqsadi tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan insonni tadrijiy rivojlantirishdan iboratligini, aql va idrokni rivojlantirish muhim ekanligini aytadi. Uning ta’limotiga ko‘ra, bolalarning yosh xususiyati hisobga olingan holda, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiya uzviy birlikda amalga oshirilishi kerak. Fuqaro faqat o‘z shaxsiy ishi bilan shug‘ullanmay, xalqning tinchlikda yashashi, farovonligi yo‘lida faoliyat ko‘rsatishi, go‘zallik yaratishi kerak. Aristotel tarbiya muddatini 21 yil: bola tug‘ilgandan 7 yoshgacha,

yoshdan 14 yoshgacha, 14 yoshdan 21 yoshgacha deb belgiladi. U bolaning har bir davrdagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi, har bir davrda amalga oshiradigan tarbiyaning maqsadi, mazmuni va usullarini bayon etadi.

Aristotel ham Platon kabi bolalarni maktabgacha yoshdan tarbiyalashga alohida e'tibor berdi. Uning fikricha, bolani o'rgatish mumkin bo'lgan barcha narsaga go'dakligidan odatlantirish kerak. Bola 7 yoshgacha oilada tarbiyalanishi lozim. 7 yoshgacha davr o'sish davri hisoblanadi. Shunga ko'ra birinchi navbatda ularning jismonan rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Shu yoshdag'i bolalarni o'z vaqtida ovqatlantirish, harakatda bo'lishlariga e'tibor berish, chiniqtirish zarur. Bolalar yoshga mos o'yinlar bilan shug'ullanishi kerak. Ularga ertak va hikoyalar aytib berish orqali nutqlarini o'stirish, 5 yoshdan boshlab ular oilada maktabga tayyorlanishi, 7 yoshdan boshlab davlat huzuridagi maktablarda o'qishi kerakligini ta'kidlagan.

Aristotelning ta'kidlashicha, bola 5 yoshidan boshlab 7 yoshgacha kelgusida o'rghanishi zarur bo'lgan fanlar bo'yicha darslarga qatnashi kerak. Bu o'quv predmetlari ona tili, gimnastika, musiqa va tasviriy san'atdir. Tarbiya gimnastikaga bog'liq holda boshlanadi. Ammo bunda jismoniy tarbiyaga haddan tashqari berilib ketmasligi kerak. Tarbiyaning maqsadi bolani bo'sh vaqtini ongli ravishda o'tkazishga o'rgatishdir.

Aristotel do'st orttirish, do'stlarga nisbatan shafqatli, marhamatli bo'lishga da'vat etadi. Uning ta'kidlashicha, kishi iloji boricha o'ziga dushman orttirmasligi kerak. Dushmanlik ko'rsatganga rahmat nazari bilan qarash, dilnavoz bo'lishi kerak. Shundagina u do'stlari qatoridan joy oladi.

Demokrit

Yunonistonda pedagogikaning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan mutaffakkir olimlardan biri Demokritdir. U falsafa, matematika, fizika, biologiya, tibbiyot, ruhiyat, san'atga doir asarlar yaratib, inson shaxsining qaror topishi uning tabiatini va tarbiyasiga bog'liqligiga urg'u qaratgan. Agar inson o'qimasa mahorat va donishmandlikka erisha olmaydi deb hisoblagan. Demokrit yoshlarga aql-idroklilik, keksalarga donolik xosligi tegishli tarbiya va tabiat baxsh etishini olg'a surgan.

Demokrit bolalarga namuna bo'lish, so'z orqali ta'sir ko'rsatish, ishontirish va dalillar bilan tarbiyalashga, ularni mehnat qilishga odatlantirishga alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, mehnat

qilishga odatlantirish orqaligina bolalarni yozuvga, musiqaga, jismoniy mashqqa o'rgatish mumkin. Demokrit jamiyat oldidagi burchiga sadoqatli, ijtimoiy va siyosiy hayotda faol ishtirok etuvchi kishini axloqli inson deb hisoblagan.

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o'zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa, insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o'z-o'zidan yuz bermaydi. Buning uchun, avvalo, asriy an'analar, tegishli shart-sharoit, tafakkur muktabi, madaniy-ma'naviy muhit mavjud bo'lmog'i kerak. Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, O'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarcand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlarining dastlabki yozma yodgorliklari, masalan, «Avesto»da ajdodlarimizning axloqiy-didaktik qarashlari, ta'litarbiya haqidagi fikrlari u yoki bu darajada o'z aksini topgan. «Avesto» ta'limotiga ko'ra ikki kuch: yaxshilik Axura Mazda va yomonlik Angra Manyu mavjud bo'lib, ular bir-birlariga abadiy murosasizdirlar. Yaxshilik kuchlarida insonning jismoniy, axloqiy, aqliy, ekologik, go'zallikka doir juda ko'p muammolari mujassamlangan. Jumladan, Zardusht munojotlarida Yazdondan yerda dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish uchun bandalarining sog'lom, baquvvat bo'lishini ta'minlashi iltijo qilingan, yaxshi ish, yaxshi xulq, yaxshi odat ularda barqaror bo'lishi so'ralgan.

«Avesto»da oila gigiyenasi, atrof-muhit, aholi yashaydigan joylarni toza tutish, ko'cha, hovli, suv havzalari, ariq va chashmalarni iflos qilmaslik haqida maxsus boblar mavjud. Chunonchi, ko'cha eshigi yoniga axlat to'plab qo'ygan xonardon sohibiga jamoaning hukmi bilan 25 darra, hovuz yoki chashmadan nopol ko'za yoki chelakda suv olgan shaxsga 5 darra urilgan. Suvning ustiga uch marta yomg'ir yog'ib o'tgach, u oldingidek odam va hayvonlar ichadigan suvga aylanadi, deb hisoblangan. Yerni iflos qilgan, uni asrash qoidalarini buzgan shaxslar 400 qamchi urish jazosiga mahkum etilgan.

«Avesto»da bemorlarni davolashning ikki usuli ko'rsatilgan. Undagi oila, shaxsiy gigiyena hamda qiz va o'g'il bolalarni parvarishlash, tarbiyalash qoidalari haqidagi fikr-mulohazalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Xalqimiz o'z tarixiy ijtimoiy taraqqiyoti mobaynida boy og'zaki ijodiy meros yaratgan. Xalq og'zaki ijodiyotida ta'lim-tarbiyaga oid ilg'or pedagogik fikrlar ilgari surilgan.

Barkamol inson orzusi xalq og'zaki va yozma yodgorliklari, ya'ni ertak, doston, qo'shiq, topishmoq, tez aytish, masal, matal, maqol, rivoyat va hikoyatlarda o'z aksini topgan.

Xalq og'zaki ijodiyotida, avvalo, barkamol inson uchun ilm va hunar zarurligi ta'kidlanadi. Xalq yaratgan hikoyalarda donishmandlik, aql va zakovat alohida o'rinnegallagan. Ma'lumki, otabobolarimiz qadim zamonalardan yaxshilikni yomonlikka, ma'rifatni jaholatga, nurni zulmatga qarama-qarshi qo'yib, hamisha ma'rifat-u ziyyoni,adolat-u ezgulikni olqishlab kelgan.

Mahmud
Qoshg'arriy

Mahmud Qoshg'arriy «Devonu lug'otit turk» kitobida baxillik, mol-dunyoga hirs qo'yish, o'zi och bo'la turib, saxiylik qilaman, deyish, g'irromlik va boshqalar qattiq qoralangan. Ota-onas, qo'ni-qo'shnilarining pand-u nasihatlariga quloq solish, og'izdan yomon so'zlar chiqarmaslik, doimo kamtar, g'amginlarning dardiga malham bo'lish ulug'langan.

Insonni har tomonlama tarbiyalash azaliy orzu bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalalarini izlaganlar. Darqaqiqat, insonning ma'rifatli va ma'naviy komilligiga erishish pedagogika fanining yetakchiligidagi amalga oshiriladi.

Insoniyat madaniyatiga benazir hissa qo'shgan, zamin-u zamonalarda barcha avlodlarga ma'naviy ozuqa baxsh etgan. **Imom al-Buxoriy** axloq va odobga oid hadislar mujassamlangan, ahamiyatiga ko'ra Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi diniy manba deb e'tirof etilgan «Al-Jome' as-Sahih» kitobidan keyin yaratgan «Al-adab al-mufrad» («Adab durdonalari») asarida axloqiy qadriyatlarni bayon etadi.

Forobiy insonning qadr-qimmatiga, uning aql-zakovatining ijodiy va bunyodkorlik kuchiga yuksak baho beradi. Inson Forobiy uchun shunchaki biologik bir mavjudot emas, u o'z mohiyatiga ko'ra, aql-idroki tufayli hayvonot dunyosi chegaralaridan tashqariga chiqadi,

zakovati mehnati bilan bir qatorda uni ijtimoiy jihatdan faol qilib qo'yadi. Insonning hayoti stixiyali tarzda kechishi mumkin emas. Bu hayot ongli va aniq maqsadni ko'zlagan bo'lishi, faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lishi lozim.

Ibn Sino

Ibn Sino o'z tarbiya sistemasini yaratdi. Bu tizimda: odob, astronomiya, tibbiyat, mantiq, falsafa, tabiatshunoslik, til va uning grammatikasi, muslimon qonunshunosligi fanlarini kiritdi. U tarbiya jarayoni aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat (hunar o'rgatish) tarbiyalarining bir butunligini tashkil etadi, deb ko'rsatgan edi. U maktabda o'qish, tarbiya ishlarini jamoa tarzida tashkil etish g'oyasini olg'a surdi. O'qitish jarayonining didaktik asoslarini yaratdi. Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosda chuqur yoritib berdi. Yaxshilik, odobli bo'lish, kamtarlik va insoniylik masalalariga ko'p asarlarida to'xtalib o'tgan edi. Ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rnnini alohida ko'rsatadi. Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak deb ta'kidlaydi edi.

Ibn Sino «Kitob-al qonuni fit-tib» («Tib qonuni») «Donishnoma», «Hayy ib Yaqzon» qissasi, «Hidoyat», «Klunj», «Risolatul tayr», «Tadbiri manozil» va boshqa asarlarida pedagogikaga doir qarashlari va ta'limotlarini bayon qiladi.

Beruniy

Beruniy zamonasining turli bilimlari to'g'risida teran tadqiqotlar qilgan, dunyoda kam uchraydigan olimlardandir. U 153 ta asar yozgan. Beruniyning asarlarida ulug' olimlarga xos ikki xususiyat mavjud:

1. *Hur va betaraf muomalada bo'lish.*
2. *Musbat bilimga nomuvosiq va aqlga uyg'un bo'lмаган bo'sh va asossiz fikrlarga bog'lanib qolmaslik.*

Uning fikricha, insonlar uch sabab bilan baxtsizlikka duchor bo'ladilar:

Inson yer yuzida yaratilganlar orasida eng mumtozidir Ammo insonlar qizg'anchiqlik sababi bilan bir-birlarining qo'llarida bo'lgan narsalarga ko'z tikadilar. Bu ham ijtimoiy huzursizlikka sabab bo'ladi.

O'z ishonchini, mazhabini va qabilasini boshqalardan ustun ko'rmoq insonlar orasida nifoqlarga yo'l ochadi.

Xurofotlar va bo'sh (asossiz) ishonchsizlik insonlikning takomilini orqaga surmoqda va tushunmovchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Beruniy axloq tarbiyasiga katta ahamiyat bergen. Unga ko'ra, mardlik, jasorat faqat o'zini emas, boshqalarni ham o'yalamoqdir.

O'zbek xalqining ulug' farzandi, insonparvar, ma'rifatparvar **Alisher Navoiy** (1441-1501) XV asrda tavallud topdi, temuriylar davrida yashab ijod qildi. Alisher Navoiy ilmiy va adabiy faoliyatida ham, ta'lim-tarbiya haqida bilditgan fikrlarida ham o'zidan oldin o'tgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqa mutafakkirlar an'anasi davom ettirdi va boyitdi. Asarlaridan biri «Xamsa» o'zbek she'riyatining gultoji bo'lib, Navoiy ularni 1483-yilda boshlab, 1484-85-yillarda yozib tugatgan.

Alisher Navoiyning bu asarida odob va kamtarlik, qanoat, insof, vafo, ishq, rostgo'ylik, do'stlik, birodarlik va boshqa ajoyib insoniy fazilatlar, haqida, ilm-fan va olimlar, mehnat ahli haqida keng va atroficha fikrlar aytildi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda barcha mavjudotlardan yuksak, aziz va qadrlidir. Bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq darkor. Tarbiya insonning o'zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishiga yordam beradi. Navoiy fan sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlarini, san'atning turli sohalari: musiqa, rasm, xattotlik, me'morlikni rivojlantirish uchun harakat qilish bilan birga, ilm va san'at arboblariga yordam berar, ularni rag'batlantirar va maslahatlar berar edi.

Abdulla Avloniy

Abdulla Avloniyning ijodiy faoliyatida maktab va maorif, ta'lim-tarbiya masalalari alohida o'rinnegallaydi. Avloniy «Birinchi

muallim», «Ikkinch muallim», «Maktab va guliston» asarlarini maktab o'quvchilariga bag'ishladi. Avloniyning 1913-yilda «Turkiy guliston yoxud axloq» asari bosilib chiqdi. Avloniyning maorif, madaniyat, yosh avlodni tarbiyalash sohasidagi xizmatlari beqiyosdir. Uning fikricha insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytaruvchi – ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiliginu, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. O'z aybini bilib iqror qilib tuzatmakka sa'y va qo'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir. Tarbiya «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sturmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabitidur².

**Mahmudxo'ja
Behbudiy**

Mahmudxo'ja Behbudiy asrimizning birinchi choragidagi Turkistonning eng mashhur kishilaridan edi. Behbudiy adabiyot, tarix bilan birga siyosatshunoslik bilan ham

shug'ullangan. Behbudiyning Turkiston maktab-maorifchiligidagi xizmatlari g'oyat katta. U o'lkadagi «usuli jadid» maktabining eng birinchi nazariyotchi va amaliyotchisi jadidchilik harakatining tan olingan karvonboshisidir. Behbudiy o'zbek va tojik tillarida «Muntaxabi jo'g'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jo'g'rofiya») asarini, yangi usuldagagi maktablar uchun darslik va qo'llanmalar: «Kitob ul-astol» («Bolalar uchun kitob»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyoti Islom», «Madhali jo'g'rofiyai umroniy» («Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo'g'rofiyai Russiy» («Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi»)ni yaratgan. U xalqni ilm-ma'rifat egallashga chaqirdi, xotin-qizlarning ilm olish huquqini himoya qildi, yangi usuldagagi maktablar ochishga, dunyoviy fanlarni o'rganishga undadi, tabiat hodisalarini, Yerning yumaloqligi, o'z o'qi atrofida aylanishi va muallaq turishi, Oy va Quyosh tutilishini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qildi. Buning uchun uni reaksiyon ruhoniylar «Dahriy» deb e'lon qilganlar.

**Yan Amos
Komenskiy**

Yan Amos Komenskiy mashhur donishmand, chexiyalik insonparvar-pedagog, demokratik pedagogikaning asoschisi sifatida bashariyat tarixidan munosib o'rinn oldi. U

² Turkiy Guliston yoxud axloq –T.: Sharq 2009. 57-bet

o‘zining ongli hayotini, amaliy pedagogik faoliyatini, ilmiy asarlarini xalq bolalarini o‘qitish va tarbiyalashdek oliyjanob ishga bag‘ishladi. Uning insoniyat oldidagi buyuk xizmati shundaki, u yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash haqidagi fan – pedagogika fanining vazifalarini payqabgina qolmasdan, balki bu sohaning poydevorini ham qurdi, uning keyingi rivojlanish yo‘llarini ko‘rsatib berdi.

UMUMIY PEDAGOGIKANING OBYEKTI, PREDMETI VA TUZILISHI

Pedagogika tarbiya haqidagi fandir. «Pedagogika» grekcha so‘z bo‘lib, «peydogogos» – «bola yetaklovchi» ma’nosini anglatadi. Insonlarni ma’naviy va ma’rifiy barkamollikka munosabatlarining o‘zgarib borishi natijasida pedagogika fani xalq orasida o‘z mavqeiga ega bo‘ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi – fan sifatida pedagogika dunyo fanlari tizimi qatorida alohida o‘rin egalladi.

Pedagogikaning bosh masalasi – tarbiyadir. Tarbiyadagi keng ma’no ta’lim, rivojlanish, ma’lumot bilan bog‘langan holda barkamol insonni voyaga yetkazishdir. Pedagogika komil insonni tarbiyalashda hayotiy tajribalarga suyangan holda yuksak ma’naviy mafkurani shakllantiruvchi qonun-qoida, tamoyil va usullarini o‘rgatuvchi hodisalar doirasidagi fandir.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, o‘zining nazariy, milliy va amaliy asoslariiga ega.

Pedagogikaning nazariy asoslari shaxs kamolotiga qaratilgan, xalq yaratgan boy tajriba, ilmiy tadqiqotga doir nazariy va metodik manbalarga, O‘rta Osiyo va jahon ma’rifatparvar mutafakkir olimlarining asarlariga suyangan holda komil insonni tarbiyalash, o‘qitishning qonun-qoida va tamoyillarining umumiyligi qonuniyatlariga asoslanadi.

Pedagogikaning milliy asosi ta’lim-tarbiya muammolarini har bir millatning ma’naviy va madaniy, umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lagan holda amalga oshirishdir.

«Kelajak bugundan boshlanadi,» – deydi dono xalqimiz. Yosh avlodning kelgusi hayoti uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma’naviy jarayonning qay maqsadga yo‘naltirib, kelib chiqadigan muqim vazifalarni bajarishga bog‘liq. Pedagogika fanining maqsadi tarbiyachi-o‘qituvchilarning ongli faoliyatida o‘z oldiga aniq maqsad

qo‘yib, o‘z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, tanlangan vosita va usullarning qo‘llanishi natijasini ko‘ra bilish kabi tarbiyachilik san‘atini o‘rgatishga qaratilgan.

Pedagogika fanining vazifalari:

- Sharq va G‘arb xalqlari og‘zaki ijodiyoti, pedagogikasi, mutafakkir, ma‘rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg‘or g‘oyalarini tahlil qilib, komil inson tarbiyalash jarayonini o‘rganish;
- komil insonni tarkib toptirishning qonuniyat-qoida va zarur sifatlarini aniqlash;
- pedagogika – tarbiyashunoslikdagi ta’lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviy muammolarini ishlab chiqish va yangi pedagogik texnologiya tamoyillariga amal qilish;
- ta’lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va usullarni maktab amaliy hayoti bilan bog‘lab bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgatish;
- xalq ta’limini boshqarish va rahbarlik masalalarini chuqr o‘rganib, bo‘lajak o‘qituvchilarni qayta tayyorlash muammolarini hal qilish.

Pedagogika fanining maqsadi:

- ✓ respublikamizda komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal etish;
- ✓ ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijodiy yondashish;
- ✓ umuminsoniy qadriyat va milliy madaniyatning asoslarini e‘tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borish imkonini yaratish;
- ✓ pedagogika – tarbiyashunoslik qoida-qonunlarini ilg‘or tajribalar asosida boyitib borish va yangi ish shakllarini izlashga oid tadbirlar belgilash;
- ✓ bo‘lajak o‘qituvchi va tarbiyachilarni voyaga yetkazish masalalarini tadbiq qilish;
- ✓ uzlksiz ta’lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini bartaraf etish.

Pedagogikaning metodologik asosi. Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat mahsuli sifatida turli fanlar bilan qadim-qadim zamonlardan bog'liqligidir. Shuni ta'kidlamoq kerakki, pedagogika fanining metodologik asosi diniy va dunyoviy fanlar tarkibida rivojlangan. Qur'onda «Ilm» so'zi turli hollarda 765 marta takrorlanadi. G'arb faylasuf olimlari ham Islom falsafasiga suyangan holda ijod etganlar.

Pedagogika fanining metodologiyasini yaratishda qomusiy mutafakkir va pedagoglarning o'rni diqqatga sazovor. Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Rudakiy, Firdavsiy, Alisher Navoiy, chex olimi Yan Amos Komenskiy, shvetsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalotsi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K. D.Ushinskiy kabilar o'z ijodiyotlarida pedagogikaning metodologik asosini yaratib, komil inson tarbiyalashdagi qonuniyatlarni asoslardilar. Yangicha Sharqona pedagogikaning metodologiyasi o'tmish ajdodlarimizning barkamol inson tarbiyasidagi g'oya va ta'limotlarini o'rganib, unga suyangan holda milliy istiqlol mafkurasini mustahkamlash va unga amal qilishdir. Pedagogika fanining mazmuni, maqsadi, vazifalari, tamoyil usul va vositalari, umuman, har bir inson uchun zarur bo'lgan tarbiyaviy ta'sirlar yangicha asosga ega bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu borada shunday degan edi:

«O'zbekistonning yangilanish va rivojlanish yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish;
- vatandarvarlik³.

O'zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fanining metodologik asoslariga bevosita bog'liq bo'lgan har bir masalalarga ijodiy, rivojlantiruvchi nuqtai nazardan yondashish zarurdir.

³.Karimov. I.A O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T.: Ma'naviyat, 1992. 87-bet

PEDAGOGIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI VA TUSHUNCHALARI

Pedagogika fanining predmeti, o'qitishning, ta'lif-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarini qurollantirishdir. Uning metodologik asoslari maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

Pedagogika fanida bir-biriga uzviy bog'langan quyidagi tushunchalar mavjud: Tarbiya, ta'lif, ma'lumot. Tarbiya ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan hodisadir. U jismoniy barkamollik, yaxshini yomondan farqlash, yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish qudratiga egadir. Tarbiya kishilik jamiyatining hamma boshqichlarida rivojlanib, o'sib avloddan avlodga vorislik vazifasini bajargan, lekin maqsadi, vazifasi, mazmuni o'ziga xosligi bilan farq qiladi.


Pedagogika metodologiyasi o'zida pedagogik nazaroya asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishning yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniylifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, bu bilimlar tizimini qo'lga kiritish boyicha faoliyat tizimini mujassamlashtiradi.

Pedagogik tushunchalar.

TA'LIM – maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim, qobiliyatlarini o'stiradigan, ularning dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Ta'lif jarayonining mazmunini bilim, ko'nikma va malaka tashkil qiladi. «Ta'lif insonlarga yaxshiroq hayot tarzi va mavqe imkoniyatlarini yaratadi. Odamlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga yordam beradi. Insonga o'zini va dunyonи tushunishdagi bilimini oshirishda zarur. Odamlardagi bag'ri kenglikni shakllantiradi. Yoshlarning hayotga va dunyoga bo'lgan qarashini shakllantirishga yordam beradi. Demak, ta'lif millatni rivojlantirishga yordam beradi», – deydi amerikalik pedagog olim A.Mur.

TARBIYA – o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va

⁴Aleks Mur. Ta'lif berish va ta'lif olish: pedagogika, ta'lif dasturi va tarbiyalari. Nukus. Namangan davlat universiteti. Ikkinchchi nashr. 2012. 35-bet



mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Tarbiya bola tug'ilgandan boshlab umrining oxirigacha oilada, mакtabda, kasb-hunar kollejlarida, olyi ta'lif muassasalarida va jamoatchilik ta'sirda shakillanib boradigan jarayondir.

BILIM – bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlar orasidagi, ularning ichki ziddiyatlaridan kelib chiqqan bog'liqlikdir. U qonuniyat deb ham yuritiladi. Ya'ni bilim insoniyat tomonidan mustaqil hayotda, faoliyatda, ishlab chiqarishda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlari va tushunchalarini o'zlashtirish natijasidir. **Bilim** – o'rgangan narsani tushuntirib bera olish bo'lib, o'quvchilar o'qish orqali u bilan quronnanadilar. Bilimni hayotda ko'p unum beradigan qilib qo'llay olish bilan birgalikda ko'nikma va malaka hosil qilish lozim.

KO'NIKMA – mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig'indisi bo'lib, bilimni ma'lum joy(sinfda, laboratoriyada va hakazo)da qo'llay olishdir.

KO'NIKMA – malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar yig'indisidir.

Iqtidor va ko'nikma mashq qilish va takrorlash orqali **malakaga aylanadi**.

MALAKA – bilim va ko'nikmani istalgan joyda qo'llay olishdir.

Bilim asosida ko'nikma va malaka paydo bo'ladi. Bilim bahsda kerak bo'lsa, ko'nikma mehnatda, dunyoni o'zlashtirishda zarur.

MA'LUMOT – ta'lif-tarbiya natijasida olingen va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

MAHORAT – turli malakalardan ishonchli, ijodiy foydalanish hamda kasbiy malakalar rivojanishining yuqori darajasi va kasbiy ta'lifning mutlaq maqsadidir. Mahorat murakkab ishni tez, aniq, sifatli bajarishning barqaror darajasidir.

SHAXS – jamiyat a'zosi sifatida o'z-o'zini anglash va tafakkur faoliyatining obyektivligi, muloqotda biologik, ijtimoiy muhit hamda maqsadli tarbiya natijasida shakllanadi.

PEDAGOGIK MUHIT – ta'lif-tarbiya maqsadlariga muvofiq ravishda tuzilgan shaxslararo munosabatlar majmuasi.

IJTIMOIY MUHIT – kishi shaxsini shakillantiruvchi ijtimoiy munosabatlar majmuasi. Ijtimoiy tafakkur turmush tarzi, shaxslararo

va guruqlararo hamda millat va xalqaro munosabatlarning o'zaro muvofiq kelishi va bir-birini boyitishi.

FAOLIYAT – biror shaxsiy, guruhiy, milliy yoki umuminsoniy ehtiyojlarga javob beruvchi maqsad sari yo'naltirilgan harakat.

IJTIMOY TARAQQIYOT – tashqi va ichki, boshqariladigan va boshqarilmaydigan omillar bilan kishiga ijobjiy ta'sir etish, yani shaxsnинг shakllanish jarayoni. Shaxsnинг ijtimoiy taraqqiyotida maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya yetakchi o'rinni egallaydi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining milliy pedagogika fanida tarbiya inson muammolari, ajdodlarimiz g'oyalalariga suyanib, quyidagi qonunlarga asoslanishi zarur deb hisoblanadi:

– tarbiya inson faoliyati jarayonida tartibli ta'sir etuvchi mahsul bo'lib, natijasini insonning yashab turgan ijtimoiy sharoiti belgilaydi;

– inson kamolotini xarakterlovchi kuch o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni mavjudligi uning shaxsiy hayotida namoyon bo'ladi;

– inson faoliyati jarayonida atrofdagi narsa va hodisalarga qiziqishini uyg'otish va uni e'tiqodga aylantirish;

– tarbiya jarayoni yoshlarning kattalar bilan, kattalarning yoshlari bilan qonuniy munosabati natijasida amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya bir-biriga uzviy bog'langan jarayon bo'lganligi sababli aqliy kamolotiga tartibli ta'sir ko'rsatish orqali inson bilimli, barkamol bo'lib voyaga yetadi. Ta'lim inson aqliy kamolotini yuzaga chiqaruvchi pedagogika – tarbiyashunoslikning bir qismidir. Pedagogikaning didaktika qismi uni atroflicha o'rganadi.

PEDAGOGIKANING TARMOQLARI

Pedagogika fanlar tizimiga etnopedagogika, mактабгача та'lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi, jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, maxsus pedagogika, kar-soqov (surdo) pedagogika, ko'rilar (tiflo) pedagogika, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligofreno) pedagogika, pedagogik mahorat kabilalar kiradi.

Pedagogika pedagogik ta'limotlar tarixi va tarbiyaning rivojlanish masalalarini ijtimoiy hodisa sifatida tadqiq etadigan fan sifatida bugungi kun uchun dolzarb muammolarni o'rtaga tashlaydi va pedagogika fanlar tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshidagi shakllantirishga qaratilgan quyidagi tarmoqlarni o'zida birlashtiradi:

maktabgacha ta'lif pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lif pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, oila pedagogikasi, katta yoshlilar pedagogikasi, tibbiyot pedagogikasi, harbiy pedagogika, iqtisodiy pedagogika, sport pedagogikasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va boshqa tarmoqlarda.

Bundan tashqari **defektologiya** deb ataluvchi maxsus pedagogika: **surdopedagogika** (kar va soqovlar), **tiflopedagogika** (ko'zi ojizlar), **oligofrenopedagogika** (aqliy rivojlanishdan orqada qolganlar), **logopediya** (nutqi rivojlanmagan) tarbiyalanuvchilarni o'qitish va tarbiyalash bilan shug'ullanadi. Pedagogika fanlari tizimining muhim tarmog'i sifatida har bir fanni o'qitish va o'rgatishning qonuniyatlarini o'rganuvchi **metodika** qismi alohida o'rinni egallaydi.

PEDAGOGIKANING BOSHQA FANLAR BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI

Pedagogika fani komil insonda jahon tajribalarida sinalgan tizim bo'lgan bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy meros, an'analar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning boy manbaalari bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy tushunchalar haqida bilim, malaka hosil qilishda pedagogikaning ko'p fanlar bilan aloqadorligi jihatdan ahamiyatlidir.

Pedagogika fani inson tarbiyasi bilan shug'ullanganlagi sababli unga barcha fanlarning ko'maklashishi tabiiydir. Inson tarbiyasining qaysi sohasini olib ko'rsangiz, u qaysidir fan bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi, o'sha fanning qonuniyatlariga suyanadi.

Pedagogikaning metodik asosi, bilim nazariyasi va tarbiyadagi qonuniyatlar bevosa falsafa fanining ta'sirida amalga oshiriladi. Bundan tashqari etika, estetika, ekologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq. Pedagogika fanida xalq ta'limi va bolalarni davrlarga bo'lish tizimini asoslashda **anatomiya**, **fiziologiya**, **maktab gigiyenasi** kabi fanlarning alohida o'rni bor. Pedagogika ilmiy tadqiqot metodlarini takomillashtirishda **matematika**, **fizika**, **informatika** kabi fanlar bilan bog'lanadi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga ega.

Etika falsafaning axloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog'liqdir. Ularni hal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantiradi, madaniyat va voqelikka estetik munosabatlar umumiy qonuniyatlarini o'rghanadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarning go'zallikni his qilish, tushunishga o'rganish vositalari va yo'llarini belgilab beradi.

Mustaqil O'zbekistonda milliy pedagogika bevosita iqtisod fani bilan bog'lanib, bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolarini, iqtisodiy tarbiya masalalarini uzviylik bilan amalga oshiriladi. Ijtimoiy fanlardagi ma'lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo'lgan obyektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o'rghanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliv asab faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o'ziga xosligi birinchi va ikkinchi signal sistemalar shuningdek, sezgi organlari, tayanch harakat apparati, yurak, qon tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma'lumotlarga suyanadi.

ILMIY-PEDAGOGIK TADQIQOT METODLARI

Pedagogik muammolarni hal qilishda turli-tuman tadqiqot metodlaridan foydalilanildi. Metod lotincha «metodos» – «yo'l» so'zidan olingan. Ilmiy tadqiqot esa shu metod orqali nazariy, siyosiy, ilmiy, milliy va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish maqsadiga xizmat qiladi. Ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlaridan biror pedagogik muammoni hal qilish maqsadida talaba, o'qituvchi-tarbiyachi, aspirant-tadqiqotchi va ilmiy xodimlar foydalanadilar. Ilmiy izlanishning dastlabki debochasi adabiyotlarni o'rGANIB, tahlil qilishdan boshlanadi.

**Adabiyotlarni
o'rGANISH metodi**

Adabiyotlarni o'rGANISH jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruvchi, mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, Mustaqil

O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, tadqiqot mavzusiga doir darslik, monografiya, risola va maqolalar, pedagogik-psixologik izlanishlar va dissertatsiyalar o'rganiladi.

Kuzatish metodi. Kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan keyin boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqt, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish muddatiga ko'ra ikki turga ajratiladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish.

Qisqa kuzatish – obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlardan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatish qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinosyomka, video yozuvi, televideniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin.

Suhbat metodi

Tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida ma'lum mas'ul shaxslarga og'zaki savollar berib, ulardan axborot olish jarayonidir.

So'roqlar mavzu doirasida, mantiqan, mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim. Uning to'g'ri yoki noto'g'rilingiga qarab jadval asosida natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervju olish ham mumkin. O'rini, mantiqan yuksak yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi. Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Tadqiqot natijalarining ishonchhliliqi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik eksperiment

Bu metod yordamida ilmiy gipotezalarning ishonchhliliqi tekshiriladi, pedagogika tizimlarining ayrim elementlari o'rtasidagi

bog'liqlik va munosabatlар aniqlanadi. Tabiiy eksperiment va laboratoriya eksperimenti pedagogik eksperimentning asosiy turlari hisoblanib, ular ko'pgina turlarga bo'linadi.

Tabiiy eksperiment

Sharoitida yangi o'quv rejalar, dasturlar, darsliklar va boshqalar odadagi o'quv rejimini buzmay turib tekshiriladi.

Pedagogik eksperiment ham kuzatish, lekin u pedagogik jarayonning o'tish sharoitlarini muntazam o'zgartirish munosabati bilan maxsus

tashkil etilgan bo‘ladi. Pedagogik jarayonni aniqroq o‘rganish uchun eksperimentator o‘zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma’lumotlarni, aniq sharoitlarni va o‘qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi.

Laboratoriya

Pedagogik eksperiment ilmiy tadqiqotining ancha qat’iy shaklidir. Juda keng pedagogik kontekstdan uning muayyan tomoni ajratib olinadi, natijalarini aniq tekshirib borishga va o‘zgaruvchan kattaliklar o‘mini almashtirishga imkon beradigan sun’iy sharoit yaratiladi.

Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblanadi:
Eksperimentni rivojlantirish, o‘tkazish va natijalarini sharhlash.

Rivojlantirish eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijalar ta’sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuzatishlar soni, o‘tkazish tartibi, olingan natijalarini tekshirish metodlarini o‘z ichiga oladi.

Eksperimentni tashkil etish va o‘tkazish belgilangan rejaga qat’iy amal qilingan holda olib borilishi kerak. Sharhlash bosqichida ma’lumotlar yig‘iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o‘tkazish ishonchlik tamoyiliga javob berishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilinishi kerak:

- tekshiruvchilar soni va miqdorining optimal bo‘lishi;
- tadqiqot metodlarining ishonchli bo‘lishi;
- farqlarning statistik jiqtadan ahamiyatliligin hisobga olish.

Turli metodlarning o‘zaro qo‘sib olib borilishi pedagogik tadqiqotlarning samaradorligi va sifatini oshirishga imkon beradi. Bunga matematika metodlar hamda hisoblash yechish qurilmalari yordamida eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordamlashadi.

Maktab hujjatlarini tahlil qilishi metodi

Pedagogika hodisalari va faktlarini tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqr o‘rganmoq lozim. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda ta’lim qonuniga amal qilinmog‘i lozim. Maktab hujjatlarini tahlil qilish o‘quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini, iqtidorliligin hamda

ilg‘or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko‘rsatgan taqdirdagina to‘liq qiymatga ega bo‘ladi.

Bolalar ijodini o‘rganish metodi

Maktab o‘quvchilari ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o‘rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o‘quvchilar aqliy qobiliyatları, olyjanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va faktorlarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to‘g‘ri yo‘llarini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

Statistika ma'lumotlarini analiz va sintez qilish metodi

Pedagogik tadqiqotga kerakli statistika ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan sistemali o‘rganish mustaqil O‘zbekistonda fan, madaniyat, ta’lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga

salmoqli hissa qo‘shadi.

Anketta metodlari

O‘quvchilardan so‘rash usuli bo‘lib, u o‘quvchilar jamoasining ma'lumotlari to‘g‘risidagi kerakli ma'lumotlarni olish uchun ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash uchun va kasbga yo‘llashni belgilash uchun maxsus formada ishlangan bo‘lmog‘i lozim. Anketada ko‘zlangan maqsadga muvofiq savollar bo‘lib, javoblardan pedagogik natijalar kelib chiqmog‘i muhim sanaladi.

Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari

Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishi fani va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalarini, hisoblash matematikasi va kibernetika usullarini

maktab ishida va pedagogikada qo‘llanishini talab qiladi. Pedagogik kibernetika o‘quv protsesida o‘qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida formasi sifatida o‘ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqish jarayonlarini avtomatashtirish o‘rtasida katta farq bor.

Pedagogik tadqiqotlardan kino, ovoz texnikasi, foto, televideniye singari texnika vositalaridan ham keng foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo‘srimcha rag‘batlantirish omillarini hosil qiladi.

Bular o'qituvchilar mehnatini ma'lum maqsadda yengillashtiradi. Ko'rsatilgan vositalarning har biri bolalarning yoshini, o'quv fani va pedagogik jarayonni mukammallashtiradi.

Milliy dasturni maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlarida yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatish va barqaror rivojlantrishining kafolatlarini ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy texnika va axborot bazasini yaratish pedagogik tadqiqotning asosini tashkil etadi.

Nazorat uchun savollar

1. Pedagogika fani yaratilishidagi zaruriyat, sabablar qaysilar?
2. Pedagogika fanining maqsad va vazifalarini sharhlang?
3. Pedagogik tushunchalar, ularni mohiyati nimada?
4. Pedagogik tadqiqotning asosiy metodlarini aytib bering
5. Pedagogikaga doir adabiyotlar ro'yxatini tuzing?
6. Nima uchun tarbiya ijtimoiy hodisa hisoblanadi?
7. Qadimgi Yunonistonning mashhur faylasuflari o'z ta'limotlarida yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash masalalariga qanday e'tibor bergen?
8. Xalq og'zaki ijodiyotida tarbiya masalalarinihg qo'yilish tartibi qanday?

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

KICHIK GURUHLARDA ISHLASHGA MO'LJALLANGAN “ASOSLANGAN ESSE” YOZISH TOPSHIRIG'I

PEDAGOGIKANING ASOSIY KATEGORIYALARINI O'ZLASHTIRISHGA DOIR MUQOBILINI TANLAB OLISH TESTI

1. Tarbiyalanuvchilarni nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar bilan
- a) ma'lumot

qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon.

2.

3. Muayyan aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

b) ta'lim

4. Ta'lim-tarbiya natijasida o'zlash-tirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

s) rivojlanish

5. Hayotiy faoliyat jarayoni va maxsus tarbiyaviy xatti-harakatlar ta'sirida inson rivojlanishining muhim shakli.

d) ma'lumot

6. Tarbiyalanuvchining psixikasi va jismoniy taraqqiyotida bosqichma-bosqich va qonuniy o'zgarishlarning sodir bo'lishi

e) shakllanish

MUSTAQIL TA'LIM UCHUN TOPSHIRIQLAR:

1. «Odam», «inson», «shaxs» tushunchalarini qiyosiy o'rghanish hamda shaxs tushunchasining mohiyatini o'zlashtirish (Falsafa: qomusiy lug'at. – T.: Sharq, 2004; Karimov I. Noosfera: geosiyosat va mafkura. – T.: Fan, 2007).

2. Shaxsning «o'sishi», «rivojlanishi» va «shakllanishi» masalalarini fanlararo bog'liqlikda tahlil etish. (Davletshin M.G. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T., 2004; Sodiqov Q., Aripova S.X., Shaxmurova G.A. Yosh fiziologiyasi va gigiyena. – T.: Yangi asr avlodi, 2009; Pedagogika // M.X. To'xtaxodjayeva umumiylahri ostida. – T.: Faylasuflar Milliy jamiyati, 2010; Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. – T.: «Fan va texnologiya», 2008

O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINING ISLOH QILINISHI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI

REJA:

1. O'zbekistonda uzlusiz ta'lif tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni asosida uzlusiz ta'lif prinsiplari.
3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli va uning o'ziga xos xususiyatlari. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari.
4. Kadrlar tayyorlashning milliy modelini hayotga tatbiq etishning ahamiyati.
5. Zamnaviy o'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar: Harakatlar strategiyasi, uzlusiz ta'lif, islohot, ta'lif prinsipi, ta'lif standarti, model, tarkibiy qism, shaxs, fan, ishlab chiqarish, talaba, o'qituvchi, pedagog, kasb mahorati.

Mavzuning qisqacha mazmuni: Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lif tizimining rivojlanishi va uning huquqiy-me'yoriy asoslari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli, uning o'ziga xos xususiyatlari, kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari, Harakatlar strategiyasi asosida uzlusiz ta'lif tizimining isloh qilishnishi, zamnaviy o'qituvchi va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar mazmuni aks etgan.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING «TA'LIM TO'G'RISIDA»GI QONUNI ASOSIDA UZLUKSIZ TA'LIM PRINSIPLARI

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va maktab ta'lifini rivojlantirish davlat umummilliyl dasturining qabul qilinishi va hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi ta'lif tizimini davlatimiz tanlagan demokratik rivojlanish yo'liga moslashtirish, ertangi kunimizning hal

qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarning zamon talablari darajasida ta'limgarbiya olishi va kasb-hunar egallashiga muhim asos bo'ldi.

Ta'limgarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlar yurtimizdag'i tub o'zgarishlar, yangilanishlarning asosi bo'lib xizmat qildi. Zero, har bir yurtning buguni va kelajagi, tom ma'noda, ta'limgarbiyining qay darajada rivojlangani, barkamol avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar, islohotlarning natijalari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'limgarbiyining qonuni fuqarolarga ta'limgarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlaydi.

«Ta'limgarbiyining qonuni bilan ta'limgarbiya O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi hamda ta'limgarbiyining davlat siyosatining asosiy prinsiplari belgilandi.

Ta'limgarbiyining davlat siyosatining asosiy prinsiplari:

- ta'limgarbiya insonparvarligi hamda demokratik xarakterdaligi;

- ta'limgarbiyining uzluksizligi va izchilligi;

- davlat ta'limgarbiyining ilmiyligi va dunyoviyligi;

- ta'limgarbiyining umuminsoniy va milliy-madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;

- davlat ta'limgarbiyining standartlari doirasida barchaning ta'limgarbiyining olishi uchun imkoniyat yaratilganligi;

- ta'limgarbiya ma'naviy va jismoniy tarbiya dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;

- ta'limgarbiyining muassasalarida chet tillarni o'rGANISH, din tarixi va jamiyat madaniyati sohasida bilim olish uchun sharoitlar yaratish;

- ta'limgarbiyining muassasalarining siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning ta'siridan xoli bo'lishi;

- tarbiyalanuvchilar va ta'limgarbiyining oluvchilar orasidagi do'stona munosabatni yo'lga qo'yish;

- pedagog shaxsini, uning ijtimoiy mavqeini hurmatlash;

- amaldagi qonunlar doirasida mulkchilikning barcha shakllaridagi ta'limgarbiyining teng huquqliligi, ularning mustaqilligidan iboratdir.

Mazkur qonun bilan jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat'iy nazar, har kimning bilim olishda teng huquqli ekanligi kafolatlanadi va ta'lif muassasalarida ta'lif berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili haqidagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimiz umumiy o'rta ta'lif maktablarida 7 ta til (o'zbek, rus, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillari)da o'qitih yo'lga qo'yildi va o'quvchilarni barcha tillarda darsliklar bilan to'liq ta'minlash tizimi yaratildi.

Qonunga muvofiq davlat ta'lif standartlari ta'lif mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

Qonun bilan tegishli ma'lumotli, kasb tayyorgarligi bor yuksak ahloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishi mumkinligi belgilanadi.

Ta'lif muassasalarini boshqarishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta'lif sohasidagi vakolatli organ hisoblanadi va ta'lif sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshiradi. Ta'lifni boshqarish bo'yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlari ta'lif vazirliklaridir. Mahalliy davlat hokimiyati organlari ta'lif muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta'minlaydi. Ta'lif muassasalari uning rahbari tomonidan boshqariladi. Ta'lif jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy himoya qilish «Ta'lif to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi. Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiysizliksiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari tashkil etiladi.

Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lifini olishlari uchun javobgarligi mazkur qonunda belgilab qo'yilgan.

KADRLAR TAYYORLASHNING MILLIY MODELI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qanday hujjat?

Ta'lism tizimining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, huquqiy maqomini oshirish, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqish, yangi tipdagi etish va ularni eng ilg'or texnika va xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, taxnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish, ta'lism-tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalarini jahon miqyosidagi yutuqlar asosida davr talabiga mos takomillashtirish, yoshlarga zamonaviy, raqobatbardosh kasb-hunar sirlarini o'rgatish va ularning bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizning ijyimoiy-iqtisodiy sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlashda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi alohida o'rinn tutadi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lism to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lism tizimidagi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiyligini va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliylikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir¹.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining yaratilishida respublikada kadrlar tayyorlash tizimi rivojini ta'minlashning asosiy yo'nalishlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iboratdir: ta'limga uzuksizligini ta'minlash; pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; ta'limga jarayonini mazmunan o'zgartirish; ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlarni takomillashtirish; iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash; ta'lism tizimini boshqarish; ta'lism tizimini moliyalash; moddiy-texnika ta'minoti; ta'lism tizimining yaxlit

¹Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi/Oliy ta'lism: me'yoriy hujjatlar to'plami. – T.:Sharq, 2001. 20-bet.

axborot makonini vujudga keltirish; ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish; ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash; fan va ta'lim jarayonlari aloqalarini rivojlantirish; ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish; ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ilgari surilgan maqsadni to'laqonli ro'yobga chiqarish quyidagi vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida, raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim tizimini yagona o'quv, ilmiy – ishlab chiqarish majmuii sifatida izchil rivojlantirishni ta'minlash;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;

- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;


- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va

tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzlusiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag’lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- kadrlar tayyorlash sohasida o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. O’zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tarkibiy tuzilmasi quyidagicha aks etadi:



Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

O’zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy modeli mazmuni samaradorligi qator ustuvor pedagogik yo’nalishlarga e’tibor berishni taqozo etadi. Jumladan, barkamol avlod tarbiyasida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga ta’sir etishning ustuvor yo’nalishlari mavjud bo’lib, ularning yechimini ta’minlash, takomillashtirish va

rivojlantirish ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Mazkur ustuvor yo'naliishlarni quyidagicha tasnif etish mumkin:

- ta'lim mazmunining samaradorligini ta'minlashda uzviylik va vorisiylikni ta'minlash;
- ta'lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish, ta'lim-tarbiya sohasida jahon ilg'or tajribasini hisobga olish, o'rganish va mamlakatimiz milliy mintalitetiga xos g'oyalarni amaliyotga keng tatbiq etish;
- ta'lim-tarbiya tizimi faoliyat mazmuni samaradorligini oshirish bo'yicha uning huquqiy negizini takomillashtirish;
- katta tajribaga ega, iste'dodli, o'z kasbiga sodiq o'qituvchi murabbiylarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning samarali mexanizmini vujudga keltirish va amaliyotga tatbiq etish;
- ta'lim tizimida qo'llanilayotgan o'quv standartlari va o'quv dasturlarini zamon talabi nuqtai nazaridan takomillashtirish;
- ta'lim mazmuni (reja, dastur, darslik, o'quv metodik qo'llanmalar)ni mazmunan davr talabiga mos holda takomillashtirishga erishish;
- ta'lim va tarbiya jarayonini yangi o'quv-uslubiy majmualar, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida modern aloqasi, elektron aloqa, masofadan turib o'qitish tizimidan foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashda xalqning boy ma'naviy merosi, intellektual salohiyati va umumbashariy qadriyatlardan keng foydalanish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini axborotlashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, uzlusiz ta'lim tizimini jahon axborot tarmog'iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog'i bilan qamrab olish, o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;
- o'quvchilarni kitob bilan ishlashga odatlantirish, buning uchun esa mакtab kutubxonalar fondlarini mamlakat va chet el o'quv, metodik, badiiy adabiyotlari bilan to'ldirish, axborot resurs tizimini eng chekka hudud ta'lim tizimida ham rivojlantirish;
- umumta'lim maktablarida pedagog kadrlar tarkibi sifatini oshirish, o'qituvchilar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini yaratish, pedagoglarning ilmiy-tadqiqot

ishlari bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratib berish, ushbu ta’lim muassasalariga ilmiy darajaga ega pedagog-kadrlarni ko‘proq jalg etish;

- ta’lim mazmunining samaradorligini doimiy oshirib borish, amalga oshirilayotgan ishlar natijasiga baho berish maqsadida muntazam monitoring olib borish mexanizmini nazariy, ilmiy va metodik jihatdan yaratish;

- o‘quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta’limga tabaqlashtirilgan yondashuvni joriy qilish;

- ta’lim jarayoniga fan va texnologiyaning ilg‘or yutuqlarini olib kirish;

- o‘quvchi-yoshlarning jismoniy tarbiyasiga, sport bilan mashg‘ul bo‘lishiga, reproduktiv salomatligiga, sog‘lom turmush tarziga alohida e’tibor berish;

- pedagogning mahorati, o‘z ustida izchil doimo ishlashi, ijodkorligi va tashabbuskorligiga erishish chora-tadbirlarini belgilash (pedagogning nutqiy madaniyati, adabiy til me’yorlarining yetuk, funksional, kommunikativ aspektlari, pedagogik kasbiy muloqoti, nutqiy ta’sir – o‘qituvchining ohangi, notiqlik san’ati va boshqalar);

- pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha fundamental ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, ularda olg‘a surilgan g‘oyalarni amaliyotga keng tatbiq etish;

- ta’lim-tarbiya jarayonini innovatsion tashkil etish va boshqarish mexanizmini ilmiy-metodik jihatdan yaratish;

- barkamol avlodni tarbiyalashda ta’lim muassasalari bilan jamiyatning barcha ijtimoiy institutlari hamkorligining yagona konsepsiyasini ishlab chiqish;

- mamlakatimizdam mavjud maktabdan tashqari muassasalar, penitensiylar va maxsus o‘quv-tarbiyaviy muassasalarda olib boriladigan ta’lim-tarbiya mazmunini davr talabi nuqtayi nazaridan takomillashtirish va boshqalardan iboratdir.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta’lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzuksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andaza, loyiha hisoblanadi.

Shaxs

Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzuksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liq. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat

Ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin,

fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy eta oladi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarining yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon eta olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va malakasini oshirish huquqlarning ro'yobga chiqarilishiga kafolat beradi.

Uzluksiz ta'lim

Malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi².

Uzluksiz ta'lim jarayoni shaxsning har tomonlama qaror topishi uchun eng qulay davr sanaladi. Mazkur davrda shaxs fan asoslari hamda kasb-hunar ma'lumotlarini o'zlashtiradi, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega shaxs va malakali kadr sifatida kamol topib boradi. Unda muayyan dunyoqarash shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturlari talablariga muvofiq tashkil etiladi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

- ta'limning ustuvorligi;
- ta'limning demokratlashuvi;

² O'sha manba. 31-bet.

- ta'larning insonparvarlashuvi;
- ta'larning ijtimoiylashuvi;
- ta'larning milliy yo'naltirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;
- iqtidori yoshlarni aniqlash, ularga ta'larning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Fan

Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi

bo'lib, «kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida unumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'larning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalari bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zamirida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeい va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi»¹.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan, ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

Ishlab chiqarish

Kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, ularning tayyorgalik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnika jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisichisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darjasasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'larning zamonaviy texnologiyalari

¹ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, va. boshqalar. – T: Sharq, 1999. 172-ber.

va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijada kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi»¹.

Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarini tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi.

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi iste'molchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgardi. Endilikda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab yetishtirish yo'lida uzuksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylandi.

Milliy model Konsepsiyanining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanilib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni vaqtida chuqr ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

HARAKATLAR STRATEGIYASI ASOSIDA O'ZBEKISTONDA UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINING ISLOH QILINISHI

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma'naviy hayot darajasining yuksalishi, ta'lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi.

³ Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi//Oliy ta'lim: meyoriy hujjatlar to'plami. – T., Sharq. 2001. 20-bet.

⁴ Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Sh.Qurbanov, va. boshqalar – T: Sharq, 1999. 173-174-betlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag‘i «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni asosida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Islohotlar natijasida maktabgacha ta’lim muassasalari tarmog‘i kengaytirildi, umumiy o‘rtalim sohasida 11 yillik tizimga o‘tildi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari optimallashtirildi, yangi oliy ta’lim muassasalari va yetakchi oliy o‘quv yurtlarining filiallari tashkil etildi. Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish choralari kuchaytirilib, oliy ta’lim tizimida kechki va sirtqi shaklda o‘qish imkoniyati yaratildi. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning ikki pog‘onali tizimi joriy etildi. Nodavlat ta’lim xizmati ko‘rsatish, pedagog kadrlar va xalq ta’limi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida **O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi** quyidagi **ta’lim turlaridan** iborat tarzda shakllandidi:

maktabgacha ta’lim va tarbiya

1

umumiy o‘rtalim va o‘rtalim maxsus ta’lim

2

kasbiy (professional) ta’lim

3

oliy ta’lim

4

oliy ta’limdan keyingi ta’lim

5

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

6

maktabdan tashqari ta’lim

7

Maktabgacha ta'lif va tarbiya bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi. Unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni umumiy o'rta ta'lif tizzimida ta'lif olishga tayyorlaydi.

Bolaning maktabgacha ta'lif va tarbiya olishi uchun davlat kafolatlari davlat va nodavlat ta'lif tashkilotlari negizida maktabgacha ta'lif xizmatlarini ko'rsatish orqali ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari davlat va nodavlat tashkilot bo'lishi mumkin. Nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida ham tashkil etiladi. Shuningdek, oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lif tashkilotlari shaklida maktabgacha ta'lif xizmatlarini tashkil etish mumkin.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari quyidagi tiplarga bo'linadi:
umumiy tipdagisi maktabgacha ta'lif tashkiloti;
ko'p tarmoqli ixtisoslashgan maktabgacha ta'lif tashkiloti;
Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lif tashkiloti;
qo'shma tipdagisi maktabgacha ta'lif tashkiloti.

Umumiy tipdagisi maktabgacha ta'lif tashkilotida umumiy rivojlantirish yo'nalishidagi guruhlarda maktabgacha ta'lifning davlat ta'lif dasturi amalga oshirilishi ta'minlanadi.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashgan maktabgacha ta'lif tashkiloti o'sishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lif davlat ta'lif dasturi amalga oshiriladi.

Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalarni sog'lom muhitga integratsiya qilish orqali ularning o'ziga xos ta'lif ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlari hisobga olingan holda ularga ta'lif berish va tarbiyalashda teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

Qo'shma tipdagisi maktabgacha ta'lif tashkilotida o'sishida jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar va o'sishida nuqsonlari bo'limgan bolalarning bir tashkilotda alohida guruhlarda, shuningdek, inklyuziv guruhlarda birgalikda ta'lif-tarbiya olishi ta'minlanadi.

Maktabgacha yosh bola shaxsini jismoniy, psixologik va ijtimoiy qaror topishining asosiy bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi:

- go'daklik (tug'ilgandan 1 yoshgacha)
- ilk bolalik (1 yoshdan 3 yoshgacha)
- kichik maktabgacha yosh (3 yoshdan 4 yoshgacha)
- o'rta maktabgacha yosh (4 yoshdan 5 yoshgacha)
- katta maktabgacha yosh (5 yoshdan 7 yoshgacha)

Maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi va guruhlar yosh bo'yicha to'ldirilganda quyidagi yosh kategoriyalari belgilanadi:

- kichik guruh (3 - 4 yosh);
- o'rta guruh (4 – 5 yosh);
- katta guruh (5 – 6 yosh);
- tayyorlov guruh (6 -7 yosh).

Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlar negizida ilg'or xorijiy tajribani hisobga olgan holda har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish; maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni mактab тa'limiga tayyorlash; zamonaviy pedagogik texnologiyalar va uslublarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim muassasalariga pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv reja va dasturlarini takomillashtirish; maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, shu jumladan, qishloq joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarini yangidan qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan intentar, jihoz, o'quv-metodik qo'llanmalar va multimediali vositalar bilan ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimining asosiy vazifalari va yo'nalishlari etib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni hamda «O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarorining qabul qilinishi bilan mamlakatimizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi.

Bolalarning ma'naviy, aqliy hamda jismoniy rivojlanishini mustahkamlash va saqlash;

imkoniyati cheklangan bolalarni davolanish va korreksiya qilish, shuningdek, zamonaviy inklyuziv maktabgacha ta'lim uchun sog'lom muhit yaratish;

maktabgacha ta'lim mazmunini belgilash;

bolalarni Vatanga muhabbat, oilaga, xalq an'analari va urf-odatlariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda o'ziga va atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish;

bola shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

bolaning ijtimoiy moslashuvini va ta'lim olishni davom ettirishga tayyorgarligini ta'minlash;

oilaning ijtimoiy-pedagogik patronajini amalga oshirish kabilar vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi.

6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarga tegishli ta'lim dasturi bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiyoq o'rta ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya berilishi majburiy bo'lib, u umumiyoq o'rta ta'limga tayyorlash bo'g'ini (0-sinf) hisoblanadi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim. O'quvchilarning ijtimoiy-gumanitar, aniq va tabiiy fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularni chuqur o'zlashtirishlari, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, ma'naviy-ahloqiy fazilatlarni egallashlari, atrof muhitga ongli munosabatda bo'lish va kelajakdag'i kasbni tanlashida umumiyoq o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimi muhim bosqich sanaladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi.

Ota-onalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnama tahlillari natijalari asosida umumiyoq o'rta ta'lim tizimida 11 yillik ta'lim qayta joriy etildi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim (I-XI sinflar) bosqichlari: boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar);

o'rta (X-XI sinflar) va o'rta maxsus ta'lim (akademik litseylar).

Umumiy o'rta ta'limning birinchi sinfiga bolalar yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim umumiyoq o'rta va o'rta maxsus ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga qaratiladi

Tayanch o'rta ta'lim bilimlarning zaruriy hajmini beradi, mustaqil fikrlash, ta'lim dasturi mazmuniga mos qobiliyat va amaliy ke'nikmalarini rivojlantiradi. O'rta va o'rta maxsus ta'lim, umumta'lim dasturlarini o'zlashtirish asosida o'quvchilarda ijtimoiy

hayot uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, kompetentsiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga berish umumiy o'rta ta'limga tashkilotlarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan sport, san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida, akademik litseylarda uzluksiz o'n bir yillik muddatda amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limga berish nodavlat ta'limga tashkilotlari tomonidan to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

O'quvchilarning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ularning aniq va ijtimoiy gumanitar fanlarga qiziqishlari, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanтирishni qo'llab quvvatlash maqsadida Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablar, Temurbeklar maktablari tashkil etildi.

Akademik litsey ikki yillik o'rta maxsus ta'limga tashkiloti bo'lib, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, mustaqil tanqidiy fikrleshni, chuqur, shaxsga yo'naltirilgan, tabaqlashtirilgan bilim olishni ta'minlaydi. O'quvchilarni oliy ta'limga maqsadli tayyorlash maqsadida akademik litseylar oliy o'quv yurtlari huzurida tashkil etiladi.

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqlashtirilgan ta'limga olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'limga standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'limga beruvchi, yuridik maqomga ega ta'limga muassasasidir. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlarini tanlab olgan ta'limga yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Professional ta'limga. Harakatlar strategiyasi asosida mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta'limga sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali ta'limga tizimini isloh qilish izchil davom ettirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi «Professional ta'limga tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni bilan mamlakatimizda professional ta'limga tizimi joriy etildi.

Professional ta’lim tizimining asosiy maqsadi mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilishdan iborat bo‘lib, boshlang‘ish, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlariga bo‘linadi. 2020/2021 o‘quv yildan boshlab mamlakatimizda Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg‘unlashgan yangi boshlang‘ish, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi hamda tabaqlashtirilgan ta’lim dasturlari joriy etiladigan ta’lim muassasalari tarmog‘i tashkil etiladi.

Professional ta’lim muassasalari tarmog‘i quyidagilardan iborat:



- **kasb-hunar maktablari**

- **kollejlar**

- **texnikumlar**

Kasb-hunar maktablariga umumta’lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari qabul qilinadi va 2 yillik umumta’lim va mataxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta’lim shaklida bepul o‘qitiladi.

Kollejlarda umumiy o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar kasblar va mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda 2 yilgacha muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi shakllarda o‘qitiladi. Kollejlarda o‘qish davlat buyurtmasi hamda to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Texnikumlarda o‘qish muddati 2 yildan kam bo‘lмаган muddatda kunduzgi, kechki va sirtqi ta’lim shaklida, davlat buyurtmasi hamda to‘lov kontrakt asosida amalga oshiriladi. O‘rta maxsus ta’lim dasturlarini muvaffaqqiyatlamaqlagan texnikum bitiruvchilariga o‘z sohasiga mos bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali olyi

ta'lim muassasalarida 2-kursdan o'qishini davom ettirish huquqi beriladi.

Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim Milliy professional standartlari, ular to'g'risidagi nizom ishlab chiqiladi. Kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar o'z ustavlari asosida faoliyat olib boradi.

Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiyligi o'rta va o'rta maxsus, professional ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ta'lim ikki bosqichga, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida bir yil davom etadigan oliy ta'limdir. Tibbiyot sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashda uning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidir.

Oliv ta'lim ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va to'lov kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim. Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muaddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniyligi klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisidan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis

hisoblanib, u ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdag'i oliy ta'limga muassasalarini faoliyat ko'rsatadi:

Oliy ta'limga muassasalarining turlari

Akademiya

Muayyan bilim va ta'limga sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga dasturlarini amalga oshiradi

Institut

Odatda bir bilim va ta'limga sohasi doirasida tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha oliy ta'limga oliy ta'limga keyingi ta'limga dasturlarini amalga oshiradi.

Universitet

Bir necha bilim va ta'limga sohalari bo'yicha oliy ta'limga oliy ta'limga keyingi ta'limga dasturlarini amalga oshiradi.

Oliy ta'limga keyingi ta'limga oliy ta'limga ilmiy-tadqiqot muassasalarida hamda ushbu yo'nalishdagi boshqa ta'limga tashkilotlarida (tayanch doktorantura, mustaqil izlanuvchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy daraja va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek, harbiy, tibbiy va boshqa maxsus ta'limga tashkilotlarida oliy ta'limga keyingi ta'limga olishning xususiyatlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Oliy ta'limga keyingi ta'limga o'qish muddati oliy ta'limga negizida uch yilgacha davom etadi.

Oliy ta'limga keyingi ta'limga jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'limga – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga o'qish muddati uch yil. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga falsafa doktori (PhD) va fan doktori

(DSc) dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan tegishli ravishda falsafa doktori va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarni zamonaviy talablar asosida chuqurlashtirish hamda yangilab borishni ta'minlaydi, shuningdek, xodimlarning toifa, daraja, razryad va lavozimlari o'sishiga xizmat qiladi.

Kadrlarni qayta tayyorlash ilmiy-texnik taraqqiyot, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohadagi tarkibiy o'zgarishlarni inobatga olgan holda hamda fuqarolarning shaxsiy ehtiyyolaridan kelib chiqib kasbiy faoliyatning qo'shimcha turlarini amalga oshirish uchun zarur hajmdagi bilim va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarining kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

Maktabdan tashqari ta'lim. Bolalar va o'smirlarning ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida bolalar va o'smirlarning, shuningdek, jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirish, ularning manfaatlari, ma'naviy ehtiyyolarini qondirishga yo'naltirilgan.

Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlariga bolalar, o'smirlar ijodoyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar,

axborot-kutubxona, sog'lomlashtirish muassasalariva boshqa ta'lim tashkilotlari kiradi.

Maktabdan tashqari ta'lim maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'naliishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi. Shuningdek, qonun bilan ta'lim oluvchilarni, ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, yetim bolalarni va Ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish, ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo'lgan shaxslar uchun o'quv-tarbiya muassasalarini tashkil etish tartibi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi shakkarda ta'lim beriladi:

↓

oiladagi ta'lim va mustaqil ta'lim;
kattalar ta'limi;
maxsus ta'lim;
inklyuziv ta'lim;
eksternat ta'lim;
masofaviy ta'lim;
dual ta'lim ta'lim;
kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim.

Oiladagi ta'lim va mustaqil ravishda ta'lim olish. Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ravishda ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarni oilada o'qitish va ularning mustaqil ravishda ta'lim olishi tegishli ta'lim dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ta'lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan metodik, maslahat yordamlari va boshqa yo'sinda yordam ko'rsatiladi. Oilada va mustaqil ta'lim olish tartibi hamda ta'lim oluvchilar toifasi ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat namunasidagi hujjat berish tegishli davlat ta'lim muassasalarida, tasdiqlangan dasturlarga muvofiq eksternant tartibida amalga oshiriladi. Oiladagi ta'lim ota-onalar (qonuniy vakillar) yoki ularning qonuniy vakillari bilan ta'lim tashkilotlari o'rtaida ta'lim oluvchi, oila va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda tuzilgan shartnomaga asosida olib boriladi. Mustaqil ravishda ta'lim olish shaxsning kasbiy, aqliy, ma'naviy va madaniy darajasini mustaqil ravishda rivojlantirishga yordam beradigan, shaxs tominidan yakka tartibda amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir.

Katta yoshdagilar ta'limi zamonaviy tezkor rivojlanayotgan jamiyatda insonni ijodiy faoliyat va shaxsiy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar majmuasi bilan ta'minlaydi. Katta yoshdagilar ta'limi insonning butun umri davomida uzluksiz rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Katta yoshdagilar ta'limi dasturlari ta'lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi.

Maxsus ta'lim mudofaa, xavfsizlik, huquqsizlik, huquqni muhofaza qilish organlari sohalari uchun kadrlar tayyorlashga yo'naltirilgan.

Inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojli bolalar bilan sog'lom bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatining yaratilishi.

Eksternat tartibida ta'lim dasturlari mustaqil o'zlashtiriladi o'zlashtirish yakuni bo'yicha davlat ta'lim massasalarida davlat attestatsiyasidan o'tkaziladi.

Masofaviy ta'lim butunjahon internet tarmog'i va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda Masofadan turib ta'lim olishdir.

Dual ta'limda o'qitishning ikki bosqichli bo'lishi belgilanadi.

Kunduzgi, sirtqi, kechki ta'lim mehnat faoliyatidan ajralgan va ajralmagan holda amalga oshiriladi.

ZAMONAVIY O'QITUVCHI VA UNING SHAXSIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Pedagoglik kasbi, uning paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Pedagoglik kasbining shakilanishi kishilik taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog'liq. Terib-termachlab kun kechirgan ibtidoiy davr kishilari bolalarni o'zlari bilan ergashtirib yurib, ularga ov qilish, turli daraxt mevalarini terish, o'simliklarning ildizini kovlab olish, suv

manbalarini izlab topish kabi harakatlarni amalga oshirishni o'rgatganlar. Bunday harakatlar qabila (urug')ning tajribali kishilari yoki keksalar tomonidan amalga oshirilgan. Oddiy kundalik ehtiyojlarni qondirish yo'lida olib borilayotgan xatti-harakatlar asosida yoshlarga mavjud tajribalar asosida ma'lumotlarni berib, ularda amaliy ko'nikmalarini shakllantirganlar. Turli tovushlarni chiqarish yordamida atrofdagilarni yaqinlashayotgan xavfdan ogoh qilishni bolalar kattalarning namunalari asosida o'zlashtirganlar. Nutq va yozuv paydo bo'lgunga qadar bu kabi harakatlar imo-ishoralar asosida amalga oshirilgan. Kishilik tarixida tub inqilobni sodir etgan nutq va yozuvning paydo bo'lishi, shuningdek, urug' jamoasi tomonidan bajariladigan mehnat faoliyatining turli sohalarga ajralishi yoshlarga nisbatan munosabatning ilg'or (progressiv) xarakter kasb etishiga imkon berdi.

Turli tabiiy ofatlar ta'siridan himoyalananish, kishilar hayotiga xavf solayotgan kasalliklarni davolash, hayot kechirish uchun yetarli oziq-ovqatlarni jamlab olishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj yoshlarga hayotiy tajribalarni ma'lum mehnat faoliyati yo'nalishida yetarlicha bilimga ega bo'lgan kishilar tomonidan berilishi maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi. Natijada bolalarga hayot tajribalarini o'rgatuvchi kishilar guruhi shakllandı hamda ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bilimlarni berish maxsus ajratilgan joylarda tashkil etila boshlandi.

Dastlabki maktablar qadimgi Sharqda (Vavilon, Misr, Hindistonda) paydo bo'lib, ularda bolalarga ma'muriy-xo'jalik boshqaruvi asoslari o'rgatilgan.

Antik davrda maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar.

Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi IV asrda Afina yaqinidagi Akadema nomi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim tashkil etiluvchi maskan ham shunday nom bilan atala boshlagan. Qadimgi Rim va Yunonistonda bolalarga bilim berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan.

Jamiyatning tabaqlanishi natijasida, quldorlik tuzumida bolalarni ta'lim maskanlariga olib borish va olib kelish vazifasini qullar bajarishgan va ular «pedagog» deb nomlanganlar. Ushbu tushunchaning ma'nosi «bola yetaklovchi» demakdir.

Tarixiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida bolalarga tizimli bilimlarni berish bilan doimiy shug‘ullanuvchi kishilar aynan shu nom bilan atala boshlaganlar.

Feodalizm davrida aksariyat maktablar masjid (musulmon mamlakatlarida) yoki ibodatxonalar (Hindiston) qoshida tashkil etilgan. Bunday maktablarda yoshlarga diniy bilimlar bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘rgatilgan.

O‘rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko‘rinishidagi ta’lim muassasalari ham faoliyat yuritgan bo‘lib, ular «Donishmandlar uyi» (IX asr, Bag‘dod), «Ma’mun akademiyasi» (XI asr boshlari, Xorazm), observatoriylar qoshidagi jamiyatlar (XV asr, Samarqand) tarzida nomlangan. Akademiyalarga turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha kuchli bilimga ega bo‘lgan qomusiy olimlar jalg etilgan bo‘lib, ular tomonidan matematika, geodeziya, mineralogiya, meditsina, astronomiya kabi yo‘nalishlarda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan.

O‘rta asrlar hamda kapital ishlab chiqarishiga asoslangan jamiyatlarda akademiya (Sharqda madrasa)lar ko‘rinishidagi maktablarda ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, turli sohalar bo‘yicha mukammal bilimga ega pedagoglarning faoliyat yuritishlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Chunonchi, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek tomonidan barpo etilgan madrasalarda o‘z davrining taniqli olimlari – Ali Qushchi, Taftazoniy, Qozizoda Rumi, Mavlono Muhammad, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Muslihiddin Koshiy hamda Mansur Koshiylar talabalarga ta’lim bergenlar.

XIX asr oxiri hamda XX asr boshlarida yuzaga kelgan jadidizm harakatining asoschilari, taniqli ma’rifatparvarlar – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy, Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Rahmatullayev, Abdurauf Fitrat, Is’hoqxon Ibrat va boshqalar aholi orasida nafaqat murabbiy, balki ma’naviy yetuk inson sifatida ham nom qozondilar.

Sharq mutafakkirlari va g‘arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o‘rnini haqida. Jamiyat tomonidan o‘qituvchi shaxsiga qo‘yilayotgan talablar o‘z davrida Sharq mutafakkirlari hamda G‘arb ma’rifatparvarlarining asarlarida o‘z aksini topgan.

Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy hamda Abu Rayhon Beruniylar o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk

bo'lishlariga alohida ahamiyat qaratadilar. Ularning fikrlaricha, yaxshi o'qituvchi boshqalardan bir jihat bilan farq qiladi, ya'ni u o'zi ega bo'lgan bilimlarni yoshlarga beminnat o'rgatadi, har bir ishda ularga namuna bo'la oladi.

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida o'qituvchi bolalarga ta'lif berishdek mas'uliyatlari burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- 1) bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- 2) berilayotgan bilimning talabalar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- 3) ta'lifda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- 4) talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- 5) fanga qiziqtira olishi;
- 6) berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajrata bilish;
- 7) bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- 8) har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish¹.

Alisher Navoiy o'z davrining ayrim maktabdlorlari ega bo'lgan sifatlar, xususan, qattiqqo'llik, ta'magirlilik va johillikni qoralar ekan, o'qituvchining ma'naviy qiyofasiga nisbatan jiddiy talablarni qo'yadi. Xususan, «mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmnii aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap-so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rinn bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqa va nopoliklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdир, yomon odatni tarqatuvchidir»².

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: «Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qildi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga

¹Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Ta'lif va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi. 1967. 75-bet.

²Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13 tom., T.: Sharq 1966. 189-190-betlar.

nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila»¹.

Mashhur pedagog Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida o'qituvchi shaxsi va uning faoliyatি borasidagi qarashlarni ifodalashga alohida o'rin beradi. Allomaning qayd etishicha, bolaning sog'lom bo'lib o'sishida ota-onalar o'ziga xos rol o'ynasalar, uning fikriy jihatdan taraqqiy etishida o'qituvchining o'rni beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Xususan, bolalarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish muallimlarning «diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifa» ekanligini ta'kidlab, «fikrning quvvati, ziynati, kengligi, muallimning tarbiyasiga bog'liqdur»², – deydi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchining bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolini yuksak baholab, o'qituvchilik «Yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, pedagog o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlarning namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligiga urg'u beradi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga otalaridek muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqod.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomilashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni tayyorlovchi tizimni ilk bor asoslaydi.

**O'qituvchining asosiy vazifalari
va uning shaxsiga qo'yiladigan
talablar**

Respublika ta'lim tizimida olib
borilayotgan islohotlar
muvaffaqiyatini ta'minlash, ta'lim
muassasalarida faoliyat olib

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul – qulub. 13- tom., T.: 1966. – 189 – 190-beflar

² Hoshimov K va boshq. Pedagogika tarixi. –T., O'qituvchi, 1996, – 301 – bet.

borayotgan o'qituvchi, tarbiyachilarining ma'naviy qiyofasi hamda kasbiy mahoratlariga ham bog'liqdir.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga egaligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'ymoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib etishadirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»¹.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglaniladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalasiga alohida e'tibor qaratib, maktab ta'limi rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarurligini ta'kidlaydi. Davlat rahbarining ta'bıricha: «Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori, bu-maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir».

«Maktab, bu-hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi, uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak»⁵.

Prezident Shavkat Mirziyoyev muallimlarni, jonkuyar maktab direktorini, soha faxriylarini el-yurtning tayanchi va suyanchi, deb e'tirof etgan holda, maktablar tizimini rivojlantirish uchun davlat bundan buyon ham mablag'ni, ham imkoniyatni aslo ayamasligi, kelajak avlod taqdiri, bu butun millat, xalq, davlat taqdiri muhtaram

¹Karimov I.A.Buyuk kelajigimizning huquqiy kafolati. – T., Sharq, 1993. 27-28-berdar.

⁵ Maktab ta'limi rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanishi zarur // Xalq so'zi gazetasi. 2019-yil 24-avgust. N174 (7373)

muallimlarga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bilim berishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadryatlarga suyanish muhimligini uqtiradi.

Davlat tomonidan o'qituvchining mehnati qo'llab-quvvatlanishi masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni o'qituvchi va murabbiylarning o'zidan ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirish talab etiladi.

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

Bizning nazarimizda, zamonaviy o'qituvchi – bakalavr qiyofasida quyidagi fazilatlar namoyon bo'la olishi kerak:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi zarur.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilish, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i muhim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalari chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

- a) nutqning to'g'riliqi;
- b) nutqning aniqligi;
- c) nutqning ifodaviyligi;

e) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'limgan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak;

- f) nutqning ravonligi;

g) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishishi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi zarur.

O'qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi muhim. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to'g'ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni barataraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O'quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrining aniq va to'la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Munosabat jarayonida so'zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o'quvchi (yoki hamkasbi, Ota-onalar)ning muvaffaqiyatlarini e'tirof etishi va yanada boyishiga ishonch bildirishi, ular bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqot jarayonida o'qituvchining so'zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do'stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko'tarinki kayfiyatda bo'lishi zarur.

O'qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o'rtaida obro'-e'tibor qozonishini ta'minlaydi.

Pedagogik mahoratni egallash yo'llari. O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'mnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahoratini namoyon eta olishi, yetuk pedagog sifatida malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, yangiliklardan xabardor bo'lish, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish asosida tarkib topadi. Yosh, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zini kasbiy jihatdan takomillashtirish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga ta'minlanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Mustaqil o'qib o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali hamkasb o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etadi, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi). Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingen taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurs (institut)larida kasbiy malakalarini oshirish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar)da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lim muassasalarida ularning ish tajribalarini o'rganish (stajirovka).

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan xoli bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

O'z davrlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Tolstoy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Avloniy va boshqalar o'z asarlarida o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi qarashlarni yoritish orqali o'zlari ham pedagogik madaniyatga ega ekanliklarini namoyon etganlar. Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan Shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Ularning pedagogik madaniyatlarini negizini bolani tushuna olish, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, pedagogik faoliyatning haqligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarning hayot mavjudligini ta'minlashda qudratli omil (vosita) ekanligiga ishonch kabilar tashkil etadi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasida malakali (mahoratl) o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, ularning tajribalarini ommalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahoratli o'qituvchilarni aniqlash maqsadida turli ko'rik, tanlovlар tashkil etilmoqda. Xususan, «Yil o'qituvchisi» Respublika ko'rik – tanlovi ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarga pedagogik mahoratlarini individual ravishda namoyish etish imkoniyatini berayotgan bo'lsa, «Yil maktabi» Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga ko'rsata olishlari uchun sharoit yaratmoqda. Shuningdek, respublika miqyosida, pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga krita olgan o'qituvchilar ta'lim sohasida nufuzli sanaluvchi davlat mukofoti – O'zbekiston Respublikasi Xalq o'qituvchisi ko'krak nishoniga sazovor bo'lmoqdalar.

Xulosa o'rniда shuni qayd etish joizki, komil inson va yetuk malakali mutaxassis maxsus tashkil etilgan pedagogik faoliyat jarayonida tarbiyalanar ekan, ushbu jarayonda o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu bois ularning shaxsida bir qator ijobjiy ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'la olishi maqsadga muvofiqdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh g'oyasi nimadan iborat?
2. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qaysilar?
3. Uzluksiz ta'lif prinsiplarining mohiyati nimalarda namoyon bo'ldi?
4. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yonalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining mohiyatini yoritib bering
5. Harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirishga oid vazifalari asosida ta'lif tizimining isloh qilinishi.
6. Uzluksiz ta'lif tizimining mohiyatini yoritib bering.
7. Uzluksiz ta'lif turlarini sanang va ularning mazmunini izohlang.
8. Pedagoglik kasbining asosiy xususiyatlari nimalarda ko'zga tashlanadi?
9. O'qituvchi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?
10. Bugungi kun o'qituvchisiga qanday pedagogik talablar qo'yilmoqda?

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1 - topshiriq. O'qituvchi talabalarning davomatini aniqlaydi. Darsning boshlanishida talabalarni xohishi orqali yoki «Qora quti metodi» yordamida guruhlarga ajratadi (3 daqiqa).

2 - topshiriq. O'zbekistonda uzluksiz ta'lif tizimining isloh qilinishiga oid tushunchalarini va kalit so'zlarini eslab flipchartga yozadilar. Uzluksiz ta'lif tizimiga oid ilmiy terminlarni muhokama qiladilar (5 daqiqa).

3 - topshiriq. Kichik guruhlarda «O'zbekistonda uzluksiz ta'lif tizimining isloh qilinishi» mavzusini o'rganish. Bunda o'qituvchi oldindan reja asosida mavzuga to'xtaladi. Har bir guruhga oldindan yangi metodlar orqali rejalar mohiyati yoritib berishi aytildi. Talabalarga tarqatma materiallar beriladi. Seminar daftariga yozadilar, savollar tayyorlaydilar (20 daqiqa).

4 - topshiriq. «Mening idealimdagи o'qituvchi» mavzusida o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatlarini sanang. «Men o'qituvchi bo'lsam.....» mavzusida esse yozing?

TA'LIM MENEJMENTI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISH

Reja:

- 1.Boshqaruv “Menejment” tushunchasining mohiyati
- 2.Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi
- 3.Ta'lif tizimini boshqarishning huquqiy asoslari va boshqaruv organlari vakolatlari.
- 4.Mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning respublika ta'lif tizimini boshqarishdagi o'rni va roli.
- 5.Ta'lif muassasasini boshqarish.

Tayanch so'zlar: boshqaruv, menejment, rahbar, avtoritar, liberal, demokratik, rahbar kompetentsiyasi

Mavzuning qisqacha mazmuni: mavzuda ta'lif menejmenti, boshqaruvga san sifatidagi yondashuvlar, boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi va uning komponentlari kabi «boshqaruv» faniga nazariy yondashishlar haqida ilmiy ma'lumotlar kiritilgan.

Bundan tashqari boshqaruvning ta'lif tizimidagi o'rni, ta'lif tizimini boshqarishning huquqiy va ma'naviy asoslari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va ularning ta'lif tizimini boshqarishdagi o'rni kabi savollariga javob berishga harakat qilingan.

BOSHQARUV – «MENEJMENT» TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Boshqaruv – bu qadimgi san'at va eng yangi fandir. Boshqaruv sohasidagi mutaxassislar fikricha, boshqaruv siyosiy, iqtisodiy texnologik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarning tarkibiy qismi bo'lib, o'zining yo'nalishi, tamoyillari, uslublariga ega. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv jiddiy ilmiy – uslubiy asosga tayanadi. Har bir fan bilimlar majmui bo'lib, jamiyat va tabiatdagi hodisa va qonunlarni anglab tushuntirishga harakat qiladi. Fan sifatida boshqaruv yangi murakab hodisalarни aniqlashga, tabiatdagi tartib, qonunlarni ochishga harakat qiladi.

Boshqaruv nazariyasi o‘zining tadqiqot obyektiga ega bo‘lib, u boshqaruv jarayonining tashkil etilishi va bu jarayondagi odamlar munosabatlarining qonuniyatlarini o‘rganadi.

Boshqaruv nazariyasi tadqiqot obyektiga mos bo‘lgan uslublarni aniqlaydi, boshqaruv obyektiga faol ta’sir ko‘rsatish uslublarni ishlab chiqadi, jarayonlarni istiqbollashtiradi. Boshqaruv nazariyasining rivojlanishi, uning yutuq va mag‘lubiylari, o‘ziga xos farazlar yaratilishi va inkor etilishi ushbu fikrni tasdiqlaydi. Fan dunyonи anglash uchun kuchlivosita – tahlil uslubiga ega, ya’ni voqelikni qism, xususiyat, rivojlanish bosqichlariga bo‘ladi va umumlashtiradi.

Boshqaruv nazariyasi yoki ma’muriy boshqaruv hamisha ham deduktiv va eksperimental uslublarga tayanmaydi, chunki o‘rganilayotgan voqelikni tashqi muhit ta’siri omillaridan mutloq chegaralab saqlashning iloji bo‘lmaydi. Tahlil va sintezdan tashqari fan (shu jumladan san’at ham) yana bir ajoyib bilim quroli – intuitsiya (sezgi) bilan ish tutadi. Albatta, intuitsiya empirik va nazariy bilimlarga asoslanadi.

Intuitsiya – odam tafakkurining doimo izlanishi, muammo yechimini tinmasdan izlash natijasidir. Bunga Nyuton olmasi, Mendeleyevning tushi, bastakorlarning betakror musiqa asarlar yaratishini misol sifatida keltirish mumkin. Intuitiv yechim faraz g‘oya, taxmindan amaliyot tasdig‘igacha bo‘lgan mashaqqatli va murakkab yo‘lni bosib o‘tishi kerak. Boshqaruv faqat fan emas, balki san’at bo‘lgani uchun ham intuitiv boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Mamlakat siyosiy va iqtisodiy muammo yechimlarini hal qilish bosqichida harakat qilayotganda, har bir rahbar firma, korxona qolaversa davlatni muvaffaqiyatl boshqarish uchun boshqaruvning ilmiy asoslarini bilishi, bu bilimlarni ijodiy qo‘llashi zarur ekanligini anglashi kerak. Amaliy faoliyatda boshqaruvchilar doimo o‘zgaruvchan sharoitda ishlaydi. Unda sodir bo‘lgan tasodifiy hodisalar hisobga olinadi, tajriba va intuitsiyaga asoslanib qaror qabul qilinadi. Qator olim va amaliyotchilar boshqaruvni eng avvalo san’at deb ta’kidlaydi. Ular fanning boshqaruvdagi roli haqida shunday yozadi: «*Boshqaruv jarayoni san’atdir, uning mohiyati ilmni*

(boshqaruv sohasidagi tashkiliy bilim asoslarini) har bir sharoitga nisbatan ishlatalishidadir». G.Kuns, S.O.Donnel⁶.

Keyingi yillarda nazariya bilan amaliy boshqarish faoliyatida bir qancha klassifikatsion qarashlar yuzaga keldi. Boshqarish usulining eng muhim belgilaridan biri ilmiylik xususiyatidir. Faqat ilmiy nazar bilan qarashgina boshqaruvchi shaxsga – rahbarga o‘zining rahbarlik faoliyatida ko‘p qirrali va mazmunli ish uslubini ko‘rsata olish imkonini beradi. Shundan kelib chiqib boshqaruv jarayoniga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

- *Menejment – (boshqarish) mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir.*
- *Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti murakkab va dolzarb bo‘lib, boshqaruv fanining maqsadi boshqaruv tamoyili, tuzilmasi, usul va uslublarini o‘rganish va takomillashtirishdir.*
- *Boshqaruv fanining asosiy vazifasi – hodisalarни qayd etish va tizimlash, amaliy xulosa va tavsiyalarini ishlab chiqish. ular orasidagi sababiy aloqalarini aniqlash*

Boshqaruv funksiyasi rejalashtirish (istiqbolni belgilash, modellashtirish, dasturlash), tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, motivatsiya, qo‘yilgan masalalar bajarilishini nazorat va hisob qilish hamda uning mustaqil funksiyasi sifatida ajratilgan marketingdan iborat bo‘lib, boshqaruvning mohiyatiga turli tasniflarda turlicha yondashiladi. Jumladan, I.P.Pavlov, D.B.Uotson, B.F.Skinner asarlarida boshqaruv san’ati, kishilar muloqotining butun boshli tajribasi vaziyat o‘zgarganda stereotiplardan, bir xillilikdan voz kechishni maslahat beradi. Boshqaruvda rag‘bat va jazo tizimi chuqur ilmiy asoslab beriladi, ijrochi faoliyatining mantiqiy doirasi uning qobiliyatiga qarab dalillar bilan aniqlab beriladi, rahbar va uning qo‘l

⁶ S. G‘ulomov, V.I.Knoring. «Menejment: boshqaruv san’ati, nazariyasi va amaliyoti». ToshDAY, 2002 y.

ostida ishlovchilar o'rtasida qarama-qarshi aloqa bo'lishi zarurligi asoslanadi.

- *Boshqaruvning oltin qoidasi: o'zingizga qanday munosabat bo'lishini istasangiz odamlarga ham shunday munosabatda bo'ling.*
- *Boshqaruv uslubi tasnifi: eng sekin yuradigan o'dam maqsadini yo'qotmasdan harakat qiladigan bo'lsa, shoshib yugurgan kishidan ham tezroq maqsadga erishadi. Lessing.*
- *Boshstz mamlakat jonsiz tanga o'xshaydi. Bejon tanning ahvoli vayronalikka yaqindir.*

Amir Temur

BOSHQARUVCHI SHAXS – RAHBAR KOMPETENTLIGI

Boshqaruvchi shaxs – rahbar, avvalo, boshqarishdan oldin, albatta, kerakli ilmni egallagan bo'lishi lozim. Kadrlar tanlash va ularni yanada o'stirish – bu boshqarishning tashkiliy asosidir.

«Kadrlar tanlashda – vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi bugun juda katta ahamiyatga egadir»⁷ – deyiladi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Buyuk maqsad yo'lida og'ishmaylik» asarida.

Kadrlarni tanlash va ularni tarbiyalash umumdavlat xarakterga ega bo'lib, bu vazifalarni hal etishni ilmiy asosda olib borish kerak. Boshqaruv xodimlarini tayyorlash eng samarali ishlardan hisoblanadi, chunki bu masalani yechib, insoniyat iqtisodiy yutuqlar cho'qqisiga yeta olishi va kambag'allik tanazzulidan qutila olishi mumkinligini Konfusiy ikki yarim ming yil oldin ta'kidlagan edi.

Kadrlarni to'g'ri tanlashda:

⁷I.Karimov. «Buyuk maqsad yo'lida og'ishmaylik»

- sofdillik nuqtai nazari bilan va ma'muriy qobiliyatlari nuqtai nazari bilan;
 - siyosiy – ma'naviy darajasiga qarash ;
 - ilmiy kadrlarni ilgari surish va ularni to'g'ri taqsimlash;
-
- ishga aqliy yondashish nuqtai nazari bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi.

Rahbar qanday bo'lishi kerak?

«Rahbarlik lavozimiga – mas'ul vazifaga tayinlanadigan odamlardan nimalar talab qilinadi, ular qanday xususiyat va fazilatlarga javob berishi kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Biz ko'pincha rahbar qat'iyatli, bilimdon va talabchan bo'lishi kerak, deymiz. Hech shubhasiz, rahbar uchun bu fazilatlar suv bilan havoday zarur. Lekin hozirgi zamonda faqat shularning o'zi bilan uzoqqa borib bo'lmaydi.

Rahbar qachon el-yurt ishonchini, e'tiborini qozona oladi? Qachonki yuragi, qo'li toza, ko'ngli ochiq, aql va zakovat sohibi bo'lsa, uning tabiatida qat'iyatlilik bilan bilim, talabchanlik bilanadolat uyg'un bo'lsa, u o'zi boshqaradigan odamlarning g'am-tashvishlarini o'z qalbidan o'tkazishga qodir bo'ladi. U o'zining issiq istarasi, muomalasi bo'ladimi, qandaydir boshqa ijobjiy jihat bilanmi, odamlarning e'tiborini o'ziga tortadigan, bir so'z bilan aytganda, xalqning ko'ngliga yo'l topa oladigan bo'lishi shart» I.Karimov.

Erkin va faol fikrash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan rahbarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamонавиј, ijtimoiy-iqtisодиј шароитларда о'та долзарб исобланади. Hозирги кунда та'лим муассасаси раҳбар ходимларининг та'лим сифатини бoshqarishning konseptual muhim usullaridan biri kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondashuvni amalgalashdir.

Ta'lif muassasalariga qo'yiladigan asosiy talablar:

- ishda to'g'ri yo'lni tanlay olish, vaziyatni pedagogik tahlil qila bilish;
- vaziyatdan to'g'ri chiqqa bilish, har bir ishga ijodiy yondashish;
- o'zining shaxsiy ibrati, ishga bo'lgan munosabati bilan pedagogik jamoani ergashtira bilish;
 - pedagogik mahorat va boshqara olish mahorati, fan yutuqlarini o'zlashtirish;
 - yangi g'oyalar, ichki imkoniyatlarni qidirib topib, uni amaliyotga tatbiq etish;
 - umummadaniyatlik, ziyolilik, milliy qadriyatlarni e'zozlash;
 - jahon madaniyati durdonalaridan xabardorlik, dunyoqarashning kengligi;
 - mehribonlik, insonparvarlik, shaxsni hurmat qilish;
 - har bir pedagog – xodimga uning xarakteri, imkoniyatlari va ehtiyojidan kelib chiqib vazifa berish;
 - jamoa ishonchiga kirish, aytilgan fikr, taklif, qabul qilingan qarorning o'z vaqtida bajarilishiga erishish;
 - pedagogik jamoa, ta'lif oldida turgan vazifalar, maqsadlar, istiqbolni aniq belgilash;
 - odamlar bilan o'zaro samimi munosabat o'rnatish, muloqotga kirishish, jamoani ishontira bilish;
 - yordam berish, xodimlar kayfiyatini ko'tarish, ixtiyoriy – majburiy tarzda o'ziga ergashtirish;
 - har bir ishning muqobil variantlarini e'tiborga olish va amalgaloshirish;
 - mantiqli, qisqa, lo'nda, obrazli fikrlay bilish, fikrni qiyomiga yetkazish, o'z so'zamolligi bilan suhbatsoshi (yoki jamoa) qalbiga kirish;
 - fidoyilik, mas'uliyatlilik, poklik, qat'iyatlilik, jur'atlilik, jamoasi manfaati yo'lida jonkuyarlik ko'rsatish;
 - mehnatsevarlik,adolatlilik, o'ziga va o'zgalarga talabchanlik ko'rsatib, barchaga namuna bo'lishi;
 - pedagoglarga erkinlik va mustaqillik berishi, ularning har bir qadamini nazorat qilishdan saqlanish;
 - yangiliklarni joriy qilayotganda yo'l qo'yilgan xatolarini kechirish, ularni o'zlari to'g'rilashi uchun vaqt va imkoniyat berish;
 - pedagog – xodimlarga sust, shijoatsiz, mujmal topshiriqlar bermaslik.

Yuqorida keltirib o'tilgan talablar rahbar kompetentsiyasini belgilab beradi.

Rahbarning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Rahbarning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondashuv deyiladi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon rahbaridan yuksak madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lish, ijodiy potensialini rivojlantirishga, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka egalik va shu kabi sifatlarni, ya'ni ko'p qirrali qobiliyatlilikni talab etadi. Ko'p qirrali qobiliyat tushunchasi kasbiy va shaxsiy kompetentlik tushunchasiga mos keladi. Aleks Murning fikricha, «Soddaroq qilib tushuntiradigan bo'lsak ko'pqirrali qobiliyatlar deganda turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganilishi tushuniladi. Xou ta'kidlashicha, hech qachon ikki o'rganuvchi bir xil bo'lmaydi: har bir shaxs o'ziga xos qibiliyatlar egasidir⁸.

Xorijiy so'zlar lug'atida «kompetentlik» tushunchasi biror shaxs yoki muassasaning vakolati va huquqlari majmuasi yoki biror bir insonga tegishli ishlar, savollar majmuasi sifatida ta'riflangan. **Fransuzcha** «competent» so'zi “kompetentli, vakolati” sifatida tarjima qilinadi. **Inglizcha** «competense» atamasida shaxsning sifati ma'nosi mavjud: kompetentlik – qibiliyat sifatida keltirilgan.

«Ko'pqirrali qobiliyat tushunchasining eng ilg'or tarafdoqlaridan biri Govard Gardnerdir. (1983,1993). (Yana ko'rish mumkin bo'lgan asarlar Armstrong 1994, Xou 1984, 87 – 92 betlar va Bentli 1998).⁹

Kompetentlik – degandir ko'pincha shaxsning faoliyat yuritishga umumiy qibiliyati va uning kasbiy tayyorgarligida namoyon bo'luvchi

⁸Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore. P.146

⁹Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. Alex Moore.P.147

ta'lim jarayonida o'zlashtirilgan bilim va tajribalarga asoslangan integrallashgan sifatlari tushuniladi. Demak, kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilim, malaka va ko'nikma tushunchalaridan kengroq, chunki ular shaxsning yo'naltirilganligi, muammolarni his qila olishi, sinchkovlikni namoyon qila olishi, egiluvchan fikrlashga ega bo'lishi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Rahbarning kompetentligi – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlichkeitni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish, o'z sohasini, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish demakdir. Rahbar kompetentsiyasining shakllanish bosqichlarini quyidagicha ko'rsatib o'tish joiz:

Rahbar kompetentsiyasining shakllanish bosqichlari

Zamonaviy boshqaruvning eng muhim vazifalari

- rejalashtirish;
- tashkillashtirish;
- tahlil qilish;
- asoslash (motivatsiya);
- nazorat qilish;

Ularning har biriga izoh berar ekanmiz, qayd etish lozimki, rahbarlikning asosiy maqsadi, muhim vazifalar o'rtasida mutanosiblik va uyg'unlikka erishish hamda shu orqali tashkilot butunligini ta'minlashdir. Rejalashtirishda birinchi navbatda rahbar o'z tashkilotining maqsadini aniqlashtirishi lozim. Bu maqsadga yo'naltiruvchi vazifasi hisoblanib, tashkilotni ma'lum strategik maqsadga olib boruvchi vazifalarni mujassamlashtiradi. Tashkillashtirish belgilangan vazifalar, ish hajmi, unga ketadigan vaqtini hisobini aniq belgilab olish, ya'ni tashkilotning turli bo'limlaridagi mavjud imkoniyatlardan optimal darajada foydalanishdir.

- qobiliyatni aniqlash;
 - tarbiyalash va shakllantirish;
 - chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
 - ishonch (mustaqil rahbarlik lavozimiga tayinlanish);
 - rahbarlik cho'qqisi;
- Rahbar kompetentsiyasining shakllanish bosqichida rahbarlik qobiliyatining mavjudligini aniqlash zarur. Bunda rahbarlik lavozimiga tayinlashdan oldin uning ish va hayotiy tajribasini ham hisobga olgan holda ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu rahbarning qadriyatli yo'naliishlari bilan bog'liq. Uning ijtimoiy borliqni his eta bilishi va tushunish qobiliyati, mustaqil

hayot yo‘lini topa olishi, o‘zining ijtimoiy jamiyatdagi roli va o‘rnini anglab yetishi, harakatlarni tashkil etishda aniq maqsadni belgilash hamda qaror qabul qilish malakasi, dunyoqarashi bilan bog‘liq kompetentlik. U rahbar uchun ta’lim jarayonida va boshqa vaziyatlarda o‘zini aniqlash mexanizmini ta’minlaydi. Rahbarning individual ta’lim yo‘nalishi va hayotiy faoliyatining umumiy dasturi ana shu kompetentlikka bog‘liq. Ta’lim tizimidagi har bir rahbar boshqaruvning zamonaviy uslublari va muhim vazifalarini anglab yetadi.

Rahbar ado etishi zarur bo‘lgan ishning boshlanish jarayonidan boshlab oxirigacha to‘liq tahlil qilishi maqsadga muvofiq. Bunda olib borilayotgan ish va mahsulot natijalaridagi ba’zi holatlarning kamchiliginini joyida tushunib borishga imkon yaratiladi. Rahbar strategik maqsadlarni ko‘zlar ekan, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etib borishiga asosli dalillar ham zarur. Shu sababli har bir rahbar tomonidan tashkillashtirilgan ishlar asosli va o‘zaro qiyosiy tahlillarga ega bo‘lishi kerak. Boshqaruvdagi nazorat qilish vazifasi ta’lim standartlari, pedagogik jarayonni mavjud qonun va boshqa hujjatlarda ko‘rsatilgan talablar asosida kechishini ta’minlaydi.

Boshqaruvning uslublari ham rahbar qobiliyatları bilan bog‘liq bo‘lib, ularning avtoritar, demokratik, liberal kabi turlari ma’lum.

Avtoritar rahbar barcha ko‘rsatmalarni ishchanlik ruhida, aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga yetkazadi. Muloqot jarayonida ham xodimlarga do‘q-po‘pisa, keskin taqiqlash kabi qat’iy ohanglardan foydalanadi. Uning asosiy maqsadi o‘z hukmini o‘tkazish bo‘lib nutqi ham aniq va ravon, doimo jiddiy tusda bo‘ladi. Biror ish yuzasidan xodimlarini maqtash yoki ularga jazo berish, tanqid qilishi sof subyektiv bo‘lib, bu narsa boshliqning kayfiyatiga va o‘scha shaxslarga nisbatan shaxsiy munosabatiga bog‘liq. Jamoa a’zolarining tilak-istiklari, fikrlari, maslahatlari juda kam holatlardagina inobatga olinadi.

Demokratik rahbar, aksincha, o‘z qo‘l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdori. Topshiriqlar berganda ishchilarining qobiliyatini, shaxsiy moyilliklarni hisobga oladi. Buyruq yoki topshiriqlarni taklif ma’nosida beradi. Nutqi oddiy, doimo osoyishta, sokin, undan do‘stona munosabat sezilib turadi. Biror kishini maqtash, lavozimini oshirish, kamchiliga baho berish (ishdagi) doimo jamoa a’zolarining fikri bilan kelishgan holda amalga oshiriladi. Tanqid ko‘pincha, taklif, istak shaklida qilingan ishlarning mazmuniga baho berish shaklida


«aybdor»ga yetkaziladi. Hech bir yangi ish jamoa maslahatisiz boshlanmaydi. Bunday boshliqning fazoviy ijtimoiy holati «jamoa ichida». Jamoada tanqid, O‘z-o‘zini tanqid shunday yo‘lga qo‘ylganki, uning oqibatida hech kim aziyat chekmaydi. Chunki ko‘proq boshliq emas, jamoaning boshqa faollari – norasmiy liderlar tanqid qiladilar.

Liberal (loqayd) uslubda ishlaydigan rahbarning kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mammun yoki mammun emasligini bilish qiyin. Unda taqiqlash, po‘pisa bo‘lmaydi, uning o‘rniga, ko‘pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos. Jamoada hamkorlik yo‘q, boshliq jamoaning muammolari, ishning baland-pasti bilan qiziqmaydiganday, go‘yoki boshqa «koinot»da yurganga o‘xshaydi. Aniq ko‘rsatmalar bermaydi, uning o‘rniga norasmiy liderlar yoki o‘ziga yaqin kishilar orqali lozim bo‘lgan topshiriqlar bajaruvchilarga yetkaziladi. O‘zining nazarida, xodimlar uchun ish sharoitini yaratish, ishdagi kamchiliklarni bartaraf etish, kerakli mahsulot, xom-ashyo kabilarni topib kelish, majlislarda qatnashish va hokazolardan iborat.

Xodimlar bilan muloqotda bo‘lishga to‘g‘ri kelganda, u doimo xushmuomala bo‘lib, odob-axloq normalarini buzmaslikka harakat qiladi, lekin hech qachon ular bilan tortishmaydi. Majlislarda biror muammo munozarani keltirib chiqarsa, u bevosa jarayonga aralashmay, oxirgi so‘zni o‘ziga qoldiradi. Uning fazoviy psixologik holati «guruh tashqarisida».

Boshqaruvda rahbar muhim vazifalarni bajarish bilan birga olib borilayotgan mehnat jarayonida kompetenlilik xususiyatlarini namoyon etishi zarur. Rahbar chuqur o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan bilim va faoliyat tajribasi doirasi, milliy va umuminsoniy madaniyatlar xususiyatlari, inson va insoniyat hayotining ma‘naviy-axloqiy asoslari, oilaviy va ijtimoiy an‘analarning madaniyat asoslari, inson hayotida fan va dinning roli, ularning moddiy borliqqa ta’siri, turmush va dam olish borasidagi bilimlar, masalan, bo‘sh vaqt ni samarali tashkil etish usullarini bilishidan iborat. Shu boisdan rahbarning kompetentligi komponentlari ham bir qator sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ularni quyidagicha belgilash mumkin:

Rahbar kompetentligi komponentlari



TA'LIM TIZIMINI BOSHQARISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA BOSHQARUV ORGANLARI VAKOLATLARI

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonunida ta'lif O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor soha, deb e'lon qilingan.

Ta'lifning vazifasi fuqarolar, yoshlarning eng asosiy Konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual rivojlanshini ta'minlash xohlagan kasbini tanlash, uni mukammal egallab, shu sohada faoliyat ko'rsatish uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'lifning har bir bo'g'ini va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limdi tashkil etish va rivojlantirish talablariga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy-siyosiy hayotda bilim va yuksak intellektning nufuzini anglagan holda ta'limdi ustuvorligini ta'minlashi;
- ta'lim va tarbiya uslublarini tanlash va ta'limdi boshqarishning davlat-jamiyat tizimiga o'tilishini ta'minlash uchun ta'limdi demokratlashuviga erishish;
- inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta'limga nisbatan turlituman ehtiyojlarini qondirish, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash uchun ta'limdi insonparvarlashtirish;
- ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviyat, madaniyat, ijodiy fikr lash va dunyoqarashni shakllantirish va ijtimoiylashtirish;
- ta'limdi milliy yo'naltirish – ta'limdi o'zbek xalqining milliy urf-odatlari, an'analari va tarixi bilan uzviy bog'liqligini saqlab qolish, boshqa xalqlar tarixi va qadriyatlarini hurmat qilish;
- ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ta'minlash;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash va ta'limming eng yuqori darajasida fundamental va maxsus bilim olishlari uchun sharoit yaratish.

Ta'lim tizimini boshqarish pedagogika fanining muhim tarmog'i bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi organlari va ularning vazifalari, ish faoliyatining mazmuni va metodlarini belgilab beradi, shuningdek, ta'lim muassasalariga rahbarlik qilish tizimini asoslaydi.

**Ta'lim tizimini boshqarish ta'lim menejmenti deb yuritiladi.
Ta'lim menejmentining vazifalariga quyidagilar kiradi**

- ta'lim menejmentini tarkibiy jihatdan o'zgartirish;
- uni izchil rivojlantirish;
- davlat tomonidan boshqarish;
- ta'lim muassasalarini turli darajada boshqaradigan organlar faoliyatini O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonusi talablariga muvofiq tashkil etish;
- ta'limming normativ – huquqiy bazasini rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini boshqarishda umumiy rahbarlikni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi olib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ta’lim tizimini boshqarish bo‘yicha quyidagi vakolatlarga egadir:

- ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish;
- ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash;
- ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash;
- davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat grantlari miqdorini va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta’lim muassasalarining rektorlarini tayinlash;
- ta’lim oluvchilarining akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash; shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI VA ULARNING RESPUBLIKA TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA ROLI

Respublika ta’lim tizimini boshqarishda bir qator davlat organlari – tegishli vazirliklar, chunonchi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, shuningdek, markazlar, xususan, Respublika ta’lim Markazi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyatini

muvofiglashtiruvchi Markaz, viloyat shahar va tuman xalq ta'limi bo'limlari ham ishtirot etadilar.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli quyidagilar bilan belgilanadi.

- ta'lim muassasalarini faoliyatining mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofigligini ta'minlaydilar;
- ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar o'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorini va imtiyozlarni belgilaydi;
- ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, qonun hujjalariiga muvofig boshqa vakolatlarni ham amalgalash oshiradilar.

TA'LIM MUASSASASINI BOSHQARISH

Ta'lim tizimini boshqarish sohasida ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish ishlarini tashkil etishga ham alohida e'tibor beriladi. Ta'lim muassasasi uning rahbari (direktor yoki rektor) tomonidan boshqariladi.

Ta'lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish – ta'lim muassasasining faoliyat xususiyatiga ko'ra pedagogik jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarini nazorat va tahlil qilish maqsadida amalga oshiriluvchi boshqaruv faoliyatidir.

Tashkilotchi, oliy ma'lumotli, kamida 3 yillik pedagogik ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchi tuman xalq ta'limi bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shahrida – shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor etib tayinlanadi. Viloyat xalq ta'limi bo'limi bu haqida O'zbekiston Respublikasi XTV ga ma'lum qiladi.

Maktab direktorining vazifalari

Ta'lim muassasasi manfaatlarini ifodalash; o'quv-tarbiya jarayoni muvaffaqiyatini ta'min etish; o'quv dasturlarining bajarilishini nazorat qilish, ta'lim-tarbiya ishlarining sifati va

samaradorligi, bolalik va mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish, ta'lif muassasasidan tashqarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish; pedagogik va rahbar kadrlarni tanlab joy-joyiga qo'yish, ularning vazifalarini belgilash, pedagogik kadrlar, kabinet va ustaxona mudirlarini belgilash, sinf va guruh rahbarlarini tanlash, pedagog va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni ishga qabul qilish hamda bo'shatish; ta'lif muassasasi pedagogik xodimlarini attestatsiyadan o'tkazuvchi komissiyaga rahbarlik qilish; ta'lif muassasasi pedagogik xodimlarining ijodiy ishlari, ta'lif-tarbiyaning ilg'or shakl va usullarini qo'llashlari uchun shart-sharoitlar yaratish; ta'lif muassasasiga ajratilgan moliyaviy mablag'lar, sarf-harajat hisobini yuritish; ta'lif muassasasi me'yoriy hujjatlarining to'g'ri yuritilishini ta'minlash; ta'lif muassasasi Pedagogik kengashi, mahalliy hokimlik organlari oldida o'z faoliyati to'g'risida hisob berib turish.

Maktab direktori o'qituvchi va yordamchi xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, xodimlar, o'qituvchilarni rag'batlanadiradi, shuningdek, zarurat bo'lganda ularni jazolaydi, alohida o'rnak ko'rsatgan o'qituvchi va xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etadi.

O'quv-tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari

O'quv haftasi va o'quv mashg'ulotlarining davomiyligini ta'minlash; dars jadvalini tuzib chiqish va shu jadvalga binoan darslarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash; har bir chorak oxirida, semestr davomida direktor va ta'lif muassasasi Pedagogik kengashi a'zolariga o'quv jarayonining borishi xususidagi axborot va ma'lumotlarni berib borish; yosh mutaxassislarga amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish; sinf va guruh jurnallarining to'g'ri yuritish va saqlanishiga javob berish; o'quvchilarning bilim darajasini DTS asosida tahlil qilib borish; o'quvchilar tomonidan davlat dasturlarining bajarilishini ta'minlash va nazorat qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari

Ta'lif muassasasida o'quvchilarning o'z-e'zini boshqarish, jamoat tashkilotlari va mahalla, ota-onalar bilan aloqani ta'minlash; ta'lif muassasasi va undan yuqori miqyosda o'tkaziladigan darsdan

tashqari tadbirlarni rejajashtirish va amalga oshirish; ta'lim muassasasi o'quvchilarining sinf, guruh yoki ta'lim muassasasidan tashqari olib borayotgan mashg'ulotlarini kuzatib borish, ularga amaliy va metodik yordam uyuştirish; ta'lim muassasasidagi «Yosh yetakchi»ning ishini nazorat qilish va unga yo'l-yo'riq ko'rsatish.

Mavzu yuzasidan savollar.

1. Boshqaruv "Menejment" tushunchasini mohiyatini aytib bering?
2. Rahbar kompetentligi komponentlariga nimalar kiradi?
3. Boshqaruv vakolatlari deganda qanday faoliyat nazarda tutiladi?
4. Boshqaruv organlari tuzilishi va funksiyalari nimalardan iborat?
5. Ta'lim menejmentining vazifalariga nimalar kiradi?

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Boshqaruv nazariyasi va amaliyoti
2. Menejment: boshqaruv san'ati, nazariyasi va amaliyoti.
3. Ta'lim muassasasi menejmenti.

Topshiriqlar

1. Mavzuni og'zaki taqdimotga tayyorlang.
2. Rahbar kompetentligi komponentlarini "Klaster" jadvalida tarmoqlang.
3. Mavzuga oid "Blits so'rov" topshiriqlarini tuzing.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

Seminar mashg'ulotining borishi:

1–bosqich. O'qituvchi talabalarni davomat qiladi. Darsning boshlanishida talabalarni xohishi orqali guruhlarga ajratadi(3 daqiqa).

2 – bosqich:

1 – topshiriq. «Ta'lif menejmenti. O'zbekiston Respublikasida ta'lif tizimini boshqarish» mavzularining asosiy tushunchalarini va tayanch so'zlarini eslab flipchartga yozadilar. Mavzu doirasida ilmiy terminlarni guruhlarda muhokama qiladi. (7 daqiqa)

2 – topshiriq. Ushbu assesmentni bajaring va o'zingizni o'zingiz baholang!

Test (3ball)	Muammoli topshiriq(3ball)
Menejment bu– <ul style="list-style-type: none"> A. Rahbar mahorati B. Mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijaga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayoni. C. Shahs rivojlanishi va ta'lif-tarbiya qonuniyatlarini o'r ganuvchi soha 	Yangi kelgan rahbar o'zini tanishtirar ekan, «Sizlarni ish joyidan tashqaridagi hayotingizdagি holatlar meni qiziqtirmaydi, bular mening rahbarlik kompetentlik vakolatlarimga kirmaydi» – dedi. Sizningcha rahbarning kompetentligi nimalar bilan belgilanadi, shaxsning qanday sifatlarini ifodalash uchun «kompetentlik» va «kompetentlilik» atamalaridan foydalanish to'g'ri bo'ladi.
Simptom (belgi)lar (3/1) (3ball) Boshqaruv uslublari? Mahalliy davlat hokimiyat organlari va ularning ta'lifni boshqarishdagi o'rni va roli.	Amaliy ko'nikma va malakalar (3/1) (3ball) I.Karimovning rahbar shaxsiga bergen ta'rifi.

3 – topshiriq (guruhlar uchun)

1–guruh: «Boshqaruv» (MENEJMENT) tushunchasining mohiyati va boshqaruvga yondashuvlar, haqida umumiy tushunchalarni *bayon qiling*. (Guruh taqdimoti 5 daqiqa)

2–guruh: «Samaradorlikni ta'minlashda asosiy rolni «boshqaruv» o'ynaydi.» Degan fikrni FSMU texnologiyasi orqali tahlil qiling

3–guruh. Boshqaruvchi shaxs – rahbar kompetentligi va kompetentlik komponentlarini «Klaster» usulida tahlil qiling. (Guruh taqdimoti 5 daqiqa)

4–guruh: O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimini boshqarish organlari va ularning faoliyat mazmunini aytib bering. (Guruh taqdimoti 5 daqiqa)

TARBIYA NAZARIYASI VA TARBIYA TURLARI

Reja:

1. Tarbiya nazariyasi nimani o'rganadi?
2. Tarbiya jarayonining mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiyaning asosiy tamoyillari va turlari.
4. Tarbiya metodlari va vositalalari.

Tayanch tushunchalar: tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayoni, shaxsga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, avtoritar va erkin tarbiya, tarbiya tamoyillari, tarbiyaning turlari, tarbiya vositalari, tarbiya metodlari.

Mavzuning qisqacha mazmuni: mavzuda tarbiya nazariyasi o'rganadigan obyekt – tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, tarbiyaning jamiyat va inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning asosiy tamoyillari, turlari, metodlari hamda vositalari to'g'risida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Ma'ruzada bolani shaxs sifatida o'zini-o'zi tarbiyalashini tashkil etish masalalari ham o'z aksini topgan.

TARBIYA NAZARIYASI NIMANI O'RGANADI?

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining tarkibiy qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmunini, o'ziga xos xususiyatlarini va uni tashkil etishning nazariy muammolarini o'rganadi.

Tarbiya nazariyasi quyidagi muammolarni tadqiq qiladi:

- a) **shaxsning shakllanish** jarayonida tarbiyaning mohiyatini ochib berish;
- b) tarbiyaviy ishning mazmunini aniqlash;
- v) tarbiya metodlarini ishlab chiqish;

g) bolalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy ish tizimini shakllantirish.¹⁰

Pedagogika fanidagi singari, tarbiya nazariyasida ham ilgaridan mavjud bo'lgan eski qarashlar va yangidan paydo bo'layotgan qarashlar o'rtasida qarshiliklar mavjudligi kuzatiladi. Jamiyat hayoti, turmush sharoitlari va shaxslararo munosabatlar yangi mazmun kasb etishi bilan tarbiya mazmuni va metodlari, unga bo'lgan munosabat ham o'zgarib boradi. Zero, jamiyatdagi o'zgarishlar tarbiyachi va tarbiyalanuvchining ham shaxsiy sifatlariga o'zining ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasining asosiy masalasi xususida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: «...mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lida bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun eng muhim masaladir»¹¹.

Tarbiya nazariyasining asosiy tamoyillari va qoidalarini asoslashda falsafa, psixologiya, dinshunoslik, tarix, etika, estetika, sotsiologiya fanlarining yutuqlaridan foydalilaniladi. Tarbiya nazariyasi Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy merosi, xalq pedagogikasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida boyib, rivojlanib boradi.

Tarbiyaga oid nazariy qarashlar va g'oyalar tarbiya amaliyotiga o'zining bevosita ta'sirini ko'rsatadi. Avtoritar (kuch bilan bo'ysundirishga asoslangan) tarbiya nazariyasi tarixida eng keng tarqagan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Avtoritar tarbiyaga qadimgi Spartada mavjud bo'lgan tarbiya amaliyoti yorqin misol bo'la oladi: Xusan, chaqaloq dunyoga kelishi bilanoq, jismoniy holatidan kelib chiqib, unga nisbatan yashash yoki hayotidan mahrum bo'lish yuzasidan qabila oqsoqollari tomonidan tegishli qaror qabul qilingan. Ota-onalar ixtiyoriga qaytarilgan sog'lom chaqaloq yetti yoshga to'lganidan so'ng yana qabila yetakchilari ixtiyoriga topshirilib, yetuk jangchi bo'lib yetishguniga qadar o'ta og'ir sinovlar yositasida tarbiyalangan.

¹⁰Пепикова В.Е. Педагогика. Часть 3. Теория и методика воспитания. Курс лекций. Учебное пособие. Майкоп-2010.98 стр.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma alti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. //Xalq so'zi, 2017-yil 1-sestabr.

Nemis pedagogi Fridrix Gerbart (1776-1841) avtoritar tarbiyani ilmiy asoslashga, bolalarni boshqarishning yangi nazariyasini yaratishga urinadi. Uning fikriga ko'ra, boshqaruv bolaning xulq-atvorini belgilaydi, tashqi tartibni ushlab turishga xizmat qiladi. Bolalarni jazo choralarini vositasida qo'rqtish, taqilarni joriy etish, masalan, tushlikdan mahrum qilish, qamab qo'yishni Gerbart boshqaruv usullari deb hisoblaydi.

Fransuz ma'rifatparvari Jan Jak Russo (1712-1778) erkin tarbiya nazariyasini ilgari suradi. Russo va uning tarafdarlari bola shaxsini hurmat qilish, tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanishini rag'batlantirishga chaqiradi. Keyinchalik ular bola tarbiyasini uning o'ziga qo'yib berish g'oyasini targ'ib qila boshlashdi.

Pedagogika, psixologiya fanlarining yutuqlari asosida shuni qayd etish lozimki, bugungi kunda tarbiya nazariyasiga ko'ra har ikkala qarash ham rad etiladi. Ikki tomonlama jarayon sifatida tarbiya o'rtamiyona – demokratik yondashuvni talab qiladi. Tarbiyaga demokratik yondashuv kattalarning kichiklar bilan iliq, do'stona munosabat o'rnatishga intilishi, kichiklarning mustaqil tashabbuslarini imkon qadar qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi tarzida namoyon bo'ladi, ushbu yondashuv tarbiyaning amalda ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lishiga xizmat qiladi¹².

TARBIYA JARAYONINING MOHIYATI, UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Endi bevosita tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz. Tarbiyaning ijtimoiy hayotda tutgan beqiyos ahamiyati haqida Sharq va G'arb mutafakkirlari, ko'plab pedagog-olimlar tomonidan ta'rif berilgan.

Tarbiya yosh avlodni ma'lum maqsad yo'lida kamol toptirish, uning ongi va xulq-atvorini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir. Turli ta'riflarda tarbiya mazmuni turlicha talqin qilinsa ham, ularni bitta xususiyat – yosh avlodni kelgusi hayotga tayyorlashga yo'naltirilganligi birlashtirib turadi. Turli jamiyatda, har xil shart-sharoitda tarbiyaning maqsadi, mazmuni va amalga oshirish

¹² Tarbiya: (ota – onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) / tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir M.A.Majidov. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 4-bet.

imkoniyatlari ham turlicha bo‘ladi. Tarbiya jarayoni aniq tarixiy sharoitda aynan o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ya’ni **tarbiya** – shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarni ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishga qaratilgan barcha ta’sirlar majmuidir¹³.

Demak, tarbiyaning maqsadi, mazmuni va vositalari u amalga oshirilayotgan jamiyat hayoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Shu boisdan ham qadimdan aholinining chorvachilik, dehqonchilik yoki boshqa soha bilan shug‘ullanishidan kelib chiqqan holda tarbiya jarayoni ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan.

Tarbiyaning bugungi kunda global ahamiyat kasb etayotganligini xususida, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev quyidagicha fikr yuritadi; «Bugungi dunyo yoshlari – son jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq.

Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz»¹⁴.

Shaxs hayoti davomida juda ko‘p stixiyali va maqsadli ta’sirlarga duch keladi. Muhit, obyektiv borliqning ta’siri shaxs uchun, tarbiya uchun boshqarilmaydigan ta’sirlar sirasiga kirsa, ota-onalar, tarbiyachilar, maktab o‘qituvchilarining ta’siri boshqariladigan ta’sirlar hisoblanadi. Ko‘philik tarbiyaviy ta’sirlar yig‘indisi shaxs darajasida maqsadli o‘zgarishlarni keltirib chiqara oladigan yagona tarbiya jarayoniga aylanadi.

Agar hayvonot dunyosida asosan instinktlar yordamida rivojlanadigan bo‘lsa, inson bolasi aynan tarbiya, ya’ni maqsadli tashkiliy – uslubiy ta’sirlar yordamida kamolga yetadi. Bu ta’sirlar

¹³ Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuyg‘usi /A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayev. –T.: O‘zbekiston, 1996. 121-bet.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. //Xalq so‘zi, 2017- yil 20-sentabr.

oiladagi an'analar va urf-odatlarga tayanadigan bo'lsa, ta'lim muassasalarida maxsus ma'lumotlarga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Shu boisdan, o'zining kelajagini, ertangi kunini o'yaydigan davlat, jamiyat birinchi navbatda yosh avlodga, uning ta'lim-tarbiyasiga asosiy e'tiborni qaratadi. Yosh avlod taqdiriga befarq bo'lgan jamiyatning ertangi kuni tanazzulga yuz tutadi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu haqda shunday degan edi: «...ta'lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtida ong darajasi va uning rivojlanishini ham belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi.

Shu boisdan bu sohaga yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi...

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq»¹⁵.

«Ta'lim-tarbiya o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan bir jarayonning – shaxsning shakllanishi va rivojlanishi jarayonining ikki tomonidir. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni hayotga tayyorlash jarayonini, shu jumladan ta'lim va bilim olishni ham o'z ichiga oladi. Bir butun tarbiya jarayonida uning o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismi ajratiladi: hayotni bilish va unga munosabatni shakllantirish. Hayotni bilish asosan ta'limning vazifasi bo'lsa, tarbiyaning vazifasi unga nisbatan munosabatni shakllantirishdan iborat»¹⁶.

Darhaqiqat, tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy pozitsiyasi uning turli vaziyatlardagi xulq-atvorni belgilab beradi. Shaxsning pozitsiyasi qanchalik aniq va barqaror bo'lsa, hayot sharoitlarining salbiy ta'siri shunchalik kam bo'ladi. Barqaror qarashlar va mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan shaxsning o'zi atrofidagilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tarbiya bir butun jarayon bo'lib, uning turlarga bo'linishi ham mazkur murakkab jarayonni chuqurroq tahlil qilish va o'rganish

¹⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. 61-bet.

¹⁶ Савин Н.В. Педагогика. Учеб. пособие для пед. училищ. Изд. 2-е, доп. – М., «Просвещение», 1978. 351 С. стр. 179

maqsadida shartli ravishda amalga oshiriladi. Xohlagan o'qituvchidan «O'quvchilarni o'qitish osonmi yoki ularni tartibga chaqirib, sinfni tinchlantirishmi?» – deb so'rasangiz, bir ovozdan «Sinfda tartib bo'lsa, o'qitish juda oson». – deb javob berishadi. O'zimiz ham shunday javob bergen bo'lardik. Buning boisi nimada?

Chunki, tarbiya o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan o'ta murakkab jarayon. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Tarbiyaning maqsadga yo'nalgan jarayon ekanligi. Maqsad qay darajada aniq va tarbiyalanuvchiga yaqin bo'lsa, bu jarayon shuncha samarali kechadi.

2. Tarbiyaning kompleksli amalga oshirilishi. Bu jarayonning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakl va metodlarining birligi shaxsni yaxlit holda tarbiyalash g'oyasiga bo'ysunganligini anglatadi. Shaxs sifatlari navbatma – navbat emas, bir vaqtning o'zida kompleksli shakllanadi.

3. Tarbiya iaravonining ikki tomonlama iaravon ekanligi. Bu jarayonda tarbiyalanuvchining o'zi ham faqat obyekt bo'lmasdan, subyekt sifatida ham ishtirok etishini bildiradi. Bolaning xohish-istagi, qiziqish va imkoniyatlari ham inobatga olingan taqdirdagina tarbiya samarali kechishi mumkin.

4. Tarbiyaning ko'p cirrali iaravon ekanligi. Uni amalga oshirishda oila, maktab, davlat va nodavlat tashkilotlari, sport, san'at, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, adabiyot va televide niye ham ishtirok etishini anglatadi.

5. Tarbiya iaravonining uzoq muddatliligi. Bola dunyoga kelishidan to umrining oxiriga qadar davom etishini bildiradi.

6. Tarbiya natijasini tezda aniqlab bo'lmasligi. Ta'lif (dars) natijasini uy ishining bajarilishi sifatiga qarab, keyingi darsda tezda aniqlash mumkin bo'lgani holda, tarbiyaning bolaga qanday ta'sir ko'rsatishini yoki qachon o'zining natijasini berishini oldindan aniqlab bo'lmaydi. Chunki kishi hayoti davomida unga turli omillarning ta'siri kuchayib yoki susayib turishi mumkin. Shuningdek, tarbiya natijasi tarbiyalanuvchining xarakteri, temperamentiga ham bog'liq bo'lishini unutmasligimiz zarur.

Pedagogik psixologiyada tarbiya jarayonining quyidagi tarkibiy qismlari o'zaro bog'liq holda ajralib chiqib, rivojlanib kelmoqda:

- o'sib kelayotgan yosh avlodning kattalar tomonidan tarbiyalanishi;
- tarbiyalanuvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi;

- tengdoshlarning biri-birini o'zaro tarbiyalashi – kichiklarning kattalar tomonidan, kattalarning kichiklar tomonidan va tarbiyalanuvchilarning shaxsiy o'zini-o'zi tarbiyalashi;
- tarbiyalanuvchilar tomonidan tarbiyachilarning tarbiyalanishi (ochiq va yopiq)¹⁷.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda uning yuqorida qayd etilgan xususiyatlaridan kelib chiqish maqsadga muvofiq. Zero, mafkuraviy tahdidlar, xalqaro terrorizm xavfi kuchaygan, axborot-kommunikasiya texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda bola tarbiyasini faqat Ota-oni yoki maktab zimmasiga yuklab qo'yish mumkin emasligi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan doimo ta'kidlab kelinmoqda. Jumladan, Ota-oni, maktab, mahalla, huquq-tartibot organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borgandagina yoshlari tomonidan huquqbazarlik holatlari sodir etilishi oldini olish maqsadida respublikamizda profilaktika inspektorlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda, ularning mehnatini yanada rag'batlantirish choralar ko'rilmoxda.

Bugungi kunda mamlaktimizda maktabgacha ta'limdan tortib oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limga qadar tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratayotgani bejiz emas. Aynan shu davrda bolaning dunyoqarashi kengayadi, uning kelajakdag'i ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydigan sifatlarning rivojlanishiga zamin yaratiladi. Maktabgacha yoshdag'i davr bola hayotida o'ta muhim ekanligin inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori qabul qilindi, «Maktabgacha ta'lim vazirligi» tashkil etildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Bog'cha tarbiyasini ko'rgan bolaning ongi, dunyoqarashi qanday yuqori bo'lishini bugun kimgadir isbotlab o'tirishning, o'ylaymanki, hech qanday hojati yo'q...»

Shuning uchun maktabgacha ta'lim sohasida ana shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

¹⁷ Педагогическая психология: Учебное пособие. Под ред. Л.А. Регум, А.В. Орловой. – СПб.: Питер, 2010. – 416 с. стр. 323.

Qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda bajaramiz»¹⁸.

TARBIYANING ASOSIY TAMOYILLARI VA TURLARI

Tarbiya jarayonining tamoyillari (tarbiya tamoyillari) – bu tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy jihatlariga bo‘lgan talablar aks etgan asosiy boshlang‘ich qoidalardir. Ular tarbiya jarayonining xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi va pedagogik jarayonning umumiy tamoyillaridan farqli ravishda, bu pedagoglarning tarbiyaviy masalalarni hal qilishida rahbarlik uchun qo‘llanidigan umumiy qoidalardir.

Dastlab ushbu tamoyillarga qo‘yiladigan talablarni tavsiflaymiz.

1. Majburiylik

1. Tarbiya tamoyili – bu maslahat, tavsija emas; ular majburiy va to‘liq amaliyotga tatabiq etilishi talab qilinadi.

2. Komplekslilik

2. Tamoyillar komplekslilikni talab qiladi va tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida alohida, navbatma – navbat emas, bir vaqtning

o‘zida qo‘llaniladi.

3. Ahamiyati jihatidan tenglik

3. Tarbiya tamoyillari umumiy fundamental qoidalar singari teng ahamiyatlidir. Ular orasida birinchi bo‘lib amalga oshirishni talab qiluvchi asosiyları va ertangi kunga qoldirish mumkin bo‘lgan ikkinchi darajalilari yo‘q.

Barcha tamoyillarga bir xil diqqat bilan qarash tarbiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shunga qaramasdan, tarbiya tamoyillari – bu tarbiyachilar rahbarlik uchun tayanib, avtomatik tarzda yuqori darajadagi natijalarga erishishni ta’minlaydigan tayyor tavsiyalar yoki universal qoidalar emas.

Ular tarbiyachining maxsus bilimlarining ham, mahoratining ham o‘rnini bosa olmaydi.¹⁹

¹⁸ Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiysi qabul qilinganligining yigirma besh yilligiga munosabati bilan o‘tkazilgan tantanali marosimdagি nutqi. //Xalq so‘zi, 2017-yil 8-dekabr.

¹⁹ Tarbiya tamoyillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar I.V.Podlasiyning “Pedagogika” darsligi (– М.: Гуманитар.изд. центр ВЛАДОС, 2004. Кн.3. Процесс воспитания-256 стр.) asosida tayyorlandi.

Hozirgi kunda tarbiya tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- tarbiyaning ijtimoiy yo'nalanligi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi;
- tarbiyada bola shaxsining ijobiy jihatlariga tayanish;
- tarbiyada individual yondashuv;
- tarbiyaviy ta'sirlar birligi.

Endi tarbiya tamoyillariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

1. Tarbiyaning ijtimoiy yo'nalanligi

1. Tarbiyachi o'z faoliyatida davlat va jamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. Davlat xizmatidagi shaxs sifatida u tarbiya jarayonida davlat buyurtmasini bajaradi. Ammo u bola shaxsiga monopolist sifatida

emas, xalqning vakolatli vakili sifatida munosabatda bo'lishi kerak. Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash kerakki, bugun O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasida ijtimoiy manfaatlar ustuvorligini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. 2017-yilda «Yoshlar ittifoqi»ning tuzilganligi, yoshlarning mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rni va hissasini oshirish choralar ko'rilayotganligi fikrimiz isbotidir. Oliy ta'lim muassasalarida «Miliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» kursi, «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» fanining o'quv jarayoniga kiritilishi ham aynan shu maqsadga – yoshlar tarbiyasini ijtimoiy yo'naltirish, ularni davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchini anglaydigan shaxslar etib tarbiyalashga qaratilgan.

2. Tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi

2. Bolani real hayotdan, mehnat faoliyatidan ajralgan holda tarbiyalash mumkin emasligini qadimgi ajodolarimiz ham yaxshi bilganlar. Tarbiyalanuvchini yoshlikdan

jamiyatda tezda o'z o'mini topishiga, tezroq oddiy mehnat ko'nikmalarini egallab borishiga zamin hozirlaydi. Mehnat faoliyatiga jaib etish kechikkani sayin, bolaning umumiy rivojlanishi ham kechika boradi.

Zero, mehnat faoliyati davomida bola kattalar bilan muloqot qiladi, ularning topshiriq va ko'rsatmalarini bajaradi, xulq-atvor asoslarini egallaydi. Shu boisdan, bolani oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, umumiy o'rta ta'lim məktəbida mehnat faoliyatiga jaib etib borish yaxshi samara beradi. Oilada bo'lib o'tadigan boshqa tadbirdarda, masalan birgalikdagι mehnat jarayoni, to'y va

marosimlarda ishtirok etishi ham bola dunyoqarashini kengaytiradi, kattalar o'rtasida o'zini tutish, ular bilan to'g'ri muloqot qilish ko'nikmasini rivolantiradi. Bu ko'nikma bolaning kelajak faoliyatida qo'l keladi, albatta. Eng asosiysi, mehnat faoliyatida ishtirok etish mehnatning qadrini bilish, o'zgalar mehnatini hurmat qilishga o'rgatadi. Mehnat darsida biron buyumni yasaganda o'z mehnati mahsulini ko'rib quvonadi, ruhan ko'tarinkilikni his qiladi. Mehnat bolaning irodasini chiniqtiradi, qiyinchiliklarga bardosh berishga, kelajakka ishonch bilan yashashga o'rgatadi.

3. Tarbiyada bola shaxsining ijobji jihatlariga tayinish

3. Tarbiyachi birinchi navbatda tarbiyalanuvchini hurmat qilishi, uning ijobjiy yoki salbiy jihatlarini qanday bo'lsa shundayligicha qabul qilishi kerak. Tarbiya jarayonida bola shaxsidagi ijobjiy xislatlarni ko'paytirish hisobiga uning salbiy jihatlari bartaraf etib boriladi. Tajribali pedagoglar boshqalarga nisbatan sho'xroq bolalarda ham ijobjiy sifatlarni ko'ra oladilar. Ayrim tarbiyachilar bunday bolalarga doimo tanbeh berib, nuqsonlarini tanqid qiladilar. Bunday munosabat ularda umidsizlik uyg'otadi, o'zlariga bo'lgan ishonchni so'ndiradi. Aksincha, Ota-onalar va o'qituvchilar bola xulqidagi ijobjiy jihatlarni topib, ularni yanada ko'paytirishga harakat qilishlari lozim. Ta'lim jarayonida yetarli darajada o'zini namoyon qila olmagan o'quvchi sportda, mehnatda yoki tashkilotchilikda boshqalardan ustun bo'lishi mumkin. Pedagoglar va ota-onalar tomonidan aynan shu jihatlarga bo'lgan e'tibor ularda o'ziga nisbatan ishonch uyg'otadi va o'qishda ham ijobjiy ko'rsatkichlarga ega bo'lishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Taniqli pedagog Sh.Amonashvilining pedagogik faoliyati tarbiyada ijobjiy jihatlarga tayanish tamoyili bunga yaqqol misol bo'la oladi.

4. Tarbiyaning insonparvarligi

4. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining birinchi moddasida «Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingani, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak», – deyilgan. Aynan shu tamoyil ta'lim-tarbiya jarayonini ham

insonparvarlik ruhida tashkil etish uchun asos vazifasini o'tashi lozim. Insonparvarlik tamoyili quyidagilarga asoslanadi:

- tarbiyalanuvchining shaxsiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish;
- uning huquq va erkinliklarini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchiga uning imkoniyatlari darajasidagi talablarni qo'yish;
- tarbiyalanuvchining fikrini hurmat qilish;
- tarbiya jarayonida jismoniy jazo choralarini qo'llamaslik va boshqalar.

Ammo ta'lim-tarbiya jarayonida haddan tashqari talabchanlik yoki ko'ngilchanlik qilish ham mumkin emas. Bu borada ko'rsatmalar ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalarida bat afsil bayon qilingan bo'lishi zarur. Zero, Abu Nasr Forobiy ham bolaga nisbatan dastlab yumshoq usulni, bu natija bermasa jiddiyroq usulni qo'llash maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan edi.

5. Tarbiyada individual yondashuv

5. Tarbiyalanuvchining shaxsiy sifatlariga tayanib ish ko'rishni, uning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olishni nazarda tutadi.

Shaxsiy sifatlar tarbiya uchun o'ta muhim tavsiyalarni o'zida aks ettiradi – shaxsning yo'nalganligi, qadriyatları tizimi, hayotiy rejaları, faoliyati va xulq-atvori motivlari.

Individual yondashuv tarbiyachidan quyidagilarni talab qiladi:

- tarbiyalanuvchi temperamentining individual xususiyatlarini, qarashlarini doimiy o'rganib borish va yaxshi bilish;
- tafakkurining shakllanganlik darajasi, motivlari va qiziqishlari, hayotga va mehnatga munosabatlari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lish;
- har bir tarbiyalanuvchining istiqboldagi rivojlanishini ta'minlash maqsadida ularni imkoniyatlari darajasida tarbiyaviy tadbirlarga jaib etib borish;
- tarbiyalanuvchining shaxsiy faolligidan samarali foydalanish;
- o'zini-o'zi tarbiyalashga katta e'tibor berish, bu borada tarbiyalanuvchiga amaliy yordam ko'rsatish;
- mustaqillik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarni rivojlantirib borish;

- o'smirlarning ta'lif jarayonida, sportda o'z kuchi va imknoniyatlarini zo'riqishlardan saqlagan holda me'yorda safarbar etishlariga erishish;
- bir tarbiyalanuvchiga nisbatan qo'llaganda yaxshi samara beradigan metod boshqaga nisbatan kutilgan natija bermasligini nazarda tutish;
- bugungi kunda yoshlarning axborotlarni olish imkoniyatlari oshganligi natijasida ularning dunyoqarashi kengayib borayotganligini inobatga olib, o'zi ustida betinim ishlash, siyosat san'at va madaniyatga oid bilimlarini boyitib borish;
- individual yondashuv tamoyili faqat tarbiyasi og'ir bolalargagina emas, barcha tarbiyalanuvchilarga nisbatan amal qilish lozim.

6. Tarbiyaviy ta'sirlar birligi

6. Bu ta'lif-tarbiya jarayonining yakuniy natijasi oila, maktab mahalla, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorligi darajasiga bog'liq bo'lishdan bizni ogoh qiluvchi tamoyildir. Bolalikda

oilaning tarbiyaviy ta'siri kuchli bo'lib, keyinroq mактабда та'lifning boshqa turlarida muhitning, pedagoglarning va tengdoshlarning ta'siri kuchayib boradi. Ammo oila, mактаб, mahalla yoshlар tarbiyasini o'zaro hamkorlikda amalga oshirmas ekan, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin.

Ushbu tamoyilni ro'yobga chiqarishda quyidagi jihatlarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq:

- ota-onalar farzandlarining individual-psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishadi. Shu boisdan pedagog o'z faoliyatida bиринчи navbatda o'quvchi yoki tarbiyalanuvchining ota-onasi bilan aloqani mustahkamlashi va yaqin hamkorlik qilishi muhim;
- pedagogik faoliyatda sinf jamoasining tarbiyaviy ta'siridan ham samarali foydalanish, o'quvchilar o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan do'stona munosabatlarni yo'lga qo'yish lozim;
- ushbu tamoyilni amalga oshirish uchun pedagoglar yagona ta'sir tizimini sinfdan va mактабдан tashqari o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda ham joriy etishlari zarur;
- mактаб, sinf (guruh) rahbari, oila, mahalla, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirib borish maqsadga muvofiq.

Ushbu tamoyil to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, bu borada Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: «Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir»²⁰. Tarbiyaning yosh avlodni jamiyat talablari asosida shakkantirishdan iborat asosiy maqsadiga erishish uchun bola shaxsining har tomonlama – axloqan, jismonan va aqlan barkamol, mehnatsevar inson bo‘lib yetishishiga erishish zarur. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun pedagogika fanida tarbiya jarayoni shartli ravishda turlarga bo‘linadi

2. Institutsional belgilariiga ko‘ra:

- oilaviy tarbiya;
- maktab tarbiyasi;
- maktabdan tashqari tarbiya;
- maxsus tarbiya muassasalarda amalga oshiriladigan tarbiya.

1. Tarbiyaviy ishlarning yo‘nalishiga ko‘ra:

- baynalminal tarbiya;
- vatanparvalik tarbiyasi;
- jinsiy tarbiya;
- ijtimoiy tarbiya;
- iqtisodiy tarbiya;
- ekologik tarbiya;
- estetik tarbiya;
- huquqiy tarbiya.

4. Tarbiyachi tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlariiga ko‘ra:

- avtoritar;
- demokratik;
- liberal;
- erkin.

3. Xususiyatlariga ko‘ra:

- axloqiy tarbiya;
- aqliy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- mehnat tarbiyasi.

²⁰ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008. 176 b. 61-bet.

Tarbiyaviy ishlarning xususiyatiga va yo‘nalishiga ko‘ra turlarining o‘ziga xos jihatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Tarbiyaning tarbiyachi – tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlari hamda institutsional belgilari bo‘yicha turlarini mustaqil ravishda o‘rganamiz va amaliy mashg‘ulotda ularni batafsil tahlil qilamiz.

Axloqiy tarbiya – bolaning jamiyatga, odamlarga bo‘lgan munosabatlar tizimini tarkib toptirishdagi tarbiyaviy jarayon. Insonning axloqiy fazilatlari bolalikdan boshlab rivojlanadi. Kichik yoshdagagi bolaning axloqiy tarbiyasi kattalar bilan bo‘lgan munosabatdan boshlanadi. Bola kattalar bilan qanchalik ko‘p munosabatda bo‘lsa, uning atrofdagi muhitni emotsional idrok qilishi shunchalik faollandashadi²¹.

Shaxsning axloqiy tarbiyasi uning muomala odobi, etiket qoidalariiga rioya etishi, kasbiy odobi hamda o‘zgalarga nisbatan munosabatning barcha turlarida ko‘rinishi mumkin. Axloqiy tarbiya jarayonida yoshlarda axloqiy ko‘nikma va malakalar tarkib topadi va inson uchun zarur bo‘lgan axloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular: odamiylik, qanoatlilik, jonkuyarlik, mehribonlik, olivjanoblik, olivhimmatlilik, baynalminallik, g‘oyaviy sodiqlik, kechirilmilik, andishalilik, shaxsiy manfaatdan ijtimoiy manfaatdorlikni yuqori qo‘ya olishlik, bag‘rikenglik kabilardir²².

Aqliy tarbiya – shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to‘plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarни taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi.

Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya’ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Aqliy tarbiya ta’lim, o‘yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan muloqotda, ommaviy axborot

²¹ Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/ tuzuvchi M.N.Aminov, mas’ul muharrir M.A.Majidov. –T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 25-bet.

²² O’sha joyda, 27-bet.

vositalari orqali olinadigan axborotlarni qabul qilish va o'zlashtirishda yana ham takomiliga yetib boradi²³.

Baynalminal (tolerantlik) tarbiya – millati, irqi, urf–odati, qayerda istiqomat qilishidan qat'iy nazar turli millat bolalari bilan ahil, do'stona yashash ruhida tarbiyalash. «Baynalminal» arabcha so'z bo'lib, «millatlararo» degan ma'noni anglatadi.

Insoniyat tarixi turli millat va elatlар orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'naviy aloqalar o'rnatib, ularni tobora mustahkamlanib borishi jarayonidir, mazkur munosabatlarsiz esa ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi. Xalqlar o'rtasidagi baynalminal aloqalar milliy ong va o'z-o'zini anglash, milliy ozodlik hamda mustaqillik g'oyalarining shakllanishi va tarqalishiga, ilm-fan, texnika, madaniyat va ma'rifat sohalaridagi yutuqlarning ayriboshlanishiga keng yo'l ochib berdi. Baynalminalchilik umuminsoniy hodisa bo'lib, barcha xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyot sari harakatining, mustaqillik va milliy ozodlik kurashining g'oyat zo'r omilidir. Baynalminalchilik o'zga xalqlarning qahramonlik tarixini, ularning yaxshi an'analari, mehnatdagi yutuqlari, umuminsoniyatning yaratuvchilik ishiga qo'shgan hissalarini chuqur bilish asosida rivojlanadi. Lekin baynalminalchilik faqat aql va hissiyotning hosilasi emas. Bundan tashqari, albatta, u umumiyl boylikni birgalikda yaratish borasida shakllanadigan kishilar o'rtasidagi vatanparvarlik va axloqiy birlikni ham anglatadi²⁴.

Bugungi kunda respublikamiz rahbariyatining nafaqat qo'shni, balki boshqa rivojlangan davlatlar bilan ham har tomonlama hamkorlik aloqalarini tiklayotganligini millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyasi biz uchun faqat balandparvoz so'zlar bo'lib qolmasligidan dalolat beradi.

Bir necha asrlar avval ancha keng geografik chegaralarga ega bo'lgan Markaziy Osiyo hududi bugungi kunda ham yaxlit hudud bo'lib qoladi. Unga hozir ham konfessiyalararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, polilingvism kabi alohida xususiyatlar xosdir²⁵.

Vatanparvarlik tarbiyasi – bolalarni o'z yurtiga, Vataniga muhabbatli va sadoqatli qilib tarbiyalashdir. Vatanparvarlik barcha

²³ Tarbiya: (ota – onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/ tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muhamir M.A.Majidov. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat filmiy nashriyoti, 2010. 27-28-betlar.

²⁴ O'sha joyda, 29-bet.

²⁵ Алиев Р.М. Центральная Азия: Общность интересов / Р.М. Алиев. – Т.: Шарк, 2005.стр. 25

kishilar, xalq, millatlar uchun bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z Vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zları yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ulari jamlanmasi hamdir.

Vatanparvarlik tarbiyasi – Vatanni sevish, uni jon-dili bilan himoya qilish tuyg'ularini ilk yoshligidan bola qulog'iga quyish demakdir. Vatan hissi – muqaddas tuyg'u. Bu tuyg'u shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak, mushtarak tushuncha. Birini his etish uchun ikkinchisini bilmoq lozim²⁶.

Shu yerda biz ushbu materialni tayyorlash jarayonida Tarbiya (Ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) kitobi mualliflari tomonidan yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarga ham e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Jumladan, vatanparvarlik tarbiyasiga tavsif berishda mualliflar tomonidan quyidagi ibora ishlatalilgan: «O'zbekiston deganda o'zbek xalqini, o'zbek xalqi deganda O'zbekistonni tushunmoq kerak»²⁷. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari yagona oila bo'lib, teng huquqlilik tamoyili asosida istiqomat qilayotgan bir vaqtida ushbu jumlaning ishlatishini o'rinsiz, deb bilamiz.

Jismoniy tarbiya, badantarbiya – sog'lijni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiylar tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyatning ahvolini bildiruvchi ko'satkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashqlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

Jismoniy tarbiya bolaning aqlan va jismonan o'sishiga yordam beradi, uning axloqiy-irodaviy xususiyatlarini takomillashtiradi. Oilada jismoniy tarbiya vositalarining majmuasi: kum tartibini to'g'ri tashkil qilish, to'g'ri ovqatlanish, madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni hosil qildirish, sport bilan shug'ullanish, chiniqtirish va ochiq havoda sayr qilish kabilarni o'z ichiga oladi²⁸.

²⁶ Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) / tuzuvchi M.N.Ammov, mas'ul muharrir M.A.Majidov. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 98-99-betlar.

²⁷ O'sha joyda. 99-bet.

²⁸ O'sha joyda, 149-bet.

Ijtimoiy tarbiya – bolada ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatarni shakllantirish jarayoni. Shaxs shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ta'sirning aniq maqsad asosida amalgalashiriladigan, oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarbiyasi, mehnat jamoasi tarbiyasi, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarbiya institutlarini qamrab oladigan murakkab ma'naviy-ma'rifiy jarayondir.

Ijtimoiy tarbiyaning asosiy vazifasi jismoniy baquvvat, ma'naviy yetuk, ruhan tetik, mustaqil fikrlash, ishlash va yashash qobiliyatiga era bo'lgan zamonamizning ilm-fan, texnika – texnologiya yutuqlarini, ilg'or kasb-hunarlarni egallagan barkamol insonni shakllantirishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiya – jamiyat a'zolarini iqtisodiy bilimlar bilan muntazam ravishda boyitib borish, ularda xo'jalik yuritish ko'nikmasi va malakasini shakllantirish. Oilada bolalarni iqtisodiy tarbiyalash vazifasi oila budgetini to'g'ri olib borish mahorati, moddiy boyliklarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishdan iborat.

Iqtisodiy tarbiyaning vazifasi bolalarni boshqalar mehnatini e'zozlashga, boshqa oilalarning muhtojliklari hamda turli ne'matlarga ehtiyoj sezuvchilar haqida o'ylashga, davlatning gullab – yashnashi to'g'risida jon kuydirishga o'rgatishdan iborat²⁹.

Mehnat tarbiyasi – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan bo'lgan pedagogik jarayon. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichki ehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

Mehnat tarbiyasi avvalo, oilada bola o'zini anglay boshlashi bilanoq amalga oshirila boradi. Jumladan chaqaloqlar, go'daklik bosqichiga o'tishlari bilanoq ularga dastlabki mehnat tarbiyasi berila boshlanadi. Shunday qilinmasa, bola faqat iste'molchiga aylanib qoladi va natijada u noshud va yalqovgina emas, ma'naviyati kemtik shaxs ham bo'lib shakllanishi mumkin³⁰.

²⁹ Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/ tuzuvchi M.N.Aminov, mas'ul muharrir M.A.Majidov. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 156-betlar.

³⁰ O'sha joyda, 278-279-betlar.

Ekologik tarbiya – jamiyat ekologik madaniyatining muhim tarkibiy qismi, tabiat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini tartibga keltirish yo‘nalishlaridan biri.

Yosh avlodni ekologik tarbiyalash oila va mактабгача та’лим muassasalarida bolalarni sayrga olib chiqish, tevarak–atrof bilan tanishtirishdan boshlanadi. Bolalarning jonli burchakda o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilishlari, tabiat to‘g‘risidagi kitoblarni o‘qishi, film va radioshettilishlar ekologik tarbiyalashni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekologik madaniyat tabiatga mehr bilan munosabatda bo‘lish, unga nisbatan mas‘uliyatni his etish, tabiiy resurslarga nisbatan jonkuyarlik hissini qaror toptirish, iqtisodiy – xo‘jalik vazifalarini atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan qilib hal etish malakasini shakllantirish kabilarni o‘z ichiga oladi³¹.

Estetik tarbiya. Bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda, hayotdagи va san’atdagи go‘zallikni tushunish va qadrlashni bilishida, ma’naviy dunyosini boyitishida katta rol o‘ynaydi. Ota-onalar bolalarga tabiat, ijtimoiy hayot, san’atdagи go‘zallikni his qilish va shu kabilarni o‘rgatadi.

Estetik didni tarbiyalashda dastlabki o‘yinchoqlar katta o‘rin tutadi. Ular hayotni bilishni o‘rgatadi va birinchi estetik taassurotlar manbai hisoblanadi. Ota-onsa bolalarni xonalarni yig‘ishtirish, saranjom – sarishta qilishga jalb qilib, ularda estetik didni tarbiyalaydi.

Bolaning tashqi ko‘rinishiga bo‘lgan talablar estetik tarbiyada katta ahamiyatga egadir. Sodda va ozoda kiyina bilish, kishilar orasida o‘zini yaxshi tutish, xulq-atvorning yaxshi bo‘ishi ham go‘zallikdir³².

Hуquqiy tarbiya – jamiyat a’zolari, jumladan, yoshlar ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzlusiz singdirib borish jarayoni. Huquqiy tarbiya vositalariga huquqiy targ‘ibot, huquqiy ta’lim va amaliyot, o‘zini-o‘z tarbiyalash kiradi. Huquqiy tarbiya jamiyat a’zolarining ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi.

³¹ Tarbiya: (ota – onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/ tuzuvchi M.N.Aminov, mas‘ul muharrir M.A.Majidov. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 492-493-betlar.

³² O‘sha joyda, 496 – 497 – betlar.

Huquqiy tarbiya maktab, maktabdan tashqi muassasalar tomonidan ham amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari, radio, televideniye, ma’ruza yordamida olib boriladigan huquqiy targ‘ibot yaxshi samara beradi³³.

Yuqorida qayd etganimizdek, o’ta murakkab bo‘lgan tarbiya jarayonini ilmiy nuqtai nazardan chuqurroq tahlil qilish maqsadida shartli ravishda turlarga bo‘linadi. Amalda esa tarbiya bir vaqtning o‘zida kompleksli ravishda tashkil etiladi. Masalan, mehnat tarbiyasini jismoniy yoki iqtisodiy tarbiyadan ajralgan holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki mehnat bolani jismonan baquvvat bo‘lishiga, irodasi chiniqishiga va, albatta, mehnat orqaligina oilaning iqtisodiy barqarorligini ta’minlash mumkin ekanligini anglashiga xizmat qiladi.

Tarbiya metodlari va vositalari.

Endi bevosita tarbiyani tashkil etish masalasiga to‘xtalsak. Tarbiyani qanday amalga oshirish kerak? – degan savolga tarbiya metodi tushunchasi javob beradi.

Tarbiya metodi (yunoncha «metodos» – yo‘l) – bu tarbiya oldiga qo‘ylgan maqsadga erishish yo‘lidir. Metodlar bu tarbiyalanuvchilarda tarbiya maqsadi bilan belgilangan sifatlarni shakllantirish maqsadida ularning ongiga, irodasiga, his-tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish yo‘llaridir. Tarbiya mazmunining kengligi va serqirraligi bois, tarbiya metodlari ham xilma-xildir. Tarbiya metodining qay birini tanlash hamda qo‘llash tarbiyachining tajribasi va mahoratiga, tarbiyalanuvchining xarakteri va xulq-atvoriga, hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarga, aniq vaziyatga bog‘liqdir.

Tarbiya jarayonida bizga qadar foydalanib keligan metodlar **umumiyl metodlar** deb ataladi. Jamiyat hayotida, inson yashaydigan shart-sharoitlarning o‘zgarishi tarbiya mazmuni va, albatta, tarbiya metodlarini ham takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Tarbiya usuli metodga nisbatan torroq tushuncha bo‘lib, u ma’lum bir metodni qo‘llashga xizmat qiladi. Masalan, jismoniy tarbiyada namuna metodi yordamida mashqlarni bajarish yetarli emas. Buning uchun taqdimot materiallaridan, chizmalar va metodik qo‘llanmalardan keng foydalanamiz, ya’ni usullarni ishga solamiz.

³³ Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) / tuzuvchi M.N.Aminov, mas’ul muharrir M.A.Majidov. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.. 521-522-betlar.

Rag'batlantirish metodida – ma'qullash, maqtash, tashakkurnoma, mukofotlash usullarini, ishontirish metodida – ta'sir qilish, tushuntirish, suhbat usullari, jazo metodida – e'tiroz, ogohlantirish, xayfsan usullari keng qo'llaniladi.

Tarbiya usullari tarbiyachining izlanuvchanligi va topqirligiga bog'liq: Ijodkor tarbiyachi yangidan yangi usullarni kashf etishi mumkin.

Tarbiya vositasi tarbiya metodi bilan bирgalikda qo'llanilib, uning samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ta'lim vositalari singari, tarbiya vositalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, badiiy asarlar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlarni ham kiritishimiz mumkin.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qalamiga mansub quyidagi satrlarda tarbiya vositalariga aniq misollarni ko'rish mumkin: «...xonadondagi har bir narsa – daraxt va o'simliklar bo'ladimi, turli o'yinchoqlar, uy hayvonlari bo'ladimi – bularning barchasi bolaning ko'ziga go'yoki beqiyos mo'jiza bo'lib ko'rindi va shu tariqa u yorug' dunyonni o'zi uchun kashf qiladi».³⁴

Tarbiya metodlari va vositalardan samarali foydalanish har bir pedagogning mahoratiga bog'liq. Barcha metodlar ham pedagoglar tomonidan bir xil darajada qo'llanilmaydi va kutilgan natijani bermaydi. Erishilgan tarbiyaviy natija tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning individual – psixologik xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Metod bir martalik ta'sir bo'lsa, **vosita** – bu metodlar yig'indisidir. Vosita bu usul emas, ammo metod ham emas. Masalan, mehnat – tarbiya vositasi, ammo mehnat natijasini baholash, uning samaradorligini oshirish yuzasidan ko'rsatmalar berish – bu usuldir. Keng ma'noda so'z – tarbiya vositasi, ammo iqtibos, izoh, taqqoslash yoki tanqid – bu usuldir. Metodning tarkibida usullar va vositalar, albatta, mavjud bo'lgani bois, ayrim hollarda tarbiya metodlari tarbiyaviy maqsadga erishish yo'lidagi usullar va vositalar sifatida izohlanadi. Tarbiya metodlarining turlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, G.I.Shukin, Yu.K.Babanskiy, I.P.Podslasiylarning fikriga qo'shilgan holda ularni tarbiyaning maqsadi sari yo'nalganligiga qarab turlash eng qulay deb hisoblaymiz.³⁵ Bular quyidagilar:

³⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: "Ma'naviyat", 2008. 54- bet.


³⁵ И.В.Подсласий. Педагогика. -М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004. Кн. 3. Процесс воспитания. Стр. 104-105

1. Shaxsning ongini shakllantiruvchi metodlar.
2. Faoliyatni tashkil etish va ijobiy xulq-atvor tajribasini shakllantirish metodlari.
3. Xulq-atvor va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Darhaqiqat, tarbiya metodlarining maqsadiga qarab turlanishi bizga ularning o'zaro bog'liqligini, umumiy va o'ziga xos jihatlarini yanada yaqqol tasavvur qilish imkoniyatini beradi.

- 1. Shaxsning ongini shakllantirish metodlari** oldin ishontirish metodlari deb ham atalgan.

Tarbiya jarayonida qandaydir sifatni shakllantirish uchun, avvalo uning mazmun-mohiyatini tasavvur qila olish kerak. Tarbiyachilar tarbiya mazmuni bilan belgilangan faoliyatga kirishishga tayyor bo'lganidagina metodlar o'z maqsadiga erishadi.



Tarbiya metodlarining I.P.Podlasiy tomonidan turlanishi (ajratib ko'rsatilgan tushunchalar mualliflar tomonidan kiritilgan).

Bolalarning ongiga ta'sir ko'rsatish uchun to'g'ridan to'g'ri beriladigan ko'rsatmalar kutilgan natijani bermaydi. Vaziyatlar, masallar va ibratli hikoyalardan foydalanish tarbiyaning ruhan yangilanishiga yordam beradi, metodlarni qo'llash* samaradorligini oshiradi. Shuningdek, axloqqa oid hikoyalar, tushuntirish, ta'riflash, ma'ruza, ko'ndirish, ta'sir ko'rsatish, ko'rsatma berish, munozara, nutq so'zlash metodlaridan foydalanish amaliyoti joriy etilgan. Bir qarashda oddiy ko'ringan ushbu metodlarni qo'llash yuqori darajadagi pedagogik mahoratni talab qiladi.

Metodlarning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Axloqqa oid hikoya bolalarni axloqiy me'yirlarni, «nima yaxshi?», «nima yomon?» – kabi savollarga javob topishga, hikoyadagi timsollarning xatti-harakatlarini baholashga o'rgatadi, ularning xulqini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shunga qaramasdan, ta'sirchanlikni oshirish uchun hikoya quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- bolalarning yoshiga, ijtimoiy tajribasiga mos bo'lishi kerak;
- ko'rgazmali vositalar bilan boyitilishi zarur;
- tinglash va mazmunini anglash uchun qulay sharoit yaxshi samara beradi;
- notiqlik mahorati talab etiladi;
- yakuniy xulosalar bilan tugallanishi maqsadga muvofiq.

Ta'riflash – tinglovchiga hissiy – nutqiy ta'sir ko'rsatish metodi. Oddiy huquqbazarlik sodir etilganida ta'riflash shart emas. Masalan, partaga chizmaslik, tuflamaslikni tushuntirish uchun ta'rif shart emas. Agar butun sinf darsdan ketib qolsa yoki naybatchilikni tashlab ketsa, ushbu xatti-harakatlarning oqibatlarini chuqurroq tahlil qilib, ta'riflash maqsadga muvofiq.

Ta'riflash ta'sir **ko'rsatishga** asoslanadi. Ta'sir bola ongiga sezdirmasdan kirib borib, shaxsning faoliyatiga, xulqiga turtki beradi. Ta'sir ko'rsatish boshqa tarbiya metodlarining ta'sirini kuchaytirish uchun qo'llaniladi.

Tarbiya amaliyotida iltimosning ta'riflash va ta'sir ko'rsatish bilan uyg'unligini ta'minlaydigan **ko'ndirish** metodidan ham foydalaniladi. Ko'ndirishning pedagogik samarasи tarbiyachining obro'sи, shaxsiy

axloqiy sifatlari, o'z so'zlari va faoliyati to'g'riliqiga bo'lgan ishonchiga bog'liq.

Axloqiy mavzudagi suhbat – tarbiyachi va tarbiyalanuvchi ishtirokini nazarda tutuvchi bilimlarni tizimli va izchil muhokama qilish metodidir. Suhbatning hikoyadan farqi shundaki, bu yerda tarbiyachi tarbiyalanuvchining ham fikrini tinglaydi va inobatga oladi. Bunday suhbat tenglik va hamkorlik ruhida kechadi. Unda axloqiy muammolar muhokama qilinadi.

Munozara – bu tarbiyalanuvchilar uchun qiziqarli mavzularda o'tkaziladigan jonli va qizg'in bahsdir. Munozara oldindan belgilangan va qatnashchilar e'tiboriga yetkazilgan 5–6 ta savol bo'yicha o'tkaziladi. Tarbiyachi munozara ishtirokchilarini o'zi belgilashi mumkin. U munozara ishtirokchilarini o'z fikrlarini tartibga solishga, asoslashga o'rgatishi lozim. Bu metod pedagogdan katta mahorat talab qiladi.

Namuna – o'ta ta'sirchan tarbiyaviy metod. Namuna taqlid qilish uchun aniq timsolni namoyon qiladi, shu boisdan, ongni, his – tuyg'ularni va e'tiqodni faol shakllantiradi, faoliyatni tezlashtiradi. Namuna to'g'risida gapirganda, eng avvalo, eng yaqin odamlar – ottonalar, tarbiyachilar nazarda tutiladi. Namuna faqat ijobiy emas, salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

2. Faoliyatni tashkil qilish metodlari

Qadimdan o'zining samaradorligi bilan ma'lum bo'lgan va keng qo'llanilib kelgan metod – bu **mashq** metodidir. Faoliyat ijtimoiy tajribani egallashning hal qiluvchi omilidir. Maqsadli faoliyatsiz talab qilinayotgan xulq-atvor turini shakllantirib bo'lmaydi.

Mashq faoliyatga jalb qilish yo'li bo'lib, belgilangan harakatlarni avtomatik darajaga yetkazish maqsadida ko'p marta takrorlashdan iborat amaliy tarbiya metodidir. Mashqlar natijasi shaxsning barqaror sifatlari – malaka va odatlaridir.

Mashqlar samaradorligi quyidagi muhim omillarga bog'liq:

- mashqlar tizimi;
- ularning mazmuni;
- imkoniyatga mosligi;
- hajmi;
- takrorlash sur'ati;
- nazorat va tuzatish ;
- tarbiyalanuvchilarning shaxsiy xususiyatlari;
- bajarish joyi va vaqt;

- yakka tartibdagi, guruhlardagi va jamoaviy shakllari uyg'unligi;
- mashqlar motivatsiyasi va rag'batlantirish.

Mashqlar tizimini rejalashtirishda tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda qanday ko'nikma va odatlarni shakllantirmoqchi ekanini aniq tasavvur qilishi kerak. Tarbiyalanuvchilarda hayotda zarur bo'lgan, muhim va foydali sifatlarni shakllantirish lozim.

Talab – bu tarbiya metodi bo'lib, uning yordamida tarbiyalanuvchining u yoki bu faoliyati, ayrim sifatlarining namoyon bo'lishi rag'batlantiriladi yoki to'xtatiladi. Talab bevosita yoki bilvosita bo'lishi mumkin.

Bevosita talab – aniq, boshqacha talqinga o'rin qoldirmaydigan ohangda bayon etiladi. **Bilvosita talab** – maslahat, iltimos, ko'rsatish, ma'qullah ko'rinishida bayon qilinadi. Talab ijobiy, salbiy yoki neytral (loqayd) munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Saboq berish – bu tez sur'atlarda bajariladigan metod. Undan talab qilinayotgan sifatni qisqa muddatda yuqori darajada shakllantirishda foydalilaniladi. Ko'p hollarda saboq berish og'riqli jarayonlarga sabab bo'lib, norozilik keltirib chiqaradi. Eski maktablardagi jazo choralar, yaqin o'tmishdagi harbiy kazarma tizimini bunga misol qilish mumkin.

Topshiriqlar metodi yaxshi natija beradi. Ular yordamida o'quvchilar ijobiy xulq-atvorga o'rgatiladi. Topshiriq turli mavzuda bo'lishi mumkin: bermor o'rtog'idan xabar olish, bolalar bog'chasi uchun o'yinchoqlar tayyorlash, sinfni bayramona bezatish va hokazo Topshiriq natijasi, albatta, nazorat qilinishi lozim.

Tarbiyalanuvchi faoliyati va xulq-atvorini maxsus sharoitlarda tashkil etish qisqacha **tarbiyalovchi vaziyatlar** metodi deb ataladi. Vaziyat o'ylab topilgan bo'lmasligi kerak. Ular hayotni barcha qarama-qarshiliklari va muammolari bilan aks ettiradi. Tarbiyachi faqat vaziyat kelib chiqishi uchun sharoit yaratib beradi, vaziyat esa tabiiy bo'lishi kerak.

3. Rag'batlantirish metodlari.

Rag'batlantirishning asosiy maqsadi ayrim harakatalarni tezlatish yoki to'xtatishdan iborat. Qadimdan rag'batlantirishning rag'bat va jazo shakllari ma'lum.

Rag'bat tarbiyalanuvchining ruhini ko'taradi, g'ayratini oshiradi, o'z kuchiga ishonch uyg'otadi, ma'naviy oziq beradi. Rag'bat shakllari quyidagilardan iborat: ma'qullah, ishonch bildirish,

maqtash, og‘zaki va yozma tashakkur, maqtov qog‘ozi bilan mukofotlash va boshqalar.

Ma’lumki, Sohibqiron Amir Temur rag‘batlantirish metodidan o‘ta samarali foydalangan. Masalan, «...hukm chiqardimki, amirlardan qaysi biri g‘anim qo‘lidagi biror mamlakatni fath etib, dushman tasarrufidan ozod qilsa, shu mamlakatni uch yilga unga in’om tariqasida bersinlar.

Va amir qildimki, qay bir askar qilich chopib bahodirlik ko‘rsatsa, unga in’om tariqasida cho‘moq, qimmatbaho toshlar qadalgan o‘qog‘a, kamar, turna bellik qilich va bir ot bersinlar hamda o‘nboshilik martabasiga ko‘ratsinlar. Ikkinchchi, uchinchi bor bahodirlik ko‘rsatsa, yuzboshi va mingboshi martabasiga yetishadi».³⁶

Jazo tarbiyalanuvchilarda mavjud bo‘lgan salbiy sifatlarni bartaraf etishga xizmat qiladigan va ulardan saqlaydigan metodlardan biridir. Jazo shakllari:

- qo‘shimcha majburiyatlar yuklash;
- ayrim huquqlarda cheklash yoki ulardan mahrum qilish;
- salbiy axloqiy munosabatni bildirish, qoralash.

Maktablarda norozilik bildirish, ogohlantirish, majlisda muhokama qilish, huquq – tartibot organlari ro‘yxatiga qo‘yish, oliv ta’lim muassasalarida talabalar safidan chiqarishgacha jazo shakllari mavjud. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimida aniq natijani ta’minkaydigan samarali jazo metodlarining mavjud bo‘lmaganligi oqibatida tartib-intizomning izdan chiqqanligi bugungi kunda ushbu sohada amalgalashirilayotgan tub o‘zgarishlar uchun asosiy omil bo‘ldi.

Jazo metodining samaradorligini ta’minkaychi pedagogik sharoitlar:

1. Jamoa tomonidan belgilangan jazoning ta’siri kuchli bo‘ladi.
2. Jamoaviy jazoni qo‘llash (ya’ni bir kishi uchun butun jamoani jazolash) tavsiya etilmaydi.
3. Jazolash to‘g‘risida qaror qabul qilindimi – aybdor jazolanishi kerak.
4. O‘quvchi uchun tushunarli bo‘lgan va adolatli ekanligi tan olingan jazoning ta’siri samaralidir.

³⁶ Temur tuzuklari /So‘zboshi muallifi va mas’ul muharrir M.Ali, forschadan tarj. A.Sog‘uniy va H.Karamatov. – T.: Sharq, 2005.100-bet.

5. Jazo choralarini qo'llashda tarbiyalanuvchilar **kamsitilmasligi** lozim.

Faoliyatni va xulq-atvorni shakllantirishning **subyektiv – progrmatik metodi** tarbiyalanuvchilarga beodoblik, tartib-intizomga rioya qilmaslik, jamoat tartibini buzish shaxs uchun ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan zararlidir degan qoidaga asoslanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bolalikning ilk davridanoq beshafqat raqobat muhitida kurashga jalb etadi va hayotga jiddiy tayyorgarlik ko'rishga majbur qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda mакtab tarbiyasi utilitar (tor amaliy natijaga, moddiy manfaatga qaratilgan) mazmun kasb etishi va o'quv yurtini tamomlagandan keyin ish topish, yashash uchun tegishli sharoitlarga ega bo'lishdan iborat bosh maqsadga qaratilgani bejiz emas (mazkur yondashuv (subyektiv – progrmatik) bugungi kunda O'zbekistondagi yoshlar tarbiyasida ham yetakchi o'ringa chiqmoqda).

Pedagoglar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan tarbiyaviy maqsadda foydalanadilar. Ular yaxshi mакtab tarbiyasini kishining kelajakdagi ijtimoiy-iqtisodiy mavqeい bilan bog'laydilar. Ular axloqsiz, bilimsiz odamlar yaxshi lavozimlarni egallahda kam imkoniyatlarga ega bo'lishi, ish haqi kam va nufuzi past bo'lган ishlarga qabul qilinishi, ishsizlar safini birinchilardan bo'lib to'ldirishini aniq misollar bilan asoslaydilar.

Tarbiya to'g'risidagi fikrlarimizni quyidagi so'zlar bilan yakunlamoqchimiz: ta'lim-tarbiya shaxsning shakllanishida asosiy omil hisoblanadi. Lekin, alohida olganda tarbiya jarayoni ta'limga nisbatan bir necha bor murakkabdir Bu jarayonni o'rganish va samarali amalga oshirish pedagogdan kuchli iroda va chuqur pedagogik-psixologik bilimlarni talab qiladi. Ammo, har bir bo'lajak o'qituvchi birinchi navbatda tarbiyaning nazariy asoslarini mukammal bilishi zarur.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Tarbiya nazariyasi nimani o'rganadi?
2. Tarbiya jarayonining maqsadi nimadan iborat?
3. Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rindi?
4. Tarbiyaning asosiy tamoyillari va turlarini tavsiflang.
5. Tarbiya tamoyillarga qanday talablar qo'yiladi?
6. Tarbiya jarayonining o'zarob bog'liq qanday tarkibiy qismlari bor?
7. Shaxsga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
8. Tarbiyaning metodlari deganda nimani tushunasiz?
9. Nimalarni tarbiya vositalari deyishimiz mumkin?
10. Tarbiyaning xususiyatlariga, tarbiyaviy ishlarning yo'nalishiga, tarbiyachi – tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarga va institutsional belgilariiga ko'ra turlanishi izohlab bering.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

Tarbiyaning mazmunini to'liq anglash, uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish, tarbiya turlarining o'zarob farqlari hamda o'xshash jihatlarini aniq misollar yordamida yoritib berish.

Asosiy tushunchalar: tarbiyaning mazmuni, tarbiya bir butun jarayon sifatida.

Talabalarga topshiriqlar

1. Asosiy tushuncha va atamalarni o'rganish.
2. O'rganilgan adabiyotlar asosidagi jadvalni to'ldirish.
3. «Tarbiya mazmuni» tushunchasini izohlash.

Tarbiya	Mazmuni va vazifalari	Metodlari, xususiyatlari, shakllari, munosabatlari	Samaradorligi va kamchiliklari	Tarbiyaning boshqa turlari bilan bog'liqligi
Axloqiy				
Huquqiy				
Ekologik				
Badiiy				

4. Sharq va G'arb ma'rifatparvarlarining tarbiya haqidagi fikrlaridan foydalaniib, jadvalni to'ldiring.

Ma'rifatparvar allomalar	Asarlari	Tarbiya haqidagi fikrlari
Beruniy		
Behbudiy		
Kaykovus		
Komenskiy		
Russo		
Ushinskiy		

OILA PEDAGOGIKASI VA UNING MILLIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja:

- 1.Oila jamiyat taraqqiyotining asosiy poydevori
- 2.Oilaning huquqiy asoslari
- 3.Oilaning huquq va majburiyatlari
- 4.Oilaning barkamol shaxs tarbiyasidagi vazifalari.

Tayanch tushunchalar: *oila, jamiyat, taraqqiyot, fuqarolik jamiyati, huquq, majburiyat, qonun, ijtimoiy institut, ma'naviyat, madaniyat, tarbiya, ta'lim, nikoh, burch, vazifa, ko'nikma, bilim, mas'uliyat, kommunikativlilik, motivatsiya.*

Mavzuning qisqacha mazmuni: mavzuda oila va uning vazifalari, hukumatimiz tomonidan oila, onalik va bolalikni ijtimoiy himoya qilish borasidagi siyosatning mazmun va mohiyati, oilada bola tarbiyasi haqidagi ma'lumotlar ilmiy-pedagogik jihatdan talqin qilinadi. Shuningdek, talabalar mazkur manba orqali oila o'zi nima, oilaning asosiy huquq va majburiyatlari, vazifalari, oilada tarbiya shakllari, metodlari, vositalari tog'risida ilmiy-nazariy bilimlarga ega bo'ladilar.

OILA – JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY POYDEVORI DEGANDA NIMALAR NAZARDA TUTILADI?

Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik xilma-xil va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XXI asrda ro'y berayotgan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan fuqarolik jamiyatining eng katta tuzilmasidir.

Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qli, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni, o‘z uyida, oilasida baxtli bo‘lgan insongina o‘zini to‘laqonli baxtiyor his etadi.

“Biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur”

Sh.M.Mirziyoyev

Ma’lumki, bu yorug‘ olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor bo‘lsa, farzand deb atalmish ulug‘ va bebahone’mat bor. Har qaysi ota-onajondan aziz farzandining baxtini, kamolini o‘ylab, hamisha ezgu orzu-umidlar bilan yashaydi, o‘zdilbandining sog‘lom va baquvvat, barkamol inson bo‘lib ulg‘ayishini istaydi. Mustaqil va yangicha fikrlaydigan, zamon talablariga javob beradigan, ma’naviy boy, Vataniga sodiq va fidoyi, axloqan yetuk, intellektual rivojlangan, chuqur bilimli, har tomonlama kamol topgan shaxs ham, avvalo, sog‘lom turmush tarzi

Oila – er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo‘jalik) va ma’naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar bilan xarakterlanadi.

Oila-tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq.

qaror topgan oilada shakllanadi. Bu o'rinda ilgari surilayotgan pedagogik g'oyaning tub mohiyati oila tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish bilan bog'liqdir. Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatning o'mni uni tarbiyadagi uzviylik, uzlusizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir. Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta'lim-tarbiyaga doir bilimlarni mushtarak holda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, odob-axloq qoidalarini sinovdan o'tkazuvchi va amalga tatbiq qiluvchi ota-onaning faoliyatidir. Umuman olganda, oila va uning mohiyati, har tomonlama ravnaqi va jipsligini ta'minlash shart-sharoitlari, oila tarbiyasi milliy iftixor, jamiyat negizi ekani, oila kamolotini ta'minlash singari muammolarni tadqiq etish hamda ularni xalqqa sodda va tushunarli tarzda yetkazish shu kunning dolzarb vazifasidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, oilaga bo'lgan e'tibor yanada oshdi. Oila fuqarolik jamiyatining, davlatning eng muhim hujayrasi, zarrasi, bo'g'ini. Oila uch jihatni: o'zining bevosita ko'rinishi bo'lmish nikohni; oilaviy mulk va anjomlar hamda ular haqidagi g'amxo'rlikni, bolalar tarbiyasini o'z ichiga oladi. Qonunga binoan nikoh tuzish shartlarida eng muhimlari – nikohga kiruvchilarining o'zaro roziligi va ularning nikoh yoshiga yetganligi hisoblanadi. Oila poklik va soflikka, ikki tomonlama muhabbatga, sadoqat va vafodorlikka asoslanishi kerak. Oila mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina jamiyatda barqarorlik vujudga keladi.

Oila insonning ilk bolaligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyatlar, qadriyatlar takomil topadigan va sog'lom e'tiqodlar shakllanadigan muqaddas dargohdir.

(Umarova M.M. Oila va ma'naviyat, Toshkent «Fan» nashriyoti 2006 yil – 56 b)

OILANING HUQUQIY ASOSLARINI BILASIZMI ?

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda oila va uning bilan bevosita bog'liq masalalar qonun yo'li bilan muhofaza qilingan va kafolatlangan. Chunki u jamiyatning ajralmas bir

bo'lagidir. Bundan jamiyat va oila dialektik birlikni tashkil qiladi degan mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Oila huquqining asosiy manbai **O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir**. Konstitutsiyaning XIV bobi «Oila» deb nomlanib, 63 – 64 – 65 – 66 moddalari oilaning huquqiy kafolatlariga ajratilgan. 63 – moddada: «Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega» deyiladi.

Oila huquqining asosiy manbai, keng qamrovli oila qonunchiligining negizi O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksidir.

1998-yil 30-aprelda Oliy Majlisning XII sessiyasida umumxalq muhokamasidan so'ng «Oila Kodeksi» ning bir ovozdan qabul qilinishi, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevraldag'i 54-sonli qaroriga binoan Respublika «Oila» ilmiy – amaliy Markazining tashkil etilganligi, qator yillar shu masalaga bag'ishlanib, davlat dasturlarining qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq etilib kelinayotganligi hukumatimiz tomonidan oila farovonligi, tinchtotuvligi va barqarorligini ta'minlashga bo'lgan e'tiboridan dalolatdir. Oila davlat qaramog'ida bo'lar ekan, unda, albatta, onalar ijtimoiy muhofazasi masalasini hal etmoq lozim.

“Kadrlar tayyorlash milliy dastur”ida masalaga quyidagicha urg'u berilgan:

Ya'ni:

– “oila oilaviy an'analarni hamda ma'naviy-axloqiy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchi;

– jamiyatning eng kichik bir qismi bo'lib, bolaning madaniy, estetik va boshqa ehtiyojlari o'sishini va sog'lom turmush tarzini ta'minlovchi;

– bolaning fe'l-atvori asoslarini shakllantiruvchi birinchi murabbiy;

– hayotning barcha jahbalarida yosh avlodning doimo maslahatchisi, yo'l-yo'riq ko'rsatguvchisidir”.

Huquqiy jihatdan kafolatlangan oila o'z burchlarini ham unutmasligi lozim. Shulardan eng asosiysi, oilani yaxshi oila qilib ko'rsatuvchi fazilatlardan biri – farzandlarni oila qurishga tayyorlashdir. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash – oilalarning mustahkamligini ta'minlashning muhim shartidir. Oila poydevorining mustahkamligi – jamiyat poydevori va binosini puxta qilib qurishni ta'minlashning

asosiy shartidir, uning moddiy va ma'naviy barkamolligi esa davlat va jamiyat farovonligi va barqarorligining negizidir. Zero, «Oila farovonligi milliy farovonlik asosidir»³⁷.

Respublikamizda oilaning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq barcha masalalarni o'zida mujassam etgan quyidagi yo'nalishlarda muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, Vatanimiz mustaqilligining qisqa davri ichida oila, onalik va bolalikni muhofaza qilish, fuqarolarning huquqiy ma'rifatini oshirish, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy – maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan nochor oilalarni, nogironlarni, qarovchisiz keksalar, yolg'izlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada ma'naviy va jismoniy barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Ikkinchidan, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurish jarayoni shaxdam qadamlar bilan borayotgan bir sharoitda qonun ustuvorligini ta'minlash zamirida oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Oliy Majlisning XII sessiyasida yangi mazmundagi «Oila Kodeksi» qabul qilindi.

Huquqiy demokratik jamiyatning asosiy mezonlaridan biri

Tarixan qisqa davr ichida o'zbek oilasi hayotida qanday ijobiy o'zgarishlar yuz berdi? Uni sarhisob qiladigan bo'lsak, avvalo mustaqillik sharofati tufayli oila va uning manfaatlarini har tomonlama muhofaza etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi olamshumul voqeа bo'ldi.

hisoblangan inson huquqlari shu jumladan, oila, onalik va bolalikning huquqiy manfaatlarini muhofaza etuvchi maxsus tizim yaratildi. (Inson huquqlari bo'yicha Milliy Markaz, Ombudsman instituti, Oliy Majlis huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti, yuridik universiteti huzuridagi huquqiy targ'ibot Markazi va boshqalar tashkil etildi).

³⁷Karimov I.A. Xavfizilik va barqaror taraqqiyot yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1998. №00-bet.

O'zbekiston hukumati mamlakatimiz oilalari, xotin-qizlari va bolalarining huquq va manfaatlarini xalqaro huquq normalari doirasida himoya etilishini ta'minlash maqsadida o'nga yaqin xalqaro huquqiy hujjatlarni (Konvensiya, Deklaratsiya, pakt va boshqalar) ratifikatsiya qildi.

Uchinchidan, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash, uy mehnati va madaniy-maishiy turmush sharoitini yaxshilash, oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan, qarovchisini yo'qotgan nochor oilalarni, nogiron, yetim-yesirlar, yolg'iz keksalar, bemorlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, oilada jamiyat talablariga mos komil insonlarni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar butun dunyo xalqlarining diqqat-e'tiborida bo'lmoqda.

To'rtinchidan, Respublikamiz Birinchi Prezidenti tomonidan ayolsiz oila, oilasiz davlat va jamiyat bo'lishi mumkin emasligi amaliy isbotini topdi. Oilaning tinch totuvligi, mustahkamligi, barqarorligi va farovonligi davlat va jamiyatning taraqqiyotida asosiy omil ekanligi keng jamoatchilik tomonidan yangicha munosabat asosida tan olindi.

Beshinchidan, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan 1998-yilning «Oila yili», 1999-yilning «Ayollar yili» deb e'tirof etilishi va shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinganligi va amaliyotga joriy etilganligi, mamlakatda Respublika «Oila» ilmiy – amaliy Markazi va uning quyi bo'limlari tashkil qilinganligi oila, onalik va bolalik manfaatlarini nafaqat huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza etish, balki ilmiy-amaliy nuqtai nazaridan o'rganish va olg'a surilgan g'oyalar asosida oilalarning har tomonlarna farovonligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xayrlı ishlар debochasidir.

Oilada oilaning har bir a'zosini qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, har bir shaxsda qonunga hurmat tuyg'usini shakllantirish uchun oila, mahalla, mакtab va mutasaddi tashkilotlar hamkorligi mexanizmlarini yaratish va uni amaliyotga tatbiq etishini qat'iy ta'minlash huquqiy demokratik jamiyatning huquqiy madaniyatli fuqarolarini tarbiyalashning muhim omilidir.

Oltinchidan, davlat xizmati tizimiga oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza etish masalalari bo'yicha maxsus shoxobcha

kiritildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1995-yil 2-martdag'i Farmoniga binoan Respublika xotin-qizlar qo'mitalari raislariga hokim o'rinnbosarlari maqomi berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tarkibida oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish kotibiyatlari kiritilib, faoliyat ko'rsata boshladi.

Yettinchidan, kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etishning muhim mezonlaridan biri jamoat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatlarini kuchaytirish, ularning vakolatlarini kengaytirishga alohida e'tibor berilayotgan bir vaqtida, oila, xotin-qizlar va bolalar manfaatlarini muhofaza etuvchi o'ndan ortiq jamoat tashkilotlari dunyoga keldi.

O'tgan qisqa vaqt mobaynida oilaning muqaddasligini ta'minlash borasida erishilgan ushbu yutuqlar negizida mamlakatimiz buyuk kelajagining poydevorini mustahkamlash va uning taraqqiyotiga ishonch yotibdi. Shuningdek, barcha bosqichlardagi FHDYOlар qoshida nikohga kirayotgan yoshlар uchun «Oila dorilfununi» maxsus kursini joriy etish ularni oilaga tayyorlashda muhim rol o'ynashi tabiiyidir. Mahalla fuqarolar yig'indilari qoshida «Oila ma'naviyati», maxsus o'quv kursi, barcha mutaxassisliklar bo'yicha bo'lajak ilmiy-pedagogik

Mamlakatimizda oila farovonligini ta'minlash davlatimizning asl maqsadidir. 2016 yilning «*Sog'lom ona va bola*» deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan «*Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 2016 yilda amalga oshiriladigai chora – tadbirlar Davlat Dasturini*» ning qabul qilinishi va amaliyotga tadbiq etilishi fikrimiz isbotidir.

kadrlar uchun «Oila masfurasi» o'quv kurslari tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda hozirgi kunga qadar Oila davlat himoyasida, bu bejiz emas, albatta. Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili» deb e'lon qilindi va shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi tomonidan maxsus Davlat dasturlari qabul qilindi.

Oila nima uchun jamiyatning asosiy poydevori hisoblanadi? Chunki, insoniyatning paydo bo'lishi, oilalarning vujudga kelishi, ularni qadriyat sifatida himoya qilish zamirida jamiyat tashkil topgan. Oilalarning har tomonlama mustahkamligi, tinch – totuvligi

jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun oila jamiyatning asosiy va tayanch bo'g'ini ekanligini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- insondagi barcha insoniy fazilatlarning poydevori oilada tarbiyalanadi;
- shaxs esa jamiyatning bir bo'lagi sifatida oilada olgan hayot falsafasini jamiyat taraqqiyotiga tatbiq etadi, o'zining bor qobiliyati, imkoniyati, tarbiya qirralarini millat, xalq, mamlakat, jamiyat ravnaqi uchun safarbar etadi.

Fuqarolar yig'inlarining "Vovaga etmaeanlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissivasi". "Yarashtirish komissivasi". "Xotin – qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya", "Ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissivasi" faoliyatiga oid Nizomlar hamda "Fuqarolar vige'inining diniv ma'rifat va ma'naviy – axloqiy tarbiva masalalari bo'yicha maslahatchisi faoliyatini to'g'risida"gi Nizomda oila manfaatlariغا oid masalalarga alohida ahamiyat qaratilgan.

ularga hayotda amal qilishga o'rgatish, mamlakatimiz va dunyo mamlakatlari siyosiy hayotidan voqif etish, yashashga o'rgatish nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 3-fevraldag'i «Mahalla institutlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF 4944-son qarori bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyatini yanada oshirish maqsadida fuqarolar yig'inlarining faoliyat yo'nalishlari bo'yicha komissiyalar namunaviy Nizomlarining tasdiqlanishi ushbu ijtimoiy tuzilmaning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yana bir bora oshirdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi hamda hukumatimizning qo'llab-quvvatlashi bilan oilaviy biznes, xotin-qizlar kichik va o'rta biznesini rivojlantirish, ayollar tadbirkorligi uchun banklardan imtiyozli kreditlar berish siyosati

Amalga

oshirilayotgan bunday ta'lim-tarbiyaviy ishlar zamirida har bir fuqaroni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan Qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Davlat dasturlari, xalqaro huquqiy hujjatlarning mazmun va mohiyatini bilish va

izchil amalga oshirilishi tufayli ayollarning oila budgetiga qo'shayotgan hissasi ham ortib bormoqda. Buning natijasida farzandlarda ham tadbirkorlik xislatlari o'sishiga real imkoniyatlar yaratilmoqda.

1 – ilova

Mamlakatimizda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biri ekan, u quyidagi asosiy yo'naliшlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish, oila manfaatlari huquqiy himoya qilinishini ta'minlash, onalik va bolalik huquqlarini muhofaza qilish;
- oilaning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oila a'zolarining sog'ligini muhofaza qilish va ta'lim darajasini oshirish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash;
- oilaning iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaning daromadlarini, oila a'zolarining ish bilan ta'minlash darajasini oshirish, ro'zg'or yumushi va turmush sharoitlarini yaxshilash, kam ta'minlangan oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- oilaning ma'naviy-axloqiy asoslarini va madaniy manfaatlarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- oilaning sog'lom, aql-zakovatli yosh avlodni tarbiyalashdagi rolini oshirish har tomonlama kamol topgan avlodni tarbiyalashda oila va jamiyatning vazifalarini takomillashtirish;
- oila muammolarini ilmiy va ijtimoiy tadqiq etish, oila, xotin-qizlar va bolalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini ko'rsatuvchi statistika hisobotini to'plash va takomillashtirish;
- oila va mahalla institutlari hamkorlikdagi faoliyatini yanada kuchaytirish, ota-onalar universitetlari məktabiga oilashunos olimalarni jaib etish.

Oila a'zolarining huquqiy savodxonligi, uning huquqiy himoya qilinishi huquqiy jamiyat barpo etishning negizidir. Buning zamirida:

– aholi, shu jumladan, oila a'zolarining yosh tabaqalariga mos huquqiy bilim berish dasturlarini yaratish, huquqiy ong va tafakkurini shakllantirishni samarali shakl va metodlarini aniqlash, bu borada noan'anaviy ta'lrim – tarbiya usullaridan keng foydalanish;

– o'quv yurtlari, idora va tashkilotlarda huquqiy mavzu yorituvchi burchaklar, xonalar tashkil etish, huquqiy bilim kunlari o'tkazish, radio o'quvlari uyushtirish;


– huquqiy mavzuga bag'ishlangan ommabop risolalar, gazeta va jurnal maqolalari, mutaxassis maslahatlarini chop etishni kuchaytirish, ruknlar rang-barangligiga erishish;

– oila huquqi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish;

– joylarda baxt va nikoh uylari qoshida bo'lajak kelin-kuyovlar uchun maxsus o'quv kurslari, «Oila» klublari, «huquqiy maslahat» telefonlari tashkil etish va targ'ibot-tashviqot guruhlari ni tayyorlash;

– oilalarda huquqiy bilim berishni takomillashtirishga yordam beruvchi sotsiologik tadqiqot ishlari olib borish va uning natijalari asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga keng tadbiq etish.

OILANING VAZIFALARINI BILASIZMI?



Oilanning o'ziga xos huquq va majburiyatlari mavjud bo'lib ularni bajarish har bir oilaning muqaddas burchi hisoblanadi.

Ilmiy manbalarda ular quyidagicha tasnif etiladi: tabiiy-biologik; reproduktiv; moddiy-iqtisodiy; huquqiy-qonuniy; axloqiy-ma'naviy; o'zaro kommunikativlilik.

Oila mazkur vazifalar asosiga qurilgan ijtimoiy birlikdan iboratdir.

Oilanning tabiiy-biologik vazifasi – balog'at yoshida yigit va qiz, albatta, turmush qurushi, o'z naslini davom ettirishi tabiiy ehtiyoj hisoblanadi.

Fiziologik ehtiyoj natijasida farzand dunyoga keltirish, tarbiyalash va voyaga yetkazish, ya'ni nasl qoldirish (farzand dunyoga keltirish va tarbiyalash) dan iboratdir.

Oilanning moddiy-iqtisodiy vazifasi – uyro'zg'orni moddiy tomondan ehtiyojlarini ta'minlash boshqarish, mulkiy munosabatlarni ta'minlashdan iboratdir.

Huquqiy-qonuniy – oila qonuniy nikoh asosida quriladi.

Oilanning hissiy – emotsional funksiyasi – bu uning o'z a'zolari o'rtasida muayyan iliq munosabatlarni saqlash, ular o'rtasida mehr-oqibat, o'zaro g'amxo'rlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, sevish, sevilish kabi qobiliyatini namoyon etishidir. Bu oila uchun juda muhim bo'lib, insonning ruhiy salomatligi aynan shu vazifani qanday bajarayotganligiga bog'liqdir. Oilanning ma'naviy-psixologik muhiti sog'lom deganda, aslida ana shu a'zolar o'rtasidagi ilqlik, samimiyat, o'zaro bag'rikenglikning mavjudligi, mehr-oqibat kabi insoniy hissiyotlarning ijobiyligi tushuniladi.

V.Karimova

Shunda uning huquq va manfaatlari davlat tomonidan himoya etilishi kafolatlanadi.

Axloqiy – ma’naviy munosabatda esa oilaning ma’naviy qadriyatlar asosida shakllanishi, rivojlanishi hamda mustahkamlanishi nazarda tutiladi. Ota-onaning bir-birlari, shuningdek, farzand oldidagi burch va mas’uliyatlari, farzandning ota-onsa hamda oila oldidagi huquq va majburiyatlari axloqiy-ma’naviy asosda ámalga oshirilmog‘i zarur.

O’zaro kommunikativlilik asosida oila a’zolari bir-birlari bilan munosabatga kirishadilar, bir-birlariga tarbiyaviy ta’sir etadilar, atrof-muhit, jamiyat bilan aloqaga kirishadilar. Shu asosdä o’zlarini ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, nazariy-amaliy jihatdan jamiyat talablariga mos rivojlantirib boradilar.

Ta’lim va tarbiya vazifasi – ota-onalarning zurriyodlarini qobil va aqlii, iymon-e’tiqodli, sog‘-salomat voyaga yetishini ta’minlashlariga bog‘liq. Chunki, oila nafaqat er va xotinni ularning maqomlaridan kelib chiqib tarbiyalaydi, balki yosh avlodni oilasi, ota-onasiga munosib insonlar bo‘lib yetishishi, jamiyatga foydasi tegishi uchun ham qayg‘uradi.

Sharqda barcha fuqarolik jamiyati institutlari ichida eng muqaddasi, eng ulug‘i, eng muhimi ham – oila instituti hisoblanadi. Shuning uchun ham mamlakatimiz mustaqilligi yillarda oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, oila institutini mustahkamligini ta’minlash, oilada komil insonlarni dunyoga keltirish va tarbiyalash masalasi hukumatimiz olib borayotgan siyosatning ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Uni har tomonlama muhofaza etishning huquqiy asoslari yaratildi. Yuqorida ta’kidlangan vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning xarakteriga ko‘ra o‘zgarishi, biri dolzarb, biri esa kamroq ahamiyatli bo‘lib qolishi mumkin. Lekin har bir oila a’zosining shu vazifalarga pedagogik jihatdan tayyorligi – ularning inson sifatida o‘zini baxtli his qilishini, oilasining mustahkam bo‘lishi, farzandlarining komil bo‘lib yetishishlarini ta’minlaydi.

OILANING VAZIFALARI

Oilanning o'ziga xos qator vazifalarini mavjnd bo'lib, uning asosiy vazifalaridan biri – reproduktivlikdir, ya'ni farzand ko'rish, avlodlar davomiyligini, yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir.

Oila jamiyat, tabiat qonun-qoidalari asosida barpo etilsa va yashasada, oiladagi er-xotin, ota-onasi va farzandlar, qaynona-qaynota, qayin uka va singilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlari, oila an'analiari va qadriyatiari borasida mustaqil makon bo'lib qolaveradi.

Oilanning yana bir o'ziga xos xususiyati, uning nuklearligidir. "Nuklear" lotincha so'z bo'lib, "yadro" degan na'noni anglatadi. Er-xotin va bolalardan iborat bo'lgan oila nuklear oila deb ataladi.

Reproduktivlik

Nuklearlik

Iqtisodiy – moliyaviy xo'jaligi faoliyatini to'g'ri yuritish

Tarbiya

Kommunikativlik

Oilanning ko'p bo'g'imliliği

Oilanning vazifalaridan yana biri iqtisodiy-moliyaviy xo'jaligining faoliyatini to'g'ri yuritish hisoblanadi. Katta jamiyatning o'z iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy masalalari bo'lganidek, oilaning ham o'ziga yarasha iqtisodi, budjeti, kirim-chiqimi, daromadlari kabi o'ziga xos moliyaviy jihatlari mavjud.

Oilanning eng muhim vazifalaridan biri tarbiya hisoblanadi. Oila – tarbiya maskani. Aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irlari xususiyatlarini oladi, balki ulardagagi xatti-harakat, axloq-odob qoidalarini ham egallab boradi.

Jamiyatning barqarorligini ta'minlashda oilalardagi ijtimoiy-iqtisodiy farovonlik barqarorlik, tinch-totuvlik, sog'lomlik, nasliy tozalik, mehnatga ongli munosabat, oilaparvarlik, vatanparvarlik, bola tarbiyasida mas'uliyatlilik, bolalarining iste'dod va qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash, ro'yobga chiqarish, an'ana, urf-odat va rasm-rusumlariga sadoqatlilik, tolerantlilik, fidoyilik, oila sha'nini hamma narsadan ustun qo'yish, himoya qilish, huquq va majburiyatlarga qat'iy rioya etish, ma'naviy yetuklik, oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat va ehtirom va boshqa mezonlar muhim rol o'ynaydi.

OILANING BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDAGI VAZIFALARI

Tarbiya murakkab va uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning poydevori asosan oilada qo'yiladi. Tarbiya jarayonida bolaning ongigina emas, balki xis-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun bolaning ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Oilada tarbiya jarayoniga ota-onha rahbarlik qiladi.

U bolaning faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi...»³⁸

Tarbiya – ijtimoiy hodisa.
U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud.

“Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida bolaning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomenlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir.

³⁸ Jeff Helstead. Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching. A Wileng Imprint www.josseybays P.38

Ingliz olimi Herbert Spencer «Tarbiya – bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning amaliy jarayonlarini o'z ichiga olishi kerak», – deb yozadi. Bolaning yashash sharoitlari uning shaxs sifatida ulg'ayishiga bog'liqligi, ta'siriga misollar keltiradi. O'zining "Butun shaxsni rivojlantirish" kitobida tarbiyaning aqliy, axloqiy va jismoniy turlarini ko'rsatib o'tib, ulardan eng asosiysi axloqiy tarbiyadir deb ta'kidlaydi³⁹.

Oila tarbiyasi deganda ota-onas, oiladagi katta kishilar, buva va buvilar, aka-opalar va shu kabilalar tomonidan bolalarning to'g'ri, milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalanishini tushunish lozim. Zotan, bolalarning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ota-onas, aka-opas va boshqalarning o'zaro muomala-munosabatlar, xulq-atvoriga, tartib-intizomiga bevosita bog'liqidir. Xalqimiz: "Qush uyasida ko'rghanini qiladi" deb bejiz aytmagan.

O.Musurmanova

Oila tarbiyasi ko'p qirrali bo'lib, uning bir-biri bilan bog'liq tarkibiy qismlari mavjud. Mazkur tarkibiy qismlar yaxlit tarzda bola shaxsida shakllantiriladi. Ularni quyidagicha tasnif etish mumkin.

Oilada aqliy tarbiya. Oilada aqliy tarbiyani shakllantirishda bolalarning dunyoqarashi va tafakkurini rivojlantirish, unda aqliy mehnat madaniyatini tarkib toptirishga qaratilgan maqsad yo'lidagi faoliyat tushuniladi. Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida bolalarni ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan xabardor etish, ularga ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirishdan iboratdir.

Bola dunyoqarashi uning fundamental tushunchalaridan shakllanadi. Mazkur tushunchalar asosida bola shaxsiyati va xatti-harakatlari tashkil topadi, aniqlanadi va borlig'i belgilanadi. Bunday tushunchalar o'ziga xos bo'lgan hayotga qarash prizmasini yaratadi. Har bir inson o'zi yaratgan prizmasi orqali hayotga, atrofidagi hodisa

³⁹The elements of teaching. Jemal M. Banner. Gardners Books. A Wileng Imprint www.josseybays

va narsalarga qaraydi. Shuning uchun ham bolaga ijobiy tushunchalarni singdirish lozim, chunki, hayotdagi har bir yechimi yo'q bo'lib ko'rinishayotgan muammolar ichki kechinmalari orqali sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga yordam beradi. Bolalar ham kattalar singari muammo yo'qligiga, faqatgina imkoniyat borligiga to'laqonli ishonganidagina katta yutuqlarga erisha oladilar.

Muammo va masalaning yechimi borligini anglash bola ruhiyatini ko'taradi va yangi cho'qqilarni zabit etishga turki bo'ladi. Undan tashqari, agar bola masalaga ijodiy yondashsa, u ushbu masalaning bir qancha yechimi borligiga amin bo'ladi. Farzandimizga masala yechimini topishda tashabbus va ijodkorlikdan cho'chimasdan harakat qilishni o'rgatishimiz lozim. Bolalarimiz kuchi, mahorati, tashabbuskorligi va aqliga ishonib, masala yechimlarini mustaqil ravishda topishga imkoniyat berib biz ularga o'zimiz tomonimizdan eng qimmatli narsani bergen bo'lamiz.⁴⁰

Axloq normalari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat normalariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo'lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli, vijdohn, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo'lishga o'rgatish bilan profilaktika ishlarini ham olib boradi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi.⁴¹

Oilada axloqiy tarbiya. Oilada axloqiy tarbiyanı shakillantirish kundalik ishlariňızga va eägimizga aktiv ta'sir ko'rsatib, jamiyat normidan yaxshilik bilan yemonlik, zulm, adolat bilan adolatsizlik o'rtaşıdagı va insomy manosabatlardagi maqbul va nomaqbul, man etilmaydigan va man etüdäligän ishlarnı, xatti-harakatları belgiläßi beradi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi jamiyatçılık axloqi, insenparvarlık axloqi, fæl ta'sitishen axloqni tarkib toptırışından iborat.

Oilada jismoniy tarbiya. Oilada jismoniy tarbiyaning vazifasi bolalar tanasidagi barcha a'zolarning tabiiy sog'lom o'sishini ta'minlash, ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdan iboratdir.

⁴⁰ Jelf Heistead. Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching. A Wileng Imprint www.josseyhays P.38

⁴¹ Best Books for Teaching. Gardners Books. P.95

Oilada ekologik tarbiya. Bolalarda atrof muhit va uning shaxs ma’naviy dunyosiga ta’sirini aanglatishda tabiatni sevish, o‘z shahar, qishloq va mahallasini ko‘kalamzorlashtirish, bunda ota-onalar namunasiga tayanib, oila, mакtabdagi o‘sимликлар va hayvonot dunyosini e’zozlashga o‘rgatish, tabiatga ongli munosabat jarayonida dunyoqarashini kengaytirish, ekologik tarbiyalashda milliy an’ana va udumlarni qayta tiklash, ularga e’tiborni kuchaytirishdan iborat.

Oilada iqtisodiy tarbiya. bolalarga tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabilar haqida fikrlay olish qobiliyatini kamol toptirishdir. Zotan, pul, mol-u dunyo oila iqtisodining negizini tashkil etadi. Iqtisod atamasi «uy xo‘jaligi» ma’nosini anglatadi. Demak, oila iqtisodi – uy-ro‘zg‘or yuritish haqidagi bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisidan iboratdir. Abdulla Avloniy ta’rifiga ko‘ra «Iqtisod deb pul va mol kabi ne’matlarning qadrini bilmakni aytildur» [1]. «Pul-u – davlati ko‘p bo‘lgan inson boy emas, balki iqtisodchi inson boydir». Oila iqtisodini shakkantirish, boshqarish va nazorat qilishda har bir a’zosining o‘z o‘mi va ulushi mavjud. Oila iqtisodini rejalaشتirmasdan turib, mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sish mumkin emas.

Oilada mehnat tarbiyası. Bu bolalarga mehnat ta’limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o‘rgatish, hayotga tayyorlashdir. Tarbiyaning bu jarayonida yoshlar xalq va Vatan manfaati yo‘lida mehnat qilishi va bunga zaruriy ehtiyoj sezishga odatlantiradi. Mehnat tarbiyasida umumiyl va ijtimoiy foydali mehnat va o‘z-o‘ziga xizmat qilish turlari farqlanadi.

Oilada huquqiy tarbiya. Tarbiyalanuvchilarning (bola) huquqiy bilimlarni oshirish, qonunlarni yaxshi o‘zlashtirib, ularga to‘liq rioxha etish ko‘nikmasini hosil qilish. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bolalarga davlat Konstitutsiyasi haqidagi ta’limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo‘jalik ma’muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlari ma’nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy – huquqiy me’yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurga ega bo‘lishlarini ta’minlash, huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni hosil qilishdan iborat. Oilada tarbiya natijalarining samaradorligi bolalarga nisbatan motivatsiyaga bog‘liqdir.

Oilada tarbiya metodlari

Oilada ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar

Odatlantirish metodlari

Tarbiyada rag'batlantirishi va jazolash metodlari

Hikoya,
tushuntirish,
o'qitish, axloqiy
suhbat, pand-
nasihat

Pedagogik talab,
o'rgatish, mashq,
tarbiyalovchi
vazifalar, musobaqa,
jamoatchilik fikri,
namuna ko'rsatish

Rag'batlantirish,
ma'qullash,
ko'ngilni ko'tarish,
dalda berish,
ishonch bildirish,
qayd qilish, og'zaki
yoki yozma
tashakkur bildirish,
mukofotlash,
jazolash, tanbeh.

Maqtov. Maqtov va jazo rag'batlantirish usulidir. Maqtov tarbiyaning alohida olingen shaxs xulq-atvoriga ijobiy baho berishidir. Bola tarbiyalanishida maqtovning o'mni muhimdir. Jamoaning u yoki bu a'zosini rag'batlantirishi bolada ijobiy xulq-atvor yoki ayrim xattiharakatlarni mustahkamlaydi. Maqtov bolada ijobiy xislatlarini tarkib toptirishga yordam beradi. Lekin ayrim hollarda bola hissiy rivojlanishini tezlashtirib yuboradi, unda manmanlik, xotirjamlik tuyg'ularini keltirib chiqaradi.

Jazolash. Jamoa bolaning axloqidan, ishga munosabatidan, muomalasidan mammun bo'limasa, uning o'z xulqini tuzatib olishda yordam ko'rsatish uchun jazolash usullaridan foydalanadi. Maqtov singari jazo ham bolaning xulq - atvorini yo'lga solib turadi, hamda uning o'zini noqlay sezishga, uyalishga majbur qiladi⁴². (Navigating

⁴²Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching. Jelf Helstead. 83 – b

the new pedagogy: six principles that transform teaching. Jelf Helstead.P.-83)

Brunerning «Kuch va bolalik» kitobida « doimiy tazyiq va kuch ishlatalishi tarbiyaga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi» .

OILADA TARBIYA VOSITALARI:

O‘yin, o‘qish, jismoniy mehnat, sport va boshqa faoliyat turlari. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va manaviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalilanadi. Chunonchi, ko‘rgazmali, o‘quv qurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, sanat asarlari, radio, televidenie, kompyuter, magnitafon, slayd, shuningdek, oiladagi katta va kichik yoshdagি shaxslar bilan muloqot ham tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Oila deganda nimani tushunasiz?
2. Oilaning burch va vazifalari nimalardan iborat?
3. Oilaga bag‘ishlangan qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlarni bilasiz?
4. Oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarni aytинг.

Mustaqil ishlash uchun tavsiya etilayotgan mavzular

1. Mamlakatimiz mustaqilligi yillarda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan oila siyosatining mazmun va mohiyati.
2. Oilaning paydo bo‘lishi va taraqqiyoti tipologiyasi.
3. Oilaning burch va vazifalari.
4. Oilada barkamol shaxs tarbiyasi.
5. Oilada ota-onaning o‘rnii va farzand burchi.

AMALIY MASHG'ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1 – topshiriq. «Venn diagrammasi» orqali oilaning huquqiy asoslarini tushuntirib beradilar.




Diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda diagrammani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to'ldiradilar

Juftliklarga birlashadilar, o'zlarining
diagrammalarini taqqoslaydilar va
to'ldiradilar.



Doiralar kesishuvchi joyida, ikki/uch
doiralar uchun umumiylar bo'lgan
ma'lumotlar ro'yxatini tuzadilar.

VENN DIAGRAMMASI

Oilaning huquqlari

*Oilaning
majburiyatlari*

2 – topshiriq. «Baliq skeleti» chizmasi yordamida oiladagi muammolar va ularni hal etishning huquqiy asoslari nimalardan iboratligini tahlil qiling?



GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA UNING ZAMONAVIY SHAROITLARDA TARBIYAGA TA'SIRI

Reja:

1. Globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviy salohiyatiga salbiy ta'siri.
2. Ommaviy madaniyat niqobi ostidagi buzg'unchilik.
3. Diniy ekstremizm va terrorizm ma'naviy tahdidlarning bir turi sifatida.
4. Missionerlik va prozelitizm faoliyatining salbiy oqibatlari.
5. Internet ijtimoiy tarmoqlarida sog'lom e'tiqodga tahdid.

Tayanch tushunchalar: globallashuv, globalistlar, aksilglobalistlar, Internet, ommaviy madaniyat, tahdid, diniy ekstremizm, terrorizm, missionerlik, prozelitizm.

Mavzuning qisqacha mazmuni: Globallashuv – bu, avvalo, hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi davrda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, his etish mumkin. Bugungi kunda zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishiga, tabiiyki, globallashuv tufayli erishilmoxda. Ushbu mavzuda globallashuv jarayonining ijobiy ta'siri bilan bir qatorda uning yoshlar tarbiyasiga salbiy oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

GLOBALLASHUV JARAYONLARINING IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARI

«Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio-televiedeniye, matbuot, Internet kabi vositalar orqali ham rang-barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni

tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad – muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'lidan hech qachon qaytmaymiz»⁴³.

Hozirgi kunga kelib, yoshlar ma'naviyatining shakllanishida milliy-ma'naviy qadriyatlarning ahamiyatini oshirish, ularni barkamol shaxs etib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Globallashuv jarayonida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga katta e'tibor qaratilayotganligi hech birimizga sir emas.

Barchamiz «globallashuv» atamasini eshitishimiz bilanoq, eng avvalo uning salbiy oqibatlari haqida o'ylay boshlaymiz. Vaholanki, globallashuvning yoshlar ta'lim-tarbiyasida ijobiy ta'sirlaridan ham ko'z yuma olmaymiz. Buni chuqurroq anglashimiz uchun biz globallashuv nima va u qanday ta'sir ko'rsatishini chuqur anglab

Globallashuv – bu turli mamlakatlar iqtisodi, madaniyati, ma'naviyati, odamlar o'rtaсидаги о'заро та'sир ва bog' iqlikning kuchayishidir.

yetmog'imiz
darkor.

Globalashuv
jarayonining
asosiy quroli
sifatida esa biz

Internet tarmoqlari, ommaviy axborot vositalarini ko'rsatishimiz mumkin.

Globalashuv asrida axborotga bo'lgan talab kundan kunga oshib bormoqda. Har qanday demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, teleradiokanallari muhim ahamiyat kasb etadi. Butun jahonda bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi yangiliklar, shu jumladan, turli xil ixtiolar ommaviy axborot vositalari orqali namoyon bo'lmoqda. Bugungi kun yoshlari ana shu ma'lumotlar bilan dunyoning istalgan burchagida tanishish imkoniyatiga ega. Ular boshqa davlatlar iqtisodi, madaniyat va ma'naviyati, ilg'or tajribalarini o'rganib hayotga tatbiq etmoqda.

⁴³ I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" -T Ma'naviyat 2008 114-bet

Jahon xalqlarining milliy-madaniy merozi bilan tanishish orqali yoshlarda zarur hayotiy xulosalar shakllanmoqda.

Globallashuv jarayoni bugungi kunda keng rivojlanib borayotgan Internet tarmog'i bilan uzviy bog'liqdir. Internet tarmog'i orqali yoshlar o'zlariga kerak bo'lgan ma'lumotlarni oson va tez topishlari bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Globallashuv davrida axborotga bo'lgan talab yuqoriligi bois, inson o'ziga kerakli bo'lgan turli xil ma'lumotlarni olmoqda. Bundan tashqari yoshlar bu tizim orqali turli onlaysin testlar topshirib, bilimlarini sinovdan o'tkazishlari yoki chet el oliygohlarida ta'lim olishlari mumkin.

Bugungi kunning ana shunday yutuqlari sifatida masofaviy ta'lim tizimini keltirishimiz mumkin. Masofaviy ta'lim tizimi g'arb mamlakatlarda vujudga kelib bugungi kunda dunyo miqyosida keng yoyilgan ta'lim tizimidir. Bu orqali o'quvchi yoshlar o'z davlatlari, hatto uyalaridan chiqmagan holda biror xorij oliygohining talabasiga aylana oladilar. Shu orqali bilimlarini oshirib, jamiyat va davlat rivojiga hissa qo'sha oladilar.

Turli xil adabiyotlarda globallashuvning salbiy jihatlari, uning yoshlar tarbiyasiga salbiy oqibatlari haqida so'z yuritiladi. Uning «Ommaviy madaniyat», «Missionerlik», «Kashandalik» va yana bir necha ko'rinishlari haqida turli fikr va mulohazalar yuritiladi. Shu sababdan, ko'pchilik globallashuv atamasini eshitishi bilanoq, uning faqatgina salbiy oqibatlarini ko'z oldiga keltiradi. Ammo tarozining ikki pallasi bo'lgani kabi globallashuvning ham salbiy jihatlari qatorida ijobjiy ta'siri ham mavjud. Muammo shundaki, uning ijobjiy ta'sirini ko'rish uchun yoshlar orasida ma'naviy va madaniy dunyoqarashni o'stirish, turli xil zamonaviy vositalardan, shu jumladan, Internet tarmoqlari, ommaviy axborot vositalaridan to'g'ri va oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, ular ongida g'oyaviy bo'shliqni yuzaga kelishining oldini olish muhim sanaladi.

Har qanday davlat yuksalishi, taraqqiyot cho'qqisiga chiqishi uchun eng muhim sanaladigan omillardan biri bu boshqa davlatlar tajribasini, milliy-madaniy hayotini kuzatib borgan holda, eng maqbul va samarali yo'llarini o'z hayotimizda qo'llay olishimizdir. Bugungi kun yoshlari esa ana shu muhim vazifani bajarmoqlari lozim. Bunda ularga zamonaviy texnologiyalar, dunyo miqyosida rivojlanib borayotgan fan yutuqlari katta yordamchi sanaladi. Faqatgina ulardan to'g'ri va oqilona foydalanish ko'nikmalarini egallashlari, bunga esa bugungi kun pedagoglari o'z hissalarini qo'shmoqlari lozimdir. Mafkuraviy,

g‘oyaviy immuniteti kuchli bo‘lgan yoshlarga hech qanday yot g‘oyalari salbiy ta’sir ko‘rsata olmaydi.

Globallashuv yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ma’lumotlarni idrok etish va muammlolarni mustaqil yechish qobiliyatini o’stradi. Ular dunyoda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat bilan doimiy ravishda tanishish va xabardor bo‘lish orqali mavjud ahvolni tahlil qila olishadi, zarur xulosani chiqarishadi. Bu esa o‘z navbatida ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu ham globallashuvning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Masalan, kompyuter va Internetni yaxshi o‘zlashtirgan bolalar o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ulardan foydalanishni bilmaydigan tengqurlariga qaraganda ko‘proq rivojlantira oladilar. Shuningdek, o‘z oldilariga muayyan maqsadlarni qo‘ya biladilar hamda idroklarining yorqinligi, fahm-farosatlari bilan ajralib turadilar.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda matbuot, axborot va media tarmoqlar, jumladan, televideniye va radio, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga tayyor bo‘lish hamda ushbu sohalarga, albatta, ijobiy yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Internet va boshqa ommaviy axborot vositalari, teatr, kino, adabiyot, rassomchilik va haykaltaroshlik san’atlarigacha, bir so‘z bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta’sir o‘tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatni xalqning ma’naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirish, yangi bosqichga ko‘tarishimiz darkor.

XXI asr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro ta’sir shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a‘zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayri ixtiyoriy ta’sir ko‘pincha salbiy bo‘ladi. Globallashuvning turli mamlakatlarga o‘tkazayotgan ta’siri ham turlichadir. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va siyosati qanday ekani bilan bog‘liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglash,

uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Bu hodisani chuqur o'rganmay turib unga moslashish, zarur holda, uning yo'naliшини tegishli tarzda o'zgartirish mumkin emas.

Globallashuv yana shunday jarayonki, uni chuqur o'rganmaslik, undan foydalanish strategiyasi, taktikasi va texnologiyasini ishlab chiqmaslik mamlakat iqtisodi va madaniyati, ma'naviyatini tog'dan tushayotgan shiddatli daryo oqimiga boshqaruvvsiz qayiqni topshirib qo'yish bilan barobar bo'ladi. Mustaqillik davrida mamlakatimiz olimlari amalga oshirayotgan tadqiqotlarga ko'z yugurtirish bu sohadagi ishlar endi boshlanayotganiga guvohlik beradi.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p. Lekin fransuz tadqiqotchisi B.Bandi bergen ta'rif. uning xususiyatini to'laroq qamrab oladi. Unda globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi:

- ✓ Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;
- ✓ Globallashuv – jahonning gomogenlashuvi va universallashuvi jarayoni;
- ✓ Globallashuv – milliy chegaralarning «yuilib ketish» jarayoni.

B.Bandi ta'rifida keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har biriga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirish mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak, ularning uchalasi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz.

«Globalizatsiyaning barcha mamlakatlarga kirib kelishi, ularning o'tish davridagi kuchsiz iqtisodiyotida tartibsiz burilish yasadi, bu yoshlarning turmush tarziga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadı. Biz bilamizki, erkin bozor iqtisodiy tizimi ko'pgina G'arb va Sharq mamlakatlarida shakllanib ulgurdi va rivojlanish bosqichiga kirdi, ammo o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiyotning G'arbniki kabi ko'zga ko'rinarli rivojlanishi uchun ularning mavjud jamiyatdagi haligacha aniqlanmagan va yechimi topilmagan kamchiliklar xalaqit beradi», – deydi Ken Robertson Aholining hayotidagi bunaqangi kamchiliklar va globalizatsiyaning ijtimoiy ahamiyati shu o'rnida shakllanayotgan madaniyatga, mentalitetga ham ta'sir etadi. Globalizatsiya mamlakatdagi aholi orasida iqtisodiy jihatidan tabaqlanishni yuzaga chiqarish ehtimoli borligini hisobga olib individual manfaatlar o'rnini jamoaviy manfaatlar egallashiga asosiy e'tiborni qaratish zarur bo'ladi. Mashhur sotsio-peadagog Pyotr Kelli Avstraliyada yuqoridagi muammolarni

ilmiy-analitik tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi gimnaziya va kasb hunar kollejiga asos soldi»⁴⁴.

Globallashuvning mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazishi mumkin bo'lgan ijobiliy va salbiy ta'siri Hindistonning mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining quyidagi so'zlarida teran ifodalangan: «Men uyimning darvoza – eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, uyimni ag'dar-to'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini istamayman».

Globallashuvning o'zi murakkab jarayon ekani, turli mamlakatlar iqtisodi, siyosati va ma'naviyatiga o'tkazayotgan ta'siri yana ham murakkab bo'lgani sababli unga nisbatan jahonda bir-biriga nisbatan qarama-qarshi bo'lgan ikki guruh: globalistlar va aksilglobalistlar guruhlari vujudga keldi.

Globallashuv jarayoni 2 guruhga ajratiladi:

Globalistlar – siyosatdonlar, biznesmenlar, sanoatchilar va davlat arboblari.

Aksilglobalistlar – so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlari.

Globalistlar tarafdirulari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari, siyosatdonlar, sanoatchi va biznesmenlar ko'proq uchraydi. Globallashuv muxoliflari esa aksilglobalistlar nomini olgan bo'lib, ular orasida ko'proq so'l kuchlar, kasaba uyushmalari va yoshlar tashkilotlarining vakillari bor. MDH hududida aksilglobalistlar Rossiya Federatsiyasi hududida faol harakat olib bormoqdalar. Ular doimiy ravishda turli anjumanlar, seminarlar o'tkazib turadilar. XX asr o'rtalarida globallashuvning institutsionallashuvi, ya'ni tashkillashuvi jadallahsgandan keyin bu jarayonning o'zi ham keskin tezlashdi va kuchaydi. Institutsionallashuvning kuchayganini Butun jahon savdo tashkiloti, Xalqaro Valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va

⁴⁴«Globalization and young people's culture. Young people in a globalizing World youth report, 2003

taraqqiyot banki kabi ulkan tashkilotlarning vujudga kelgani misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Globallashuvning tezlashishi va kuchayishiga javob sifatida aksilglobalistlarning faoliyati ham kuchayib ketdi. Ular globallashuvning faqat salbiy oqibatlariga emas, umuman, uning o'ziga qarshi chiqa boshladilar. Masalan, Rossiyalik faylasuf va yozuvchi A.Zinovyev «Aksilglobalizm vektorlari» nomli anjumanda so'zlagan nutqida shunday deydi: «Globallashuv yangi jahon urushidir. U yangi tipdagi jahon urushi. Bu urushda tirik qolishning qarshilik ko'rsatishdan boshqa yo'lini ko'r mayapman. Faqat qarshilik!», – degan edi.

«Aksilglobalizm vektorlari» anjumanidagi yana bir ma'ruzachi A.Parshev esa globallashuvga quyidagicha ta'rif beradi: «Aslida globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo'shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zaxiralarini o'zlashtirishdan iborat».

Tahlil shuni ko'rsatadiki, globalizm tarafдорлари ham, dushmanlari ham asosiy e'tiborni iqtisodiyot sohasiga qaratishadi. Globallashuvning ma'naviyatga ta'siri va ma'naviy globalashuv masalalari sotsiologiya, falsafa, madaniy antropologiya fanlarida o'zining aksini yetarli darajada topgani yo'q.

Ma'naviyatni ham bir uyga qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonodon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy. Chetdan o'tkaziladigan mafkuraviy ta'sirga qarshi himoya choralari ko'rishdan avval qanday ta'sirlarni ma'qullah yoki qandaylarini rad etish kerakligini aniqlab olish lozim. Hozirgi kunda birorta ham milliy ma'naviyat yo'qli, u boshqa xalqlar ma'naviyatidan to'la ihotalangan bo'lsa. Hatto, Avstraliya chakalakzorlari, Afrika savannalari va Janubiy changalzorlarda turmush kechirayotgan qabilalar ham qo'shni qabilalar va zamona viy tamaddun ta'sirini o'zida his qilib turadi. Qolaversa, tarixni tahlil qilish boshqa xalqlar ma'naviyatidan bahramand bo'lgan xalqlar ma'naviyati yuksakliklarga ko'tarilgandan guvohlik beradi.

OMMAVIY MADANIYAT NIQOBI OSTIDAGI BUZG'UNCHILIK

OMMAVIY MADANIYATNING SALBIY KO'RINISHLARI

Bugun yoshlarimiz o'ziga xos «tushunchalar urushi» sharoitida yashamoqdalar. «Ommaviy madaniyat» ota-bobolarimiz «qora» degan narsalarni «oq», «oq» degan narsalarini «qora» deb uqtirmoqda.

[REDACTED] ✓ AQSHda 13 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning 6 milliondan ko'pi chekadi.

- ✓ Passiv chekish natijasida 200 mingdan 1 milliongacha bo'lgan bolalarda astma kasalligi og'ir shaklda kechadi.
- ✓ Har yili bolalarda pnevmoniya, bronxit kabi yuqumli kasalliklarning soni 150 – 200 mingni tashkil qiladi. U asosan 18 oygacha bo'lgan yangi tug'ilgan va yosh bolalarda uchraydi.
- ✓ Bundan 10 yil avval qilingan hisob kitoblarga ko'ra sayyoramizda 40 foizdan ko'p kashanda bor ekan. Ular bir soniyada 300 ming dona, 1 yilda esa 12 mln sigareta ishlatar ekan.

Kashandalar dastidan bir yilda salkam 700 tonna sinil kislota, 400 ming tonna ammiak, 600 ming tonna qoramoy va 100 ming tonna chekilgan sigaretadan atmosferaga nikotin tarqalar ekan.

[REDACTED] Starizm – subyektiv ehtiroslarga berilgan holda estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktortlarni ilohiyashtirish. Yosh yigit-qizlarning shaxsiy xonalariga kirsangiz, chet el aktyori, qo'shiqchisi, telediktori yoki sportchisining bir necha yuzlab rasmlarini devorlarga yopishtirib tashlaganiga ko'zingiz tushadi. Eng qizig'i ular ana shu qahramonlarining rasmini yaqin kishilaridan ham ustun qo'yishadi (Birorta rasmni yirtsangiz, «Bu sendan qimmat turadi, nega yirtding!?» – deb o'dag'aylashidan ham buni bilish mumkin). Ular qorinlari och qolsa ham non olmasdan o'zları sevgan qahramonlarining rasmi yoki ijod namunasini olishadi.

Ana shu qahramonlari uchun hech narsadan toymaydilar, hatto o'zgalarga shikast yetkazishdan ham.

Zo'ravonlik

Zo'ravonlik – insonga yetkaziladigan har qanday jismoniy, ma'naviy, ruhiy, moddiy tazyiqlar.

Jumladan, o'ziga nisbatan tazyiq o'tkazish ham zo'ravonlik sanaladi. Bunday holatlar keng avj olib bormoqda. Uning ko'rinishlari ham turlicha:

Individualizm va egotsentrizm

vahshiyona urishlar uyuşdırış;

Heppining

1. Xeppingin;

2. To'da – to'da bo'lib (bir yoki bir necha kishini) do'pposlash;

3. Yo'q joydan janjal qo'zg'ab,

4. O'zidan zaif bo'lgan kishilarga kuch ishlatib, ularni biror bir nojo'ya xatti-harakatga undash yoki majburlash (yoki biror foydali xatti-harakat qilishdan qaytarib qolish) va boshqalar.

Heppining (vahshiyona «ko'ngil ochish»lar). Bu kabi voqealar bizning yurtimizda deyarli kuzatilmaydi. Lekin «ommaviy madaniyat» mahsuli bo'lgan film va o'yinlarning yurtimiz sarhadlariga yashirinib, sezdirmay kirib kelishi va ularning yosh avlod tomonidan qabul qilinishini mamlakatimizda ham heppining bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ogoh bo'laylik.

1. Jamiyat manfaatlarni mensimaslik.

2. O'z manfaatlari yo'lida hech narsadan qaytmaslik va boshqalar manfaatidan uni ustun qo'yish.

Jamiyat manfaatlarni mensimaslik

Masalan, nikoh kuni mashinalar karvonini uyuşdırış odatini ana shunday illatlardan biri sıfatida keltirish mumkin. Chunki birgina kuyov va kelin o'z manfaati deb butun shahar yo'llarida

harakatlanayotgan yo'lovchi avtoulov larga xalaqit beradi. To'ylardagi mashinalar karvoni kundan kunga kengayib bormoqda. Bu esa o'ziga yarasha noqulaylik va ayrim holatlarda fojealarни keltirib chiqarmoqda. Jamiyat manfaatlarni mensimaslik illatiga yana ko'plab misolar keltirish mumkin.

«Nihilizm» lotincha «Nihil», ya’ni «hech nima», «hech narsa» so‘zidan olingan. Nihilizm – jamiyatning axloqiy, ma’naviy norma va ustunlari, tarixiy hamda madaniy qadriyatlarining inkor etilishi; umume’tirof etilgan, obyektiv qadriyatlarga nisbatan mutlaqo salbiy hamda o’ta tanqidiy munosabatda bo‘lish; muayyan hodisaga nisbatan bir yoqlama, kelishuvni rad etgan tarzda munosabat bildirish; buzg‘unchilik g‘oyalarini o‘zida ifodalash.

Dunyo haqida ishonchli bilimlarga erishish mumkinligini shubha ostiga oluvchi ta’limotlardan biri. Skeptitsizm – bilimdan ko‘ra hissiy idrokni ustun qo‘yish va shu asosda ish tutish. Ya’ni ular bilim va tajribalar asosida emas, balki o‘zlarining his – tuyg‘ulari asosidagina ko‘rishni xohlovchilardir.

– beadablik, uyatsizlik, hayosizlik, zolimlik, manmanlik, loqaydlik.

Madaniy yodgorliklarni, qadriyatlarni vahshiylarcha vayron, oyoq osti qilish, yo‘qotish; madaniyatsizlik, jaholat, nodonlik.

‘Ommaviy madaniyat’ning manbalari



Turli virtual
(kompyuter)
oyinlari



Urbanizatsiya
jarayoni



Internet va
undagi turli
ijtimoiy
tarmoqlari



Tantanalar va
to'ylar



Uyali aloqa
telefonlari



Yoq'on ahborot va
ma'lumotlar
tarqatuvchi radio va
telekanallar

DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM DUNYODAGI ENG ULKAN XAVFMI?

Diniy ekstremizm va terrorizm ma'naviy tahdidlarning bir turi bo'lib, ular o'zlariga mansub bo'lgan diniy konfessiya vakillarini radikal harakatlarga chorlovchi, mamlakatdagi tinchlik va osoyishtalikni izdan chiqarishga intiluvchi, mavjud konstitutsion tuzumni ag'darib tashlashga da'vat etuvchi tajovvuzkor siyosiy faoliyatdir.

Terrorizm hozirgi kunda jamiyatda yuzaga keladigan eng ko'p muammolardan biri hisoblanadi. Bu masala hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'p muhokama qilmoqda. Bu yangi fenomenon emas, balki u o'tgan asrning bиринчи yarmida ham mavjud bo'lgan eski – jamiyatning qoldiqlaridan biridir. Lekin yillar davomida terrorizm hayotning yangi avenyusi sifatida kirib kelmoqda. U hozirgi kunda o'ta halokatli, keng tarqalgan va nazorat qilish qiyin bo'lgan muammolardan biridir. Hozirda u o'tmishtdagи fuqarolar urushiga qaraganda undan ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda⁴⁵.

Ma'lumotlarga ko'ra, hozir dunyoda 500 ga yaqin terrorchi tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning 80 % islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga «al-Qoida», «Musulmon-birodarlar», «Hizbut-tahrir», «al-Jihod al-Islomiy», «at-Takfir val-Hijra» (Misr), «Abu Sayyof» (Filippin), «Ozod Achex», «Lashkari jihad» (Indoneziya), «Qurolli islomiy harakat» (Jazoir), vahhobiylar, Abu Nidal guruhi, Qurolli islom guruhi, AUM Sinrikyo, Basklar va ozodlik vatani, Al-Jamoa al-islomiya, HAMAS Musulmon birodarları, Harakat al-mujohidiyn, Hizbulloh, «17 noyabr Inqilobiy tashkiloti», «Inqilobiy xalq-ozodlik fronti/partiyasi» («Del Sol» nomi bilan ma'lum), «Inqilobiy xalq kurashi», «Sendero Lyuminoso» («Yorug' yo'l», shuningdek, «Partizanlar-xalq armiyasi»), «Tupak Amaru inqilobiy harakati», «O'zbekiston Islom harakati», «O'zini mudofaa qilish birlashgan kuchlari» kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

Bu tashkilotlar Markaziy Osiyoda mintaqaga xalqlari uchun an'anaviy bo'lgan hanafiya mazxabi va moturidiya aqidasini rad etib, musulmonlarga siyosiylashtirilgan g'oyalarni singdirishga urinmoqda. Ular «mavjud muammolar musulmon jamoalari islomiy tusini yo'qtgani sababli mavjud, ularning nazarida «kofir» hisoblangan hukumatlarni ag'darib tashlash lozim» kabi soxta diniy shiorlardan foydalanib, siyosiy hokimiyatga intilmoqda.

Masalan, Markaziy Osiyoda turli qiyofalarga kirib yashirin faoliyat olib borgan «Hizbut-tahrir» diniy ekstremistik partiyasining maqsadlaridan biri, Farg'ona vodiysidagi O'zbekiston va Qirg'iziston viloyatlarini birlashtirib halifalik tuzumiga asoslangan diniy –

⁴⁵ "A Threat to Society"(article shared By Vishal) Topic : Terrorism in Today's World
Security & Terrorism Research Bulutten <http://www.prc.net/index.php>

teokratik davlat tuzish bo‘lgan. Ular tomonidan bu maqsad yo‘lida bir qator terroristik faoliyat amalga oshirilgan.

Diniy ekstremizm dunyodagi eng ulkan xavfmi?

2011-yilning 20-sentabrida Birlashgan Qirollikda Ahmaddiya Musulmonlar qo‘mitasining barcha Parlamentar guruhlari Yevropa Parlamenti tomonidan ekstrimizm masalasini qanday qilib hal etish ko‘rib chiqishdi. Muhokama «Olloh yo‘lida o‘zini qurban qilganlar» deb nomlanib, diniy ekstremizm ideologiyasiga e’tiborni qaratildi. Umumiy mavzu sifatida G‘arbiy nishonlarga hujum qilish bu shunchaki aysbergning yuza qismi ekanligi va 11 sentabr voqealariga e’tibor qaratish kerakligini aytib o‘tishdi. Muhokamadagi spikerlarda biri Sofia Lemmetyi «diniy shafqatsizlikka undash yoki ekstremizm bu global va transmilliy murakkablikdir. Bizga uzoq muddatli ishonchli milliy va xalqaro darajadagi hamkorlar kerak bo‘lib, ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy jihatdan ularni qisib qo‘yish orqali ularning ildiziga bolta urishimiz mumkin» deb o‘z fikrini bildirib o‘tdi. Bu muhokamaning maqsadi siyosatdonlarga inson huquqlari buzilayotganligini ko‘rsatish va global terror muammolarini hal qilishdan iborat. Boshqalar esa diniy ekstrimistlar harakatlarining pasayishi va global tahdidlarning kamayishi uchun ularning fundamental masalalarini, asosan: yoqilg‘i, ekonomik, ijtimoiy va siyosiy masalalarini dunyo bo‘yicha hukumatlar tomonidan qattiq nazorat ostiga olinishi kerakligini ta’kidlab o‘tishdi⁴⁶.

Qo‘poruvchilik va terrorchilik bilan shug‘ullanuvchi yovuz kuchlar ijtimoiy tarmoqlarda ham g‘araz niyatlarini o‘z saytlarida, kuch ishlatalish yo‘liga o‘tishga go‘yoki majbur bo‘lganlarini asoslashga va yovuz harakatlarini oqlashga urinadilar. Bunda o‘zlarini «ozodlik kurashchisi» deb atab, tinchlik tarafadoridek ko‘rsatadilar. Yoshlarni esa bu yo‘lda birlashishga chaqiradilar.

Dahshatli tomoni, g‘arazli maqsadlariga erishish uchun Internet saytlariga qo‘lbola qurol tayyorlash, odam o‘ldirish, o‘zini-o‘zi portlatishga doir qo‘llanmalarni joylashtiradilar.

Mutaxassislarining qayd etishicha, «al-Qaida» terrorchi tashkiloti o‘z targ‘ibotining 99 % ni ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiradilar. Shuningdek, bolalar va xudkushlik amaliyotini targ‘ib etuvchi maxsus multfilm ishlangan. Filmdan maqsad bolalarda

⁴⁶Is Religious Extremism the Greatest Threat to the World? Gabrielle Pickard’s article (24 september 2011)

terorchilar talqinidagi «jihod» harakatlariga nisbatan moyillik uyg'otish va kelajakda buzg'unchilar saflarini ana shu yoshlar hisobidan to'ldirishdir.

Yoshlarning ma'naviy qashshoqlik girdobiga tushib qolish omillari:

- ruhiy – axloqiy nosog'lom tarbiya;
- ayrim yoshlarning pul topish ilinjida horijga chiqib, ba'zi to'dalarga aldanib qolishi;
- moddiy manfaatni ko'zlash, ya'ni pulga, kiyimga, xorij buyumlariga o'chlik;
- qo'poruvchi va jangari ekstremik guruhlarning yolg'on va'dalariga ishonish;
- "moddiy yordam" niqobi ostidagi mablag'lar;
- ba'zida tarbiyaviy tadbirlarning yuzaki tashkil etilishi samarasizlik.

MISSIONERLIK VA PROZELETIZM FAOLIYATINING SALBIY OQIBATLARI

Missionerlik deganda nimani tushunish kerak?

Missionerlik haqida gap ketar ekan, avvalo, ushbu tushunchaning lug'aviy va istilohiy ma'nolarini tushunib olish muhim ahamiyatga egaligini alohida qayd etish lozim. Ushbu so'z lotin tilidagi «missio» fe'lidan olingan bo'lib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa "vazifani bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi.

Turli lug'atlar va manbalarda missionerlikka ko'plab ta'riflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xususiyatlar atroflicha tavsiflangan. Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan

"Jahon kitobi" ensiklopediyasida "Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o'z diniga targ'ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson", – degan fikr qayd etilgan. 2005-yilda Moskvada nashr etilgan "Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi"da esa «Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o'z e'tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati», – degan ta'rif keltirilgan.

Umuman olganda, turli lug'atlar va manbalarda bayon etilgan ta'riflar bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosani chiqarish mumkin:

**Missionerlik – bir dinga e'tiqod qiluvchilar orasida
boshqa bir dinni targ'ib qilishdir.**

Missionerlik bilan bir qatorda prozelitizm haqida ham so'z boradi. Uning mohiyati nimada?

Prozeletizm – o'z dinidan voz kechib, boshqa bir dinni qabul qilishdir.

U o'z mohiyatiga ko'ra missionerlikning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Prozelitizm keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlarni ayrim hayotiy misollarda ham ko'rish mumkin. Xususan, bizga qo'shni bo'lgan ayrim davlatlarda xristian dinini qabul qilgan kishilar vafot etganda jasadni qabristonga qo'yish bilan bog'liq muammolar kelib chiqmoqda. Mayitning musulmon ota-onalari o'z farzandlarini xristian mozoriga dafn etishni xohlamaganlari, musulmonlar esa xristian dini vakili jasadini o'z musulmon birodarlari yotgan joyga qo'yishni istamaganliklari natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, xristian dinini qabul qilgan kishi o'z o'g'lini xatna qildirishni xohlamagani, uning otasi esa, o'z nabirasini musulmon urfodatlariga ko'ra bu udumni istagani tufayli ota-bola o'rtasida janjallar kelib chiqqani ham ma'lum.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridaq kabi qarashlar turli tushunghalar mazmunini ataylab chalkashtirib, tarixiy voqelikni buzib talqin qilish natijasidir. Chunki xristianlik endi paydo bo'lgan bir sharoitda faoliyat olib borgan "da'vatchilar" (garchand ularga nisbatan ham "missioner" so'zini qo'llash keng tarqalgan bo'lsa-da) bilan bugungi "missionerlar" orasida keskin farq borligini va ularni

aslo bir qatorga qo'yib bo'lmashagini unutmaslik lozim. Zero, o'z davrida xristianlikning faol tarafdarlari tomonidan «da'vatchilik» ishlarining olib borilishi, o'z ta'limotlarini tarqatishga harakat qilishlari tabiiy bir hol edi.

Bugun dunyoning diniy manzarasi o'zining aniq shaklu shamoyiliga, turli xalqlar asrlar davomida shakllangan diniy-milliy qadriyatlariga ega bo'lgan bir davrda ilk "da'vatchilik"dan farqli ravishda missionerlik millat, jamiyatni diniy asosda bo'lib yuborishga qaratilgan buzg'unchilikning bir ko'rinishiga aylanib qolganini alohida ta'kidlash zarur. Missionerlar aholisining 90 foizdan ortig'ini islomga e'tiqod qiladigan O'zbekistonda faoliyat olib borishga intilayotgani ham bunday buzg'unchilikka yorqin misol bo'la oladi.

Missionerlar da'vat ishlarini ijtimoiy tarmoqlarda ham amalga oshirmoqdalar. «Facebook» ijtimoiy tarmoqlaridagi g'arazli guruuhlar yoki to'dalar o'zlarining qabih niyatini amalga oshirish uchun hali ongi shakllanib ulgurmagan yoshlarni aqidalaridan adashtirish uchun tun-u kun harakat qilmoqda. Shunday ekan, insonlar qalbi va ongi uchun kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, kelajakni ishonib topshirmoqchi bo'lgan yoshlarimizning odob-axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. Yoshlarning vaqtini to'g'ri tashkil etish, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini yanada rivojlantirish, ularni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Agar bugun biz ular bilan shug'ullanmasak, «boshqalar» shug'ullanishi aniq.

Virtual olamda buzg'unchi kuchlar targ'ib etayotgan illatlar ta'siriga qarshi kurashda xalqimiz xulq-atvori, diniy-milliy qadriylardan mustahkam joy olgan diyonat, poklik, halollik, odamiylik, hayo va iffat kabi ko'plab fazilatlarning o'rni beqiyos. Ushbu fazilatlarni yosh avlod qalbi va shuuriga singdirish barobarida ularni har xil zaharlovchi unsurlar ta'siridan asrashda sustkashlikka aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida alohida ta'kidlaganlaridek, «Dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysundirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni quolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi. Binobarin, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy

manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin».

Demak, bugungi kunda eng muhim vazifamiz o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr – sadoqat tuyg'usini shakllantirish, har xil buzg'unchi kuchlar ta'siridan ogoh etish va munosib himoya qilishdan iboratdir.

INTERNET IJTIMOIY TARMOQLARIDA SOG'LOM E'TIQODGA TAHDID

Hozirgi tahlikali zamonda Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob – axloqni yemiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq. Internet yordamida ishlar oson va tez bajariladi. Lekin keyingi vaqlarda Internet bilan bog'liq buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Asosiy muammo Internetdan kim qanday maqsadda foydalanishida. Hozir yosh bolalar ham kompyuterni bemalol ishlata oladi. Bir qarashda buning xavfi yo'qday. Ammo haddan oshilsa, nazorat bo'shashsa, oqibati ayanchli bo'lishi mumkin.

Internetga kirayotgan yoshlar soni soat sayin ortmoqda. O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 10 milliondan oshgani, ularning aksariyati yoshlar ekanini alohida qayd etish lozim. G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda Internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini «yaqin do'st» yoki «hidoyatga chorlovchi» sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan adashtirmoqda. Aqidaparast oqimlarning iddaolarini targ'ib qilishda Internet saytlari asosiy manbara aylandi. So'nggi yillarda buzg'unchilikni targ'ib qiluvchi veb – saytlar soni bir necha barobarga ko'paygan. Xususan, 10 yil avval bunday saytlar 20 ta bo'lsa, bugun 7000 dan ortib ketishi natijasida ayrim ilmsiz yoshlarning buzuq e'tiqodlarga chalg'ib ketayotganligi achinarli hol. Bunday yoshlar turli saytlardan bilib – bilmay ma'lumotlarni ko'chirib olib, o'z e'tiqodiga putur yetkazmoqda.

Internet buzg'unchilar makoniga aylanishining sabablari

Ma'lumotlarni yetkazish tezkorligi

Matn, tasvir va ovoz uyg'unligidagi axborotni joylash kabi qulayliklar

Internetga kirishning osonligi

Internet maydonidagi faoliyatning maxfiyligi

Internetning tartibga solinmaganligi

Bugun maktab o'quvchilarining ham qo'lida uyali telefon bor, ularning aksariyati Internetga ulangan. Bu mitti matoh yordamida dunyoni kaftda ko'rgandek kuzatish mumkin. Biroq global tuzoqlardan biriga ilinib qolish xavfi juda katta. Shu tariqa har xil ma'lumotlar bola ongini zaharlaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda vaqtini behuda sarflash, hech bir foydasiz suhbatlar qurish isrofdan boshqa narsa emas.

- Bola kompyuterda band bo'l shiga ajratilgan vaqt chegarasini buza boshlaydi.
- Hamma uy ishlarini rad etadi. Hatto xonasini tozalash, kiyimlarini yig'ishtirish kabi o'ziga tegishli bo'lgan ishlardan bo'yin tovlaydi.
- Yaqinlari va o'rtoqlari bilan ko'rishish, suhbatlashishdan ham internetni afzal ko'radi.
- Hatto ovqatlanayotgan vaqtida ham internetdan uzila olmaydi.
- Yangi virtual tanishuvlarga juda o'ch bo'lib qoladi.

Yoshlar o'rtasida eng ommabop sayt – «odnoklassniki.ru» kabi ijtimoiy tarmoqlar loqaydlik, hayosizlik, tubanlik targ'ibotiga «xizmat» qilmoqda. Yoshlar tafakkurini zaiflashtirishga, ongini zaharlashga qaratilgan buzg'unchi xabarlar tobora keng tarqalmoqda. Hozir o'smir yoshlar ongiga ta'sir qilib, ular qalbiga o'z buzg'unchi g'oyalalarini singdirishni yoki to'g'ri yo'ldan ozdirishni maqsad qilgan kuchlar juda ko'p. Bu holat oddiy kompyuter o'yinlаридан tortib, Internet saytlari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil aloqa dasturlarida ham ochiq ko'zga tashlanadi. Internet va kompyuter o'yinlari asiriga aylanish kasalligiga chalingan o'smirlar hayotdan, ma'naviy qadriyatlardan tamom uzilib, butunlay o'yinlarga berilishi yoki ball yig'ishga, qimorga va yutuq-sovg'a olish kabi o'tkinchi qadrsiz ishlarga mukkasidan ketishlari mumkin. Bolalar berilib o'ynayotgan kompyuter o'yinlarining ildizi-negizida ham xuddi shu illatlar bor. Miyasida o'yinlardan tinimsiz zavqlanish hissini tuyayotgan bola uchun bunday «sevimli» mashg'ulotidan bo'lak hamma narsa astasekin ahamiyatsiz bo'lib qoladi. Kattalarga qaraganda bolalarda biror narsaga bog'lanib qolish kuchli, ularning sog'ligiga yetadigan zarar ham bir necha barobar ko'p bo'ladi. Bunday holatning belgilari quyidagilarda ko'rindi:



Rossiyaning Yekaterinburg shahridagi o'yinxonalardan birida 12 soat davomida o'yin o'ynagan 12 yoshli bola shifoxonaga hushsiz keltiriladi va kuchli insult xuruji bois olamdan o'tadi. Vrachlarning fikricha, bu fojiaga bolaning virtual maxluqlar bilan «jang qilishi»ga haddan ortiq darajada kirishib ketgani sabab bo'ladi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Kompyuter o'yinlarining bola shaxsiga salbiy ta'siri:

- elektro magnit to'lqinlaridan nurlanish;
- bola rnhiy zo'riqish->stress ostida qoladi;
- kitobga, o'qishga qiziqish uning ongidan siqib chiqariladi;
- atrofdagi odamlar bilan muloqotga ehtiyoj yo'qoladi;
- bolaning ko'rish qobiliyati juda tezlik bilan pasayadi;
- kamharakatlilik bola umurtqa pog'onasi va mushaklarining risoladagidek rivojlanmasligiga sabab bo'ladi;

- tez toliqish holati kuchayib bolaning immuniteti tushib ketadi;
- boshi aylanadigan, ko‘z oldi qorong‘ilashadigan bo‘lib qoladi;
- yurak qon tomir faoliyati tizimi buziladi;
- bolaning dunyoqarashi va fikrlashi keskin tushib ketadi.

So‘nggi vaqtarda xalqaro maydondagi yangiliklarni kuzatish asosida MDHning qator mamlakatlari, xususan, Ukraina, Qozog‘iston, Rossiya va Qirg‘izistonda o‘smirlar o‘rtasida o‘z joniga suiqasd qilish hollari ko‘payib borayotgani haqida ma’lumotlar berilayotganligiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Xo‘s, ularning bunday qaror qabul qilishlari va yosh umrlarini xazon bo‘lishiga nima sabab bo‘layapti?

Ma’lumotlarga qaraganda, turli ijtimoiy tarmoqlarda «ko‘k kit» nomi bilan razil g‘arazgo‘ylar guruhi mavjud. Ularning soni bitta emas, bir nechta ekani ham ma’lum. Achinarli va tashvishlisi shundaki, ularning g‘alamisliklariga chuv tushayotganlar hayotning achchiq-chuchugi nima ekanini bilmaydigan va dunyoqarashi shakllanish arafasida bo‘lgan o‘smir yoshlardir. Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning har birida ko‘plab o‘smirlar ushbu o‘yin qurbanini bo‘lishga ulgurgan. Ammo, ularning yovuz niyatları girdobiga chuv tushayotganlar oz emasligini xalqaro yangiliklar dasturlarida ko‘rish mumkin. «O‘lim guruhi»ning topshirig‘i esa, asosan, ertalabki shirin uyqu vaqtida, tonggi 4:20 – 4:50 atrofida berilishi ta’kidlanmoqda. Ularga so‘nggi vazifa berilishida, «bu tush ekani, shartni bajarishi bilan uyg‘onishi va natijasi qanday bo‘lganini bilish mumkin»ligi kabi gipnoz usullaridan foydalanylGANI ham xabarlarda aytilmoqda.

Aslida, kompyuterdan to‘g‘ri foydalanssa u darajada vahimali, xavfli narsa emas. U bolaning bilim olishi, izlanishida foydali vosita bo‘lishi tayin. Buning uchun kompyuter bolaning har tomonlama kamol topishi yo‘lida ishlatalishi zarur. Farzandining istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-onha tarbiya masalasiga jiddiy e’tibor bermog‘i lozim. Bola tarbiyani turli kompyuter o‘yinlari, Internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo, ota-onalaridan, bobo-buvilardan, ezgulikka, poklikka va ma’naviyatni shakllantiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.

Nazorat uchun savollar:

- ❖ Globallashuv tushunchasini ta’riflang.
- ❖ Aksilglobalistlar kim va ularning vazifalari nimalardan iborat?
- ❖ “Ommaviy madaniyat”ning oqibatlarini tahlil qiling.
- ❖ Diniy ekstremizm va terrorizmning bugungi kundagi faoliyati haqida ma'lumot bering.
- ❖ Missionerlik tushunchasini izohlang.

AMALIY MASHG‘ULOT TOPSHIRIQLARI

ASSESMENT topshirig‘i

1 – assesment

TEST	Muammoli vaziyat:
<p>Globallashuv jarayoni nima?</p> <p>A. Mintaqalararo muloqot.</p> <p>V. Globallashuv – bu turli mamlakatlар iqtisodi, madaniyati, ma’naviyati, odamlar o’tasidagi o’zaro ta’sir va bog’liqlikning kuchayishidir</p> <p>S. Globallashuvning asosiy mazmuni boshqa mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotning qo’shimcha qiymatini, dunyodagi asosiy zaxiralarni o’zlashtirishdan iborat</p> <p>D. Globallashuv – muttasil davom etadigan tarixiy jarayon;</p>	<p><i>Odam qanday qilib egotsentrist bo’lib qoladi? Qanday qilib ota-onalar o’zlarini tuqqan bolasini yer-u jahonga ishonmay bu dunyoning markaziga aylantirib oladilar. Bolaga buni (dunyoning marka zi - bo’lishni) o’rgatishadi. Bola nima qilsin? O’rganadi. Bunday ota-onalar tarbiyasida: "Faqat mening bolamga yaxshi bo’lishi kerak. Bolam baxtli bo’lishi kerak" degan tamoyilga amal qiladilar va ... qattiq adashadilar. Bolasining istagan hatto istamagan, so’ramagan narsalarni ham uyub tashlashadi. Natijada bola egoist bo’lib etishadi.....</i></p> <p>Egotsentrizminning salbiy oqibatlarini izohlang.</p>

2 – assiment

Guruhlarga topshiriqlar:

1–guruh. Globallashuv jarayoni haqida tushuncha beradi.

2—guruh. «Ko‘k kit» va «Tinch uy» o‘yinlarining bolalar va o‘smlilar tarbiyasiga salbiy ta’sirini izohlaydilar.

3—guruh. Diniy ekstremizm va terrorizm tushunchasi haqida ma’lumot beradilar.

4—guruh: Missionerlik va uning salbiy oqibatlarini ta’riflaydilar.

Guruhlarning chiqishlari (har guruhga 5 minut).

1 – bosqich. Guruh ishlarining muhokamasi va xulosalari (10 minut).

2 – bosqich: Guruhlar mavzuni yoritib berish uchun keys texnologiyasidan foydalanadilar.

3 – bosqich: Mustaqil bajarish uchun uyga topshiriqlar beriladi va dars yakunlanadi(10 minut).

DIDAKTIKA – TA’LIM NAZARIYASI.
PEDAGOGIK JARAYON VA UNING O‘ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI. TA’LIM QONUNIYATLARI VA
TAMOYILLARI

Reja:

1. Didaktika – ta’lim nazariyasi, predmeti va vazifalari.
2. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
3. Pedagogik jarayon tizimining xususiyatlari.
4. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining didaktik g‘oyalari.
5. Ta’lim qonuniyatları va tamoyillari.

Tayanch tushunchalar: *didaktika, ta’lim, nazariyasi, didaktikaning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, pedagogik jarayon, didaktik kategoriyalar, tizim, g‘oyalari, bilim, ko‘nikma va malaka.*

Mavzuning qisqacha bayoni: *didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha «didaktikos» – «o‘rgatuvchi», «didasko» – «o‘rganuvchi») – ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o‘quvchi – o‘qituvchi faoliyati, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.*

**DIDAKTIKA-TA’LIM NAZARIYASI, PREDMETI VA
VAZIFALARI**

Pedagog – olimlar yillar davomida «Nega o‘qitamiz?», «Nimani o‘qitamiz?», «Qanday o‘qitamiz?», «Qayerda o‘qitamiz?» kabi savollarga javob izladilar. Didaktika bo‘limi bu kabi savollarga javob beradi.

Men o‘z hamkasblarimga qarata o‘zida «Qanday o‘qitish» kabi savollarga javob topish imkoniyatiga ega bo‘lgan qo‘llanmalar avval ham, hozir ham ta’lim jarayonida asosiy ustun bo‘lib kelgan va

talabalar, izlanuvchilarga amaliy maslahat ko'rsata olgan deb ayta olaman⁴⁷.

Shu munosabat bilan pedagogikaning oldida quyidagi savollar ko'ndalang turibdi: Bu jarayon qanday bo'lishi kerak? Shaxsni rivojlantirish va shakllantirish uchun ta'lidan qanday foydalanish va amalga oshirish lozim? Ushbu masalalarni nazariy tomonidan ishlab chiqish alohida ilmiy fan – didaktikani rivojlantirishni asoslab bergen. Pedagoglar fikricha, ta'lim barcha davrlarda ham ijtimoiy hodisa sanaladi. Ta'lim shaxs tomonidan ijtimoiy tajribalarning o'zlashtirilish jarayonini tezlashtiradi, uni zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi.



Yan Amos Komenskiy

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihatni, uni o'qitish va tarbiyalashga e'tiborni qaratadi. Shu bois didaktika (ta'lim nazariyasi) va tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Ushbu mavzuda shaxs tomonidan ijtimoiy tajriba o'z ichiga bilimlar, amaliy ko'nikmalar va mahoratni hamda ijodiy faoliyat usullarini olishi muhim jihat ekanligi ko'rsatilgan. Ko'rsatilgan ushbu vazifa o'qitish jarayonida hal qilinadi.

Didaktikaning ta'lim nazariyasi sifatidagi taraqqiyoti. Didaktika

Didaktikaning rivojlanish tarixi.

Didaktika so'zi ilk bor nemis pedagogi Volfgan Ratke (Ratixiya) (1571 – 1635) asarlarida o'qitish san'ati sifatida ifodalanadi. Didaktikaning asosiy ilmiy ishlanmasini birinchi marta chek pedagogi Yan Amos Komenskiy amalga oshirgan. U 1632-yilda chek tilida "Buyuk didaktika" asarini yozadi, 1633 – 1638-yillarda asarni lotin tiliga tarjima qiladi va 1657-yilda Amsterdamda nashr qilinadi. Didaktika tushunchasini Y. A. Komienskiy: "Hammani barcha narsaga o'qitishning universal san'ati" shaklida ifodaladi.

⁴⁷Aleks Muur. Ta'lim berish vata'lim olish: Pedagogika, ta'lim dasturi va tarbiya. Rutlej. Ikkinchchi nashr. 2012. – B. (Ikkinchchi nusxa uchun so'z boshida).

– pedagogikaning ta’lim, bilim berish jarayoni va o‘qitish nazariyasini umumiyligini qonuniyatlarini o‘rganuvchi mustaqil bo‘limi hisoblanadi. Didaktika yunoncha «didasko» so‘zidan olingan bo‘lib, «o‘qitish», «o‘rgatish» ma’nolarini bildiradi. Ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish, tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vazifalari, o‘qitish prinsiplari shakllari haqidagi bilimlar bayon etiladi.

Didaktika-ta’lim nazariyasi. Didaktika – bilim berish nazariyasi. Aniqrog‘i, ta’lim-tarbiya beruvchilar va ularni oluvchilar orasidagi pedagogik munosabatlarning kechish qonuniyatlarini aniqlovchi va shu sohada qo‘llaniladigan tushuncha, atama va qoidalarni ilmiy asoslab beruvchi hamda ularni boshqalarga o‘rgatuvchi pedagogik ilm-fan tarmog‘idir. Ta’lim – insoniyat tajribasining ma’lum tomonlariini, ya’ni o‘quvchi-talabalar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilimga ega bo‘lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir.

Didaktikaning predmeti, vazifasi va funksiyalari

Didaktika (ta’lim nazariyasi, yunoncha “didaktikos” – “o‘rgatuvchi”, “didasko” – “o‘rganuvchi”) – ta’limning nazariy jihatlari, ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlarini, o‘quvchi-o‘qituvchi faoliyati, ta’limning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolarni tadqiq etadi.

Didaktika predmetini aniqlash bo‘yicha turli qarashlar ilgari surilgan. Ko‘pchilik olimlar ta’lim obyekti deb o‘qitish jarayonining maqsadi, mazmuni, qonuniyatlarini, metodlari va tamoyillarini ko‘rsatadilar. Didaktika ta’limni ijtimoiy tajribani berish vositasi sifatida e’tirof etiladi. Ta’limiy faoliyatni tashkil etishda o‘qituvchi-o‘quvchi yoki talaba, o‘quvchi-o‘quv materiali, o‘quvchi-boshqa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni yuzaga keladi. O‘qish, o‘rganish ta’lim jarayonining ajralmas xususiyatidir. Ijtimoiy tajribani o‘rgatish jarayoni sifatida ta’lim ikki shaxs (o‘quvchi va o‘qituvchi) o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

Didaktikaga ta’limning mazmunli va jarayonli jihatlarini birgalikda o‘rganish xosdir. Amaliyotni qayta tashkil etish va takomillashtirish masalalarini nazarda tutgan holda didaktika ta’limni

faqtgina o'rganish obyekti sifatidagina emas, balki ilmiy asoslangan loyihalashtirish obyekti sifatida qaraydi.

Didaktika butun pedagogik faoliyat uchun, ya'ni ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchilarning nazariy va amaliy harakatlari uchun metodologik asos vazifasini o'taydi.

Shunday ekan, didaktikaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va ilmiy-tadqiqot metodlari nimadan iborat, degan savollarga javob topish mumkin.

Didaktika (ta'lim nazariyasi)ning predmeti o'qitish (o'qituvchi faoliyati) va bilim olish (o'quvchi yoki talabaning o'rganish faoliyati)ning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi jihatlarini o'reganishdan iborat.

Didaktikaning ilmiy tadqiqot obyekti – uzlusiz ta'lim va tarbiya jarayonidir. Didaktikaning ilmiy tadqiqot predmeti – ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etuvchi «ta'lim-tarbiya oluvchi», «ta'lim-tarbiya beruvchi», «o'quv dasturi, darslik va boshqa didaktik materiallar», «o'qitishning usul va uslublari» hamda «o'qitishning texnik vositalari» orasidagi funksional aloqadorlikdan iboratdir.


Didaktikaning maqsadi – *shu funksional aloqadorlikning mavjudligi ta'lim-tarbiya jarayonining ichki qonuniyatidan kelib chiqqanligini isbotlash* va ularni bir-biriga mutanosib ravishda taraqqiy ettirishdir.

Bu degani ta'lim-tarbiya jarayonida qatnashuvchi biron bir elementi o'zgarsa, uning boshqa qismlarining ham shunga moslashtirish zarur ekanini isbotlab berishdir. Masalan, ta'lim-tarbiya jarayoni kechadigan sinf yoki auditoriyadagi pedagog o'zgarsa, ta'lim-tarbiya jarayonini shakllantiruvchi o'qitishni usul va uslublari, texnik vositalardan foydalanish usullari ham o'zgarishi mumkin. Yoki, o'qitishning dasturi o'zgarsa, darslik va boshqa didaktik materiallar hamda o'qituvchi o'zini va dars berish usullarini bir oz bo'lsa-da o'zgartirishga majbur. Chunki ular o'zaro funksional bog'liqdir. Didaktikaning maqsadi mana shu o'zgarishlarni asoslab, ta'lim-tarbiya jarayonining muayyan qonuniyatlar asosida kechishini nazariy tomonidan asoslab berishdan iboratdir.

Didaktika o'z tadqiqotlarini olib borish jarayonida quyidagi an'anaviy tadqiqot usullaridan foydalanadi: tarixiy va ilmiy adabiyotlarni tahsil qilish, o'quv-uslubiy hujjatlarni o'rganish,

fanlardan bilim berish amaliyotini sintezlash, statik usullar, maqsadli suhbat, qiyosiy tasnif, taqqoslash va hokazo. Shu bilan birgalikda, didaktikada nisbatan yangi hisoblanuvchi – majmuaviy yondashuv, grafoanalitik, matematik modellashtirish, sotsiologik tadqiqot usullaridan ham foydalaniladi.

Didaktikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:



Didaktikaning asosiy vazifalari

Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida didaktika fanining vazifalari:

Birinchi vazifasi – bilim egallahash va ularni ko'nikma va malakaga aylantirish qonuniyatlarini aniqlab berish. Bu borada didaktika ancha yutuqlarga erishgan bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishning quyidagi qonuniyatlarini, ya'ni tamoyillarini aniqlagan. Bularga: *bilimni uzatishda ilmiy asoslab berish, ta'lim oluvchilar imkoniyati va yosh xususiyatlaridan kelib chiqish, ko'rgazmalilik, muntazamlik, ta'lim va amaliyot birligi, onglilik va faollilik, tizimlik va izchillik, ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyillari kiradi*. Bular keyingi o'rnlardalarida bat afsil yoritiladi.

Ikkinci vazifasi – ta'lim mazmunining tuzilishi va hajmini belgilash.

Uchinchi vazifasi – ta’lim-tarbiya berishning shakllari va usullarini takomillashtirish.

To’rtinchi vazifasi – yaxlit ta’lim-tarbiya jarayonining o’quvchi va talabalarning tarbiyalanganlik holatiga ijobiy ta’sirni ta’minlash.

Beshinchi vazifasi – insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan-texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirish va hokazo.

Demak, ta’limning asosiy vazifalaridan biri shaxsni ilmiy bilimlar, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta’lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma’noni bildiradi, ya’ni ta’lim oluvchilarda bilim, ko’nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish hamda qobiliyatlarini o’stirishdir.

Ta’lim asosida yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to’plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko’nikma va malakalar hamda e’tiqodlar shakllantiriladi. Ta’lim o’qituvchi va o’quvchi-talabalarning birligida faoliyati bo’lib, u ikki tomonlarma xarakterga ega. Unda ikki tomon – o’qituvchi va o’quvchi-talaba faol ishtirot etadi. O’qituvchi aniq maqsadni ko’zlab, reja va dastur asosida bilim, ko’nikma va malakalarni singdiradi, o’quvchi-talabalar esa uni faol o’zlashtirib oladi.

Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat, tasavvur, tafakkur va nutq kabi jarayonlar faol ishtirot etadi va muhim rol o’ynaydi. Ta’lim yoshlarga bilim berish, ularda ko’nikma va malakalarni hosil qilish, ya’ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo’lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Didaktikaning **ilmiy-nazariy vazifasi** ta’limning mavjud jarayonlarini o’rganish, uning turli jihatlari o’rtasidagi bog’liqliklar, mohiyatini ochib berish, rivojlanish tendensiyalari va kelajagini aniqlashdan iboratdir.

O’zlashtirilgan nazariy bilimlar ta’lim amaliyotini yo’naltirish, jamiyat tomonidan qo’yilayotgan ijtimoiy talablarga muvofiq takomillashtirishga imkon beradi. Ta’lim mazmunini anglab olish, ta’lim tamoyillari, ta’lim metod va vositalarini qo’llash me’yorlarini aniqlash asosida didaktika amaliy – me’yoriy hamda tashkiliy – texnologik vazifani bajaradi.

Ta’lim funksiyalari. «Funksiya» tushunchasi «ta’lim vazifalari» tushunchasiga yaqindir. Ta’lim funksiyasi ta’lim jarayoni mohiyatini ifoda etadi, vazifasi esa ta’limning komponentlaridan biri hisoblanadi.

1.Ta'lim jarayonining ta'lim berish funksiyasi – o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarни shakllantirishdan iborat.

ajratib ko'rsatadi: **ta'lim berish, rivojlantirish va tarbiyalash.**

Ta'lim natijasi sifatida bilimlarning to'laligi, chuqurligi, tizimliligi, anglanganligi, mustahkamligi va amaliy xususiyat kasb etishi muhimdir. Bu kabi holatlar ta'lim jarayonining metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarda ular tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma va malakalarning shakllanishi ham alohida ahamiyatga ega.

Umumiy ko'nikma va malakalarga og'zaki va yozma nutqni bilish, axborot materiallaridan foydalana olish, o'qish, manbalar bilan ishlash, referat yozish, mustaqil ishni tashkil etish kabilalar kiradi.

2. Ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasi ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchining rivojlanishi sodir bo'lishini ifodalaydi

Rivojlanish quyidagi yo'nalishlarda sodir bo'ladi: nutq, fikrlash, sensorli – harakatli va hissiy – irodaviy sohalarning rivojlanishi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim shaxsni har doim rivojlantiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchini har tomonlama rivojlantirish, birinchi navbatda, aqliy rivojlantirish (analiz qilish, taqqoslash, turlarga ajratish, xulosa chiqarish, obyektlarning muhim belgilarini ajrata bilish, faoliyat maqsadi va usullarini aniqlashni o'rgatish, natijalarni tekshirish malakasini rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim).

3. Ta'limning tarbiyalash funksiyasi turli ijtimoiy tuzum hamda sharoitda ham yaqqol namoyon bo'lib, ta'lim mazmuni, shakli va metodlarining mohiyati bilan belgilanadi va o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtaсидаги munosabatlarni tashkil etish jarayonida yetakchi o'rin tutadi

Ta'lim jarayoni tarbiyalovchi xususiyatga ham ega. Tarbiya va ta'lim o'rtaсидаги bog'liqlik obyektiv va qonuniy hisoblanadi. Biroq shaxsni ta'lim jarayonida tarbiyalash tashqi omillar (oila, mikromuhit

va boshqalar)ning ta'siri tufayli qiyin kechadi.

Ta'lim jarayonida shaxsning ma'naviy-axloqiy va estetik tasavvurlari, xulq-atvori va dunyoqarashi shakllantiriladi. Ta'limni tarbiyasiz va rivojlanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu uzviylik ta'lim jarayonida maqsad, vazifa, shakl va metodlar, vositalar kabi kategoriyalari o'rtaida o'zaro aloqani vujudga keltiradi.

2. DIDAKTIKANING ASOSIY KATEGORIYALARI VA DIDAKTIK TUSHUNCHALAR TIZIMI

Pedagogikaga xos didaktik kategoriylar sirasiga quyidagilar kiradi.

➤ ta'lim – o'quvchilarga yoki talabaga nazariy bilimlarni berish asosida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan jarayon;

➤ ta'lim jarayoni – o'qituvchi va o'quvchi yoki talabalar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon;

➤ bilim olish – idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarning mustahkamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni;

➤ dars – bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli;

➤ o'quv fani – ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan hamda o'zida muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilim asoslarini jamlagan manba;

➤ ta'lim maqsadi (o'qish, bilim olish maqsadi) – ta'limning aniq yo'nalishini belgilab beruvchi yetakchi g'oya;

➤ ta'lim jarayonini tashkil etish – o'qituvchi va o'quvchi yoki talabalar o'rtaida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning tashkiliy – metodik jihatdan to'g'ri uyushtirilishi;

➤ ta'lim tamoyillari – ta'lim nazariyasining asosiy yetakchi qoidalari;

- ta'lim turlari – mazmuni, tashkil etilish o'rni, bosqichi, qo'llaniladigan asosiy vositalari va jalb etiladigan ta'lim oluvchilarning yoshiga ko'ra farqlanuvchi ta'lim ko'rinishlari;
- ta'lim shakli – ta'lim jarayonining tashkiliy qurilishi;
- ta'lim metodlari – ta'lim jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi ushublar majmui yoki ta'lim jarayonida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishishda o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini o'zaro bog'lovchi usul, yo'l;
- ta'lim vositalari – o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim samaradorligini ta'minlovchi obyektiv (darslik, o'quv qo'llanmalari, o'quv qurollari, xarita, diagramma, plakat, rasm, chizma, diaprojektor, magnitafon, videomagnitafon, uskuna, televizor, radio, kompyuter va boshqalar) va subyektiv (o'qituvchining nutqi, namunasi, muayyan shaxs hayoti va faoliyatiga oid misollar va hokazolar) omillar;
- ta'lim natijasi (ta'lim mahsuli) ta'lim yakunining mohiyatini qayd etuvchi tushuncha, o'quv jarayonining oqibati, belgilangan maqsadni amalga oshirish darjasи.

Asosiy didaktik kategoriylar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham qayd etish mumkin. Ta'lim jarayoni tartibga (tizimga) soluvchi tushuncha sifatida ta'lim maqsadi, o'qituvchi faoliyatida va uning natijasida ko'rinadi. Bu jarayonning o'zgarishini paydo etuvchi boshqarish vositalari yuzaga keladi. Mazkur vositalar e'z ichiga o'quv materialining mazmunini, hajmini, o'qitish metodlarini, ta'lim vositalarini, o'qitish shakllarini, tashkil qilish jarayonini va o'qituvchi, o'quvchi talabalarning o'quv faoliyatini qamrab oladi. Bu qismlar o'zaro mustahkam birlikda bo'ladi va tarbiyaning umumiy maqsadiga bo'ysinadi – xizmat qiladi. Bilim berish va bilim olish maylida kechadigan munosabatlar tizimi shakllanadi va bu pedagogik jarayonni tashkil qiladi.

PEDAGOGIK JARAYON TIZIMINING XUSUSIYATLARI

Uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonida «pedagogik faoliyat», «pedagogik jarayon» tushunchalari mavjud. Bu ikkala tushuncha ta'lim jarayonida uyg'un ravishda amal qiladi. **Pedagogik faoliyat** –


jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida umuminsoniy sifatlar va milliy fazilatlarni shakllantirishni ilmiy asoslangan reja – dasturga muvofiq amalga oshirish, ya'ni avlodni hayotga tayyorlaydigan ijtimoiy zarur faoliyat turidir. **Pedagogik jarayon** – o'qituvchi yoki tarbiyachi, o'quvchi-talaba yoki tarbiyalanuvchi orasidagi bilim berish va bilim olish, o'rgatish – o'rganish, tarbiyalash maylida kechadigan munosabatlar tizimidir.

Didaktik tizimda pedagogik jarayon ta'limning maqsadi, tamoyillari, mazmuni, shakli, metod va vositalarining birligi asosida tashkil etilgan tuzilmalarning ichki yaxlitligini ifodalaydi.

Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi:

Didaktik tizim (yunoncha “sistema” – yaxlit qismlardan tashkil topgan, birlashtirish) ma'lum mezonlar asosida ta'lim jarayonining yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatishdir.

(1 – jadval).



Ta'lim jarayoni tuzilishining andozasi (modeli)

Didaktikada pedagogik jarayon faoliyat sifatida tushuniladi va shuning uchun unda quyidagilar ko'rib chiqiladi:

- boshlang'ich vaziyat (holat) tahlili;

➤ ishni rejalashtirish, maqsad-mazmuni va maqsadga erishishni ta'minlaydigan vositalarini tanlash – o'quv materialidan parcha ajratish va uni turli yo'llar bilan qabul qilish;

➤ o'quvchi yoki talabalarning bajarishi, o'qituvchi va o'quvchi talabalarning hamkorligi, ishni birgalikda tashkil etishi;

➤ material mazmunini o'zlashtirish va o'zini o'zi nazorat qilish bo'yicha qilinadigan ishni kuzatib borish va tahlil qilish;

➤ tahlil va o'zini-o'zi tahlil qilish, ta'lim natijalarini baholash kabilari.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi va o'quvchi yoki talabaning o'zaro faoliyati, belgilangan maqsad, mazmun va dastur o'qituvchining faoliyati orqali amalgalash oshiriladi. O'qishni boshqarish kutilgan natijani hosil qiladi. O'qish – o'qituvchining faoliyati. O'quvchi yoki talaba o'qituvchining yordamida ta'lim vazifalarini bajaradi, insoniyatning ijtimoiy – tarixiy tajribalarini o'zlashtiradi. Barcha turdag'i faoliyat uch qismdan tashkil topadi:

➤ mo'ljallash – asoslash;

➤ muloqot – bajarish;

➤ fikrlash – baholash;

Shunga ko'ra, o'quvchi yoki talaba faoliyati shu uch qismdan tashkil topadi. Ta'limning muhim vazifasi – o'quvchi talabalar faoliyatidagi bu uch qismning birlikda bo'lishiga va rivojlanishiga e'tibor berishdir. Pedagogik jarayonda shaxsnинг rivojlanish qonuniyati mavjud.

Rivojlanish – shaxsnинг fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Ta'lim va rivojlanish muammosiga doir qator nazariyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri P.Ya.Galperinning «Aqliy xatti-harakatlar, bilimlar, malaka va ko'nikmalarini besqichma bosqich rivojlanirish nazariyasi» sanaladi.

P.Ya.Galperin nazariyasi bo'yicha shaxs rivojlanishining muhim ko'rinishi – bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichda kechadi:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Amaliy xatti-harakatlarni bajarish.

4. Baland ovozda bayon etib xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Xatti-harakatlarni ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish.

Nazariyaga ko'ra bilimlarni o'zlashtirishda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- 1) xatti-harakatlarni o'zlashtirish xatolar bilan kechadi (o'quvchi o'quv materiali mazmuni yetarlicha anglamaydi, ta'limning asl mohiyatini tushunib yetmaydi);
- 2) materialni nisbatan to'la tushunadi (bu holat material bilan bog'liq tushunchalarni ajratilishi bilan tavsiflanadi);
- 3) xatti-harakatlar tez, samarador va bexato o'zlashtiriladi.

SHARQ VA G'ARB MUTAFAKKIRLARINING DIDAKTIK G'OYALARI

IX – XII asrlar davomida O'rta Osiyo jahonga Xorazmiy, Farg'oniy, Ismoil Buxoriy, Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy kabi ulkan olimlarni taqdim etdi. Bu allomalar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, umuman, O'rta Osiyoning shuhratini olamga yoydilar.

O'rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi eng yirik davomchisi va targ'ibotchisi **Abu Nasr Forobiy** (873 – 910) «Ideal jamoa haqida», «Baxt – saodatga erishuv to'g'risida» asarlarida inson ongi, aqli, sezish a'zolari tufayli olamni har tomonlama o'rganish, aqli yordamida o'zini o'rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunish qobiliyatiga egaligini aytadi. U «Baxtsaodatga erishuv to'g'risida» asarida ta'lim-tarbiya, inson shaxsini kamol toptirish yo'l-yo'rqliari, ilm-ma'rifatga erishuv usullari, ijtimoiy muammolarni yechish masalalari xususida fikr bildiradi.

Forobiy, O'rta asr Yaqin va O'rta Sharqda ilg'or pedagogik ta'limotning asoschilaridan biri sifatida, o'z asarlarida didaktika, ta'lim-tarbiyaning psixologik asoslarini, axloq, estetikaning muhim nazariy masalalarini o'z falsafasining ajralmas qismi tarzida tahlil etadi. U ta'lim-tarbiya berishning metodlariga ham e'tibor qaratgan holda bilimdon, ma'rifatli, yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm – hikmatini o'rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-

dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘lsin»⁴⁸. Bu fikrlardan Forobiyning ta’lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, aqliy tarbiyalashda bilim va ma‘rifatga qanchalik e’tibor bergenligi ko‘rinib turibdi.

Abu Ali ibn Sino (910 – 1037) ta’lim-tarbiya, mantiq, aql – tafakkur, aniq fanlarning bola tarbiyasida tutgan o‘rni, o‘qitish usullari haqidagi ta’limotlarini «Tib ilmlari qonuni», «Najot kitobi», «Insof kitobi», «Donishmand» asarlarida ham bayon etgan.

Ibn Sino «Tib qonunlari» asarida yosh bolalarni tug‘ilganidan boshlab oyoqqa turguncha ma’lum tartibda tarbiyalab borish lozimligini aytadi. Maktabda bolalarni qanday o‘qitish va nimalarga o‘qitish haqida, uning usullari ustida ham muhim fikrlarni olg‘a suradi. Alloma bolalarni bitta-bitta, alohida o‘qitishdan ko‘ra jamoa tartibida o‘qitishni afzal deb biladi va uning ustunligi haqida yozadi: «O‘quvchilar o‘qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O‘z bilimlari bilan g‘ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G‘urur va o‘ziga e’tibor tarbiyalanuvehilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi.

O‘quvchilar birga bo‘lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o‘z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar»⁴⁹.

Ibn Sinoning uqtirishicha, jamoa tartibida o‘qitishning yana bir ijtimoiy foydasi shundaki: o‘quvchilar bir-birlari bilan do‘sit bo‘ladilar, bir-birlarini hurmat qila boshlaydilar, o‘zaro fikr almashadilar, musobaqalashadilar, vazifa va huquqlari haqida mulohaza yuritadilar. Bular hammasi namunali xulq va axloq qoidalarini shakllantirishga yordam beradi.

Ayrim bola til o‘rganadi, ayrimlari shoir bo‘lib yetishadi yoki notiqlik san‘atini egallaydi. Ilmning turli sohalarini o‘rganishga kirishganidan so‘ng kimning qaysi ilmni tanlagani ma’lum bo‘ladi.

Demak, o‘qituvchi bojalarga ta’lim berishga kirishishdan avval, o‘quvchining xulq-atvorini o‘rganish va bilimlarini tekshirib ko‘rishi kerak bo‘ladi. Avvalo, u o‘quvchinig nimaga e’tibor berishini tekshirib ko‘rishi; so‘ngra unga hunar yoki ilm turini tavsiya etish kerak.

Ibn Sino o‘z kuzatishlarida o‘quvchining shaxsiy xislatlariga, ruhiyatiga e’tibor beradi, aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik

⁴⁸ Majmuar Rasoi al-Hukamo – T.: Sharq 1985. 198 – bet

⁴⁹ Abu Ali ibn Sino. Tib ilmi qonuni – T.: Sharq 1985. 112-bet.

Антология педагогической мысли Узбекистана. -М.: "Просвещение", 1986. стр 86 й.:

asoslarini aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi. Insonda har uch hayotiy quvvat va insongagina xos bo'lgan aqliy quvvat mavjuddir. Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishi, o'qituvchining unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek (1394 – 1449) o'zining pedagogik faoliyatida talabalarining erkin va har tomonlama kamol topishiga e'tibor berdi. Olimning fikricha, yoshlar olgan bilimlarining ahamiyatini, bundan maqsad nima ekanini aniq anglab, ularni takomillashtirib borishlari, hayotga tatbiq etish yo'llarini bilishlari, jamiyat va xalq farovonligi yo'lida zarur hunarlarni egallab olishlari kerak. Shu bois Ulug'bek bilimlarni nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olishni tavsiya etadi.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida mudarrislardan – o'quvchi va talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etdi, bunga o'zi rahbarlik qildi.

Ulug'bekning fikricha, o'quvchi hayotida darslik muhim o'rinda tutadi. Shunga ko'ra, har bir fan bo'yicha yaratilgan darslikda voqeа, hodisa yoritilishidan qat'iy nazar, unda hayotiy haqiqat, asosiy fikr, maqsad o'z ifodasini topishi kerakligini ta'kidlaydi. U darslik sodda, tili ravon, mantiqiy izchillikda, o'qishli bo'lishini talab etadi. Ammo darslik qanchalik yaxshi bo'lmasin, ta'limda o'qituvchi asosiy o'rinda turishi, o'z pedagogik mahorati, yaxshi insoniy fazilatlari bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi kerakligini e'tirof etadi.

«Mirzo Ulug'bekning davlat arbobi bo'lish bilan bir qatorda buyuk olim darajasiga yetishishida bobosi Amir Temurning ta'siri benihoya katta bo'lgan. U Ulug'bekdagи noyob iste'dodni boshidanoq payqab, safarlarda ham olib yurib, dunyoning mashhur olimlari tarbiyasidan bahramand etgan»⁵⁰.

Yevropa «Uyg'onish» davri yer yuziga o'nlab maorif olimlarini yetishtirib berdi. Shularning eng mashhuri, pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo'shgan ma'rifatparvar **Yan Amos Komenskiydir** (1592–1670). O'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. Sinf – dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chek pedagogining

⁵⁰ Axmedov B Tarixdan sahoqlar.-T.: O'qituvchi, 1994. 119-betlar.

xizmatlari katta. Uni sinf – dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan. Mutafakkir «Buyuk didaktika» asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil etish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berish, guruhdagi bolalarning yoshi va soni bir xil bo'lishiga alohida e'tibor berdi. Dars davomida o'quvchilar diqqatini toplash, materialni batassil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi. Komenskiy yashagan davrda hammani o'qishga tortish kerak emas, qobiliyatli kishigina o'qishi muhim, degan g'oya mavjud edi. Komenskiy esa o'qishga barchani jalb etish, hamma umumiy ta'lim olishi kerakligini uqtiradi. Umumta'lim to'g'risida gapirganda ayollarni ham hisobga oladi. Bu davrda xotin-qizlar uchun o'qish juda katta muammo edi, shunga qaramay, u bu masalani ilgari suradi.

Jan-Jak Russo (1712–1778) o'zining «Emil yoki tarbiya to'g'risida» nomli asarida ta'kidlashicha, tarbiyani tabiatga bog'liq holda amalga oshirish bolaning tabiiy rivojlanish borishiga rioya qilish demakdir. Russoning fikricha, bola tabiat haqidagi fanlar – geografiya, astronomiya, fizika, tabiatshunoslik fanlarni o'rGANishi lozim. Bola o'zi yashayotgan joy, qishloq va shahar bilan tanishib, geografiyaga oid bilimlarni egallaydi, yulduzlar harakati, quyoshning chiqishi va botishini kuzatib astronomiyani o'rGANADI, tajribalar o'tkazib fizikani bilib oladi. Tarbiyalanuvchi bilimlarni tarbiyachi orqali emas, balki o'z kuchi bilan egallashi, fanlarni quruq yod olmasdan, ularni o'zi ixtiro qilishi kerak deb hisoblaydi. Russo mehnatni bolaning aqliy rivojlanishi uchun amaliy vosita deb biladi.

Logann Genrix Pestalotsi (1746–1827) tarbiyaning maqsadi bolalarda «haqiqiy insoniylikni» namoyon ettirishdan iboratligini aytadi. Pestalotsining ta'kidlashicha, tarbiya uyg'un tarzda, ya'ni bolaning tabiatni, ruhiyatiga muvofiq holda amalga oshirilishi kerak. Ko'z, – deydi Pestalotssi, – ko'rishni, qulqoq eshitishni, oyoq yurishni, qo'l ushslashni istaydi. Shuningdek, qalb ham ishonishni va sevishni istaydi. Aql fikrashni istaydi. Olim ta'lim aniq hayotiy kuzatishlarga asoslanishini tavsiya qiladi, ko'rgazmalilikni ta'limning oliy sharti hisoblaydi. U «Lingard va Gertruda» (1781 – 1787) nomli ijtimoiy – pedagogik roman yozib, bu romanda xo'jalikni oqilona usulda olib borish va bolalarni to'g'ri tarbiyalash vositasi bilan dehqonlarning turmushini yaxshilash to'g'risidagi o'z g'oyalarini olg'a suradi.

Adolf Disterverg (1790–1866) pedagoglik sohasida samarali ish

olib borish bilan bir vaqtida matematika, nemis tili, geografiya, matematik geografiya, astronomiyaga doir yigirmadan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar nashr qilgan. Bu darsliklar va o'quv qo'llanmalari Germaniyada va boshqa ko'pgina mamlakatlarda katta shuhrat qozondi. U «*Nemis muallimlarining muallimi*» degan faxrli unvonga sazovor bo'ldi. Disterverg takomillashib boruvchi ta'lim didaktikasini yaratdi. Didaktikaning asosiy talablarini ta'limning 33 qonun va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. U taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim «yaqindan uzoqqa», «oddiydan murakkablikka», «ma'lumdan noma'lumga» o'tish kerak, degan qoidalar bilan bog'liq ta'limdir.

G'arbiy Yevropada Yan Amos Komenskiy, Iogann Genrix Pestalotssi, Robert Ouen, Iogann Gerbart, Adolf Distverg, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy, Lev Nikolayevich Tolstoy, Anton Semyonovich Makarenko, Vasiliy Aleksandrovich Suxomlinskiylarning ta'lim-tarbiyaning roliga bergen baholari katta ahamiyatga egadir. Rossiyaga ham XIX asr boshlarida «Uyg'onish» davri yetib kelib, bir necha ko'zga ko'ringan pedagog olimlar yetishib chiqqan.

Shulardan biri mashhur rus pedagog olimi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824 – 1870) «Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarida ifodalangan didaktik qarashlarida u o'z vataniga va xalqiga xizmat qilishni pedagogik faoliyatning asosiy burchi deb hisobladi.

“Takrorlash – odatlarni mustahkamlash uchun, har bir narsaning xotirada mustahkam saqlanib qolishi uchun ham umumiy qonundir”.

K. D. Ushinskiy

U rus pedagogikasining o'ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo'lishi lozim, deb hisobladi. Ushinskiy «Kameral fanlarni o'qitish haqida» as'rida oliv o'quv yurtlaridagi mavjud o'qitish tizimiga nisbatan tanqidiy ko'z bilan qaradi. Hukumat tomonidan erkinlik berilishini talab etdi. O'qitish tizimini yaxshilashga oid yirik uslubiy muammolarni o'rtaga qo'yib, ularni qanday hal etish yo'llarini ko'rsatib berdi.

Abdulla Avloniy (1879 – 1934) o'zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida aql, ilm, fikr, dars, axloq haqidagi didaktik qarashlarini ham bayon etdi.

Avloniyning ta'kidlashicha, «Insonni» kamolga yetkazishda bosh

omil bo‘lgan aql ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyoza chekishni, sa’y-harakatni talab etadi. Har bir kishi biror ilm, hunarni egallar ekan, uni hayotda qo’llay bilishi darkor. Shundagina ilm, hunarning jamiyatga foydasi tegadi. Fikr tarbiyasi eng zarur, ko‘p zamonalardan beri taqdirlab kelingan muallimlarning diqqatlariga suyangan muqaddas bir vazifadir.

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir.

Abdulla Avloniy

Avloniyning fikricha, axloq – bu xulqlar majmui. Xulq esa, kishida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Uning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Vijdon –

bu ruhimiz, fikrimizga ta’sir qiladigan hissiyot, ya’ni sezuvdan iborat ma’naviy quvvatdir. Biz har vaqt fe’l va harakatimizning yaxshi va yomonligini vijdonimiz vositasida bilamiz. Vijdon insonning aql va fikrining haqiqiy mezonidir. Avloniyning fikricha, har bir kishining hayoti muayyan intizom asosida kechadi. Intizom inson xulqini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, shu tufayli ham unga doimiy ravishda rioya qilish kerak. Intizom jamiyat uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, o‘quvchilar uchun ham shunchalik zarur, sanaladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, hozirga paytda pedagogika nazariyasidan o‘quv dasturini, qo’llanma va darsliklarni yaratishda o‘zbek xalq pedagogikasi va Sharq mutafakkirlarining didaktik merosidan foydalanmasdan ta’lim-tarbiya jarayonida yuksak samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Xususan, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqa mutafakkirlarning didaktik g‘oyalari dunyo ijtimoiy – pedagogik fikrlar taraqqiyotiga ko‘p jihatdan ta’sir etib, muayyan darajada Yevropaga Uyg‘onish davrining asosiy shart-sharoitlarini yaratib bergen, albatta.

Bunday fikrlarni tasdiqlash uchun quyidagi bir necha dalillarning e‘zi kifoya. Masalan, al-Xorazmiyning «Al – kitob – al – muxtasar fi -hisob al-jabr va-l- muqobila» («Aljabrda muqobala hisobi haqida qisqacha kitob») hamda «Kitob surat al – arz» risolalaridan jahonga mashhur matematik va geograflardan Fibonacci, Pichioli, Tartalya, Kardano, Ferrari, Leonardo, mashhur yunon olimi Klavdiy

II, Ptolemy, Nyuton, Gershel, Jozef Tussen, Reyno va boshqalar keng foydalanganlar.

Shuningdek, Abu Ali ibn Sinoning «Hayy ibn Yaqzon» («Ziyarakli – Tirik o‘g‘lon») asari ispaniyalik pedagog va adib ibn Tufaylaning «Yakzon o‘g‘li Xayya» haqidagi qissasini; J.J.Russoning «Emil yoki tarbiya haqida» asarini, Forobiyning «Fanlar sanog‘i» risolasi ispaniyalik pedagog olim Gundisalning (XII asr) «Falsafaning bo‘linishi» asari yozilishiga asos bo‘ldi.

Oksford universitetining professori Rodjr Bekon (XII asr) al – Forobiy va ibn Sinolarning didaktik g‘oyalarni chuqurlashtirib, qomusiy kitoblarini yozadi. Yan Amos Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida didaktikaning ta’lim nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo‘sghan bo‘lsa-da, lekin ta’lim-tarbiya mazmuni, shakli va uslublari (ayniqsa, sinf – dars tizimi g‘oyasi) Ibn Sinoga tegishli g‘oya ekanligini alohida qayd etib o‘tishimiz lozim. Zero, Sharqda IX asrda hali Yevropaning ko‘p hududlarida, husnixat ishlatilmagan va sinf – dars tizimining nimaligini bilmagan bir vaqtida, Xorazmdagi Ma’mun akademiyasi qoshida tashkil etilgan maktab va madrasalarda, ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug‘ullangan qomusiy olimlar yaratgan pedagogik nazariyaning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular ilgari surayotgan didaktik g‘oyalarni bevosita o‘rganilayotgan fan mantig‘idan ajratilmagan.

TA’LIM QONUNIYATLARI VA TAMOYILLARI. TA’LIM QONUNIYATLARI

O‘quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiyligi xususiy xarakter kasb etishiga ko‘ra ikki guruhgaga ajratiladi. Amal qilinishiga ko‘ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiyligi, amal qilinishiga ko‘ra faqat alohida tarkibiy qismlariga tegishli bo‘lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.

I.P.Podlsiy o‘qitish jarayoning quyidagi umumiyligi qonuniyatlarini ajratib ko‘rsatadi:

– O‘qitish maqsadi qonuniyati. O‘qitish maqsadlari quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi: jamiyatning rivojlanish sur’ati va darajasiga; jamiyatning talablari va imkoniyatlariga; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasiga.

– O‘qitish mazmuni qonuniyati. O‘qitish (ta’lim) mazmuni quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi: o‘qitish ijtimoiy ehtiyojlari va

maqsadlariga; ijtimoiy va ilmiy – texnik taraqqiyot sur’atiga; o’quvchilar yoshi, imkoniyatlariiga; o’qitish nazariyasи va amaliyoti rivojlanish darajasiga; o’quv yurti moddiy – texnik va iqtisodiy imkoniyatlariiga.

Ta’lim qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) ta’lim omillari, shart-sharoitlari va natijalari o’rtasida o’zaro aloqadorlikning mavjudligi;
- 2) ta’lim jarayonining ijtimoiy omillar va jamiyat ehtiyojlari bilan bog’liqligi;
- 3) ta’lim, rivojlanish va tarbiyaning o’zaro birligi;
- 4) har qanday ta’lim jarayonida o’qituvchi, o’quvchi va o’rganilayotgan obyektlar o’rtasidagi o’zaro ta’sirning talab etilishi;
- 5) ta’lim jarayoni samaradorligining o’quvchilar tomonidan ko’rsatiladigan o’quv faolligi asosida ta’milanishi;
- 6) malakalarning muayyan operatsiya va harakatlarning muntazam, ko’p bora takrorlanishi natijasida hosil bo’lishi;
- 7) o’zlashtirishning puxtaligi takrorlashning izchilligiga bog’liq ekanligi; 8) o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan murakkab faoliyat usullarining o’qituvchi tomonidan ularga eng oddiy faoliyat usullarini muvaffaqiyatli o’zlashtirilishi natijasi ekanligi.


Ta’lim tamoyillari – o’qitish asosida yotadigan, ta’lim va uni tashkil etish jarayonini tashkil etish mazmuni, shakl, metod va vositalarini tanlanishini belgilaydigan boshlang’ich asoslardir.

Ta’lim qonuniyatlari asosida unga qo’yiladigan talablar – ta’lim tamoyillari aniqlanadi. Pedagogik amaliyotlarda ba’zan «**o’qitish prinsiplari**» atamasi ham ishlataladi. Lekin ta’lim tamoyillari (prinsiplari) ta’lim jarayonining ikkala

subyekti o’qituvchi va o’quvchi-talabaga ham daxldor. Shuning uchun taniqli didaktik olimlar O.Roziqov, A.Zunnunov, U.Mahkamov ularni **ta’lim prinsiplari** deb atashni ma’qul ko’radilar. Chunki ta’limni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o’qituvchi va o’quvchi-talaba faoliyatiga qo’yiladigan talablar, qoidalar, ta’lim prinsiplari deb ataladi. Prinsiplar umumididaktik kategoriya bo’lib, ular ta’limning barcha turlari, qarajalari, subyektlari, o’quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga daxldor umumiy qoidalardir. Prinsiplar va ta’lim qonuniyatlari uzviylikda mavjuddir. Qonuniyatlar prinsiplarning ayrim tomonlarini yoritadi. **Prinsip umummilliy**

xususiyatiga ega bo'lib, ta'linda barcha o'quv fanlarini o'qitish bosqichlarida qo'llanadi⁵¹.

Ta'lim jarayonida quyidagi tamoyillar ustuvor xarakter kasb etadi: ijtimoiy – g'oyaviylik; onglilik va faollik; ilmiylik va tushunarlilik; ko'rgazmalilik; mustahkamlik; tarbiyalovchi xarakterga egalik; fundamentallik va amaliy yo'nalganlik (ta'limning hayot bilan, nazariyaning amaliyat bilan bog'liqligi); tabiat bilan uyg'unlik; madaniy taraqqiyot bilan uyg'unlik; ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi; insonparvarlik; oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi; pedagogik hamkorlik.



TA'LIM TAMOYILLARIGA XOS XUSUSIYATLARGA UMUMIY TAVSIF

1. Ta'limning ilmiylik tamoyili. Ilmiy bilimlar haqqoniy voqelikni inson ongida aks etishidir. Tevarak atrofni o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va xodisalarning xossalari va ularning o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilim ilmiy bilimlar hisoblanadi. Ilmiy bilimlar tajribalar, tekshirishlar, tahlil qilish, isbotlash kabilarni talab etadi. Insoniyat ilmiy bilimlarini kengaytirib borgan sari haqiqiy voqelikka ma'lum darajada yaqinlashib boradi. Ilmiy jihatdan isbotlanmagan bilimlar ham mavjud va kelgusida inson ularni tahlil qilishi va chuqurroq o'rghanishi kerak bo'ladi. Ta'lim jarayonida biz talabalarga isbotlab bo'lingan, aniqlangan va amaliyotda tekshirib ko'rilgan bilimlarni yetkazishimiz lozim.

Ta'limning ilmiyligi o'quvchi-talabalarning o'quv materiallaridagi qonuniyatlarini aks ettirish, tushunish va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

Nazariy qoidalarni tushunish – materialini ilmiy asosda izohlab berishning muhim belgisi bo'lib, u o'quvchi-talabalarning fikrlash faoliyatini xususiyatlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlar ilmiyligicha qolib, voqelikni har xil darajada aks ettirishi mumkin. Ilmiy izoh ta'limning hamma bosqichlarida ilmiylik qoidalari vazifalaridan biri, nazariy ma'lumotlarni tevarak-atrofdagi dunyoni qanchalik chuqur aks etganligi nuqtai nazaridan bilib olishdir. Ilmiylik qoidasi barcha guruhlardagi va turli ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-talabalarga o'rghanish uchun ilmiy jihatdan ishonarli, amalda sinab ko'tilgan ma'lumotlar berilishini talab etadi.

Ilmiy bilimlarni egallah jarayonida o'quvchi-talabalarda ilmiy dunyoqarash e'tiqod tarkib topadi, tafakkur rivojlanadi. Yetuk milliy kadrlarni tarbiyalab yetishtirish uchun hozirgi zamon fan-texnikasining rivoji darajasidagi ilmiy bilimlarni egallahsga erishish muhim. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi-talabalarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan hara tanishtirib borish maqsadga muvofiq. Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqador, ya'ni darsliklar o'quv qo'llanmalar, o'quv dasturlari, o'quv rejasi, ilmiy asosda yaratilishi lo'zim.

2. Ta'lim tarbiyaning birligi tamoyili. Ta'lim va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Har qanday bilim ma'lum tarbiyaviy ta'sirga ega va har qanday tarbiyaviy tadbir o'zida bilim asosini aks ettiradi. Bu hayotiy qonuniyat bo'lib, biz ta'lim

jarayonida uni hisobga olishimiz lozim. Ta'lim jarayonida o'tilayotgan barcha mavzularning mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy jihatlarini to'g'ri belgilash va uni ta'lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta'minlash juda qulay. Chunki tarbiya his-hayajon va amaliy hayot bilan chambarchas bog'liq.

Bu esa bilimlarni puxtarq o'rganishga yordam beradi. Bilimlar esa ana shu tarbiyaviy jihatlarni mustahkamlashga ta'sir etadi. Bilimlar hayotni, hayotiy qonuniyatlarni bilishga xizmat qilsa, tarbiya hayotga nisbatan to'g'ri munosabat tarkib topishini ta'minlaydi. Demak, bir butun ta'lim jarayonida ikki o'zaro bog'liqlik: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish jarayoni sodir bo'lar ekan. Ta'lim-tarbiyaning birligi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishga va o'qitishga xilma xil metod va uslublardan foydalana olishga ko'p jihatdan bog'liq. Ta'lim bilan tarbiyaning birligini ta'minlamoq uchun:

a) bayon qilinayotgan o'quv materiallarning mazmunini ham ilmiy, ham g'oyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilinishi;

b) o'qitilayotgan mavzuning ilmiy va tarbiyaviy mohiyati ochib berilishi, ta'lim jarayonida ma'lumotlardan fodalanish imkoniyati yaratilishi;

v) bayon qilinayotgan ilmiy bilimlarning puxta va mustahkam o'zgartirilishi va turmushda unga amal qilinishi;

g) ta'limda muammoli jarayonni vujudga keltirish, o'quvchi-talabalarning qiziqishlari, faolligi va tashabbuskorligini ta'minlashga e'tiborning kuchaytirilishi;

d) ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning uyushqoqligini intizomlik va javobgarlikni sezish, o'zaro yordam hislarini tarbiyalanishni ta'minlash zarur.

3. Ta'limning tizimlilik va izchillik tamoyili. Ijtimoiy taraqqiyotning boy tajribasi ta'limda tizimli va izchillik bo'lishi shart ekanini tasdiqladi. Bilimlarning ma'lum tizimiga solinishi va izchil bo'lishi ta'lim samaradorligini belgilovchi yetakchi omillaridan biridir. Hozirgi zamon didaktikasida bu tamoyilga katta e'tibor berilmoqda. Chunki ta'limda izchillikka rioya qilib o'qitish butun o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va kelgusida egallanadigan bilimlarga poydevor sanaladi. Ya'ni o'tilayotgan fan yoki bayon qilinayotgan yangi material o'quvchi-talabalarning oldingi o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarga ko'nikma va malakalari bilan izchil va uzviy bog'lanish, shu bilan bir vaqtida, o'qitilayotgan o'quv

materiallari orqali kelajakda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, shuningdek, navbatdagi ta'lif bosqichiga zamin yaratilishini nazarda tutadi.

Ta'lifning tizimli bo'lishi uning izehil bo'lishi bilan bog'liqdir. Izchillikka asoslangan ta'lifning xarakterli belgisi shundaki, o'quvchi-talabalarning avval o'zlashtirilgan bilim va malakalarini zamirida yangi bilim ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularning o'zaro boshlanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini yana ham chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir. Demak, tizimlilikda izchillik ta'lifda uzlusizlikni vujudga keltirish asosidir. Bundan tashqari ma'lum tizimga solingan bilimlarni egallah, o'rghanish jarayonida qulaylik vujudga keltiriladi. Albatta, tizimli va izchillikni soddadan murakkabga qarab yo'naltirilishi maqsadga muvofiq. Bilimlarning asta-sekin izchillik bilan murakkablashib borishi tafakkurni rivojlantiradi. Natijada ta'lifning rivojlantiruvchi xususiyati kelib chiqadi.

4. Ta'lifning ko'rsatmalilik va ko'rgazmalilik tamoyili. Ta'lif jarayonida mumkin qadar sezgi organlarini ko'proq jaib etish o'rghanishni osonlashtiradi. Eshitish jarayonida abstrakt tafakkur ma'lum ish bajarsa, ko'rish orqali obrazli tafakkur ham ishga tushadi. Ko'rsatmalilik mavzuni o'rghanishda yengillik tug'dirishi bilan birga o'quvchitalabada qiziqish uyg'otadi. O'rghanilgan mavzuni uzoq muddat esda saqlashga va qayta esga tushirishga yordam beradi. O'quvchi-talabalarning sxema, jadval, diagramma kabi materiallar ustida ish olib borishlari va xususiyatlarini taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa chiqarishlari mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi.

Albatta, ko'rsatmalilik samarali natijalar berishi uchun uning boshqa tomonlarini ham e'tiborga olishi kerak. Birinchidan, ishlataladigan ko'rgazmali qurollar o'quvchi-talabalarning yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiy tayyorgarlik saviyasiga mos kelgan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'qilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo'lishini hisobga olmoq, uni to'g'ri tanlashiga e'tibor bermoq lozim. Uchinchidan, dars jarayonida foydalanishi uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli

foydalanoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

5.Ta'limning onglilik, faollik va mustaqillikka erishish tamoyili. O'quvchi talabalarining yangi materiallarni idrok qilishda ta'riflar, teoremalar, adabiyyotdan she'r yodlash va kabilarning ifodalani shigina emas, balki ularning hayotiy hodisalar jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mavzuni ham tushunishlarini talab etiladi. Aks holda bilimlarda yuzakichilik avj oladi, bunda materiallar quruq yodlab olingan bo'ladi. Bunday bilimlar tez unitiladi. Bundan tashqari bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchi-talabalarda bu bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, emotsional kechinmalar uyg'otishni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumki ta'lim ikki tomonlama xususiyatga ega. Ta'lim jarayonida pedagog yo'naltiruvchi bo'lib maydonga chiqadi va o'quvchi-talabalar o'rganish jarayonini kechiradilar.

O'rganish murakkab psixik jarayon bo'lib, o'quvchi-talabalardan ma'lum faollikni talab etadi. Pedagogik qonunchilik ta'lim jarayonini sermazmun, qiziqarli va mahorat bilan tashkil etmasin, o'quvchi-talabalar tomonidan ma'lum faollik bildirilmasa, o'quv jarayonida samaraga erishish mumkin emas. Demak, o'quv jarayonida avval o'quvchi-talabalarda faollikni uyg'otish zarur. Bu faollik ta'lim jarayoniga ta'sir etadi, idrok, tahlil qilish, analiz va sintez kabi psixik jarayonlarni ishga tushiradi.

O'quvchi-talabalarda faollik holatining vujudga kelishida motivatsiyalar ahamiyatlidir. Mustaqil tafakkur turli usullar bilan hosil qilinadi. Tafakkurni shakllantirish usullaridan biri mustaqil hal qilish, muammoli vazifalar qo'yishdir. Aytib o'tish joizki, onglilik va faollik mustaqil tafakkurning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda ta'lim oldiga qo'yilayotgan eng katta talablardan biri ham mustaqil fikrlash muammolar yechimini mustaqil topish kabi xususiyatlarni talabalarda rivojlantirishdir. Umuman, onglilik, faollik va mustaqillik o'zaro bir-birini to'ldirib turuvechi psixik holatdir deyish mumkin. Bilimlarni ongli o'zlashtirish bir tomonidan o'quvchi-talabalarining mustaqil, faol fikr yuritishini nazarda tutsa, ikkinchi tomonidan aynan shu jarayon davomida mustaqillik va faollikni hamda mantiqiy fikrlash faoliyatlarini tarbiyalab, takomillashtirib borishni nazarda tutadi. O'quvchi-talabalar faolligini rivojlantirish, mustaqilligini oshirish, onglilikni o'stirish o'qishda yuksak samaradorlilikka erishishga yordam beradi.

6. Ta'limning puxta va tizimli o'zlashtirib olish tamoyili. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar bilimlarni mustahkam yodda saqlab qolishini ta'minlash zaruriy talablardan biridir. O'quv materiallarini mustahkam esda saqlab qolish, dars jarayonida bayon qilinayotgan o'quv materiallarni tizimli va ongli o'zlashtirishga bog'liq. Avvalgi mashg'ulotlarda hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarini ancha murakkabroq materiallarni o'zlashtirib olish uchun pillapoya, zamin bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham bilimlar zaxiraning yetarli bo'imasligi keyingi o'rganiladigan yangi bilimlarni ham zaif bo'lishga olib keladi. Ya'ni o'zlashtirgan, mustahkamlangan bilimlar esa yangi mavzularni o'rganish va mustahkamlashga asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayonida ularning puxta anglab olinganligini tekshirish ba'zi tushunmovchiliklarni yo'qotish, mustahkamlashga e'tiborni qaratish didaktikning asosiy masalalaridan biridir. Ta'lim jarayonida takrorlashni uyuştirish bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Takrorlashning ahamiyati shundaki, u faqat oldindan o'zlashtirilgan o'quv materialinigina esga tushirmaydi, balki shu o'quv materialiga bog'liq bo'lgan yangi – yangi ma'lumotlarni ham, o'zlashtirilgan bilimlarning noaniq bo'lib qolgan tomonlarini oydinlashtiradi va to'ldiradi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni uzlusiz va ma'lum tizim asosida olib borilishi ta'lim samarasini oshiradi. Bilimlarni doimiy ravishda tekshirish, takrorlash, tizimli va uzlusiz ravishda to'ldirib borish muhim didaktik talabdir.

7. Ta'limning individualashtirish o'quvchi-talabalarning shaxsiy va yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Har bir o'quvchi-talabaning o'ziga yarasha qiziqishlari va shu bilan bir qatorda miqdori mavjud. Har bir o'quvchi-talabaning o'ziga xos bo'lgan yutuqlari va shu bilan bir qatorda kamchiliklari ham bor. Agar pedagoglar o'quv jarayonida ana shu individual xususiyatlarni hisobga olmasalar, har qancha unumli metodlardan foydalansa ham o'quv jarayonida yaxshi natijalarga erisha olmaydilar. Chunki ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabaning umumiy rivojini ta'minlash. Lekin o'quvchi-talabaning haqiqiy rivoji faqat uning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib holdagini amalga oshirilishi mumkin. O'quvchi-talabalarning real o'quv imkoniyatlari, rivojlanish jihatlarini o'rganish hozirgi vaqtida shunchaki xohish emas, balki majburiy talabdir. Busiz o'quv jarayonini muqobillashtirish, boyitish aqlga sig'maydi. Albatta, shaxsiy xususiyatlar juda xilma-xil, ularni o'rganish ma'lum vaqt

talab etadi. Kuzatish jarayonida o‘quvchi-talabaning kuchli va ojiz tomonlarini uning bilih jarayonlaridan aniqlash mumkin. O‘quvchi-talaba shaxsining muammolari va qiyinchiliklarni tahlil qilish hamda shu muammolar sababini aniqlash keyingi pedagogik chora-tadbirlarni rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘zlashtirishi bir oz pastroq bo‘lgan o‘quvchi-talabalar bilan yakka holda ishlash jarayonida pedagog o‘zi uchun ularning yangi qirralarini kashf etishi mumkin. Keyingi davrlarda «**differensiyalashgan ta’lim**» degan tushunchani keng tarqalishining asosiy sababi ham shaxsiy xususiyatlari, qobiliyati, qiziqishlari, iqtidori kabilalar hisobga olingan holda talabalarni guruhlarga ajratishni taqozo etadi va u uchun alohida dasturlar, qo‘llaniladigan metodlar asosida o‘quvchi-talabalarning shaxsi tanlanadi.

Ma’lum guruh uchun belgilangan o‘quv dasturi, mazmuni va hajmi o‘quvchi-talabalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi lozim. O‘rganilayotgan bilimlar hosil qilinayotgan malaka va ko‘nikmalar o‘quvchi-talabalarni haddan ziyod toliqtirib qo‘ymasligi lozim. Boshqacha qilib aytganda, o‘quv jarayonida o‘quvchi-talabalarning sog‘ligi, psixik holatiga salbiy ta’sir etishi oldini olish lozim. Buning uchun har bir o‘quvchi-talabaning xususiyatlarini chuqurroq o‘rganib imkoniyatlar darajasida belgilab olish kerak. Ta’limning mazmuni shaxslarning kuch-quvvatiga mos bo‘lishiga erishish lozim. Ta’limni haddan ziyod «**yengillashtirish**», «**osonlashtirish**» ham maqsadga muvofiq emas, chunki bunday ta’lim rivojlantiruvchi bo‘la olmaydi. Demak, har bir yosh davrida o‘quvchi-talabalarning imkoniyatlarini o‘rganish va mos ravishda ta’limni tashkil etish zarur. O‘rganiladigan bilimlar hajmini belgilashda ta’lim oluvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olish juda muhim bo‘lib, bu yo‘nalishda ham tegishli ilmiy tekshirish ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekistonda «**Kadrlar tayyorlash milliy dasturi**» asosda uzlusiz ta’limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilangan. Bular ta’limning ustuvorligi, ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’limning milliy yo‘nalishi, ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabiladir. Demak, uzlusiz ta’limni rivojlantirish tamoyillari didaktik tamoyillar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ana shu didaktik tamoyillarni yanada mukammallashuviga xizmat qiladi. Bugungi kunda pedagogika va uning ajralmas qismi hisoblanmish didaktikada o‘quv jarayoni qonunlarini yanada

chuqurroq o'rganish hamda ta'lim samaradorligini oshirish ustida ilmiy-tadqiqot ishlarini keng miqyosda olib borishi maqsadga muvofiq.

8.Ta'limning fanlararo bog'liqliq tamoyili. Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchi-talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya'ni turli xil hayotiy sharoitlarda o'z bilim, malaka va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish darajasiga yetkazishdir. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarni faqat ilmiy bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasdan, balki ana shu fanlararo bog'liq bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlash lozim. Demak, bu tamoyil ta'limning fanlararo bog'liqligi bilan hamohang bo'lib, ular bir-birlarini to'ldirib keladilar. Ta'limning fanlararo bog'liqligi ilmiy bilimlarni nazariy jihatdan o'rganishga, mantiqiy bog'liqliklarni tushunishiga, fikrlash qobiliyatini o'stirishga xizmat qilsa, amaliy harakatlar ana shu bilimlarni amalda qo'llab ko'rish, yanada to'liqroq ishonch hosil qilish, malaka hamda ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

9. Ta'limning nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili. Mazkur tamoyillarda dastavval o'quv fanining mazmunini va o'ziga xos xususiyatiga bog'liq holda o'qish jarayonida amalga oshiriladi. Bu birlik ilmiy bilimlarni puxta o'zlashtirish va uni amalda qo'llay olish, o'quv materiallarini idrok qilish, aniqlash, shuningdek, uni mustahkam esda saqlab qolish kabi ruhiy jarayon bilan bog'liq holda bir butun jarayonni tashkil qiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalar tomonidan matematika, hamda ijtimoiy gumanitar fanlardan o'zlashtirilgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar laboratoriya mashg'ulotlari, zamонавиј техника vositalari, tajriba yer uchastkalari, ishlab chiqarish mehnati va iqtisodiy munosabatlar jarayonida qo'llaniladi. Bu mashg'ulotlar ularni kelgusida murakka b ilmiy nazariyalari, amalda qo'llay olishlari uchun zarur bo'lgan tajriba bilan qurollantiradi. O'quvchi-talabalar o'quv materiallari tub mohiyatini, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ilmiy asosda atroflicha, chuqur tushunib oladilar. Kelajakda amaliy faoliyatları uchun zarur bo'lgan mahorat, ko'nikma va malakalar hosil qiladilar. Shuning uchun ham har bir mavzuning xususiyatlari hisobga olgan holda o'rganilayotgan yangi bilimlarni mumkin qadar amaliyotga bog'lash uchun jarayonning tamoyili sifatida qabul qilinadi.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Didaktika tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Didaktikaning rivojlanish tarixi haqida ma'lumot bering.
3. Didaktikaning tadqiqot obyekti, predmeti va maqsadini aniqlang.
4. Didaktikaning vazifalari nimalardan iborat?
5. Didaktika o'z tadqiqotlarini olib borish jarayonida qanday tadqiqot usullaridan foydalanadi?
6. Ta'lim funksiyalarini izohlang.
7. Didaktikaning asosiy kategoriyalari qaysilar?
8. Sharq mutafakkirlarining didaktik g'oyalarini izohlang.
9. Didaktikaning tamoyillari qanday?

Mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Didaktikaning rivojlanish tarixi.
2. Didaktika – ta'lim nazariyasi.
3. Didaktikaning ilmiy tadqiqot obyekti.
4. Didaktikaning predmeti va maqsadi.
5. Didaktikaning asosiy vazifalari va funksiyalari.
6. Didaktikaning asosiy kategoriyalari.
7. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida.
8. Pedagogik jarayon tizimining xususiyatlari.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1 - topshiriq. «FSMU» texnologiyasi asosida berilgan vazifani bajaring.

Didaktikaning ta'limgazariyasi sifatidagi taraqqiyotini asoslang

“FSMU” texnologiyasi

- (F) – Fikringizni bayon eting.
- (S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.
- (M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
- (U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishiga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

2 - topshiriq. Pedagogik jarayon xususiyatlarininini klaster tuzish yordamida izohlang.

«Pedagogik jarayon» mavzusi yuzasidan shakllantirilgan klasfer



3 - topshiriq. Keys bayoni

Har qanday tushuncha kabi «didaktika» atamasi ham mazmunan muayyan ta’lim qonuniyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaga ko‘plab ta’riflar berilgan.

Keys topshirig‘i

«Didaktika» – yunoncha so‘z bo‘lib, («didasko») tushunchasiga berilgan quyidagi ta’riflar orasidan to‘g‘ri javoblarni aniqlang.

Didaktika	ta’lim – inson bilish faoliyatini o‘rganadi
	shaxslararo axborot almashish jarayoni
	o‘qitish, o‘rgatish ma’nolarini beradi
	tarbiyalash, o‘qitish ma’noloarini beradi
	rivojlantirish, tarbiyalashga xizmat qiladi
	shaxslararo aloqani tiklash va rivojlantirish jarayoni

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

«Didaktika» ta’lim jarayonining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya’ni («ta’lim, bilim berish», «o‘qitish nazariyasi») tushunchalarining mohiyatini yorituvchi materiallar.

Keys tahlili

O‘z mohiyatiga ko‘ra didaktikada ta’lim qonuniyatlarini o‘rganish, tahlil qilish jarayonida ta’lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va vazifalari, o‘qitish tamoyillari, shakllari, vositalari haqidagi bilimlar bayon etiladi. Pedagogik adabiyotlarda tushunchani ta’riflashda mualliflar aynan mana shu jihatga urg‘u berishgan.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar

1. Keys bayoni bilan tanishib chiqing.
2. «Didaktika» tushunchasining mohiyatini yorituvchi ta’riflar, ularning mazmuniga alohida e’tibor qiling.
3. Pedagogik jarayonida aynan qanday holatlar sodir bo‘lishini o‘z faoliyatingiz misolida ham tahlil qilib ko‘ring.
4. Tahlil natijalariga ko‘ra «didaktika» tushunchasining mohiyatini yorituvchi ta’riflarni ajrating.
5. Yechimni bayon eting.

6. Yechimni juftlikda, kichik guruhsalar va jamoada muhokama qiling.

Keysni yechish jarayoni

1. Talaba individual holda, juftlikda, kichik guruhda yoki jamoada keys bayoni bilan tanishib chiqadi.

2. Talaba individual holda, juftlikda, kichik guruhda yoki jamoada «didaktika» tushunchasining mohiyatini yorituvchi ta’riflar mazmuniga e’tiborni qaratadi.

3. Talaba individual holda, juftlikda, kichik guruhda yoki jamoada ta’lim jarayonida aynan qanday holatlar sodir bo‘lishini o‘z faoliyatingiz misolida tahlil qilib ko‘radi.

4. Talaba individual holda, juftlikda, kichik guruhda yoki jamoada tahlil natijalariga ko‘ra «didaktika», «pedagogik jarayon» tushunchalarining mohiyatini yorituvchi ta’riflarni ajratadi.

5. Yechimni bayon etadilar.

6. Yechim individual holda, juftlikda, kichik guruhsalar yoki jamoada muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

Didaktika:

- 1) yunoncha so‘z bo‘lib, «didasko», ya’ni «o‘qitish», «o‘rganish» ma’nolarini beradi;
- 2) ta’lim, bilim berish, o‘qitish nazariyasi bilan shug‘ullanadi;
- 3) ta’lim qonuniyatlarini o‘rganadi;
- 4) ta’lim tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va vazifalarini ochib beradi;
- 5) o‘qitish prinsiplari, ya’ni tamoyillarini belgilaydi;
- 6) ta’limni tashkil etish shakllari, metodlari va vositalari haqidagi bilimlar bayon etiladi.

TA'LIM SHAKLLARI, USULLARI VA VOSITALARI. TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH

Reja:

1. Ta'lif metodlarini to'g'ri tanlash – pedagogikada sifat va samaradorlik omili.
2. Rus pedagogikasida ta'lif metodlarining tasniflash muammosi.
3. G'arb pedagogikasida zamonaviy ta'lif metodlariga oid tendensiylar.
4. Ta'lifni tashkil etish shakllari va vositalari.
5. Ta'lif sifatini nazorat qilish va uning turlari.

Tayanch tushunchalar: metod, o'qitish metodi, usul, metodika, qoida, sugestopedia, jigsaw reading, socratic seminar, philosophical chair, ma'ruba, seminar, amaliy mashg'ulot, ta'lif vositalari

Mavzuning qisqacha mazmuni: mazkur mavzuni o'qish davomida talabalar metod, o'qitish metodi, usul, metodika, qoida kategoriyalarining farqi, ta'lif metodlari tasnifi, AQSHda til o'r ganishning zamonaviy metodlari, ta'lifni tashkil etish shakllari va vositalari, ta'lif sifatini nazorat qilish va uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

METOD, O'QITISH METODI, USUL, METODIKA, QOIDA KATEGORIYALARINING FARQI NIMADA?

Metod so'zi grekcha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. «Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat».

Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan materialni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilar o'quv – bilish faoliyatini tashkil etish yo'llari tushuniladi.

Ta'lim usuli – ta'lim metodining tarkibiy qismi yoki alohida tomoni. Metodlar bilan usullar munosabati o'zaro bir-biriga bog'langan. Usul va metod butun va qism sifatida bir-biriga daxldor. Usullar yordamida faqat pedagogik yoki o'quv vazifasining bir qismi hal qilinadi. Xuddi shu metodik usullar turli metodlarda foydalilanigan bo'lishi mumkin. Va aksincha xuddi shu metod turli o'qituvchilar tomonidan har xil usullarda ochib berilishi mumkin.

Metodika – bu xususiy didaktika, ya'ni biror bir fanni o'qitish nazariyasi. O'zaro ta'sir etishning turli shakllarini o'rganish asosida biror fanni o'qitish va o'rganish yo'llarini o'quv fani metodikasi ishlab chiqadi va ta'lim oluvchilarga ta'sir etishning aniq tizimini o'qituvchilarga taklif etadi. Bu tizimlar DTS, o'quv dasturi va darsliklarda ochib beriluvchi ta'lim mazmunida o'z aksini topadi hamda ta'lim metodlari, shakllari va vositalari orqali amalga oshadi. O'quv fani metodikasi didaktika bilan mustahkam bog'langan va uning umumiy qoidalariga tayanadi.

Qoida – tanlab olingan metod bilan bog'liqlikda faoliyat usullarini amalga oshirish uchun qulay tarzda harakat qilish zarurligini belgilab beruvchi me'yoriy ko'rsatmalardir.

Ta'lim metodlari tasnifi⁵²:

1. An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari (E.I.Golant, N.M.Verzilin va boshqalar).
2. O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin).
3. Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari (M.A.Danilov va B.P.Esipov).
4. Ta'limming binar metodlari (M.I.Maxmutov).

Yaxshi o'qituvchi – bolalarga haqiqatni so'zlab beradi, buyuk o'qituvchi esa o'sha haqiqatga olib boruvchi yo'lni ko'rsatadi.

Adolf Disterverg

⁵² Педагогика: Учебник / Л. П. Крившенко, М. Е. Вайндорф-Сысоева и др.; Под ред. Л. П. Крившенко. С.278

5. Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari (Yu.K.Babanskiy).¹ Педагогика: Учебник / Л. П. Крившенко, М. Е. Вайндорф-Сысоева и др.; Под ред. Л. П. Крившенко. С.278

6. Ta'limning interfaol metodlari.

An'anaviy (manbasiga ko'ra) ta'lim metodlari

Og'zaki	Ko'rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
Hikoya Subbat Tushuntirish Ma'ruza Munozara	Illyustratsiya Demonstratsiya	Mashq Amaliy Laboratoriya Didaktik o'yin	O'qish O'rganish Reja tuzish Konspekt qilish	Ko'rish, O'rganish, Nazorat qilish

HIKOYA – bu o'qituvchi tomonidan o'quv materialini ketma-ket bayon qilish bo'lib, u odatda tasviriy vositalar yordamida ta'limning barcha bosqichlarida, ko'proq boshlang'ich sinflarda qo'llaniladi.

Bu metodning samarasi ko'p jihatdan o'qituvchining nuqt mahorati, so'zlarni o'z o'rniда, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o'quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.

SUHBAT – savollar va javoblar shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lib, u fanga qadimdan ma'lum, hatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Subbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi. Suhbat metodining bir qancha turlari mavjud:

Yakuniv suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi hamda ularning yangi o'quv metodikasini o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun tajribali o'qituvchilar

tomonidan dars avvalida yohud o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun dars so'ngida qo'llaniladi.

Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiradi. Bunda savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, natijada ularga «ha» yoki «yo'q» tarzidagi javoblarni olish emas, aksincha, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, faoliyning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga erishish imkoniyati yaratilsin.

Demak, evristik suhbat jarayonida o'quvchilar bilimlarni tirishqoqliklari va mustaqil fikr yuritish layoqatiga egaliklari bois o'zlashtira olsinlar.

TUSHUNTIRISH – o'quv materialini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniлади. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin unsurlari ko'zga tashlanadi va shu asosda materialning mohiyati ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

MA'RUZA – yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilishdir. Uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, o'quv materiali bayonining tizimligi. Maktab ma'ruzasi mazmunini murakab tizimlar, hodisalar, obyektlar, jarayonlar, ularning sababli – oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalar tashkil etadi. Shu bois ma'ruza maktab sharoitida yuqori sinflardagina qo'llaniladi. Chunki u butun dars jarayonini qamrab olishi mumkin. Ma'ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi va bir vaqtida o'quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o'rgata boradi.

Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega.

NAMOYISH METODI (demonstratsiya)o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berish va predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Tabiiy obyektlarni namoyish qilishda odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda


o'rganilayotgan obyektlarning subyekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o'qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko'rsatib berishi hisobiga amalga oshadi, bunda ushbu tajriba asosida yotuvchi tamoyillarni tushunish osonlashadi.

Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko'proq didaktik samara beradi, biroq bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo'lavermaydi. Shu bois o'qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun'iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog'ida, turli o'simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun'iy ravishda yaratilgan obyektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.

ILLYUSTRATSIYA namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsa-da, didaktikada alohida o'rganiladi. Illyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi.

Namoyish va illyustratsiya metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa Illyustratsiyaga murojaat qilinadi.

Illyustratsiyaning samarasini ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan obyekt mohiyatini to'laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rnlarda muayyan hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashdan chalg'itadi. Ayrim hollarda



tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy obyektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko‘rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko‘rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko‘rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta‘minlovchi nevronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma‘lum bo‘ladiki, shaxs tomonidan o‘zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko‘rish retseptorlari yordamida egallanadi.

AMALIY METODLAR o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo‘ladi.

MASHQ – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini egallah yo‘lidagi ko‘p marta takrorlanishlar bo‘lib, mashqsiz ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og‘zaki, yozma, grafikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy – foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo‘linadi.

Og‘zaki mashqlardan ta’lim jarayonida keng foydalaniladi. Ular o‘quvchilarning umumiyligi madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog‘liqdir. Shuningdek, og‘zaki mashqlarning nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o‘rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Yozma mashqlar ta’limning tarkibiy qismi sifatida zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo‘llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.

Grafikaviy ishlар ham yozma ishlар bilan o‘xshash jihatlarga ega bo‘lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (jumladan, geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta’lim)da keng ko‘lamda foydalaniladi.

O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lif metodlari tasnifi (I.Ya.Lerner va M.N.Skatkin):

Ta'lif metodi	O'qituvchi faoliyati	O'quvchi faoliyati
Axboriy – reseptiv	O'quv axborotini uzatish, o'rganilayotgan obyekt bilan o'quvchi harakatini tashkil etish	Bilimlarni idrok etish, anglash va yodda saqlash.
Reproduktiv	Bilimlar hamda aqliy va faoliyat usullarini hosil qilishga doir topshiriqlami tuzish va taqdim etish	Namuna asosida bilimlarni hamda aqliy va faoliyat usullarini egallash.
Muammoli bayon etish	Muammoni qo'yish va uni hal etish usullarini ochib berish	Topshiriqni idrok etish va uni qismlarga ajratish. Topshiriq qismlarini mustaqil hal etish va O'z-o'zini nazorat qilish
Evristik (qisman – izlanish)	Muammoni qo'yish va uni hal etishga doir gadamlar kemma-ketligini rejalashtirish. O'quvchilar faoliyatini boshqarish	Qo'yilgan vazifa bilan bog'liqlikda muammoni hal etish yo'llarini mustaqil izlash va o'qituvchining qisman ko'magi yordamida muammoni hal etish
Tadqiqotchilikka doir	Mustaqil hal etishga doir muammoli vazifalarni shakllantirish. Muammoni hal etilish jarayonini nazorat qilish	Muammoni mustaqil hal etish.

Ta'lifning binar metodlari (M.I.Maxmutov)

O'rnatish metodlari	O'rnanish metodlari
Axboriy – ma'lumotli	Ijro etish (bajarish)
Tushuntirishli	Reproduktiv
Ko'rgazmali – amaliy	Ijodiy – amaliy
Tushuntirishli – undovchi	Qisman izlanishli
Undovchi	Izlanishli

Asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra ta'lim metodlari tasnifi (M.A.Danilov va B.P.Esipov)

- yaugi bilimlarni egallash metodlari;
- ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;
- bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari;
- bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari.

Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari tasnifi (Yu.K.Babanskiy)

- o'quv – bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
- o'quv – bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari.
- o'quv – bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

Interfaol metodlar

O'r ganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari	Yangi materialni anglash metodlari	O'r ganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar
Erkin yozish. Klaster. Aqliy hujum. B – B – B chizmasi. Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi. Semantik xususiyatlar tahlili.	Semantik xususiyatlar tahlili. B–B–B chizmasi. O'qitish bo'yicha qo'llanma. Bir-biriga o'rgatish. Bir-biridan so'rash. Ikki qismli kundaliklar eng asosiy tushunchalar	Eng asosiy tushunchalar, takrorlash. T-chizma. Konseptual jadval. Venn diagrammasi. Nilufar guli. Besh minutlik esse. O'n minutlik esse.

AQSHDA CHET TILLARINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI

Har bir mamlakatda chet tillarini o'qitishning yillar davomida shakllangan va sinalgan o'ziga xos metodlari mavjud. Bunda mamlakatning geosiyosiy holati, boshqa davlatlar bilan munosabati, konyukturasi, o'qitish sharoitlari, milliy mentalileti, o'rganilayotgan tillarning davlat tiliga yaqinlik darajasi va amaliy ahamiyati kabi omillar hisobga olinadi. Masalan, AQSHda chet tillarini o'qitishning bir qator metodlari mavjud bo'lib ular hozirgi kunda o'qituvchilar tomonidan uyg'unlashtirilgan holda qo'llaniladi. Shunday metodlardan ayrimlari quyidagilar:

- Tarjima metodi (asosan o'lik tillarni o'rganishda qo'llaniladi, so'zlar va grammatik qoidalari yod olinadi).
- Og'zaki metod (o'qituvchi monologini qayta so'zlash va matn bo'yicha savollarga javob berish tizimiga asoslanadi).
- Psixologik metod (so'z va so'z bildirgan tushuncha o'rtasida assotsiatsiyalarni topishga asoslanadi).
- To'g'ridan-to'g'ri o'rgatish metodi (chet tili, ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilinmasdan, tarjimadan foydalanmagan holda foydalaniladi).
- O'qish metodi (talaba o'rganilayotgan tilda qancha ko'p matn o'qisa, u mazkur tilning xususiyatlari, grammatic qoidalari, gap qoliqlarini shunchalik ko'p o'zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko'nikmalari ham rivojlanadi).

Shimoliy Amerikaning bir qator universitetlarida yoz oylarida turli tillarni intensiv o'rgatuvchi maxsus kurslar tashkil etiladi. Jumladan, Arizona davlat universiteti Kritik tillar institutida 2007-yildan beri o'zbek tili va madaniyatidan dars beriladi. Kurslarda qatnashayotgan talabalarning aksariyati poliglotlardir. Ular uch va unda ortiq tilni egallaganlar, yozgi intensiv kurslarga boshqa bir tilni, madaniyatni o'rganish niyatida keladilar.

Xo'sh, yoshi, kasbi, kelib chiqishi turlicha bo'lgan bu amerikaliklarni o'zga tillarni o'rganishga nima majbur qiladi? Avvalo, mamlakatda har xil tilda so'zlashuvchi immigrantlarning ko'pligi ikkinchidan bir nechta chet tilini bilish kishilarning liberalligidan dalolat beradi. Ular nafaqat o'zining tili va madaniyatini, biladilar, sevadilar, balki o'zga millat vakillariga hurma bilan qaraydilar.

Aynan shu sababli amerikalik o‘quvchi-talabalar ta’lim bosqichlarida o‘z xohishlariga ko‘ra bir yoki bir nechta tilni tanlash va o‘rganish huquqiga egalar. Umuman olganda har bir talabaning chet tilini xususan, o‘zbek tilini o‘rganishda o‘z maqsadi bor:

Shaxsiy qoniqish, yani o‘zbek tilini yoqtirgani, xalqaro biznes bilan bog‘liq tashkilotga ishga kirish uchun Markaziy Osiyo tillaridan birini bilish, «til ta’limiga oid kompyuter resurslari» deb nomlangan laboratoriyyadagi faoliyatiga, ilmiy tadqiqot ishi aynan yurtimiz tarixi yoki madaniyatimiz bilan bog‘liq bo‘lgani sababli yoki O‘zbekistondagi tarixiy obidalarni ko‘rishni orzu qilgani va o‘zbek xalqining tilini bilish boshqa turkiy xalqlarning tilini va madaniyatini o‘rganishga asos bo‘la olishi tufayli va hokazo. Bu kabi sabab va maqsadlar esa tilni intensiv ravishda o‘rganish uchun kuchli motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Intensiv kurslarda biror til va madaniyat bo‘yicha olib boriladigan darslarda ko‘pincha autentik vositalardan, multimedia resurslaridan integrativ metod asosida yozilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalaridan foydalilanadi. Shu bilan birga har bir o‘qituvchi mavjud bo‘lgan metodlarni o‘z guruhini bilim saviyasi, o‘quv vaziyat, mavzularga moslashtirgan holda o‘zgartirib qo‘llay oladi. Masalan, quyida berilgan manbalar, metodlarni istalgan til o‘qituvchisi, istalgan auditoriya uchun moslashtirishi va unumli foydalanishi mumkin.

SUGGESTOPEDIA

Bugungi kunda AQSHda boshqa bir qator malakatlarda bo‘lgani kabi «suggestopedia» nomi bilan tanilgan metodika keng rivoj topdi. Ta’limni intensifikatsiyalash va gipnoz bilan bog‘liq bo‘lgan bu metod turlicha baholangan, tanqid ostiga ham oljangan, olqishlangan ham. Biroq uning natijalari hayratlanarlidir. Suggestopedia asosida dars o‘tadigan pedagoglar maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi. Bunda ta’lim oluvchilarni yangi tilni tezkorlik bilan o‘rganishlari uchun maksimal qulay sharoit yaratiladi. Har bir o‘quvchi o‘zining g‘ayrioddiy lingvistik qobiliyatları borligiga ishontiriladi, dars harakatda va o‘yinlar yordamida o‘tkaziladi, shuningdek, materialni qabul qilishni yengillashtirish maqsadida musiqiy ta’sir ko‘rsatiladi, doimiy ravishda multimedia vositalaridan foydalilanadi va hokazo. Mazkur metod qo‘llanilganda tilni o‘rganish tezligi 40 – 50 barobar oshadi, chunki kuniga yod olinadigan so‘zlar va jumlalar soni odatiy metodikadagi

raqamlardan ancha ko'p, (qayd etilgan rekord bir kunda mingga yaqin so'z va ibora).

«Jigsaw reading» metod talabalarda o'qish, so'zlashish va xulosa qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalaniladi. Ayniqsa, qisqa hikoyalar, matnlar va maqolalar bilan ishlashda bu metod juda samaralidir. U quyidagicha amalga oshiriladi. Talabalar ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga hikoyaning birinchi qismi, ikkinchi guruhga ikkinchi qismi beriladi. Talabalar o'zlariga berilgan hikoyaning qismini o'qib, yaxshilab eslab qolishlari kerak bo'ladi. So'ng har bir talabaga narigi guruhdan juftliklar tanlanadi. Har bir juftlik bir-biriga o'qigan hikoyasini so'zlab beradi. Ish yakunida har bir juftlikda to'liq hikoya paydo bo'ladi. Talabalar hikoyani eslab qolishlari uchun ayrim qaydlarni amalga oshirishlari mumkin. O'yin so'nggida mavzuni mustahkamlash uchun savol-javob qo'llash ham mumkin. Matn ustida ishlashning bu turini boshqacha ko'rinishda ham tashkil qilish mumkin. Birinchi guruh talabalariga matn undagi so'z yoki jumlalar, ikkinchi guruh a'zolariga butunlay boshqa so'z va jumlalar o'chirilgan holda beriladi. Har ikki guruh a'zolari savol berish yo'li bilan o'z matnini to'ldirib olishi kerak.

«Socratic seminar» Ushbu metod mashhur faylasuf Suqrotning behisob savollar berish yordamida ta'lim berish usuliga asoslangan. O'qituvchi talabalarga kerakli mavzu yoritilgan matn va tayyorlanish uchun vaqt beradi. O'qituvchi ketma-ket savollar berish natijasida talabalarning mavzuni qay darajada tushunganligini bilib oladi.

«Philosophical chair» metodi debatga o'xshaydi. Talabalarga asosiy mavzu va savollar beriladi. Ular bildirilgan fikrga qo'shilishlari, norozi bo'lishlari yoki betaraf qolishlari mumkin. Bu metod talabalarning bir - birlari bilan jonli munozara o'tkazishga va yangi bilimlarni o'rganishlariga asoslangan. Har bir talaba markazda joylashgan stulda o'tirib, navbatma-navbat o'z fikrlarini bildiradi. Keyin bahs – munozara boshlanadi.

TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

Hozirgi vaqtida ta'limgan tashkil etishning quyidagi uch tizimi keng tarqalgan: 1) individual; 2) sinf – dars; 3) ma'ruza – seminar.

Ta'limni tashkil etishning individual tizimi

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>1) o'quv faoliyati mazmuni, metodi va sur'atini to'la individualashtirish imkoniyatining mavjudligi;</p> <p>2) aniq bir masalani hal etishda ta'lim oluvchining har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishi.</p>	<p>1) vaqtning tejamli emasligi;</p> <p>2) o'qituvchi ta'sirining cheklanganligi (o'qituvchining vazifasi o'quvchiga topshiriq berish va uni bajarilishini tekshirishdan iborat);</p> <p>3) boshqa o'quvchilar bilan hamkorlikda ishslash imkoniyati cheklanganligi (bu holat ijtimoiylashishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi);</p> <p>4) jamoada ishslash tajribasining shakllanmasligi.</p>

Sinf – dars tizimi

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>1) yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;</p> <p>2) jarayonlarning oddiy boshqarilishi: muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birqalikda izlash jarayonida bolalar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;</p> <p>3) o'qituvchining o'quvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsiyonal ta'sir ko'rsatishi;</p> <p>4) ta'limning emotsiyonalligi (o'qituvchi bir vaqtning o'zida o'quvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi;</p> <p>5) bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va ketma – ketligi.</p>	<p>1) tizim asosan bilimlarni o'rtacha darajada o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun mo'ljalanganligi;</p> <p>2) bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi o'quvchilar qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;</p> <p>3) o'qituvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchilikning yuzaga kelishi;</p> <p>4) katta va kichik yoshli o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarning qaror topmasligi.</p>

Ta'limning ma'ruza – seminar tizimi

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan ta'limning ma'ruza – seminar tizimi yuzaga kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri hali deyarli hech bir katta o'zgarishlarga ega emas. Ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha leksion – seminar tizim sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Ma'ruza – seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy mактабдан keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi. O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tatbiq etilishi bilan ma'ruza – seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida foydalanila boshlandi.

MA'RUZA VA UNING O'ZIGA XOSLIKHLARI

Ma'ruza – oliy ta'limda o'qitishning asosiy shakli hisoblanib, quyidagi vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi:

- 1) yo'naltiruvchi: talabalarni o'quv materialining asosiy jihatlariga e'tibor qaratishga imkon beradi;
- 2) axborot: o'qituvchi ma'ruza vaqtida muammoni, muammo bilan bog'liq asosiy dalil va xulosalar mohiyatini ochib beradi;
- 3) metodologik: ma'ruza jarayonida muammoning falsafiy – nazariy asoslari namoyon etiladi.
- 4) tarbiyalovchi: talabalarda tinglash, idrok etish, munozarada ishtirot etish madaniyatini shakllantirish;
- 5) rivojlantiruvchi: talabalarda mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish.

MA'RUZA TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma'ruza turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Kirish ma'ruzasi	Talabalarda o'quv fani to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni shakllantirish
Ma'lumotli ma'ruza	Talabalarda muammoga doir ma'lumotlarni axboriy-retseptli tarzda taqdim etish
Anjuman-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialining izlanishli tarzda o'zlashtirilishiga erishish
Muammoli-ma'ruza	Talabalarga muammoli savol, muammoli vaziyat va muammoli topshiriqlarni taqdim etish orqali o'quv birliklarini bayon etish
Ma'ruza-munozara	Fikrlar almashinuvini tashkil etish asosida ma'ruza qismlarini o'zlashtirishga erishish
Vizual-ma'ruza	Vizual-materiallarni taqdim etish orqali talabalar tomonidan materialni o'zlashtirishga erishish
Konspektli-ma'ruza	Talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirishga erishish maqsadida tushuntirish bilan birga eng asosiy qismlarini yozdirib borish
Maslahatli-ma'ruza	Savol va javoblar tarzida ma'ruza mashg'ulotini tashkil etish
Binar-ma'ruza	Muammo yuzasidan tadqiqot olib borgan mutaxassis-olim bilan birgalikda ma'ruzani tashkil etish

SEMINAR VA UNING O'ZIGA XOSLIKHLARI

Seminar – bu o'qituvchining ta'lif oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'lifni tashkil etish shaklidir.

Seminar quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladi:

- 1) nazariy materialni tartibga solish;
- 2) bilimlarni mustahkamlash;

3) ko'nikma va malakalarini hosil qilish;

3) bilimlarni nazorat qilish.

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish

Seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

1. **Nima uchun?** – Seminarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad.

2. **Qanday tarzda?** – Seminarni olib borish texnologiyasini ishlab chiqish.

3. **Nimani muhokama qilish?** – Seminarni olib borish vaqtida muhokama qilinadigan materiallar mazmuni.

4. **Qanday omillarni hisobga olish zarur?** – Seminarni tashkil etish jarayonida ma'lum omillarni hisobga olish.

SEMINAR TURLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Seminar turlari	O'ziga xos xususiyatlari
Ma'ruza(doklad)li seminar	Seminar mashg'uloti talabalarning ma'ruzalarni tinglash va munozara shaklida o'tkaziladi.
Dialogli seminar	Seminar mashg'uloti ommaviy va individuall savol-javoblar tariqasida tashkil etiladi
Refleksiv seminar	Seminar mashg'uloti mavzuga doir ma'lumotlarni muhokama qilish va aniq xulosalarga kelish tarzida o'tkaziladi.
Seminar-fikrlar almashuvi	Seminar mashg'ulotini tashkil etishda manbalardan foydalilanadi va turli fikrlarni shakllantirishga erishiladi
Seminar-Ilyustratsiya	Seminar mashg'uloti manbalar bilan ishlash tarzida tashkil etiladi va materiallar illyustratsiya tarzida namoyish etiladi.
Evristik seminar	Seminar izlanishli-topshiriqli tarzda tashkil etiladi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR

Amaliy mashg'ulot o'quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri bo'lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarning professor – o'qituvchi bilan birqalikda bajarishini o'zida aks ettiradi. Amaliy mashg'ulotining bosh maqsadi – biror bir fanga doir nazariy qoidalarning amaliy jihatlarini ochib berish; talabalarning o'rganilayotgan qonuniyatlarning o'ziga xosliklari va namoyon bo'lish shakllarini chuqr tushunishlarini ta'minlash; bo'lajak mutaxassislarda o'rganilayotgan obyekt bilan amaliy muloqotga kirishish ko'nikmasini shakllantirishdir. Laboratoriya (amaliy) mashg'ulotlar talabalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'yndaydi.

TA'LIM VOSITALARI

Ta'lismetodlari ta'lismositalari bilan birqalikda qo'llaniladi. Didaktik vositalar deganda, o'quv va ko'rgazmali qo'llanmalar, namoyishli qurilmalar, texnik vositalar tushuniladi. Ta'lismositalari – bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalilaniladigan obyekt.

Ta'lismositalari o'zida o'quv-tarbiyaviy maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni aks ettiradi. Odatda ular ta'lismetodlariga mos holatda foydalilaniladi. Biroq, agar metodlar «qanday o'qitish?» savoliga javob bersa, vositalar esa, «uning yordamida nimani o'qitish?» savoliga javob beradi.

TA'LIM VOSITALARI TASNIFI

Ta'lismositalari tasnifi aniq va yagona bo'lishi mumkin emas. Ta'lismositasining ahamiyatli tomoni ularning birqalikda qo'llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmasligidir. O'qituvchining vazifasi dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limgarish samarali vositasini tanlab olish sanaladi.

Ta'lismositalarini tasniflashda turli asoslarga ko'ra yondashish mumkin:

Faoliyat subyektiga ko'ra;	Faoliyat obyektiga ko'ra;	O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra	O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra.
-----------------------------------	----------------------------------	--	---

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari tasnifi

Faoliyat subyekti bo'yicha ta'lim vositalari o'rgatish va o'rganishga bo'linadi.

1. O'qitish vositalari. Masalan, namoyishli – tajriba qurollari. Bunday qurollar o'qituvchi tomonidan mavzuni tushuntirish va mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

2. O'rganish vositalari. Masalan, laboratoriya – praktikum qurollari. Bunday vositalar talabalar tomonidan yangi bilimlarni egallah uchun qo'llaniladi.

Faoliyat obyektlari bo'yicha ta'lim vositalari tasnifi

Faoliyat obyektlari bo'yicha ham ta'lim vositalari ikkiga bo'linadi:

1. Material ta'lim vositalari. Bu o'quv qo'llanmalari, darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv – texnik vositalar, mebel, o'quv – laboratoriya qurilmalari, ko'rgazmali vositalar bo'lishi mumkin.

2. Ideal ta'lim vositalari – bular pedagog va talabalar yangi bilimlarni egallahda qo'llaydigan vositalar: chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar. Ideal vositalar – bu «fikrlar haqidagi fikrlar»: o'qituvchi ularni o'rgatish uchun belgilangan shaklda ko'rsatishi zarur. Masalan, materializatsiya – abstrakt simvollar tarzida ko'rsatiladigan vosita (grafiklar, jadvallar, chizmalar), verbalizatsiya – nutq bayoni tarzida ko'rsatiladigan vosita (tahlil, muhokama qilish, dalil keltirish).

O'quv axborotiga munosabatiga ko'ra ta'lim vositalari

Ta'lim vositalari yangi materialni o'rganish vositalari, takrorlash, mustahkamlash, umumlashtirish vositalari, bilimlarni nazoart qilish vositalari, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish hamda va axborot vositalariga bo'linadi.

O'quv jarayonidagi vazifasiga ko'ra ta'lim vositalari tasnifi

ta'lim vositalari kommunikatsiya (muloqot) va o'quv ishlari vositalariga tasnif etiladi. O'quv ishi vazifa, muammo, masalalarni hal etish, turli mashqlarni bajarish jarayonidir. Ta'lim – kommunikatsiya (muloqot), o'qituvchi va talabalarning o'quv faoliyati sanaladigan kommunikativ – faoliyatlari jarayon. Kommunikatsiya – bu kodlash (o'qituvchi nutqidagi atamalarda), uzatish (yozilish) va talabalarning axborotni qabul qilishi (tushunish va dastlabki eslab qolish).

Didaktik vositalar his qilish, sezish uchun foydalanishiga ko'ra ham tasnif qilinadi. Bunday bog'liqlikka ko'ra didaktik vositalar vizual (ko'rish) – haqiqiy (original) narsalar yoki turli obrazli ekvivalentlari, diagrammalar, kartalar; audial (eshitish) – radio, magnitofon, musiqa asboblari; audiovisual (ko'rish – eshitish) – ovozli filmlar, televideniye, kompyuterlar, didaktik mashinalar, elektron darsliklar.

Ta'larning texnik vositalari

TTV – bu o'zida o'quv-axborotlarini ekrani-ovozi aks ettiruvchi asbob va moslamalardir. Ularga:

1. O'quv kinofilmlari.
2. Diafilmlar.
3. Kompyuterlar.
4. Magnitofon tasmalari.
5. Radioeshittirish.
6. Teleko'rsatuvlar kiradi.

TTVning funksiyalari:

- ta'larning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallahuvini ta'minlaydi;
- talabalarni idrok qilishga yo'naltiradi;
- bilimlarni egallashga nisbatan katta qiziqish hosil qiladi;
- dunyoqarashni, ishonchni, axloqiy vazifalarini shakllantirishga yordam beradi;
- o'quv ishiga nisbatan emotsional munosabatni qaror toptiradi;
- bilimlarni va o'zini o'zi nazorat qilishni ko'zda tutadi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM JARAYONI SIFATINI NAZORAT QILISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ta'lism sifatini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik, o'quv-uslubiy va boshqa jihatlarini amalga oshirish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining qarorlari hamda buyruqlari me'yoriy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ta'lism jarayoni nazoratining asosiy tamoyillari Davlat ta'lism standarti (DTS) asosiy qoidalarida aniq va ravshan keltirilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Ichki nazorat. OTM tomonidan amalga oshiriladi. Ichki nazorat oliy ta'limga boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan «Oliy ta'lism muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi Nizom asosida o'tkaziladi;

Yakuniy davlat nazorati. Oliy ta'lism yo'naliishlari va mutaxassisliklari bo'yicha DTS ga muvofiq ravishda o'quv fanlari bo'yicha davlat attestatsiyasi, bakalavr bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasini o'z ichiga oladi.

Tashqi nazorat belgilangan tartibda davlat test markazining kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lism muassasalari attestatsiyasi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Sifatni baholash va belgilash har doim bahs va munozaralar ichida bo'lib kelgan. K.Kempbel va K.Roznialarning «Sifat baholanmaydi va o'lchanmaydi, balki ilm ahli tomonidan qayerda va qachon ta'minlanishi tan olinadi» degan talqini mavjud va u ham turli munozaralarning yana ham kuchayishiga sabab bo'ladi.

Britaniyalik mualliflar N.Jakson va X.Lund oliy ta'limgagi sifatni baholash masalalariga yondashishda «konseptual tizim»ga asoslanadilar.

N.JAKSON VA X.LUNDNING «KONSEPTUAL TIZIMI»

Kirim va resurs (Input)	Jarayon (Process)	Natija maqsad (Output)
Talaba: uning dastlabki bilim saviyasi, qobiliyati, sohasi va malakasi. O'qituvchi hodim: ilmiy salohiyati, malakasi, ekspertlik darajasi, kompetentligi, rivojlanuvchi ta'limga tayyorligi. Jismoniy resurslar: turar joy, shart-sharoitlar, texnika va jihozlar, kutubxona va informatsion texnologiya imkoniyatlari.	Ta'lim dasturlari va o'qitish shart-sharoitlari bilan tanishtirish. O'quv dasturlari dizayni va baholash. O'qitish va o'rganish strategiyalari va metodlari, effektivligi, innovatsion yondashuvlar.	Talabanining raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishi, yuqotri reytingga ega bo'lish, ta'lim standartlarini bajarishi, uzlusiz ta'larning keyingi bosqichiga tayyor bo'lishi.
Moliyaviy resurslar: talaba va o'qitvchi xodimlarga sarflanadigan sarf harajatlar.	Talabalarga rahbarlik va qo'llab-quvvatlash: akademik va individual saboq berish tizimi, qo'llanma va boshqa turdagи ma'ruza matni hamda ma'lumotlar, loyihalarga rahbarlik qilish.	O'qituvchi xodimlar: ularning o'qitish, ilmiy tadqiqotlarida, boshqaruvda supervayzerlikda mahsulorlikka va kreativlikka erishishi.
Tashqi resurslar: noakademik mutaxassislardan foydalanish, oliy ta'lim muassasasi qaramog'ida bo'limagan texnika va jihozlardan foydalanish.	Talabalar faoliyatini qayd qilish tizimi: talabaning o'zlashtirishini baholash va hisobot tayyorlash. Menejment va administrativ boshqaruv tizimi:	
	Tahliliy ishlар va kamchiliklarni tuzatish. Talabalardan yoki xodimlardan kelib tushadigan talab va takliflar asosida.	

Yevropada oliy ta'lim ikkita asosiy hujjat – Boloniya deklaratsiyasi va Lissabon konvensiyasi orqali amalga oshiriladi.

Ushbu huquqiy me'yoriy hujjatlarga mos holda Boloniya va Lissabon strategiyasi ishlab chiqilgan. Islohotning ushbu ikki konsepsiysi maqsadi oliy ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga, mehnat bozorida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga, ta'lim sifati va amaliy ta'lim xizmatini samarali biriktirishga qaratilgan, umumiy fundamental tamoyillarga asoslangan, birlashgan Yevropa oliy ta'lim hamjamiyatini yaratishdan iborat.

Lissabon konvensiyasi 1997-yil 11-aprelda qabul qilingan bo'lib, pereambula, quyidagi 11 ta asosiy qism va ularga tegishli 44 ta moddadan iborat:

1. Ta'rif va bitta modda.

2. Davlat organlari kompetentsiyasi va uchta modda.

3. Malakani baholashning asosiy tamoyillari va beshta modda.

4. Oliy ta'lim olish huquqini beruvchi malakani tan olish va beshta modda.

5. Ta'lim davrini tan olish va uchta modda.

6. Oliy ta'lim malakasini tan olish va beshta modda.

7. Qochoqlar, ko'chib kelganlar va qochoqlar holatidagi shaxslar malakasini tan olish va bitta modda.

8. OTM va dasturni baholash haqidagi ma'lumot va ikkita modda.

9. Tan olish masalalari haqidagi ma'lumot va uchta modda.

10. Amalga oshirish mexanizmlari va uchta modda.

11. Xulosaviy ko'rsatmalar va to'qqizta modda.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, Lissabon konvensiyasida asosan Yevropa ta'limining davri, kompetentsiyasi, malakalarga qo'yilgan talablar, ta'lim sifati, uni umumiy talablarga javob berishi, nazorati, jarayonni amalga oshirish va natijalarni tan olish kabi masalalarda hududiy birlashish kelishilgan.

Boloniya deklaratsiyasida Yevropa OTMlarda kadrlar tayyorlash, uni ta'lim tizimida birlashtirishga yordam berish hamda ta'lim va fanga oid raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida quyidagi vazifalar hal qilingan:

- ikki bosqichli ta'limni joriy etish;
- kredit tizimini joriy etish va uni tan olish;
- safarbarlik va mobillikni kengaytirish;

- bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishini yaxshilash;
- yevropa ta'lim tizimi sifatini ta'minlash;
- aspiranturani oliv ta'limning umumiy tizimiga kiritish;
- oliv tizimda «Yevropa o'lchovlari»ni shakllantirish;
- yevropa oliv ta'limini raqobatbardoshligini va sifatini oshirish;
- oliv ta'limning ijtimoiy rolini oshirish, uning ommabopligi, qo'shimcha ta'lim tizimini rivojlantirish;

Nazorat uchun savollar

1. "Metod" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. Ta'lim metodi tushunchasini qanday izohlash mumkin?
3. "Ta'lim metodlari" va "ta'lim usullari" tushunchalari bir xil mazmunga egami?
4. Ta'lim usullari deganda nima tushuniladi?
5. Ta'lim metodlarini qo'llashda qandaydir ko'rsatmalarga rioxat etish zarurmii?
6. Ta'lim metodlarini qo'llashga doir ko'rsatmalar nima deb ataladi?

Mustaqil ta'lim uchun mavzular.

1. Chet tillarini intensiv o'qitishda foydalaniladigan zamonaviy ta'lim metodlari.
2. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida nazorat qilish va baholashning zamonaviy ko'rinishlari.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1 – topshiriq. «Ta'lif metodlari» mavzusida chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligini tartiblash.

1. Suhbat.
2. Tushuntirish.
3. Ma'ruza.
4. Mashq.
5. Illyustratsiya.
6. Demonstratsiya.
7. Didaktik o'yin.
8. Kitob bilan ishlash.
9. Videometod.
10. Hikoya.
11. Amaliy.
12. Laboratoriya.

Topshiriqni bajarishga doir ko'rsatma:

- 1) chalkashtirilgan holda berilgan ta'lif metodlari bilan tanishing;
- 2) metodlarni jadvalda ko'rsatilganidek, mos ustun raqamlar yordamida yozib chiqing.
- 3) Ta'lif metodlarini qiyosiy tahlil etishga doir konseptual jadvalni to'ldiring.

2 – topshiriq. Ta'limni tashkil etish shakllariga doir assessment

TEST	Muammoli vaziyat
Ma'ruzaning rivojlantiruvchi funksiyasi nimalardan iborat?	Siz ishlaydigan kollejdagi bir nechta o'quvchiga o'zingiz o'tayotgan fandan 1–semestr bo'yicha baho qo'ymaditingiz. biroq o'quv yili yakunida jurnalda mazkur o'quvchilarga baho qo'yilganining guvohi bo'ldingiz. Siz o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosariga uchrashdingiz. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinnbosari ularga bahoni guruh rahbari qo'yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
SIMPTOM:	Bilimlarni qo'llay olish
Ta'limni tashkil etishning individual tizimi....	Ta'limni tashkil etish turlaridan qaysi biri ko'proq samarali hisoblanadi. Fikringizni asoslاب bering.
Sinf – dars tizimi....	
Ta'limning ma'ruza-seminar tizimi....	

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashga doir amaliy topshiriqlar

Quyidagi masalalar bilan tanishing va ularning yechimini toping.

1-masala. Talaba «Pedagogikaning asosiy kategoriyalari» haqida gapirayapti. Asosiy kategoriyalarni sanadi, lekin ularni to'liq aytib bera olmayapti. O'qituvchining yordamchi savollariga ehtiyoj sezdi. O'qituvchining savollari yordamida xatolarni to'g'rilay oldi. Unga necha baho qo'yish mumkin?

2-masala. Talabadan o'z yozma ishida metod va usul tushunchalarining mohiyatini ochib berish so'raldi. Talaba ishda metod va usul tushunchalariga to'g'ri ta'rif bergan. Quyidagicha misol keltilgan: «ma'ruza – bu metod. Mavzuni aniqlash rejasini tuzish, ularni bayon etish, umumlashtirib xulosalash esa usullari bo'la oladi». Talabaning yozma ishini baholang.

3-masala. Talaba og'zaki metodlarni sanab bera oldi. Lekin ularning mohiyatini ochib bera olmadi. Biroq har biriga misol keltira oldi. Unga qanday baho qo'ysa bo'ladi?

4-masala. Talaba pedagogika fanidan seminarni to'liq va to'g'ri yozib kelgan. Lekin o'qituvchi savol berganida daftardan javobni o'qib berayapti. Unga «4» ball qo'ysa bo'ladimi?

5-masala. Mutaxassislik fanidan biror mavzuni tanlab oling hamda mazkur mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

**DARS – TA'LIMNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA.
ZAMONAVIY DARS TIPLARI VA UNGA
QO'YILADIGAN DIDAKTIK TALABLAR**

Reja:

1. Dars tavsifi. Darsni tashkil etishga qo'yiladigan didaktik talablar.
2. Darsning o'quv maqsadlari. Dars jarayonining bosqichlari.
3. Zamonaviy dars tiplari va mezonlari.
4. Nostandard darsning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Darsda o'quvchilar faolligini oshirishning asosiy motivlari.

Tayanch tushunchalar: *ta'lim, dars, frontal, guruhli, individual, nostandard dars, aralash (kombinatsion dars), yangi bilimlarni bayon qilish darsi, o'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi, laboratoriya darslari, amaliy darslar.*

Mavzuning qisqacha mazmuni: *mazkur mavzuni o'qish davomida talabalar ta'limni tashkil etishning shakllari, darsning turlari va tuzilishi, Amerikalik o'qituvchi va nashriyotchi William Chandler Bagleyning dars tipologiyasi, zamonaviy dars tiplari va mezonlari, nostandard darsning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.*

**TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING ASOSIY,
QO'SHIMCHA VA YORDAMCHI SHAKLLARI**

Zamonaviy didaktikada ta'limni tashkil etish turlari 3 ga bo'linadi: frontal, guruhiy va individual.

Frontal ta'limda o'qituvchi butun sinfdagi o'quv – bilish faoliyatini boshqaradi. Ular biror bir vazifa ustida ish olib boradi.

Guruhli shaklda o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning guruhlardagi o'quv – bilish faoliyatini boshqaradi. Ularni bo'g'inli, brigadali,

kooperirovan (ko'chma) va differensialli guruhli shaklga bo'lish mumkin.

Individual ta'linda o'quvchilar boshqa o'quvehilar bilan bog'liqlikda o'quv – bilish faoliyatini amalgalashiradi. Ya'ni sinf butun topshiriqni, har bir o'quvchi alohida mustaqil bajaradi.

Ta'limdi tashkil etishning shakllarini asosiy, qo'shimcha va yordamchi shakllari mavjud.

Dars – (maktabdagi) o'quv ishining asosiy tashkiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarning doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi. Jamoaviy

bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xil metodlardan foydalanadi.

Dars o'quv ishini tashkil qilishning asosiy shakli, ammo u ta'larning boshqa shakllarini: leksiya, praktikumlar, laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlari, konsultatsiyalar, uy vazifalari, qo'shimcha mashg'ulotlarni rivojlantirishni istisno etmaydi.

Ta'lindi tashkil etishning yordamchi shakllari fakultativ mashg'ulotlar sanaladi. Ular o'quvchilarning qiziqishlari asosida tashkil etiladi: to'garaklar, klublar,

olimpiadalar, viktornalar, ko'rgazmalar, ekspeditsiyalar va hokazolar.

Ovin dars (the difficult lesson) Rassom: Adolf Vilvam Bugro, 1884 98 x 66 sm. Shaxsiy kolleksiya.⁵³

Dars maktabdagi ishlarning asosiy shakli sifatida. Dars o'quvchilarning doimiy tarkibi, mashg'ulotlarning aniq belgilangan

Ta'lim–bu hozirgi avlod vakillarining kelasi avlod vakillari oldidagi buyuk qarzidir.

Djorj Pibodi



⁵³ <https://en.wikipedia.org/wiki/Lesson>

ramkaga egaligi (har bir dars 45 minut davom etadi); jadval oldindan tuziladigan va o'quv ishlari biror aniq mavzuda tashkil etilishi kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan ta'limning jamoa shakli hisoblanadi.

Darsda o'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. O'qituvchi darsda istisnosiz barcha o'quvchilarni faoliyatga yo'llaydi va nazorat qiladi, shuningdek, o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab quvvatlaydi. O'qituvchini faoliyati barcha o'quchilarining dars davomida o'rganilayotgan bilim asoslarini egallashiari, zarur ko'nikma va malakalarni hosil qilishlari uchun zamin yaratadi.



»Wikipedia.org Internet» ensiklopediyasida «Dars» terminiga quyidagicha izoh beriladi: (*lesson* lotincha «lectio» – o'qish harakati degan ma'noni anglatadi. O'qiladigan kitobning biror bir qismi ham dars deb yuritiladi) Dars –

maktab ta'limining asosiy tashkiliy shakli. Dars muayyan miqdordagi doimiy o'quvchilar tarkibi bilan qat'iy tartibda uyuştiriladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan didaktik tadbirdir. Dars – insoniyat tomonidan minglab yillar mobaynida orttirilgan hayotiy tajribalarni o'quvchilarga juda qisqa vaqtida o'rgatishning eng samarali usuli.

Dars ta'limining jamoa bo'lib amalga oshirilish tarzi sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, dars maktab yoshidagi bolalarni yalpi o'qitishni osonlashtiradi, ularni jamoa sifatida tarbiyalashga hissa qo'shami, bolalarda ijtimoiy faollik va muomala madaniyatining shakllanishiga ko'maklashadi. Darsda o'quv mashg'ulotlarining individual, guruhiy va umumsinf. shakllari uyg'unlashadi.

Har qanday jamiyatda dars jamiyat tomonidan ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Darsning vazifalari ta'lim jarayonining qonuniyatlari va muayyan jamiyatning komil shaxs borasidagi tushunchalari bilan qat'iy lashadi.

Yangilanayotgan pedagogik tafakkur talablariga ko'ra zamонавиј dars o'quv muassasasining mulkiy mansubligidan qat'iy nazar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim: ta'limning tarbiyaviy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, o'quvchini komil shaxs sifatida shakllantirishga yo'naltirilganligi, ilmiyligi va izchilligi,

tarbiyalanuvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlashga qaratilganligi, insonparvarlik yo'nalishiga egaligi, tizimliligi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga qaratilganligi, amaliy ahamiyatga egaligi va hokazo⁵⁴.

DARSNING TURLARI VA TUZILISHI

Darsning quyidagi turlari mavjud:

1. Aralash (kombinatsion dars).
2. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
3. O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.
4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
5. Laboratoriya darslari.
6. Amaliy darslar.

<p>1. Aralash darsning tuzilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) tashkiliy qism; b) o'tilgan mavzuni takrorlash (uy vazifasini tekshirish); d) yangi mavzuni bayon qilish; e) o'rganilgan materialni mustahkamlash; f) o'quvchilarni baholash; g) uy vazifasini berish. 	<p>2. Yangi bilimlarni bayon qilish darsining tuzilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) tashkiliy qism; b) yangi mavzuni bayon qilish; d) o'rganilgan materialni mustahkamlash; e) uy vazifasini berish.
<p>3. O'rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash darsining tuzilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) tashkiliy qism; b) o'rganilgan mavzularga doir savol-javob o'tkazish; v) o'rganilgan mavzularga doir amaliy topshiriqlarni bajarish; g) o'quvchilarni baholash. 	<p>4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsining tuzilishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> a) tashkiliy qism; b) o'rganilganlarni umumiy tarzda takrorlash (yodga tushirish); v) nazorat ishini o'tkazish; g) uy vazifasi (o'rganilganlarni qayta takrorlash maqsadida).

⁵⁴ <https://en.wikipedia.org/wiki/Lesson>

5. Laboratoriya darslarining tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) laboratoriya ishini o'tkazish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

6. Amaliy darslarning tuzilishi:

- a) tashkiliy qism;
- b) nazariy materiallarni mustahkamlash;
- v) amaliy ish topshiriqlarini bajarish;
- g) o'quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar yoshini hisobga olib o'quv ishlari turli xillaridan foydalanish, yangi bilimlarni berishni avval o'rghanliganni mustahkamlash, takrorlash bilan birga olib borishga to'g'ri keladi. Hatto tekshirish darslari ham og'zaki yetkazish, qiziqarli hikoyani o'qish kabi boshqa ish turlarini o'z ichiga oladi. Darsning aynan mana shu turi **aralash (kombinatsiyalashgan)** yoki murakkab tuzilishli deb ataladi. Kombinatsiyalashgan darsning taxminiy tuzilishi: uy vazifalarini tekshirish va savol-javob, yangi materialni o'rghanish, o'zlashtirishni dastlabki tekshirish, mashq, misollarni bilan bajarish davomida yangi bilimlarini mustahkamlash, ilgari o'rghanilganlarni suhbat ko'rinishida takrorlash, bilimlarni tekshirish va baholash, uyga vazifa berish.

O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi bilimlarni berish (o'rghanish) darsi nisbatan keng doiradagi savollarni o'z ichiga olgan va uni o'rghanishga ko'p vaqt talab qiluvchi, o'quvchilarga notanish yangi material mazmuni bo'lgan ta'lim jarayoni. Bunday darslarda uning mazmuni, aniq maqsadi va o'quvchilarning mustaqil ish bajarishga tayyorgarliklariga qarab ba'zi hollarda yangi materialni o'zi bayon etadi. Boshqa hollarda esa o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning mustaqil ishlari olib boriladi, uchinchi holda unisidan ham bunisidan ham foydalilanildi. Yangi material bilan tanishish darsining tuzilishi: yangi materialni o'rghanish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishslashni tushuntirishi, bilimlarni o'zlashtirishni tekshirish va dastlabki mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash darslarida o'quv ishining asosiy mazmuni avvalgi bilimlarni mustahkam o'zlashtirish maqsadida ularni ikkinchi bor tushunib olish hisoblanadi.

O'quvchilar o'z bilimlarini yangi manbalar bo'yicha anglab oladilar va chuqurlashtiradilar. Ma'lum bo'lgan qoidaga asosan yangi masalalar yechadilar, ilgari olgan bilimlarini og'zaki va yozma takrorlaydilar yoki yanada chuqurroq va mustahkam o'zlashtirish maqsadida ulardan alohida masalalar bo'yicha axborot beradilar. Tuzilishi bo'yicha bunday darslar quyidagi bosqichlardan o'tishni ko'zda tutadi: uy vazifasini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqni bajarishni tekshirish, uygaz vazifa berish.

Ko'nikma va malakalarini ishlab chiqish va mustahkamlash darslari bilimlarni mustahkamlash darslari bilan bog'liq. Bu jarayon bir necha maxsus darslar jarayonida amalga oshiriladi. Boshqa darslarda yangi mavzularni o'rganishda davom ettiriladi. Shu bilan birga mashqni bajarish ishlari o'qituvchi yordamida, ular topshiriqni qanday tushunganliklari dastlab jiddiy tekshirish bilan bajarilsa, keyinchalik esa qayerda, qanday qoida qo'llanilishini o'quvchilarning o'zları belgilaydilar. Ular turli vaziyatlarda malaka va ko'nikmalarini qo'llash, shu jumladan, amalda qo'llashni o'zlashtirib olishlari kerak.

Umumlashtiruvchi darslar (bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirishlar) ilgari o'tilgan materialdan eng muhim savollari qayta takrorlanadigan va tizimlashtiriladigan, o'quvchilar bilimidagi bo'shiqlar to'ldiriladigan va o'rganilayotgan kursning muhim g'oyalari ochib beriladigan darslar hisoblanadi. Umumlashtiruvchi darslar mavzu, bo'lim va o'quv kurslarining yakunida o'tkaziladi. Kirish va yakunlash darsning tarkibiy elementi hisoblanadi. Takrorlash va umumlashtirish hikoya, qisqacha xabarlar, darslikni o'qib berish yoki suhbatlashish shaklida o'tkazilishi mumkin.

Tekshirish (nazorat) darslari o'qituvchiga o'quvchilarning ma'lum sohadagi bilim, malaka va ko'nikmalari shakllanganlik darajasi, o'quv materialini egallashdagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, navbatdagi topshiriqlarning bajarish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Tekshirish darslari o'quvchidan mavzu bo'yicha mavjud bilim, ko'nikma va malakalarini qo'llashini talab etadi. Tekshirish og'zaki hamda yozma shaklda ham amalga oshirilishi mumkin.

Yuqorida ifodalangan barcha dars turlarining majburiy elementi tashkiliy va yakuniy bosqich hisoblanadi. Tashkiliy bosqich maqsad qo'yish va uni o'quvchilar tomonidan qabul qilish sharoitlarini ta'minlash, ish sharoitini yaratish, o'quv faoliyatini motivlarini dolzarblashtirish va materialni idrok etish, anglash, eslab qolish

yuzasidan beriladigan ko'rsatmalarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Darsga yakun yasash bosqichida maqsadga erishish qayd etiladi, unga erishishda barchaning yoki yakka o'quvchilarning alohida ishtiroki belgilanadi, ishlari baholanadi va istiqbollari belgilanadi.

Amerikalik o'qituvchi va nashriyotchi William Chandler Bagley "Ta'lim jarayoni" (The educative process) kitobida dars turlarini quyidagicha bayon etadi

1. Rivojlantirish darslari (The development lesson);
2. O'rganish darslari (Study lesson);
3. So'rov darslari (The recitation lesson);
4. Mashg'ulot darslari (The drill lesson);
5. Takrorlash ya'ni qayta ko'rib chiqish darslari (The review lesson);
6. Imtihon (tekshiruv) darslari. (The examination).

Hozirgi kunda ularda uchtasi yani rivojlantirish darslari, mashg'ulot darslari va takrorlash, ya'ni qayta ko'rib chiqish darslari keng qo'llaniladi.

1. **Rivojlantiruvchi darslar** maqsadi shundan iboratki, unda yangi mavzu tushuntiriladi hamda mustahkamlanadi. O'tilayotgan yangi mavzular turli xil faktlar, tamoyillar, umumiy bayonotlar orqali to'liq yoritib beriladi. Bu jarayonda o'quvchining o'rgatuvchi nazorati ostida mavzu yuzasidan bosqichma – bosqich bilim egallashi talab qilinadi.

Rivojlantirish darslari 2 turga ajratiladi:

- *induktiv rivojlantirish darslari*;
- *deduktiv rivojlantirish darslari*;

Deduktiv rivojlantirish darslari 2 xil funksiyani amalga oshiradi:

a) faktlarni tushuntirish;

B) oldindan his qilish.

1. Induktiv rivojlantirish darslarida o'qituvchi o'quvchilarga mavzuni misolar, dalillar bilan tushuntiradi, ko'rsatmali qurollarni namoyish etadi, so'ngra o'rganuvchilarning o'zi xulosa chiqaradilar va qoidalarni yaratadilar.

2. Deduktiv rivojlantirish darslarda esa o'qituvchi umumiy qoida, faktlarni, ta'riflarni va formulalarni qo'llash orqali o'tilayotgan mavzuni yoritib beradi.

Rivojlantirish darslarini olib borish bosqichlari:

1. Tayyorgarlik – bilim va motivatsion tomonlarni o'z ichiga oladi.

2. Taqdimot – bu jarayonda o‘qituvchi savollar hamda o‘quv qo‘llanmalari asosida, o‘quvchilarni ko‘rib va eshitib tahlil qilish, solishtirish, qiyoslash, kuzatish hukm qilish yoki biror narsa kashf qilishga yo‘naltiradi.

3. Tatbiq qilish – test. Bu orqali mavzu o‘zlashtirilganligini bilib olish mumkin.

Rivojlantirish darslari uchun zarur sharoit yaratilishi o‘qituvchining mahorati o‘tilgan va yangi mavzuga bog‘liq misollar, ma‘lumotlar keltira olish qobiliyati, nima tushuntirilishi, namoyish etilishi yoki taraqqiy etilishi kerakligi haqidagi layoqatiga bogliq bo‘ladi .

2. Takrorlash, ya’ni qayta ko‘rib chiqish darslari o‘quvchilarda takrorlash va esga olish orqali o‘tilgan mavzularni boshqa nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Bu ko‘rinishdagi darsning maqsadi:

1. O‘rganilgan ma‘lumotlarni xotirada yaxshilab saqlab qolish.
2. O‘zlashtirilgan materiallarni baholash qobiliyatini rivojlantirish.

3. Keyingi ta’limni yaxshi o‘zlashtirish uchun fundament.
4. O‘quvchilarning zaif tomonlarini diagnoz qilish.
6. Avvalgi (o‘tilgan) mavzu va materiallarga qiziqish uyg‘otish.
7. Chuqurroq fikrlashga va ijodkorlikka turtki berish.
8. Oldin o‘zlashtirilgan materiallarni yangi qirallarda tahlil qilish va boshqalar.

Takrorlash, ya’ni qayta ko‘rib chiqish darslarining turlari:

– dars oldidan har kunlik (3minutlik) qisqa takrorlash – bunday yondashuv yangi mavzuni yahshiroq tushunishga yordam beradi;

– har bir o‘tilgan bob yuzasidan takrorlash – bu jarayon bitta dars mobaynida davom etadi;

– o‘tilgan barcha boblar bo‘yicha takrorlash – bu mashg‘ulot semestr oxiri yoki o‘quv yili oxirida bo‘lib otadi.

Takrorlash, ya’ni qayta ko‘rib chiqish darsining tamoyillari:

– o‘quvchi mavzularni takrorlash uchun ehtiyoj sezishi yoki takrorlash darslari maqsadini tushunib yetishi kerak;

– qayta ko‘rib chiqish darslari o‘quvchilar uchun qiziq tarzda o‘tishi kerak, oddiy takrorlash shaklida emas;

– o‘quvchi o‘zining qanday yutuqlarga erishayotganligidan xabardor bo‘lishi, bunda psixologik tamoyillarga ham e’tibor qaratishi lozim.

Takrorlash, ya’ni qayta ko’rib chiqish darslarining qulay sharoitda olib borilishi o‘qituvchining qobiliyatiga, oldingi mavzularning qay darajada o‘zlashtirilganiga, o‘quvchiga mavzular bo‘yicha to‘g‘ri xulosaga kelishiga yordam berishiga hamda uni yanada yaxshiroq tushuntirib berishiga bog‘liq bo‘ladi.

3. Mashg‘ulot darslari o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va ularni amalda qo‘llash, tegishli ko‘nikma va malaka hosil bo‘lishga sharoit yaratib beradi.

Har bir fan mashg‘ulot darslarini talab qiladi, chunki bu dars davomida o‘quvchilar o‘rganilgan materiallarni yanada chuqur o‘zlashtiradi va amaliyotda qo‘llay oladi hamda to‘g‘ri yozish, talafuz qilish, kerakli atamalarni tog‘ri qo‘llash qobilyatlariga ham ega bo‘lib boradi.

Mashg‘ulot darslarini o‘tishda quyidagilar muhim:

- motivatsiya – o‘quvchilarda maksimal va barqaror harakat uchun zaruriyat uyg‘otish;
- e’tiborni tortish (fokalizatsiya) mashqlar konsentratsiyani talab qiladi. Shuning uchun o‘quvchilarlaning fikri aniq faktlarga qaratilgan bo‘lishi kerak;
- e’tiborli takrorlash – oddiy takrorlashlar. Agar butun diqqat mashgu’lotga qaratilmasa o‘z samarasini bermaydi;
- tatbiq qilish – bilimlarini tekshirish.

Mashg‘ulot darslarini o‘tish tamoyillari:

- mashgulotlarni bajartirish yo‘llari – o‘qituvchi mashg‘ulotlarni tizimli yo‘l orqali tez, shoshilmagan holda, dinamik hamda qiziqarli tarzda olib borishi kerak;
- ta’lim tamoyillaridan foydalanish – o‘quvchilar doimo mashg‘ulotlarga tayyor bo‘lishlari kerak. (Mukofot va maqtov metodlaridan ish faoliyatini yaxshilash uchun foydalanish mumkin);
- standartlar – samarali mashg‘ulotga erishishning standartlarini o‘rnatish lozim (aniqlik, tezlik, sifat va miqdor)
- individuallashtirish – bolalar ichida zaif jihatlarini töpib, sinfini ajratish va o‘qituvchi bilan yana bir marta o‘tilgan materiallarni o‘rgatish.

Mashg‘ulot darslarini o‘tishda o‘qituvchi faqatgina o‘quvchida qandaydir ko‘nikma hosil qilish bilan cheklanmasdan, balki bilimni mustahkamlash hamda amaliyotda qo‘llashga undashdir.

Darsga qo'yiladigan talablar

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi: o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish. Ular darsning umumiyl talablar didaktik, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi talablarida aniq ifodalananadi.

Didaktik (yoki ta'limiy) talablarga har bir darsning ta'lim vazifalarini aniq belgilash, darsni axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etishning eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli metod va ko'rinishlardan mos ravishda foydalananish, dars tuzilishini shakllantirishga ijodiy yondashish, jamoaviy faoliyat usullari bilan birga o'quvchilar mustaqil faoliyatning turli shakllaridan foydalananish, operativ qayta aloqani ta'minlash, amaliy nazorat va boshqaruvni amalga oshirish, ilmiy mo'ljal va darsni mahorat bilan o'tkazishni ta'minlash kabilalar kiradi.

Darsga nisbatan qo'yiladigan tarbiyaviy talablar o'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, haloqlik va boshqalar)ni shakllantirish, pedagogik odob talablariga amal qilish, hamkorlik va muvaffaqiyat qozonishlaridan manfaatdor bo'lishdan iborat.

Barcha darslarda doim amalga oshirilib boriladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv – o'rganish faoliyati ijobjiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faollikni shakllantirish hamda rivojlantirish, idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish». «o'zib ketish» darajasidagi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, rivojlanishidagi yangi o'zgarishlarni rag'batlantirish, intellektual, emotsiyonal, ijtimoiy rivojlanishlaridagi «sakrash»larni oldindan Ro'ra bilish, boshlanayotgan o'zgarishlarni hisobga olish asosida o'quv mashg'ulotlarini operativ qayta qurish kabilalar kiradi.

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

fanning ilg‘or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o‘quv-tarbiyaviv jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish; darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta’minlash;

o‘quvchilarning qiziqishlari, layoqati va talablarini hisobga olish asosida ular tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

o‘quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog‘liqliklarni o‘rnatish; ilgari o‘rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o‘quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish;

shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish;

o‘quv-tarbiyaviv faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotisionalligi;

pedagogik vositalardan samarali foydalanish;

zarur bilim, ko‘nikma va malakalar, fikrlash va faoliyatning ratsional usullarini shakllantirish;

mavjud bilimlarni doimo boyitib borish ehtiyojini yuzaga keltirish;

har bir darsni puxta loyihalashtirish, rejalashtirish, tashxis va taxmin qilish.

Nostandard darslar

XX asming 70 – yillari o‘rtalarida milliy maktablarda o‘quvchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlari pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandard darslarning tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratildi. Nostandard dars – an‘anaviy tuzilishdagi improvizatsion o‘quv mashg‘ulotidir.



Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandard darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida «berilish» darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferensiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, «sudlar», haqiqatni izlash, «paradokslar», auksionlar, dialoglar va boshqalar bor.

Bundan tashqari g'arb pedagogikasida zamonaviy darsning quyidagi turlari ham mavjud.

Ochia dars⁵⁵ bu ilk bor past o'zlashtiruvchi talabalariuchun Siegfried Engelman tomonidan ishlab chiqilgan o'rgatish metodi. Yuqori saviyada tashkillangan darslar va ochiq fikr-mulohazalar. U mavzudan chetlashish va darsni samarasiz chiqmasligini ko'zlagan holda dars jarayonini faollashtirishni maqsad qilgan. Bu metodni quyidagi kalit tushunchalar sharhlaydi:

- O'quvchilar kichik guruhlarga bo'linadi.
- E'tibor o'qituvchiga qaratiladi.
- O'qituvchi tomonidan alohida tashkillashtiriladi.
- Maqsadli harakatlar va faol munosabat o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.
- Faol munosabat, fikr-mulohazalar va xatolarni to'g'rilash.
- Yuqori natija

Ta'kidlash joizki, «ochiq dars» atamasi pedagogika matnlarida qo'llanilganda, muhokamada bo'lgan kuchli uslubdagi metod va maxsus instruksiyaviy dizayn tushuniladi, leksiya yoki seminar darslari kabi sodda bo'lmaydi.

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Maxsus o'rghanish nuqtalari	O'qituvchi ijodkotligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.	Jarayon yuqori saviyada tashkil qilinishi kerak.
Talabalarga darsga obyektiv baho berish uchun qanday ko'nikma hosil kerakligi sabablari tushuntiriladi.	O'qituvchining bilim malakasi va mahoratiga tayangan holda, yuqori darajada fikrashga to'siq bo'lishi mumkin.	O'qituvchilar talabalarning darsga dastlabki shartlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak.
Talabalarning o'rgangan	Jarayon maxsus	

⁵⁵ <http://faculty.weber.edu/kristinhadley/ed3100/Lesson%20Planning/Types%20of%20Lesson%20Plans.pdf>

narsalarini baholash nisbatan oson.	belgilangan borishi kerak.	tartibda	
Keng tan olingan instruksiyaviy metod.	Yaxshi og'zaki ifoda va yaxshi tashkil qilingan tayyorlovni talab qiladi		
Asosiy bilimlarni berish va maxsus faktlarni o'qitish afzallikkari aniqlanadi			

Hamkorlikda o'r ganish darslari milliy ta'lif asosida o'qitish uchun ishlab chiqilgan. Hamkorlikda o'r ganish muhitida talabalar har xil shakllantirilgan guruhlarda bir-birini qo'llab-quvvatlaydilar, o'zi va boshqalarning o'r ganishiga yordamlashadilar. Hamkorlikda o'r ganish o'quvchilar uchun har ikkala moslashuvchanlik va qiziqishni rivojlantirishga qaratilgan shart-sharoitlarga asoslanadi. Hamkorlikda o'r ganish guruhi bilan ishlashdagi va mustaqil o'r ganish erkinligidagi ba'zi afzallikkarni shakllantirishni maqsad qilgan. Guruhda jamoa bo'lib ishlash mahoratini oshirish va hakamlar qarori orqali kelishmovchiliklarni to'gri hal qilish normalarini o'rnatish jamoaviy o'qitishning asosidir. Bu turdag'i o'r ganish, shuningdek, mustaqil ishlash va guruhga o'z ta'sirini o'tkazish ahamiyatini ham ta'minlashi kerak.

Hamkorlikda o'r ganish metodida tashkillashtirilgan mashqlarda jamoa vakillarining birga ishlashiga misol bo'ladi (uyga vazifa, topshiriqlar, labaratoriya topshiriqlari va proyektlar). Beshta mezon asosida tashkil qilinadi: o'zaro ijobjiy aloqa, o'z-o'zini baliolash, yuzma-yuz muomala, jamoada ishlash mahoratidan to'g'ri foydalinish, jamoa tuzilishida doimiy individual hissa. Ko'plab talabalarda to'g'ri amalga oshirilgan jamoaviy darslarda ma'lumotni qo'lga kiritish va saqlash, yuqori saviyada o'yash mahorati, o'ziga bo'lgan ishonch, aloqa almashish mahorati rivojlanishiga erishadilar.

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Umumiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi.	Ba'zi talabalar bu yo'sinda ishlay olmaydilar.	Qaysi malaka yoki bilim o'r ganilishi lozimligi to'g'risida aniq qarorga kelish .
Tadqiqotchilar tomonidan samarali	Kamsuqum talabalar javoblarni bo'lishishda	Jamoada talabalarни qanday ishlashini

texnika sifatida qo'llab – quvvatlaniladi.	qiynaladilar.	o'rganish biroz vaqt talab qiladi.
Talabalar bo'lishni, rahmdil va tanqid o'rganadilar.	sabrli ko'proq kamroq qilishni Jizzaki vaziyatni o'z olishga qiladilar.	talabalar qo'liga harakat
	Zehnli talabalar hammadan ustun bo'lishga intiladilar.	

Ma'ruza darslari bu universitet yoki kollej o'qituvchisining biror – bir fan yuzasidan odamlarni o'qitish uchun qilinadigan og'zaki taqdimot, ma'ruzalar, odatda nazariyalar, tanqidiy ma'lumotlar, kelib chiqish, tarix va tenglamalarni bayon qilishidir. Siyosatchilar nutqi, vazirlar va'zlari va biznesmenlarning savdo haqidagi taqdimotlari ham ma'ruza shakli bilan bir xil bo'lishi mumkin. Odatda o'qituvchi tinglovchilar qarshisida turadi va ma'ruza mavzusiga bog'liq bo'lgan ma'lumotni tinglovchilarga bayon qiladi.

Ma'ruzalar ko'plab tanqid qilinishiga qaramasdan, universitetlarda ko'p sondagi talabalarni amaliy o'qitishning aniq metodi topishgani yo'q.

Tanqidchilar fikricha, ma'ruzalar bir tomonlama aloqa metodi bo'lib, auditoriya faolligini talab qilmaydi. Ma'ruzalar tez-tez faol o'rganish bilan taqqoslanadi. Lekin ma'ruza qaratish qilib qolmaydi va ma'lum bir sohadagi ko'p sonli talabalarni o'qitishning arzon, natijali va tez usuli hisoblanadi.

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Faktlarga asoslangan ma'lumotlar tog'ridan – to'g'ri, mantiqan taqdim qilinadi.	Mukammal og'zaki mahorat talab qilinadi.	Aniq kirish qismi va xulosaga ega bo'lishi kerak.
Ko'plab o'quvchilarga jondantirish ya ilhom beradigan ilg'or tajribalar bilan ta'minlaydi.	Auditoriya odatda faol bo'lmaydi.	Natijaviylik vaqtga va darsning yuqori saviyada tashkillashtirilishiga bog'liq bo'ladi.
	Keng miqyosda o'rganish qiyin.	O'zida latifa va misollarni qamrab

		olishi kerak.
	Aloqa almashish faqat bir tomonlama bo‘ladi.	
	4 yoshdan kichik bolalar uchun mo‘ljallanmagan.	

Bahs – munozarali darslar

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Hech bo‘lmaganda ma’ruzadan keyin talabani o‘ziga jalb qiladi.	Vaqt nazorati muhokama imkoniyatlariiga ta’sir qilishi mumkin.	O‘qituvchi ma’ruza davomida ma’ruzaga mos savollar bera olishga tayyor bo‘lishi kerak .
Talabalar savol beradi, aniqlik kiritadi va dav’at qila oladilar.	Natijaviylik muvofiq savollar va muvofiq muhokama bilan baholanadi.	O‘qituvchi leksiyaga doir qiyin savollarni oldindan bilishi va mas’uliyat bilan tayyorlanishi kerak.
Ma’ruzalar bahslar bilan boyitilishi mumkin.	O‘qituvchidan vaziyatni qisqa muddatda o‘zgartira olish talab qilinadi.	

Muammolarni do‘stona muhokama qilish darslari

Bu texnika jamoa a’zolarini bir-biriga xalaqit bermagan holda g‘oyalarini taklif qilish va muammonni yechish asosida quriladi

Qisqacha ifoda

Mazkur texnika mustaqil yoki guruh bilan amalga oshirilishi mumkin; undan foydalanishda, ishtirokchilar ruhlantiriladi va berilgan masala bo‘yicha darhol o‘zlarining fikr-g‘oyalarini bo‘lishishlari talab qilinadi. Buning asosiy jihatni jarayon davomida bir-biriga xalaqit bermaslik. Yangi fikrlar yaxshiroq fikrlarni rivojlantirishga imkon berilishidadir. Bu texnikadan yagona va shakllangan fikrni ko‘plab fikrlar orasidan tanlab olishda, g‘oyaviylikni rivojlantirishda foydalilanadi.

Qarama-qarshi fikrlarni rivojlantirishning asosiy vositasi maksimal darajadagi fikrlar sifati orqali muammoning yechimi yengillashtirishni maqsad qilgan. Qancha ko‘p sonli g‘oyalar to‘plansa, shuncha keskin va natijali yechimni topish imkoniyati

kuchli bo‘ladi. Bu texnika mustaqil amalga oshirilganda ma’lum vaqt mobaynida kutilgan natijaga erishiladi. Mustaqil, yolg‘iz shug‘ullanganda bu orqali mutlaq yangi qarashlar, fikrlarga erishish mumkin. Bu jarayon chegarasiz davom etishi mumkin. Natija bevosita shaxsning o‘tmishi, hozirgi kuni va kelajagi orqali aniqlanadi.

Guruh bilan ishlanganda tanqidiy fikrni doim ushlab turishga urg‘u beriladi. Qaysidir fikr noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin, degan fikrga darhol kelish o‘rniga keyingi tanqidiy jarayonga fikrlar jamlashga yoki qo‘sishga e’tibor qaratiladi. Ishtirokchilarni noodatiy g‘oyalarni taklif qilishi uchun qo’llab-quvvatlaydigan muhit yaratiladi.

Bu texnikaning ko‘plab turlari bor, lekin eng ko‘p ishlatiladiganlari:

- yangi mahsulot (fikr) rivoji – yangi mahsulot uchun g‘oyalarni to‘plash va mavjuslari uchun rivojlanishga erishish;
- e’lon qilish – guruhlar uchun g‘oyalarni rivojlantirish;
- birlashgan ariza dizayni – har bir jarayonni tezlashtiradi;
- muammoni yechish – muaommolar, muammoning ildizi, tanlaniladigan yechim, rivojlanish;
- jarayonni boshqarish – biznesni rivojlantirishni yo’llarini topish va mahsulot jarayoni;
- dastur boshqaruvi – mijozni obyektiv aniqlash, rivojlanganlik, tavvakkallar, manbalar, ish qog‘ozlari, rol, mas’uliyat, topshiriq, muammolar;
- jamoa qurilishi – ishtirokchilarni o‘ylashga majbur qiladigan g‘oyalarni bo‘lishish va muhokama qilish.

Texnikaning odatdagisi ko‘rinishi uchun ish tartibi:

O‘rtacha kenglikdagi xona guruhi a’zolari bir-birini ko‘ra olishi uchun qulay shaklda joylashtirilgan 12 ta stul bilan jihozlangan. Xarita, doska, yuqorida o‘rnatilgan proektor. Xona telefon, soat va boshqa xalaqit beradigan narsalardan xoli.

Oltitadan yigirmatagacha shu fanga qiziquvchilar taklif qilinadi (shu sohada malakali bo‘lishi shart emas).

Doskaga fan mavzusini yoki muhokama qilinishi kerak bo‘lgan muammo yoziladi. Bu ko‘pincha savol tarzida qabul qilinadi.

Barcha o‘z fikrlarini qog‘ozga yozadi. Fiklar doskada birlashtiriladi. Birgina mavzu bir soat mobaynida muhokama qilinishi mumkin. Eski hisoblangan barchanining o‘z fikrlarini birmabir yozib chiqish metodi ancha sekindir. Chunki hamma so‘nggi g‘oyani

yozuvchini navbati kelmaguncha kutib turishi kerak. Fikrlar izohlarsiz, qisqa yozilishi kerak.

Jarayonga yordamlashish uchun bitta odam tanlang. Bu barchaning faol ishtiroki, erkin tanqid va muhitni ta'minlaydi. Hattoki kulgili va mantiqsiz g'oyalarni ham qo'llab-quvvatlang.

5 minutdan 20 minutgacha bo'lgan vaqtda yordamlashuvchi g'oyaning tugallanish qismini belgilaydi (bosqasiga navbat beradi).

- Biror maqsad yuzasidan asoslangan g'oyalarni jamlang. Yordam beruvchi shaxs jarayon davomida muhokamani qo'llab-quvvatlaydi.
- Har bir mavzu muhokamasidan so'ng, keyingisini muhokamasiga shoshiling.
- Qatnashuvchilarning barchasi g'oyalarni tushunganligiga ishonch hosil qilish uchun ro'yxatni boshidan oxirigacha qayta ko'rib chiqing, Ro'yxatdagi takrorlanuvchi va mantiqsiz jihatlarni bartaraf qiling.
- Tashakkur bildirib minnatdorchilik sifatida barchani tegishli baholar bilan taqdirlang.

AFZALLIKLAR I	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Mashqni eshitish yangi g'oyalalar uchun ijodiy o'ylashga tutki bo'ladi.	Fikr jamlanmasligi mumkin.	Muammolarni o'qituvchi tanlaydi.
To'liq qatnashishni ta'minlang, shunda barcha fikrlar teng yozib olinadi.	5-7 minutdan oshmaslikni talab qiladi.	O'qituvchi jarayonning sustlashib ketishiga qarshi tayyor bo'lishi kerak.
Guruuning bilimi va malakasi yuzaga chiqadi.	Talabalarda reallikdan chiqishda qiyinchiliklar tug'ilishi mumkin.	
Jamoa bo'lib ishlash ruhi shakllanadi.	Agar yaxshi tashkillonmasa tanqid va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.	
Birgina fikr boshqalaridan ancha ustun bo'lishi mumkin.	Mukammallik darajasidagi qiymatini baholaydi.	

Videovozuv va slaydli darslar

AFZALLIKLAR	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
I Mavzuni tushuntirishni va muammoni muhokamaga qo'yishning ajoyib usuli.	Tanlangan mavzu bo'yicha ko'plab muhokamalarni keltirib chiqarish mumkin.	Jihozlarni yig'ish va sozlashni talab qiladi.
Odatda guruh e'tiborini o'ziga tortadi.	Bahs davomida to'liq faoliy bo'lmasligi mumkin.	O'qituvchi taqdimotdan keyin muhokama tayyorlab qo'yan bo'lsagina foydali, xolos.
Professional ko'rindi.	Undan so'ng muhokamaga qo'yilsagina foydali.	
Muhokamani qo'llab-quvvatlaydi.		

Bahs-munozarali darslar

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Guruhdagi fikr va malakalarni jamlaydi.	Ba'zi talabalar qatnashmasligi mumkin.	Muhokamani olib borish uchun o'qituvchi tomonidan diqqat bilan tayyorlanish talab qilinadi.
Taqdimot, film yoki tajribadan so'ng tahlil qilinsa foydali.	Vaqtni ko'p oladigan.	Savollar jamlanmasini talab etadi.
Jarayonda barchanining faol qatnashishiga sharoit yaratadi.	Izdan chiqib ketishi mumkin.	

Kichik guruh muhokamalari

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Barchaning faol qatnashishiga imkon beradi.	Guruh maqsadlarini diqqat bilan o'ylab chiqishni talab qiladi.	Guruh uchun maxsus topshiriqlar va javob berish uchun savollar tayyor bo'lishi kerak.
Talabalar ko'pincha kichik jamoalarda erkin bo'ladilar.	Guruhi mavzudan chiqib ketishi mumkin.	

Sahna ko'rinishi

Sahna ko'rinishi bu to'liq shakllanmagan drama sifatida qabul qilinadi (Dallman Jones, 1994). Bu mashqlarda talabalar mavzu yuzasidan ta'sirlanadigan va ta'sir ko'rsatadigan xarakterlar nuqtai nazaridan yondashadilar. Vaziyat va xarakterlar o'qituvchi tomonidan ta'minlanadi, lekin talabalar xarakter turini (yo'nalishini) o'zlarini tanlaydilar.

Sahna ko'rinishi mashqlari orqali sinfdan tashqarida o'zlashtiriladigan mahoratlarni va ilmiy ko'nikmalardan amalda qanday foydalanish kerakligini o'rghaniladi. Bu mashq talabalardan tasavvur qobiliyatini va sahmalashtirilayotgan xarakterga mos asosiy bilimlardan va axborot almashish mahoratini talab qiladi

Sahna ko'rinishlaridan foydalanishning sabablari

Sahna ko'rinishi o'z-o'zidan qiziq va foydalidir, chunki u real dunyoga urg'u beradi. Bu ularni hech qanday «to'g'ri » javoblarsiz murakkab muammolarni yechishga undaydi. Aniqrog'i, sahna ko'rinishi namoyishi talabalarga nafaqat mavzu yuzasidan, balki turli sohalarga oid ma'lumotlarni o'rghanish imkonini yaratadi.

Sahna ko'rinishidan foydalanishni o'qitish

O'qituvchi bu jarayonda matn va talabalar ijro etadigan rollarni tanlashi zarur. Agar talabalar inson rolini ijro etsalar, vaziyat yer yuzining isishi yoki faol bo'lgan vulqonlar bilan bog'lanadi. Darslar talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirish uchun to'liq tushuntirishlar va nazorat asosida bo'lishi talab qilinadi. Shunga qaramasdan yaxshi tayyorlangan senariy kutilgan natijaga olib kelmasligi, odatda o'rGANADIGAN narsalariga zid kelishi va kulgini keltirib chiqarishi mumki

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Vaziyatdan kelib chiqadigan muammoni ta'sirli ifodalaydi.	Ba'zi talabalar judayam qo'pol bo'lishi mumkin.	O'qituvchi muammoni, aniqlikni va vaziyatni aniqlashi zarur.
Talabalarga boshqalarning rollarida ham o'zlarini qo'yib ko'rish imkonini beradi, bu esa boshqa tomonidan qadrlanadi.	Katta guruhlar uchun mos emas.	O'qituvchi aniq ko'rsatmalar berishi kerak.
Yechimlarni tadqiq	Ba'zi talabalar o'zlarini	

qilishga imkon yaratadi.	bosim ostida his qilishlari mumkin.	
Amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga imkon yaratadi.		

Mehmon notia

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Mavzuga shaxsan aniqlik kiritadi.	Yaxshi notiq bo'lmasligi mumkin.	Notiqlar bilan gaplashib, munosibini tanlash.
Auditoriyaning bir maromdaligini buzishi mumkin.		Notiqni munosib tarzda tanishtirish.

Baholarni aniglashtirish

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Baho va ishonchni tadqiq qilishga imkon yaratadi.	Talabalar o'z fikrlari yuzasidan vijdonli bo'lmasliklari mumkin.	O'qituvchi topshiriqlarni alohida e'tibor bilan tayyorlashi kerak.
Mos muhitda talabalarga o'z fikrlarini muhokama qilishga imkon yaratadi.	Talabalar juda ham qo'pol bo'lishlari mumkin.	O'qituvchi to'g'ri tushunchalarni berishi kerak.
Muhokamaga yo'nalish beradi.	Talabalar o'zlarini fikrlarini samarali usulda to'g'ri og'zaki ifoda qilmasliklari mumkin.	Bahs – munozara uchun savollarni tayyorlashi kerak.

Mutaxassislar paneli

AFZALLIKLARI	KAMCHILIKLARI	TAYYORLANISH
Mutaxassislar har xil fikrlarni taqdim qilishadi.	Shaxsiylik mavzuni to'sib qo'yishi mumkin.	O'qiituvchi panelning markazini aniqlaydi, kirish qismi va xulosa

		qiladi.
Bir kishilik muhokamadan ko'ra yaxshiroq muhokamani yaratadi.	Mutaxassislardan ko'pincha samarali nutq chiqmaydi.	O'qituvchi panelni qisqacha xulosa qiladi.
So'zlovchilarining tez-tez almashib turishi chalg'immaslikning oldini oladi.	Mantiqiy tartibda bo'lmasligi mumkin.	
	Boshlang'ich yoshdagি o'quvchilar uchun mos emas.	

O'quvchilar diqqatini dars davomida jalb qilish usullari

- har 10 daqiqa davom etuvchi mavzu tushuntirishning ikki daqiqasini o'quvchilarining o'sha mavzuga bo'lgan munosabatini aniqlashga va savollariga javob berishga bag'ishlang. Bu har yo'lda amalga oshirilishi mumkin, masalan, nijmani tushungan bo'lsa, shuni yozdirish yoki bo'lib o'tgan mavzuni muhokama qilish orqali;
- o'quvchilarining dars davomida bitta joyda o'tirishiga yo'l qo'y mang, ulardan savollarga turli imo-ishoralar (*gestures*), qo'l harakatlari (*body language*) orqali javob berishini talab qiling, yoki tez-tez doskaga chaqirib turing;
- o'quvchilarining har bir harakati, fikrlariga nisbatan o'z fikringizni bildiring (*feedback*). Ular o'z fikriga qanday munosabatda ekanligingizga qiziqadi va siz bildirgan munosabat ularni ruhlantiradi.
- dars oxirida, o'quvchilarga dars davomida o'rgangan va juda qiziqarli deb topgan uchta ma'lumotni aytishini so'rang.
- har dars so'ngida, ularni ruhlantiradigan gaplar aytib hayajonga soling, xonadan ko'tarinki kayfiyatda chiqib ketishlariga ishonch hosil qiling.

(Slechty. 2002)

O'quvchilarining dars mobaynida o'zlarini namoyish etishlarini baholash

- Rubrik usuli (Rubrics) – bu baholash sistemasi juda ham keng tarqalgan bo'lib, bunda o'quvchi bajargan vazifani ma'lum

qonun-qoidalarga asoslanib tekshirish tushuniladi. O'quvchi bajargan vazifaning talabga javob beradigan qismlari qo'shilib yagona bahoni tashkil etadi.

- Portfoli – bu ma'lum o'quv davri mobaynida o'quvchining harakatlarini namoyish etadigan ma'lumotlar yig'indisi yoki mustaqil ravishda bajarilgan ishlarining misollaridir. Umumiy tarzda aytganda, bu usul o'qituvchilarga baholashning afiqroq bo'lishiga ko'maklashadi, o'quvchini bir daqiqada bajariladigan testdan ko'ra, uning malaka va ko'nikmalari sezilib turuvchi o'z mehnati jamg'armasi, ya'ni portfoliodan foydalananib baholash afzaldir. Portfolio o'quvchiga bajargan ishlaridan kelib chiqib kelajakda nimalar ustida ishlashi kerakligini bilib olishiga imkon yaratadi.
- O'quvchining o'z-o'zini baholashi (Self – assesment) aniq bir kriteriya orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchi o'z bilimiga nazar tashlaydi va mustaqil o'qib o'rganish jarayoniga nisbatan ko'proq mas'uliyat his qila boshlaydilar. O'quvchilar o'z-o'zini to'g'ri va samarali baholay olishlari uchun o'qituvchilar ularni baholashning ma'lum bir usuli bilan ta'minlashlari lozim.⁵⁶

Nazorat uchun savollar

1. Qanday dars tavsiflarini bilasiz? Darsni tashkil etishga qanday didaktik talablar qo'yiladi?
2. Darsning o'quv maqsadlari dars jarayonining bosqichlari haqida nimalar bilasiz?
3. Zamonaviy dars tiplari va mezonlari qanday?
4. Nostandard darsning o'ziga xos xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
6. Darsda o'quvchilar faolligini oshirishning asosiy motivlari qaysilar?

Mustaqil ta'lif uchun mavzular

1. Ta'lifni tashkil etishning zamona viy turlari.
2. Ta'lifni tashkil etishning an'anaviy turlari.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1 – topshiriq. Dars va unga qo'yiladigan talablarning o'zlashtirilishiga doir ijodiy testni yechish

1. Kerakli so'z yoki jumlanli topib qo'ying.

... bevosita o'qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lif jarayonining asosiy shakli.

2. Gapni davom ettiring.

Dars ta'lifning boshqa shakllaridan farq qiluvchi quyidagi o'ziga xos belgilarga ega: ...

3. Gapni tugallang.

Darsga qo'yiladigan didaktik (yoki ta'limi) talablarga har bir darsning ta'lif vazifalarini aniq belgilash, axborotlar bilan boyitish, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olish bilan mazmunini optimallashtirish, idrok etishning eng yangi texnologiyalarini kiritish, turli shakl, metod va ko'rinishlaridan mos ravishda foydalanish

4. Kerakli so'zni topib qo'ying.

O'quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo'lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo'yish, faqat o'quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mas'uliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, e'tiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo'yiladigan ... talablarni o'zida aks ettiradi.

5. Gapni davom ettiring.

Darsga qo'yiladigan rivojlantiruvchi talablarga o'quvchilarda o'quv – o'rganish faoliyati ijobiy sifatlari, qiziqish, ijodiy tashabbuskorlik va faoliik shakllantirish hamda rivojlantirish, o'quvchilarning idrok etish imkoniyatlari darajasini o'rganish, hisobga

olish, «rivojlanishning yaqin zonasini loyihalashtirish», «o‘zib ketish» darajasidagi o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish ...

2 – topshiriq. Quyida keltirilgan dars turlarining tuzilishi bilan tanishing va yo‘l qo‘yilgan chalkashlikni aniqlang?

1) aralash dars:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarni takrorlash va mustahkamlash;
- d) o‘quvchilarni baholash;
- e) yangi mavzuni bayon qilish;
- f) uy vazifasi.

2) yangi bilimlarni bayon qilish darsi:

- a) yangi mavzuni bayon qilish;
- b) o‘rganilganlarini mustahkamlash;
- d) o‘quvchilarni baholash;
- e) uy vazifasi.

3) o‘rganganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘quvchilarni baholash;
- d) uy vazifasi.

4) o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish darsi:

- a) tashkiliy qism;
- b) o‘rganilganlarini takrorlash;
- d) o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish va baholash;
- e) uy vazifasi.

3 – topshiriq. Amerikalik o‘qituvchi va nashriyotchi William Chandler Bagley "Ta’lim jarayoni" (The educative process) kitobida darsning bir qancha turlarini ajratib ko‘rsatadi. Ma’ruza matnidan foydalanib quyidagi konseptual jadvalni to‘ldiring.

Dars turlari	Belgilari	Ta`rifi	Funksiyasi	Qoidalari	Izoh
Rivojlantirish darslari (The development lesson)					
O‘rganish					

darslari (Study lesson)					
So'rov darslari (The recitation lesson)					
Mashg'ulot darslari (The drill lesson)					
Takrorlash ya'ni qayta ko'rib chiqish darslari (The review lesson)					
Imtihon (tekshiruv) darslari. (The examination)					

PEAGOGIK MAHORAT ASOSLARI VA UNING TARKIBIY QISMLARI

Reja:

1. Pedagogik mahorat nima va uning mohiyati.
2. O'qituvchi pedagogik mahoratining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari.
3. Pedagogik mahoratni egallash vositalari.
4. O'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni.

Tayanch tushunchalar: »Pedagogik mahorat» fani; pedagogik faoliyat; pedagogik jarayonning harakat vositasi; komponent; o'qituvchining kasbiy tayyorligi; tarkibiy qismlar; prinsiplar; tarbiyalanganlik darajasi; zamonaviy axborot texnologiyalari; murabbiy; mustaqil o'qib o'rganish; guruqli va ommaviy tadbirlar; «ilg'or o'qituvchi»; «ijodkor o'qituvchi»; «novator o'qituvchi»; kasbiy sifatlar tizimi; o'qituvchi va tarbiyachi. .

Mavzuning qisqacha mazmuni: pedagogik mahorat va uning mohiyati, o'qituvchi pedagogik mahoratining vazifalari va asosiy tarkibiy qismlari, pedagogik mahoratni egallash vositalari, o'qituvchi kasbining tarixiy taraqqiyoti va uning jamiyatda tutgan o'rni haqidagi fikrlar o'z aksini topgan.

PEDAGOGIK MAHORAT NIMA VA UNING MOHIYATI

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, «Pedagogik ensiklopediya»da

quyidagicha izohlangan: «O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan, yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis». Ushbu ta‘rifning mohiyatidan kelib chiqib o‘qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko‘rsatkichi.

2. O‘z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O‘quv-tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallahash.

Barcha kasblar orasida o‘qituvchilik kasbi o‘zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o‘qituvchi yosh avlod kamolotining me’mori, yoshlarga ta‘lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g‘oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o‘rgatadi, mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallahshlariga ko‘maklashadi va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas’uliyat o‘qituvchidan o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy ko‘nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo’llarini izlab topadigan kasb egasi bo‘lishni talab etadi. Buning uchun doimo o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko‘nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g‘amxod‘rlik qilish, zarur shart-sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko‘rsatish, ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko‘maklashish lozim.

O'QITUVCHI PEDAGOGIK MAHORATINING VAZIFALARI VA ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

«Pedagogik mahorat» fani kompetentli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi. O'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, pedagogik mahoratning mohiyat – mazmunini, hozirgi zamон talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati tarkibiy qismlari

Pedagogik faoliyatning maqsadi

Pedagogik faoliyatning obyekti va subyekti

Pedagogik faoliyatning vositasи

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni yechish uchun o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik-psixologik ta'lilot nuqtai nazaridan yondashish, ta'lim – tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamona viy metodlar asosida modellashtirish, o'quv-tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun o'qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma'lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o'rinn olgan.

«Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o'qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko'nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to'g'risida ma'lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borishlari orqali amalga oshiriladi:

1. Bo'lajak o'qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladi.

2. «Pedagogik mahorat» fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachilik mahorati, ta’lim jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, tarbiya texnologiyasi, pedagogik ijodkorlik, refleksiya kabi tarkibiy qismlari to‘g’risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilar milliy urf-odat va an’analarimiz va O‘rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o‘zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.

4. Egallangan pedagogik-psixologik va metodik bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘g’risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining Shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.

5. O‘quv-tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so‘nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o‘zlashtiradilar.

6. O‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini takomillashtirishlari uchun shaxsiy-ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.

7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funksiyasi, tuzilishi to‘g’risida o‘qituvchilar uzlusiz ma’lumotlarni o‘rganib boradilar.

8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalanish asosida o‘z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Pedagogik mahoratning o‘zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta’rif beriladi:

Pedagogik mahorat – o‘qituvchilarning shaxsiy (bolajonligi, xayriyohligi, insonparvarligi, mehribonligi va hokazo) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati kabilalar.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo‘lib, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o‘z fanini mukammal bilgan, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo‘lgan, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo’llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o‘qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo‘ladi.

I.P.Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: «pedagogik mahorat deganda

o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi».

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, quyidagi to‘rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil etuvchilari** hisoblanadi:

Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlari

- o‘qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o‘z fanining o‘qitish metodikasini mukammal bilish;
- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish;
- pedagogik tehnikani o‘z o‘rnida qo‘llay bilish.

O‘qituvchilarning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

- 1) o‘qituvchining shaxsiy fazilatlar bo‘yicha tayyorgarligi;
- 2) o‘qituvchining ruhiy-psixologik tayyorgarligi;
- 3) o‘qituvchining ijtimoiy-pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) o‘qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid ushubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta’kidlash joizki, pedagogik mahorat o‘qituvchilar hamda tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig‘indisi bo‘lib, o‘qituvchi mahoratini shakllantirishni ta‘minlovchi omillarni, pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni doimiy rivojlantirib borishi lozim. O‘qituvchi pedagogik mahoratini shakllantirishni ta‘minlovchi omillar quydagilar:

- a) ixtisoslik bo‘yicha o‘quv predmetini, zamon, ilm-fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o‘quv fanlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta‘minlash malakasiga ega bo‘lishi;

b) ta'lif oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olishi, ularning faoliyatini obyektiv nazorat qilishi va baholashi;

d) ta'lif jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o'z faoliyatini tashkil etishi;

e) o'quv-tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik-psixologik va metodik ma'lumotlarga ega bo'lishi;

f) fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlardan keng foydalanishni bilishi;

g) jamoani «ko'ra bilish», o'quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ularning hayot faoliyatlarida uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo'la olish, o'z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta'sir ko'rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo'lishi;

h) o'z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo)ni takomillashtirish malakasini egallashi.

O'qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta'lif muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o'z kasbi bilan uzlusiz taraqqiyotga moslasha olish bo'lajak o'qituvchi umummilliy mavqeining o'sib borishini ta'minlaydi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini uzlusiz takomillashtirib borish naqadar muhim va davr talabi ekanligi ta'kidlanmoqda. Shunday ekan, «Pedagogik mahorat» ning vazifalarini «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablari belgilab beradi. Uning vazifalari quyidagilardan iborat:

– ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;

– ta'lif mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta'minlash;

– bo'lajak o'qituvchilarning ma'naviy, axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf-odat va an'analarimizdan,

boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

– ta’lim va tarbiya jarayonini kelgusida o‘qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanish kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlash uchun normativ hujjatlar, o‘quv-uslubiy adabiyotlar, moddiy-texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma’naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;

– bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarishga o‘rgatish.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o‘qituvchining doimiy ravishda fan bilan shug‘ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: «*O‘qituvchi muntazam ravishda fan bilan shug‘ullanmog‘i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o‘xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o‘qituvchidan hech qanday natija kutib bo‘lmaydi.*»

O‘qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan «Pedagogik mahorat» fanining asosiy tarkibiy qismlari milliy an’ana va urf – odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to‘ldirilib borilishi mumkin.

Pedagogik mahoratning asosiy tarkibiy qismlari:

- 1. Nutq malakasi va texnikasini mukammal o‘zlashtirish.**
- 2. Tushunarli, ta’sirchan fikr va his – tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash.**
- 3. Mimik va pantomimik harakatlardan o‘z o‘rnida foydalanish.**
- 4. Ma’noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.**
- 5. Hissiy psixik va tasedifiy holatlarda o‘z his – tuyg‘ularini jilovlay olish.**
- 6. Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni bosh qarish.**

- 7. Kulgi va tabassnmda samimiylilikni e'tirof etish.**
- 8. O'quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish.**
- 9. Savodli va sof adabiy tilda so'zlash.**
- 10. Aniq imo-ishoralarini o'z o'rnida ishlata olish.**
- 11. Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish.**
- 12. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan erkin foydalana olish.**
- 13. Doimo muomala odobiga rioya qilish.**

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lif-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmisht qadriyatlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi.

«Ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida: «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur»ni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb hisoblansin» deyiladi «Ta'lif-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1997-yil 6-oktyabrda qabul qilingan Farmonida. Barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar samarasini yangicha fikrlaydigan, zamonaviy bilimlarga ega bo'lgarf yuksak malakali kadrlarga bog'liq. Kadrlarni tayyorlash esa, avvalo o'qituvchi – murabbiylar zimmasiga yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etgan: «*Tarbiyachi – ustoz bo'lish uchun, boshqalarining aql –*

idrokini o'stirishi, ma'rifat ziyyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak»¹.

Hozirgi zamон о'qituvchisi о'з mutaxassisligi, pedagogik va psixologik hamda turli fan yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lgan, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni egallagan, ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdir. Ushbu nuqtai nazardan hozirgi kunda quvidagi burch va mas'ulivatlar o'qituvchilardan talab qilinadi:

1. Mas'uliyatni his etuvchi tarbiyachi, tajribali notiq, madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisidir.
2. Tabiatan o'quvchilarni seva olishi, o'z mehrini, his - tuyg'ularini har lahzada o'quvchilar ichki dunyosi bilan bog'lay olishi, ularning ham mehriга, hurmatiga sazovor bo'lishi kerak.
3. Jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mohiyatini chuqr anglab yetishi va ularga xolisona baho berib, bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni doimiy bera olishi lozim.
4. Ilm-fan, texnika va axborot – kommunikatsion texnologiyalari yangiliklaridan va yutuqlaridan xabardor bo'lib borishi.
5. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqr va puxta bilimga ega bo'lishi, barcha fanlar integratsiyasini o'zlashtirib borishi, bunda o'z ustida tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borishi.
6. Pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lif-tarbiya faoliyatini tashkil etishi zarur.
7. Kasbiy pedagogik faoliyatida ta'lif va tarbiyaning eng samarali zamонaviy shakl, metod va vositalaridan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmoq'i lozim.
8. Ijodkor, ta'lif-tarbiyaviy faoliyat tashabbuskori va yosh avlod kelajagi uchun javobgar shaxsdir.
9. Kasbiy faoliyati jarayonida yuksak darajadagi pedagogik mahorat, kommunikativ layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l – oyoq va gav'a harakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqr o'zlashtirib borishi shart.

¹ Karimov LA. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.: Sharq, 1993. 27 – 28 – betlar.

10. Nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rini foydalana olishi muhim.

11. Kiyinish madaniyati o'ziga xos bo'lishi, ya'ni sodda, ozoda, bejirim kiyinishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishi talab etiladi.

12. Ta'lim muassasasida sinf jamoasining asosiy tashkilotchisi va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng faol ishtirokchisidir.

13. Pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi shart.

14. Mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mustaqil ravishda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi kerak.

Hozirgi sharoidta zamonaviy o'qituvchi qator vazifalarni bajaradi. O'qituvchi, avvalo, sinfdagi tarbiyaviy jarayonning tashkilotchisidir. O'qituvchi tarbiyachi sifatida quyidagi talablarni bilishi lozim:

- shaxsni ma'naviy va ma'rifiy jihatdan tarbiyalashda milliy uyg'onish mafkurasining hamda umuminsoniy boyliklarning mohiyatini bilishi, bolalarni mustaqillik g'oyalalariga sodiqlik ruhida tarbiyalashi, o'z Vataniga, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbatni shakllantirishi;
- kasbiy bilimlarni puxta bilish bilan birga turli bilimlardan xabardor bo'lishi;
- yosh pedagogik psixologiya, pedagogika va psixologiya, yoshlari fiziologiyasi, tarbiyaviy ish metodikasi, mifik mukammal bilishi;
- o'z kasbi bo'yicha jahon fanida erishilayotgan so'nggi yutuqlar, tarbiya texnologiyasi, kompyuter va axborot texnologiyalari, yangiliklaridan doimiy xabardor bo'lib borishi;
- ta'lim-tarbiya metodikasidan ko'nikma va malakalarini oshirib borishi;

- o‘z kasbiga ijodiy yondashishi;
- pedagogik texnika (mantiq, nutq ta’limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi;
- o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borishi.

O‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma’lum maqsadga erishmoq uchun o‘qituvchilar bolalarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O‘qituvchi bunda vazifalarni bajaradi:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan faoliyat o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga va qiziqishlariga to‘g‘ri kelishi lozim;
- o‘qituvchi o‘quvchilarga pedagogik va psixologik jihatdan to‘g‘ri vazifa qo‘yishi, yo‘l yo‘riq ko‘rsatishi shart;
- o‘quvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida ham -ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi o‘qituvchi faqatgina bolalarni muvaffaqiyathi o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur.

PEDAGOGIK MAHORATNI EGALLASH VOSITALARI

Yosh o‘quvchilarning, shuningdek, ta’lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo‘lishlari o‘zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo‘lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi vositalar asosida yanada rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil q‘qib-o‘rganish (pedagogika fanida ro‘y berayotgan eng so‘nggi yangiliklar haqida ma’lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal tizimi, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g‘oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).

2. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lif muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingen taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).

3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni oshirib borish.

4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferensiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.

5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta'lif muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Mustaqillikka erishgach, 1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Mamlakatimizda an'anaviy ravishda «Yilning eng yaxshi pedagogi» Respublika ko'rik – tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lif maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib, rag'batlantirilishi yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. 2006-yildan boshlab esa, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovi o'tkazilishi yo'lga qo'yildi. «Yil maktabi» Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lif muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda.

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir, Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshifiy (taxm. 1440–1505 y.) bola tarbiyasida muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatti bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida «Axloqi Muhsiniy» asarida shunday yozadi: «*Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lif berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonomizda muloym va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir*».

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida tarbiyachi – muallim foaliyatiga quyidagicha ta’rif beradi: «muallim bilimli, aqli, adolatli, o‘zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi».

Pedagog olim Komil Zaripov o‘qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini «Ilg‘or o‘qituvchi», «Ijodkor o‘qituvchi», «Novator o‘qituvchi» timsolida asoslaydi va shunday ta’riflaydi:

«Ilg‘or o‘qituvchi», avvalo, boshqa o‘qituvchilarga qaraganda o‘z ishiga mas’uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o‘rganib, o‘z darslarida, ta’lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo‘llaydi. Shu orqali u ta’lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo‘lga kiritadi.

«Ijodkor o‘qituvchi»da ham «Ilg‘or o‘qituvchi»dagi xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg‘or o‘qituvchi mavjud manbalarni o‘rganib, shular asosida ta’lim – tarbiya bo‘yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o‘qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko‘z bilan qaraydi»⁵⁷.

«Novator o‘qituvchi» o‘zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o‘qituvchilar ilmiy tahlil, o‘ziga tanqidiy ko‘z bilan qaray bilish xususiyatlariga ham ega bo‘ladi.

O‘qituvchi pedagogik mahoratini «O‘qituvchilarning axloqiy shakllanishi» yo‘nalishida o‘rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallahning muhim manbasi axloq deb ta’kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta’riflaydi: «Faoliyatning ma’lum bir sohasi bilan shug‘ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo‘lgan axloq bilan kasb axloqi o‘rtasida ma’lum bir munosabat mayjud. Bu umumiylig bilan xususiylik o‘rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o‘zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi»⁵⁸.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraiyi onglilik, milliy odobililik, fikrosat, nozik dijdilik, o‘z kasbiga sadoqat va vijdoniylilik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik

⁵⁷ Zaripov K. O‘qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. – T.: O‘qituvchi, 1993, 97-bet.

⁵⁸ Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. – T.: O‘qituvchi, 1997. 6 – bet.

odob, tadbirkorlik, qat’iylik, har qanday vaziyatda o’zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo’lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma’naviy-axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o’z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o’zbek xalqining an’analari, qadriyatlar, urf-odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma’naviyat, adabiyot va san’at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o’lkashunoslik, texnikaga oid ma’lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo’lish va hokazo.

O’QITUVCHI KASBINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O’RNI

Pedagogik kasb – bu barkamol inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O’qituvchining o’z kasbiga ixlos qo’yishi va ijtimoiy ahamiyatini tushunib yetishi, bolalarga ta’sir o’tkazishi va ularga hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, barchani pedagogik faoliyat va muloqoti bilan uyg‘unlashib, bir butunlikni tashkil etadi.

O’qitish va tarbiyalash bir-biridan ancha farqli tushunchalardir. O’qituvchi o’z kasbining to’la ma’nodagi egasi bo’lishi uchun atrofidagi odamlar orasida hurmat-e’tibor qozona olishi kerak. Madaniyatli murabbiy, ezgu fazilatlar egasi sifatida barchaga namuna bo’lishi zarur.

VII asrlarga kelib O’rta Osiyoda ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanish bevosita ta’lim va tarbiya beruvchi mudarrislarning qizg‘in faoliyati hamda ularga qo’yiladigan talablarning nihoyatda rang – barangligi va xilma – xilligi bilan diqqatga sazovordir.

Buyuk allomalarimiz o’z asarlarida mudarrislar kasbining nozikligini, mas’uliyatli va murakkabligini, shu bilan birga sharaflini

ekanligini, yoritib, muallimning mahorati, ularga qo'yilgan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, shogirdlar bilan munosabatga kirishish mahorati, muomalasi to'g'risida o'z mulohazalarini bildirganlar.

Abu Nasr Forobi (873 – 930) ta'limotiga ko'ra, ta'lim-tarbiya jarayoni tajribali va bilimli o'qituvchilar tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Binobarin, «*har bir bola o'zicha narsa va hodisalarni bila olmaydi hamda baxtga erisholmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim*»⁵⁹.

Ta'lim va tarbiya berishda «...ustoz shogirdlariga qattiq zulm ham, haddan tashqari ko'ngilchanlik ham qilmasligi lozim. Chunki ortiqcha zulm, shogird dilida ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi, bordiyu ustoz juda ham yumshoq ko'ngilli bo'lsa, shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib qoladi. Shuning uchun o'qituvchi bolalarning fe'l – atvoriga qarab ta'lim-tarbiyaning «qattiq» yoki «yumshoq» usullaridan foydalantshi mumkin» deydi. Bunda ustoz mudarrisga quyidagi talablarni qo'yadi:

Birinchi yo'l: tarbiyalanuvchilar o'qish va o'rganishga ishtiyoqmand bo'lsalar, ta'lim-tarbiya jarayonida mudarris tomonidan yumshoq usullar qo'llaniladi. Bunda u qanoatbaxsh so'zlardan foydalanadi, chorlovchi, ilhomlantiruvchi gaplar aytib, o'quvchida ko'nikma va malakalarni vujudga keltiradi, natijada o'quvchining iqtidori uyg'onib, g'ayrat-shijoati bilan b'ilim olishga, kasb egallahga intiladi;

Ikkinci yo'l: tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha, itoatsiz bo'lsalar, mudarris tomonidan qattiq, ya'ni majburlovchi usullar qo'llaniladi. Bu asosan gapga ko'nmovchi ba'zi qaysar shaharliklar va boshqa sahroyi xalqlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu usul natijasida o'quvchi nazariy b'ilimlarni o'rganishga astoydil kirishadi, fazilati yaxshi bo'lib, kasbhunar va san'atlarni egallahga intiladi. Maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb-hunar ahliga aylantirishdir

Abu Rayhon⁺ Muhammad ibn Ahmad al – Beruniy (973 – 1048) Sharq Uyg'onish davrining qomusiy olimlaridan biri, tarbiyashunos olim, umumjahon tabiiy – ilmiy va ijtimoiy fanlar rivojiga ulkan ta'sir ko'rsatgan buyuk aql zakovat sohibi. U bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash jarayonida dunyoviy fanlarni bir-biri

⁵⁹ Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shaxri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. 122-bet.

bilan bog'lab, turli mavzularda mulohazalar yuritishni ta'kidlab:
«*Bizning maqsadimiz o'quvchilarni tolqitirib qo'ymaslikdir, bir mavzuni qayta – qayta takrorlab o'qib berish o'quvchini zeriktiradi, xotirasini susaytiradi. Agar o'quvchi bir mavzudan boshqa bir yangi mavzuga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tmas, boshqa bir bog' boshlanadi. Bola ularning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi. Har bir yangi narsa bolaga rohat bag'ishlaydi, deb behuda aytilmagan,*»⁶⁰ – deydi.

Abu Ali ibn Sino (980 – 1037) o'z asarlarida inson kamolotida uch narsa – irsiyat, muhit, tarbiya muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Bunda mudarrislar bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatlari burchni bajarib, shu uch holatga javobgarlik hissi bilan yondashishini uqtiradi va muvaffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

1. Bolalar bilan muomalada bosiq va jiddiy bo'lish.
2. Berilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga e'tiborni qaratish.
3. Ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish.
4. O'quvchining xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, Shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilish.
5. Bolalarni fanga qiziqtira olish.
6. Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish.
7. Bilimlarni o'quvchilarning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda tushunarli yetkazish.
8. Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.

Unsurul Maoliy Kaykovusning (milodiy 1021–1022 yillarda tug'ilgan) «Qobusnama» asarida har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasida turmush tajribasi muhim ahamiyat kasb etishini aytildi. Faqat yaxshi mudarris tarbiyani hayot bilan bog'lagan holda bolalarni kamolotga yetkazishi mumkin deb, uning yo'l va usullarini bayon etgan. Kitobda javonnardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazariyasi ko'zda tutilgan:

1. Kaykovus bilim haqida.
2. Hunar va turli kasb egalari haqida.
3. Turmush va xulq – odob qoidalari haqida.
4. Jismoniy yetuklik haqida.

⁶⁰ Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, – T.: Fan, 1968. 106-bet.



Kaykovus mudarrislar axloqliligining birinchi belgisi uning suxandonligida deb biladi va «*Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir*» deydi. Suhandon notiqlikda rost so‘zlash kerakligini ta’kidlaydi.

Abul-Qosim Mahmud Ibn Umar az – Zamaxshariy (1075 – 1144) jahon ilm-fani va madaniyatiga salmoqli, hissa qo‘shtgan mashhur olim va adibdir. U o‘z asarlarida halollik va pokizalik, ilmga muhabbat, mardlik va oliyanoblikni ulug‘laydi. Ulug‘ mutafakkir «*Navobig‘ ul – kalim*» («Nozik iboralar») asarida kishilar ilmli bo‘lish, o‘qitish, yozish bilan hosilu mukammal bo‘ladi, olim kishi oqil, bilimdon va chiroyli xushxat yozuvga ega bo‘lsa, bu uning kamolotga yetganligidan dalolatdir, deydi. Asarda mudarrislar to‘g‘risida noyob fikrlar bildirilgan: «*Murabbiy o‘qib tursagini murabbiy bo‘la oladi, agar o‘qishni to‘xtatib qo‘yar ekan, unda murabbiylik o‘ladi*»⁶¹.

Buyuk mutafakkir **Abdurahmon Jomiy** XV asrda yashab ijod qilgan. U o‘z asarlarida insonning yuksak axloqiy xislatlarini, go‘zal fazilatlarini kuylaydi. «*Xirodnomai Iskandariy*» asarida muallimlar to‘g‘risida noyob fikrlarni bildirgan: «*muallim aqli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi*». Shoir muallimning hayotdagi o‘rnini quyidagi baytida bayon qiladi:

*Ustod, muallimsiz qoblarga zamon,
Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon.*

Alisher Navoiy (1441 – 1501) ijodida muallimlarga alohida munosabat berilgan. Uning fikricha, har bir inson o‘ziga ta’lim va tarbiya bergen ustozini, o‘qituvchisini umrbod hurmat qilishi va e‘zozlashi kerak. O‘qituvchi mehnatini har qanday xazina bilan o‘lchab bo‘lmaydi.

*Haq yo‘linda kim senga, bir harfo‘qitmish ranj ila,
Aylamat bo‘lmas ado, oning haqqin yuz ganj ila.*

Buyuk alloma o‘zining «*Mahbub – ul gulub*» didaktik asarida o‘qituvchi xalq oldida obro‘, hurmat va izzatga sazovor bo‘lishi, raiyat g‘ami bilan yashashi, ularqa yordam berishi, lozimligini aytadi. Nodon, mutaassib, johil mudarrislarni tanqid qilib, mudarris olimlar orasidagi eng safra «malak qiyofali» kishi bo‘lishi, ya’ni sof ko‘ngilli, pok qalbli, insofli, karam – muruvvatli, odobli, vafoli, kishilikning eng

⁶¹ Abul – qosim Mahmud az – Zamaxshariy. Nozik iboralar. – T.: Kamalak, 1992. 16-bet.

yaxshi va olıyjanob xislatlarini o'zida aks ettiruvchi bo'lishi kerak deydi. Ayniqsa madrasalarda ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi mudarrislarga jiddiy talablarni qo'yadi: «*Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlilik uchun gap – so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni unga bosh o'rin bo'lmasa, yaramasliklardan qo'rqsa va noplilikdan qochsa... nainki, o'zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilish mumkin, balki halol desa, qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa, bu mudarris emas, yomon odatni tarqatguvchidir*». Demak, mudarris bilimli, fozil va donishmand, kishilikning eng yaxshi fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan olıyjanob va kamtarin, har qanday yaramas ishlardan xoli va pok, o'z xulqi va odobi bilan boshqalarga namuna bo'lishi lozim.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatini eng murakkab va mashaqqatli ish ekanligini xolisona baholaydi: «*Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashdan ojizlik qilardi. U esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin. Shunisi ham borkim, u to'dada fahm – farosati ozlar ham bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat qilsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarda uning haqqi ko'pdır. Agar shogird podshohlikka erishsa unga (muallimga) qulluq qilsa arziydir*».

Kamoliddin Husayn Voiz al-Koshify (1440 – 1505) «Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati» asarida ustoz – shogird munosabatlariga keng to'xtalgan. U muallimlarning shogirdlariga beradigan har bir o'gitini qadrlaydi. «*Maraka joylarida*» (dars-ma'ruza o'qiladigan joy) shogirdlar muallimning har bir so'zini e'tibor bilan tinglashini va unga amal qilishini ta'kidlaydi.

Husayn Koshify ustozlik shartlarini ham bayon qiladi: «*Bilgilkim, hech bir ish ustozsiz amalga oshmaydi va kimki ustozsiz bir ishni qilur ersa, ul ishning asosi mustahkam bo'lmaydi. Kimki, ustozsiz ish boshlagan bo'lsa, ishi va amali samara qozonmaydi, ustozning etagini tutib shod bo'l, bir muddat ustozga xizmat qilginda, so'ngra o'zing ustoz bo'l. ...Agar ustoz tarbiyasini olgan komil inson kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir, deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar bo'lmaydi*».

Sharq allomalari adabiy meros, o'qituvchilar haqida bildirilgan dono fikrlarni yoshi, pedagogik mahorati, qanday dars berishidan qat'iy nazar barcha o'qituvchilar bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari maqsadga muvofiq.

Antik davrdagi maktablar Sparta, Afina va Rim tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat olib borganlar. Qadimgi Yunonistonda bunday joylar akademiya deb nomlangan. «Akademiya» so'zi afsonaviy qahramon Akadema nomidan kelib chiqqan. Eramizdan avvalgi V asrda Afina yaqinidagi Akadema so'zi bilan nomlanuvchi joyda Platon o'z shogirdlariga ma'ruzalar o'qigan bo'lib, keyinchalik ta'lim-tarbiya berish uchun tashkil etiluvchi maskanlar ham shunday nom bilan atala boshlangan. Qadimgi Yunonistonda bolalarga ta'lim-tarbiya berish faylasuflar zimmasiga yuklatilgan edi.

Ular notiqlik san'atining yetuk namoyondalari bo'lib, o'zlarining chiroyli so'zları, baland va ta'sirchan ovozlari bilan ta'lim oluvchilarning tafakkuriga, ongiga kirib borganlar, ta'lim va tarbiyada ulkan yutuqlarga erishganlar. Shu sababli, notiqlik san'ati va nutq madaniyatining nazariyasiga, uning cheksiz tarbiyaviy ahamiyatiga ilk marotaba qadimgi Yunonistonda asos solinganligi ilmiy adabiyotlarda bayon etiladi. Yunonistonda epos, lirika, drama, haykaltaroshlik, musiqa va me'morchilik bilan birga notiqlik ham murakkab va muhim san'at turi sifatida tan olingan. Notiqlik san'atini davlatning muhim ijtimoiy-siyosiy ishlariga taalluqli faoliyatdagi ahamiyati uchun hamda yosh avlodni tarbiyalashda ular ongi ya tafakkuriga qizg'in ta'sir etuvchi murakkab vosita sifatida rivojlantirgan.

Eramizdan avvalgi V asr Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va ularni vatanparvarlik ruhiда tarbiyalashning eng takomillashgan davri bo'lган. Shu sababli «notiqlik san'ati» ham qizg'in rivojlangan davr hisoblanadi. Bu davrda notiqliknинг uchta qonuniyati umumiy shior sifatida e'tirof etilgan:

- o'quvchilarga tushuntirish (ma'lum bir mavzuni);
- o'quvchilar ongini uyg'otish (inson tafakkurini, ongini, maqsadini);
- har bir tingga huzur – halovat va qoniqish uyg'otish.

Yunonistonda notiq uşbu qonuniyatlargacha amal qilgan holda o'quvchilarga, ya'ni «tinglovchilarga halovat bag'ishlash» orqali ularni ezgulikka, adolatparvarlikka, vatan oldidagi burchga sadoqatli

bo'lishga, yaxshi amallarni bajarishga, axloq va odob qoidalariga rioya qilishga chorlar edi. Notiqlik san'atini chuqur egallagan, o'zlarining go'zal va chiroyli nutqlari bilan jamiyatda hurmat va e'tibor qozongan Dinarx, Giperid, Gorgiy, Isokrat, Isey, Esxil, Demosfen kabi namoyondalar mashhur davlat arboblari bo'lib yetishganlar.

Mashhur faylasuf olim Suqrot (eramizdan avvalgi 469 – 399) o'quvchilar bilan savol – javob usuli orqali ta'lim-tarbiya berishning suhbat metodiga asos solgan. Suqrotning shogirdi Platon o'z ustozi g'oyalarini davom ettirib, o'quvchilar bilan savol – javob usulini notiqlik san'atining bir shakli sifatidagi ahamiyati cheksiz ekanligini bayon etadi. Uni inson tafakkuri va ongini, dunyoqarashini og'zaki nutq bilan boyituvchi noyob uslub sifatida baholaydi.

Yunonistonda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda notiqlik san'atining ahamiyatini yoritib berish hamda uning rivojlanishi faylasuf olim Demosfen (eramizdan avvalgi 384 – 322) nomi bilan uzbek bog'langan. U yoshlik yillaridanoq notiqlik san'atiga qiziqdi. Tug'ma duduq bo'lishiga qaramasdan, o'quvchi va tinglovchilarning istehzolariga bardosh berib, qizg'in va shiddatli mehnati bilan notiqlik mahoratini namoyish eta olgan. Demosfen Yunonistonda notiqlik san'atining yetuk namoyandasasi, ya'ni elitasi sifatida mashhur bo'ldi. Davlat tribunasini siyosiy va mafkuraviy kurash maydoniga aylantirdi.

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar Yevropa olimlari Ya.A.Komenskiy, Jon Lokk, G.Pestalotssi, A.Disterverg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A.Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, qobiliyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini mukammal tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi roliga yuqori baho berib, o'qituvchilik «yer yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini e'tirof etadi. O'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: *vijdon, ishchanlik, sabot, axlog, fidoyilik, mehribonlilik, bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi*.



L.G.Pestalotssi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslарини egallahdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagи roliga yuqori baho berib, uning sohasini mukammal bilishi, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni sevishi natijasida yuzaga keladi, deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini chuqr bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlagan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadilik, g'ayrat – shijoatilik, ehtiyyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatidagi rolini yoritib bergen.

A.LGersen, K. D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, L.G.Chernishevskiy kabi rus pedagog olimlari G'arb mutafakkirlari g'oyalaring vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati – bu uning bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, aqliy qobiliyatining mavjudligida va ma'naviyatining yuksakligida chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining roli va shaxsiga yuqori baho berib, sohaga oid ilmiy mulohazalarida hech bir qonun yoki tizim, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar o'qituvchi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rmini bosa olmaydi qeb hisoblaydi.

K.D.Ushinskiy o'qituvchi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim – o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni ilk bor asoslab bergen.

K.D.Ushinskiy o'qituvchining mashaqqatli mehnatini ta'riflab shunday deydi: «Hali yetilmagan va fikri xayoli tarqoq bo'lgan o'ttiz yoki qirqta o'quvchining ongini butun dars davomida mashg'ul qilib turish uchun o'qituvchi o'z so'zlari va bergen masalalari to'g'risida ko'p bosh qotirishi, diqqatli bo'lishi kerak. Mana shu sababdan bilimi bo'lgan har bir kishi o'qituvchi bo'lishga layoqatli bo'lavermaydi. Jamiyat tomonidan hamma vaqt ham yetarlicha ta'rif qilinmaydigan bu vazifani insof bilan ado qilmoq uchun zo'r matonat va mahorat talab qilinadi».

Buyuk rus adibi L.N.Tolstoy o'qituvchi fazilatining mukammalligini o'z mutaxassisligiga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishi bilan bir vaqtida bolalarga bo'lgan munosabatida, ularni xuddi o'z farzandlaridek jondilidan sevishida ekanligida ko'rgan. Uning ta'kidlashicha, «agar o'qituvchi faqat ishiga havas qo'ygan bo'lsa, u yaxshi o'qituvchi bo'ladi. Agar o'qituvchi bolaga faqat otasi va onasi kabi havas qo'ygan bo'lsa, u oldingi o'qituvchidan yaxshiroq bo'ladi. Bordiyu, ikkala xislatni ham o'zida mujassamlashtirsa, u holda u mukammal va mahoratlari o'qituvchi bo'la oladi».

«Aqli, fikran boy, bag'ri keng insonchalik hech narsa yoshlarni qiziqtirmaydi, o'zining ortidan ergashtira olmaydi ham..., aql – aql bilan tarbiyalanadi, vijdon – vijdon bilan, vatanga sadoqatlilik – bevosita vatan uchun xizmat qilish bilan..., – deb ta'kidlagan edi mashhur rus pedagogi V.A.Suxomlinskiy. – O'qituvchi o'zining butun borlig'i, kundalik hayoti, ma'naviy madaniyati bilan hamkasblari va o'quvchilarga o'rnak bo'ladi va ularni o'z ortidan ergashtiradi».

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari pedagog olim V.A.Slastyeonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy – pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: «O'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyat doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchidan, ilmiy nazariyalar – taraqqiyotning umumiy qonuniyatları, tamoyillari, qoidalarini aks ettiruvchi ilmiy bilimlardir, amaliyat bo'lsa, doimo aniq vaziyatga asoslanadi. Ikkinchidan, pedagogik faoliyat – falsafa, pedagogika, psixologiyaga oid bilimlar sinteziga asoslanuvchi yaxlit jarayondir. Bu bilimlar sintezisiz pedagogik amaliyatni maqsadli qurish juda mushkul». Demak, o'qituvchidan nafaqat pedagogik mahoratni mukammal egallash talab etiladi, balki pedagogik amaliyatni to'g'ri va maqsadli tashkil qilish uchun chuqur ilmiy nazariy ma'lumotlarga ham ega bo'lish lozim.

Taniqli rus pedagogi A.S.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida quyidagi fikrlarini bayon qilgan: «Pedagog darsda ma'lum bir o'ziga xos rolni o'ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o'ynashni bilmaydigan o'qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma'lum ma'noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe'limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogik quroq

*bo 'lishi ham aslo mumkin emas. Bolalarni qalb va ko 'ngil azoblari bilan, hijronli his – tuyg'ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi». Olim o'qituvchining hech bir kasbga o'xshamaydigan kasbiy faoliyatini yuksak baholab, «*Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq yoki jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati, yurish – turishi, kiyinishi bolalarni tarbiyalasin»* – deb yozgan edi.*

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday omillar yuksak pedagogik mahoratning shakllanishini ta'minlaydi?
2. Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlarga ta'rif bering.
3. O'qituvchining pedagogik faoliyati tarkibiy qismlari qaysilar?
4. Pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari nimalardan iborat?
5. A.Makarenko o'z asarlarida o'qituvchining kasbiy fazilati to'g'risida qanday fikrlarini bayon qilgan?

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1. Berilgan savollarga kalit so'zlar toping va esse yozing.

1. Pedagogik mahorat nima?
2. Pedagogik faoliyatning murakkabligi nimada?
3. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz?
4. Pedagogik muhit nima?
5. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
6. Aktyorlik faoliyati bilan pedagogik faoliyatining o'xhash tomonlari nimada?
7. Hissiy – psixik holat deganda nimani tushunasiz?

2. «Tezkor so'rov» uchun savollar.

1. Pedagogik muloqot madaniyatining o'qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati qanday?
2. Muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi qanday bosqichlardan iborat?

3. O'qituvchi pedagogik muloqot madaniyatiga erishish uchun qanday vaziyatlarni e'tiborga olishi darkor?
4. O'quvchilar diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash lozim?
5. O'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlari ta'rif bering?
6. O'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish yo'nalishlari qaysilar?
7. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ziddiyatlar keltirib chiqishiga nimalar sababchi bo'ladi?
8. O'qituvchining muloqotga kirishishi deganda nimani tushunasiz?
9. Yosh o'qituvchilarning pedagogik muloqot madaniyatiga xos xususiyatlarni izohlang.
10. O'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar?
11. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'rifi bo'yicha ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir etuvchi muhim hayotiy omillar nima?

DIQQAT! Jumlalarni davom ettiring.

1. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari.....
2. Pedagogik qobiliyatning asosiy xususiyatlari.....
3. Pedagogik qobiliyatlarning tayanch xususiyatlari.....
4. qobiliyatning yetakchi xususiyati
5. Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan yordamchi xususiyatlar va xislatlar.....
6. Pedagogik mahoratninig tarkibiy qismlari.....
7. Pedagogik texnika komponentlari.....
8. Mimika - bu.....
9. Pantomimika deb.....
10. Nutq texnikasi.....

PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA KREATIVLIK

Reja:

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarda pedagog kadrlarining kompetentliligin shakllantirish borasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati.
2. Kompetentlik tushunchasi va uning mazmun – mohiyati
3. Pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni.
4. Pedagog kasbiy kompetentligi yo'nalishlari va tuzilishi.
5. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati.

Tayanch tushunchalar: kompetentlilik, standart kompetentsiya, asosiy kompetentsiya, yetakchi kompetentsiya, insonning kompetentligi, pedagogning kasbiy kompetentligi, maxsus kasbiy kompetentlik, kompetentlik tushunchasi ya uning mazmun-mohiyati.

Mavzuning qisqacha mazmuni: O'zbekistonda mustaqillik yillarda ta'lif muassasalari pedagog kadrlarining kompetentliligin shakllantirish borasida olib borilayotgan davlat siyosatining mohiyati.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA PEDAGOG KADRLARINING KOMPETENTLILIGINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILAYOTGAN DAVLAT SIYOSATINING MOHIYATI

Mustaqillik yillarda O'zbekiston ta'lif tizimining barcha bo'g'linlari, shu jumladan, ta'lif muassasalari pedagog kadrlarini tayyorlashga qayta tayyorlash tizimini isloh qilish borasida e'tiborga molik ishlar ajmalga oshirildi. Darhaqiqat, doimo yangilikka, o'z kasbiy salohiyatini oshirishga intiladigan, zamon bilan hamnafas bo'lib yashaydigan, xalqaro tajribalardan keng foydalilanidigan, millati, xalqi, jamoasi manfaatlarini har tomonlama muhofaza eta

oladigan kadrlar, shuningdek, rahbar kadrlar jamiyat ravnaqini ta'minlashga qodirdir.

Bugungi globallashuv jarayonida pedagog kadrlar zimmasiga juda katta kompetentsiyaviy talablar qo'yilmoqdaki, ularga javoban kuchli metodologik bilim, katta tajriba, ilmiy-nazariy salohiyat talab etiladi. Bu o'rinda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari quyidagi metodologik manbalarga:

- falsafaning tabiat va jamiyatni bilish qonuniyatlariga;
- milliy va xalqaro qonunchilik asoslariga;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyishlariga;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror, farmoyish, Davlat dasturlari va boshqa huquqiy – me'yoriy hujjatlariga;
- oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining huquqiy-me'yoriy hujjatlariga;
- xalqaro va mamlakatimizning yetakchi olimlarining ta'lim menejmenti borasidagi fundamental qarashlariga hamda hayotdagi ilg'or tajribaga asoslangan holda ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarga asoslanmoq lozim.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning barcha chiqishlaridagi rahbar va pedagog kadrlar kompetentsiyasiga qo'yiladigan talablar uzlusiz ta'lim tizimi muassasalari rahbar va pedagog kadrlari uchun ham dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Jumladan, "Bu borada oliy o'quv yurtlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, ularni zamонавиј талаблар асосида қайта таъвудлашнинг тақомиллаштирилган тизимини юрий этиш мақсадида шу йил қабул қилинган Farmon бу исхларни янги сифат босқичига ко'таришга замин бо'ladi, деб исхонаман". (2015-yil 4-oktabr o'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan, yo'llagan tabrigidan).

Mamlakatimizda xalq manfaatlari, el – yurt farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo'lida rahbar va pedagog kadrlarining malaka talablari

kundan kun takomillashtirilmoqda, davlat taraqqiyotini ta'minlashdagi mas'uliyatini kuchaytirishga e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchi kadrlar salohiyati davr talablari nuqtai nazaridan yangi – yangi komponentlar bilan rivojlanib boradi.

OTM rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasi talablari aynan qaysi manbalarda belgilab berilgan?

Prezentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldag'i «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF – 4947 – sonli Farmoni asosida ishlab chiqilgan va qabul qilingan «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning 1–2. «Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish» hamda «Qonun ustuvorligini ta'minlash va sudhuquq tizimini yanada isloh qilish» yo'nalishlarida olg'a surilgan g'oyalarning mazmun va mohiyati ham rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasi masalasiga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2015-yil 12-iyunda qabul qilingan «Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni oliy o'quv yurtlari professor – o'qituvchilarining kasb darajasi va malakasini muttasil oshirib borish, zamonaviy talablarga muvofiq kompetentsiyasi sifatini tubdan oshirish borasida muhim poydevor bo'ldi.

Farmonda oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirishning quyidagi muhim yo'nalishlari belgilab berilgan:

- oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilarining pedagogik va kasb darajasini muntazam oshirish asosida ularning qonunchilik normalari, nazariy, ilmiy va amaliy tadqiqotlar, texnologik taraqqiyot va o'qitilayotgan fanlar bo'yicha innovatsiyalar, shuningdek, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari sohasidagi so'nggi yutuqlarni chequr o'rganish;

- samarali ta'lif va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha malaka talablari, o'quv rejalar, dastur va uslublarini tubdan yangilash;

- oliy o'quv yurtlari o'qituvchilarining global Internet tarmog'i, multimedya tizimlari va masofadan o'qitish usullaridan foydalangan

holda zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini egallashi va ularni o'quv jarayoniga faol tatbiq etishi malakalarini oshirish;

– oliy o'quv yurtlari pedagog kadrlarining chet tilini amaliy o'zlashtirish darajasini oshirish va undan o'z kasb mahorati, pedagogik va ilmiy faoliyatini muttasil oshirib borishi uchun keng foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015-yil 20-avgustdagи «Oliy ta'lif muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» qabul qilingan 242-sonli qarorida yuqorida qayd etilgan Farmonda belgilangan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka talablari rahbar va pedagog kadrlarining kompetentsiyasi indikatorlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan Davlat ta'lif standartlari (DTS) da esa bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentsiyasini shakllantirishga qo'yiladigan malaka talablari to'liq belgilab berilgan. Bo'lajak mutaxassislarda ushbu malaka talablarini shakllantirish samaradorligi OTM rahbar va pedagog kadrlari kompetentlik darajasiga bog'liqdir. Shuningdek, dunyo miqyosidagi OTM rahbar va pedagoglari kompetentligi malaka talablari xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatlarda ham belgilangan bo'lib, ulardan ijodiy va samarali foydalanish ta'lif menejmentining xalqaro talablar asosida tashkil etilishida muhim rol o'ynaydi.

KOMPETENTLIK TUSHUNCHASI VA UNING MAZMUN-MOHİYATI

«Kompetensiya» lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilidagi "lug'aviy ma'nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo'lgan» kabi ma'nolarni bildiradi. Demak, biror bir sohada kompetentli inson shu soha haqida asosli fikr yuritish va samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi.

Ushbu atamaning turli lug‘atlardagi izohiga ko‘ra, “Kompetensiya (lot. “competo” – erishayapman, munosibman, loyiqman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba” degan ma’nolarni anglatadi.

Kompetentlilik – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish. O‘z sohasining, ishining ustasi bo‘lish, sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish.⁶²

So‘nggi yillarda pedagogika sohasida «kompetentli», «kompetensiya», «kompetentlilik» tushunchalaridan keng foydalanilmoqda. Bu ta’lim mazmunini isloq qilish zarurati bilan uzbek bog‘liq. S.I.Ojegov bu tushunchalarni quyidagicha ifodalaydi:

Kompetentlilik – biror sohani chuqur bilish, ko‘p narsalardan xabardorlik, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha katta e’tiborga moliklik⁶³

Kompetensiya – 1. Biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo‘lgan masalalar doirasi. 2. Biror kishining vazifalari, huquqlari doirasi⁶⁴

Kompetensiya – biror soha bo‘yicha har tomönlama chuqur bilimga ega bo‘lgan va shuning uchun ham fikri salmoqli, ishonchli hisoblangan kishining sifati.

Umuman «kompetensiya» va «kompetentlik» atamalari pedagog olimlar tomonidan bir xilda tälqin etilmaydi.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim amerikalik tilshunos N.Xomskiy (1965-yil, Massachusetts universiteti) tomonidan taklif etilgan «kompetensiya» atamasining umumiy ma’nosida shakllanadi. Yevropa Kengashi dasturi bo‘yicha Bern shahrida bo‘lib o‘tgan simpoziumda (1996-yil) «kompetensiya» tushunchasi «o‘quv», «kompetentlik», «qobiliyat», «mahorat» singari tushunchalar qatoriga kiritilganligi ta’kidlandi. Yevropa davlatlarining ta’lim vazirlari Boloniya deklaratsiyasida (1999-yil) ta’lim islohatlarining konseptual asoslari sifatida kompetentli yondashuvni belgilandi.

⁶² Эльконин Б.Д. “Понятие компетентности с позиции развивающего обучения”. 2002

⁶³ Ожегов. С.И. Словарь русского языка. – М.: Русский язык, 1999. С. 248

⁶⁴ С.И.Ожегов. Словарь русского языка. – М.: Русский язык. 1999. С. 248).

Rus tilidagi «kompetentnost» atamasidagi «most» suffaksi ma'lum sifatni egallash darajasini bildiradi va shu bois, «kompetentlilik» atamasi ma'lum sifatlarni, ularni egallash darajasini belgilash uchun qo'llaniladi.

Shundan, kompetentsiya va kompetenlilik tushunchalari bilim, ko'nikma, malaka tushunchalaridan ko'ra kengroq ma'noni anglatadi. Chunki ular shaxsnинг yo'nalghanligi (motivatsiyasi, qadriyatlarining yo'nalishlari), uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Hozirgi vaqtida «kompetentlik» tushunchasi va uning tarkibiga kiruvchi komponentlar mazmunini aniqlash, faoliyatning turli sohalarida ularni shakllantirish hamda rivojlantirish muammolari bo'yicha juda ko'p tadqiqot materiallari to'plangan. Bu esa, ularni tasniflash muammosini yuzaga keltiradi.

Aleks Mur ko'pqirrali qobiliyat tushunchasiga asos soldi. Ya'ni ko'pqirrali qobiliyatlilik tushunchasi kompetentlik tushunchasiga mos kelib, uning fikricha «... ko'p qirrali qobiliyatlar deganda, turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganilishi tushuniladi⁶⁵

Ko'pqirrali qobiliyat tushunchasining eng ilg'or tarafdarlaridan biri Govard Gardnerdir. (1983,1993). (yana ko'rish mumkin bo'lgan asarlar Armstrong 1994, Xou 1984, 87 – 92 betlar va Bentli 1998).⁶⁶

G.V.Nikitinaning fikricha, kompetentliklar tasnifida bir nechta asoslар mavjud:

- insonning umumiyligi kompetentligi (matematik, kommunikativ, informatsion, ijtimoiy, axloqiy va hokazo);
- faoliyat turlari bo'yicha kompetentlik (mehnat, o'quv, o'yin, kasbiy va boshqalar);
- faoliyat yo'nalgan obyektlar bo'yicha kompetentlik (inson-inson, inson-texnika, inson-tabiat, inson-badiiy timsol va kabiqar);
- ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha kompetentlik, (maishiy, fuqaroviyligi, madaniy va hokazo);
- ijtimoiy bilimlar tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (matematikada, gumanitar fanlarda);

⁶⁵Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore. 146

⁶⁶Teaching and learning: Pedagogy, Curriculum And Culture. Alex Moore.P.147

- ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha kompetentlik (transport, aloqa, mudofaa va boshqalar);
- qobiliyatlar bo'yicha kompetentlik (pedagogika, psixologiya, ijtimoiy, ijodiy, texnik va boshqalar).

Zero, yuqorida qayd etilgan kompetentlik yo'nalishlari shaxs umummadaniy kompetentligining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shuningdek, shaxs kompetentligi mazmuniga ko'rash 3 turga bo'linadi.

Standart kompetentsiya – Bular:

- ushbu faoliyatga oid doimiy va odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati;
- **Asosiy kompetentsiya** – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni bajarish qobiliyati;
- **Yetakchi kompetentsiya** – kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati

Pedagog kasbiy kompetentligining tuzilishi va mazmuni

Pedagogning kasbiy kompetentligi tasnifi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- pedagogning ish sohasi bo'yicha kompetentligi uzliksiz ta'lim tizimini o'z ichiga oladi;
- ixtisoslik bo'yicha kompetentligi – o'qituvchi, tarbiyachi, psixolog, defektolog, kasb ta'limi o'qituvchisi, ishlab chiqarish ustasi;
- pedagogning faoliyati yo'nalgan obyekt bo'yicha kompetentligi – o'quvchilar, Ota-onalar, sind jamoasi, sotsium va boshqalar;
- pedagogning faoliyati turi bo'yicha kompetentligi motivatsion, gnostik, metodologik, metodik, inforhatsion, kommunikativ, refleksiv, prognostik, konstruktiv, tadqiqot, texnologik, korreksion va shu kabilar.

Psixolog olimlar «muhim kompetentsiya»larni shaxsning turli kasbiy uyushmalarda moshlashish va samarali faoliyat ko'rsatish uchun ma'lum ishlarni bajarishda zarur bo'ladigan umumkasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shaxsiy sifatlar va qobiliyatlar sifatida ta'riflaydi. Ular to'rt kichik guruhni alohida ko'satib o'tadi: kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy ahamiyatga ega sifatlar va psixofiziologik xususiyatlar.

Jahon ta'lim amaliyotida quyidagi muhim kompetentsiyalar keltirib o'tiladi:

- turli axborot manbalari, shu jumladan, ta'lim muassasasidan tashqaridagi axborot manbalaridan bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga asoslangan bilish faoliyati sohasidagi kompetentsiyalar;

– ijtimoiy faoliyat sohasidagi kompetentsiyalar (fuqaro, saylovchi, ijtimoiy guruh, jamoa a'zosi rolini bajarish);

– mehnat faoliyati sohasidagi kompetentsiyalar (mehnat bozoridagi holatni tahlil etish va undan foydalanish, o'zining kasbiy imkoniyatlarini, o'zini o'zi uyuştirish ko'nikmalarini baholash va takomillashtirish);

– maishiy sohadagi kompetentsiyalar (oilaviy hayot aspektlarini, salomatlikni saqlash va mustahkamlashni ham qamrab oladi);

– madaniy faoliyat sohasidagi kompetentsiyalar (shaxsnинг ма'naviy va madaniy jihatdan boyishi uchun vaqtidan unumli foydalanish).

Kasbiy kompetentsiyaning shakllanish bosqichlari:



O'zini – o'zi tahlil qilish
va zarur narsalarni
anglash.



O'zini rivojlantirishni
rejalashtirish, maqsad,
vazifa belgilash.



O'zini namoyon etish va
kamchiliklarini tuzatish

Pedagogning kasbiy kompetentsiyasi o'z-o'zidan shakllanmaydi, balki uning shakllantirish bosqichlari mavjud bo'lib, ushbu bosqichlar asosida pedagog kadrlar tarbiyalanadi va shakllanadi. Ular quyidagi bosqichlardan iborat:

- Pedagog kompetensiyasining shakllanish bosqichlari**
- ✓ qobiliyatni aniqlash;
 - ✓ tarbiyalash va shakllantirish;
 - ✓ chiniqtirish (kichik hajmdagi topshiriqlar berish);
 - ✓ ishonch.

OTM pedagog kadrlari o‘z faoliyatlarida ilm-fan, tajriba, qobiliyat va kasbiy mahoratga asoslangan holda O‘z-o‘zini namoyon etishi auditoriyani samarali boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Zamonaviy pedagog kompetensiyasida jarayonni boshqarishning o‘ziga xos vazifalari mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- Loyihalashtirish;
- Tashkillashtirish;
- tahlil qilish;
- nazorat qilish;
- motivatsiya berish.

Yuqorida bayon etilgan pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligi komponentlari pedagogning **yutug‘ini kafolatlaydigan omillar** hisoblanadi.

Pedagog kadrlarning faoliyatini innovatsion boshqarishda uning kasbiy refleksiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Kashbiy refleksiva – o‘zini-o‘zi bilish, tushunish, anglash, boshaarish, nazorat ailibish va baholash demakdir.

O‘z faoliyatini har kuni refleksiya qilish pedagog kompetentsiyasini rivojlanib borishi uchun muhim zamin hisoblanadi.

PEDAGOG KASBIY KOMPETENTLIGI YO‘NALISHLARI

Pedagogik-psixologik tayyorgarlik bo‘yicha: ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; psixodiagnostika usullaridan foydalinish; o‘qitish shakllarida o‘qitish metodlari va vositalardan o‘rinli foydalana olish; ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg‘unligi, uzviyligini ta’minlayish; pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llashning nazariy asoslarini bilish.

Mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati bo‘yicha: seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan didaktik talablarni; didaktik maqsadlar asosida mashg‘ulotning har bir

bosqichi uchun reproduktiv o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish; fanlararo, mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish.

Ta'lism jarayonida tarbiyalashning didaktik omillari bo'yicha: ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish malakasiga ega bo'lish, o'qitish jarayonida talabalar ongiga milliy g'oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini bilishi; talabalarni jamoaga birlashtirish, ularning bo'sh vaqtini mazmuni tashkil etish, bajarilgan ishni baholay olish, oliy ta'limda tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning shakllarini, pedagogik etika me'yorlarini amalda qo'llash.

Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish bo'yicha: talabalarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy – pedagogik zarurati va nazariy asoslarini o'zlashtirish; iqtidorli talabalarni aniqlash diagnostikasi, mustaqil ishlarning tashkiliy va o'quv – metodik ta'minotini yaratish yo'llarini bilish, o'quv materiali mazmuni asosida vosita, metod va shakllarini samarali tanlash va uyg'unlashtira olish.

Talabalar o'zlashtirishi monitoringini amalga oshirishga tayyorlik bo'yicha: talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning zamonaviy usullari; reyting tizimi, nazorat turlari uchun differensiallashtirilgan topshiriqlarini tuza olish; bilish faoliyatidagi tipik kamchiliklar va xatoliklarni aniqlashni o'rganish.

O'zini-o'zi kasbiy rivojlanadirishga tayyorgarlik bo'yicha: ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirish, ularning rivojlanish tarixi, fanda erishilgan yutuqlar, muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lish; darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv – metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali va o'rnida foydalanish.

Mutaxassislik bilim, ko'nikma va malakalari bo'yicha: fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va obyekti, asosiy metodlari, fanga qo'yiladigan asosiy talablar; umumiyluk yuqlama hajmi va uning taqsimoti; fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak mutaxassisga qo'yiladigan umumiyluk malaka talablari; ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarish; fan taraqqiyotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalilaniladigan asosiy adabiyotlar; fan bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasi; fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal uzviyiligi ta'minlanganligi;

fanning taraqqiy etish muammolari va yechimlarini tahlil qilish.

Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchining saviyasiga, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashdagi mahoratiga bog'liq. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab voyaga yetkazishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Shu bois, mamlakatimizning istiqlol yo'lidagi birinchi qadamlaridan oq buyuk madaniyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta'lim tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg'unlashtirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da yuqori malakali o'qituvchi – mutaxassislar tayyorlash masalasi alohida ta'kidlab o'tilgan. Kasbiy tayyorgarlikka zamonaviy talablar umumiy va kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarining yaxlit tizimini, muhim kompetentsiyalarni shakllantirishni taqozo etmoqda. Bular hozirgi zamon ta'lim sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan sanaladi.

«Muhim kompetentsiyalar» tushunchasi chet el olimlari tomonidan taqdim etilgan ko'plab zamonaviy modellar asosida yotadi. «Muhim kompetentsiyalar» insonning egallagan ko'nikma va malakalarini kasbiy faoliyat jarayonida qo'llash, shuningdek, amallarni bajarishning umumlashgan usullaridan foydalanish qobiliyati sifatida talqin etiladi.

Kasbiy kompetentsiya talablari

Axborot
kommunikatsion
texnologiyalarni bilish

Xorijiy tillardan birini
bilishi lozim

Ta'lim muhitiga
yangilik kiritish

O'z fanini mukammal
bilish

O'z ustida ishlash

O'quvchilarda
motivatsiyani
shakllantirish

A.V.Xutorskiy pedagogning quyidagi kompetentsiyalarini tavsiflaydi:

1. Dunyoqarash asnosida, ya'ni qadriyat va o'zini anglash o'qituvchining dunyoqarashi, tasavvuri va qadriyati bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. U atrof-muhitdagi voqeja va hodisalarning mohiyatini ko'ra oladi va tushunadi, bunga o'zini yo'naltiradi, pedagog sifatida fikrini asoslay oladi. Muammo yechimini topa oladi. Bu kompetentsiya o'qituvchining o'quv va boshqa faoliyatlaridagi o'zini o'zi anglash mexanizmini ta'minlaydi.

Shaxsiy kompetentsiya

Bag'rikenglik

Mas'uliyatlichkeit

Moslashuvchanlik

Ishchanlik

**Sog'lim turmush
tarziga amal qilish**

Insonparvarlik

Muloqotchanlik

**Faoliik
va
tahabbuskorlik**

Yetakchilik

Umummadaniy kompetentsiya

Madaniyatli bo‘lish

**Umuminsoniy
qadriyatlarga egalik**

**Milliy madaniyatga ega
bo‘lish**

**Mamlakatning ijtimoiy
hayotida ishtirok etish**

**Boshqa millatiarning
madaniyatini hurmat qilish**

2. Umummadaniy – milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega bo‘lish; mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish; oиласига, урфодатларга hurmat; ijtimoiy ko‘nimalarga ega bo‘lish, ilm-fanning inson hayotiga va dunyo rivojiga ta’sirini anglay olish va o‘quvchi yoshlarga tushuntira olish.

3. O‘quv va bilish jarayoni – o‘qituvchining mustaqil bilish faoliyati, mantiqiy fikrlashi. O‘quv – biluv faoliyatini baholashi, bilim va ko‘nikmalarni tahlil qila olishi.

4. Ma’lumotga ega bo‘lish – pedagogik faoliyat va o‘z faniga doir ma’lumotlarni egallash ko‘nikmasi.

5. Muloqotchanlik – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqotda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. Ijtimoiy – foydali mehnat – oilaviy munosabatlар va mas’uliyat, jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi. Iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

7. O‘z ustida ishlashi – jismoniy, ma’naviy, intellektual jihatdan o‘zini–o‘zi rivojlantirib borish. Hissiyotini boshqarish.

Didaktik kompetentsiya talablari:



*O'quvchilar bilimini
anglash va ularni
rivojlantirish*



*O'quv jarayonini
bosqarish*



*O'quvchilarga
motivatsiya berish va
yordam ko'rsatish*



*Mayzu mazmunini
yoritishni
rejalashirish*



*O'quvchilarning
yutuqlari va
rivojlanishlarini
baholash*



*O'qitish muhitini
yaratish*

Fanlar bo'yicha kompetentsiyaga ega bo'lish

Matematika fani bo'yicha:

- matematik usullar, matematik tilni aniqlash algoritmi;
- mustaqil bilish faoliyati, matematik bilim va uslublarni turli xil manbalarni o'zlashtirish orqali mustahkamlash;
- matematik savodxonligi, matematika fanining ilm-fan olamidagi ahamiyati o'rmini o'quvchilarga yetkaza olishi;
- asoslangan matematik tushuncha va atamalarni o'quvchilarga tushuntirib berish;
- o'quvchilarga turli xil vaziyatlarda (hayotda uchrashi mumkin bo'lgan holatlarda) matematik bilim va ko'nikmalarni qo'llashni o'rgatish.

Fizika fani bo'yicha:

- fizika fani yuzasidan dunyoda tan olingen ilmiy kashfiyotlarni bilish;
- fan bo'yicha tajriba va kuzatish, tajriba ishlari natijalarini tushuntira olish;
- fizika faniga doir asosiy nazariya va tushunchalarni mukammal bilish;
- zamonaliv astronomiya va astrofizika, tabiat hodislarining asosiy g'oyalari bo'yicha tasavvurga ega bo'lish.

Rus tili va adabiyoti bo'yicha:

- psixologik-pedagogik, uslubiy bilimga ega bo'lish;
- nutq tajribasi va muloqotchanlik;
- til vositasi bilan aloqa qilish, nutq orqali ta'sir qilish;

- nutq yordamida muayyan tasayvurlar, fikr va tushunchalar, his – tuyg‘ular hamda turli harakatlar hosil qilish;
- rus tili va adabiyotiga doir amaliy va nazariy bilimlarni muntazam ravishda o‘rganib borish.

Xorijiy tillar bo‘yicha:

- kommunikativ (nutqiy, ijtimoiy – madaniy, tilni chuqur bilish);
- ijodiy pedagogik faoliyatida o‘zi o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakani tahlil va sintez qilish;
- pedagogik faoliyatini muvofiqlashtirish (shaxsiy kompetentsiya – shaxsiy yutuqlarini boshqarish, o‘zini anglash va kasbiy o‘sish);
- nutq madaniyatiga rioya qilish;
- ilmiy, badiiy-nazariy, tarixiy-badiiy bilimlarga va tadqiqotchilik ko‘nikmalariga ega bo‘lish

D.Xaymz kommunikativ kompetentsiyaga quyidagi larni kiritadi:

- lingvistik (til qoidasiga rioya qilish);
- ijtimoiy – lingvistik (nutqni ifodalash qoidasi);
- diskurs (mantiqiy fikrlash ketma – ketligi);
- suhbatdoshni qo‘llab-quvvatlash qoidasi.

Kimyo va biologiya bo‘yicha:

- kimyoviy moddalar va ularning xususiyatni o‘rganish;
- kimyoviy reaksiya va ularning natijalarini oldindan ko‘ra olish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- jamiyat va tabiatning o‘zaro ta’sirini o‘zlashtirish;
- global muammolarning ahamiyati va qarama-qarshiliklarini anglash;
- global muammolar dunyo xalqlari madaniyati, odati va qarashlariga ta’sir qilishini tushunish;
- dunyodagi tinchlik va tabiiy hodisalarga har bir insonning mas’uliyati va qarashlari ta’sirini anglashga o‘rgatish.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentsiyasi:

- jismoniy tarbiyaning nazariy asoslarini o‘zlashtirish;
- jismoniy tarbiya va sportning tarixi, olimpiada yutuqlarini bilish va rivojlantirish;
- texnika xavfsizligi, tibbiy – birinchi yordam qoidalarini bilish.

Ta'lism sifatini o'zgartirishda o'qituvchi kompetentligining roli

- 1. Tashkilotchi ijtimoiy pedagog o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlaydi.**
- 2. Sinf yetakchisi sinfda ijobiy psixologik muhit yaratadi va ta'sir ko'rsatadi.**
- 3. Metodist ta'lism jarayonida o'quvchilarining muammoni yechishlariga yordam beradi va qo'llab – quvvatlaydi.**
- 4. Faylasuf bilim va tajribalarni tahlil qiladi, o'z qarashlarini asoslaydi.**
- 5. Tajribali yaqin do'st o'quvchilar oldidagi to'siq va muammolarni bartaraf etishga yordam beradi.**
- 6. Tadqiqotchi novator yangilik yaratuvchi-muntazam ravishda o'z ustida ishlaydi, yangi g'oyalar yaratadi, tatbiq etadi.**
- 7. O'quv jarayoni rahbari va uni rag'batlantiruvchisi maqsadga yetish vositalari, istiqbolini nazarda tutadi, o'qitish uslublarini tanlaydi, o'quvchilarni o'qishga o'rgatadi, ijodiy yondashadi.**
- 8. O'zaro ta'sir ko'rsatuvchi jamoa bo'lib ishlay oladi va ishlashga o'rgatadi.**
- 9. Maslahatchi shaxsiy namunasini o'rgatadi.**
- 10. Tarbiyachi o'quvchilarga jismonan, aqliy va ma'naviy tomondan rivojlanishlariga yordam beradi.**
- 11. Psixolog o'zini yaxshi biladi va tushunadi.**
- 12. O'zgarishlarga yo'naltiruvchi o'quvchilarining hayotiy ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.**
- 13. Ma'lumotlarni taqsimlovchi o'quvchilarga asosiy yangi ma'lumotlarni yetkazadi va amaliyatga tatbiq etishga o'rgatadi.**


O'qituvchi o'quv jarayonida maslahatchi sifatida quyidagicha faoliyat olib boradi.

- o'quvchilarga ko'nikmalarini o'qish jarayonida rivojlantirishga yordam beradi;
- turli xil yo'nalishdagi reja (strategiya)larni qanday qo'llash kerakligi bo'yicha maslahat beradi;
- faol qayta aloqani ta'minlaydi;
- noan'anaviy usullar bilan o'quvchilarining harakatlarini qo'llaydi va mustahkamlaydi;
- o'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi;
- o'quv faoliyatini individuallashtirishga yordam beradi;

– o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi ehtiyojlarini tahlil qiladi.

O‘qituvchi – yangilik kirituvch

- yangiliklarni, ayniqsa, o‘zga davlatlardan kirib kelayotganlarini farqlaydi va tushunib yetadi;
- yangiliklarni tahlil qila oladi;
- yangiliklarni turli xil vaziyatlarda qo‘llay oladi va kamchiliklarini to‘g‘irlaydi;
- o‘z pedagogik faoliyatida yangiliklardan ijodkorona foydalana olishga layoqatli.



Kasbiy kompetentsiya modeli

«Kreativlik» va «pedagogik kreativlik» tushunchalarning mohiyati.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko‘nikmalas hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi.

**J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni
ko'rsatadi:**

fikr ravnligi

fikrni maqsadga
muvofiq yo'llay olish

qiziquvchanlik

farazlar yaratish

o'ziga xoslik
(originallik)

xayol qila olish,
fantastik
(fantaziya)

Kreativlik o'qituvchilarining zamon bilan hamnafas, ijodkorlik bilan ish olib borishi demakdir. O'qituvchi faoliyati ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Demak, o'qituvchi-pedagogning ijodiy fikrlashini «O'qituvchining kreativ tafakkuri» deb tushunamiz. Kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda boshqaruvning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.

O'qituvchining kreativ tafakkuri

Aqlning
peshqadamligi

Tezlikda qaror
qabul qilish

Tafakkurning
egiluvchanligi

Noan'anaviylik

Qarorlarni qabul
qilishdan
cho'chimaslik

Istiqlolni ko'rish

Nostandard
qarorlar va
yechimlar qabul
qilishdan
cho'chimaslik

Vazifasi va
kasbiga sodiqlik

Prognoz qila olish

Aqlning peshqadamligi – belgilangan muddatda ko‘pchilik o‘ylab ko‘rishga ulgurmaydigan muammolar bo‘yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko‘rsata olish hamda barchasining o‘ziga xos salbiy va ijobjiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir. Tafakkurning egiluvchanligi – jamiyatda qabul qilingan, an’anaviy, aslida to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalishlarni sezish, tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o‘z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo‘nalishlariga o‘zini safarbar eta olishdir.

Prognoz, bashorat qila olish esa o‘z sohasi rivojidagi istiqbol o‘zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan, mehnat unumdorligining ko‘tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o‘zgarishi, bularning sohaga bo‘lgan ta’siri, narxlarning ko‘tarilishi va pasayishi kabilar.

O‘qituvchining kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar va bilimlar asosida tarbiyalash mumkin. Kreativ tafakkur maqsadga yo‘naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma’lum bo‘lmagan va an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo‘l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi. Zamonaviy menejmentda kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma’lum tizim shakllantirilgan. Ularni quyidagicha belgilab ko‘rsatish mumkin:

Analitik tahlil jarayoni – tayyorgarlik, axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish. Mavjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko‘rsatkichlarni taqqoslash.

Konsentratsiya jarayoni – muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma’lum faktlar, ular sistemasi tahlili. Aqliy salohiyat yetishmovchilik jarayonidan o‘tish. Mazkur jarayonni bosib o‘tishga intilish. Ong faolligining dam-badam ko‘tarilishi yoki pasayishi. Insonning muammo tahviliga berilishi, natijada turli yaғgi nostandart g‘oyalarning tug‘ilishi va shakllanishi.

G‘oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g‘oyalalar ong ortiga o‘tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o‘tkaziladi. Shaxsiy senzura yangi g‘oyalarning barchasini axloqiy-ma’naviy va qadriyatlar nuqtai

nazaridan nazoratdan o'tkazadi. So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.

G'oyalar qidirish yo'lidiagi past-balandligi, to'lqinli taraqqiyot jarayoni. G'oyalar tahlilini amalgaga oshirilganda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Shu bois odam birdaniga bir mavzuga, saldan keyin boshqa bir mavzuga o'tib ketadi.

Analiz va sintez – kreativ tafakkur faoliyat natijalarini tahlil qilish jarayoni. Mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiyligidan tahlildan o'tkaziladi. Kreativ tafakkur mehnatinining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi. Mazkur kreativ tafakkurning amal qilish va ish olib borish uslubiyatiga doir qarashlar uning uzoq davom etishini emas, balki qanchalik murakkab jarayon ekanligini, shu bilan birga tezlik bilan amalgaga oshirilishini anglatadi.

Kreativlikni tarbiyalash bo'yicha tavsiyalar

– o'z tafakkuringizni original yechimlar topish va ularni targ'ib qilishga yo'naltiring, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga o'zingizni majburlang;

– boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimang;

– keng mushohada etish, an'anaviy bo'lмаган usullardan foydalanish, tafakkur tarzingiz, milliy mentalitet va stereotiplar qobig'idan chiqib ketishga urining;

– agar birinchi tajribangiz muvaffaqiyatsiz bo'lsa ham, o'z tajribalaringizdan voz kechmang, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettiring, masala yechimining turli variantlarini toping, boshqa yo'llarni qidirishda davom eting;

– diskussiya va bahslarda doimo erkin bo'ling, mulohazaning o'zingizga qaratilganligiga ishonmang, jarayonni to'g'ri tashkil qiling, fikrlaringizni nazorat qilib boring;

– tushunarsiz narsa va hodisalarining mohiyatini^{*} anglashga harakat qiling.

Kreativlikni tarbiyalash mezonlari kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka va shaxs sifatlari majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga

yo‘naltirilgan bo‘lib, rahbar unga o‘zini—o‘z boshqarish xodimlari bilan to‘g‘ri suhbatni tashkil etish natijasida erishishi mumkin.

AMALIY MASHG‘ULOT UCHUN TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

«Insert» texnologiyasi asosida ma’ruza matni bilan tanishib chiqish. Bu texnologiya mavzuni chuqur o‘zlashtirish, bilimlarni solishtirish, eslash va aniqlashtirishni taqozo etadi. Talabalarga tarqatma materiallar tarqatiladi. Matn bilan tanishish uchun vaqt beriladi. Matn chetiga insert belgilari qo‘yib chiqiladi. So‘ngra jadval to‘ldiriladi.

«Insert» jadvali to‘ldiriladi.

V	+	-	?

2-topshiriq

«VENN diagrammasi» grafik organayzeridan foydalanib mavzuni mustahkamlash. Talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismilar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintez) ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradigan grafik organayzer – Venn diagrammasi.



Talabalarga! Pedagogning *shaxsiy*, *umummadaniy*, *kasbiy* kompetentlik komponentlarini «VENN» diagrammasida tahlil qiling!

Bag‘rikenglik
Moslashuvchanlik
Mas’uliyatilik
Sog‘lom turmush
Ishchanlik
Muloqatchanlik
Yetakchilik
Faollik va
tashabbuskorlik
Insonparvarlik

Madaniyatli bo‘lish
Milliy madaniyatga
ega bo‘lish
Mamlakatning
ijtimoiy hayotida
ishtirok etish
Umuminsoniy
qadriyatlarga
egalik Boshqa
millatlarning
madaniyatini
burmat qilishi

Axborot
kommunikatsion va
pedagogik
texnologiyalarni
qo‘llay olish
Ta’lim muhitiga
yangilik kiritish,
innovatsion faoliyatga
shaylik
Xorijiy tillarni bilishi
O‘z ustida ishlash,
malaka oshirish
O‘z fanini mukammal
bilish, akmeologik
darajani egallash.
Ta’limda “keys”,
“loyihaviy” va
“muammoli” ta’lim
texnologiyalarini
qo‘llash malakasiga
ega bo‘lish

3. Mustaqill topshiriq.

Pedagogik «ESSE»

Ushbu kalit so‘zlar ishtirokida ilmiy-pedagogik mazmunda esse yozing!

Pedagog, kasbiy, maxsus, ijtimoiy, kompetentlik, kompetentsiya, ta’limga kompetentli yondoshuv, Boloniya dekloratsiyasi, mahorat, uquv.

1. Assesment topshirig'i.

2.

«Assesment texnologiyasi» – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami. Jami 5 ball.

<p>Test</p> <p>Kompetentlikka yo'naltirilgan ta'lim kim tomonidan fanga kiritilgan?</p> <p>A. Fransuz olimi G. Gardner tomonidan B. Amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan D. G.Ingliz tilshunos olimi Xou tomonidan E. Amerikalik tilshunos Armstrong tomonidan</p> <p>I ball</p> <p>Belgilar Kompetentsiya turlari. Kompetentlilik.</p> <ul style="list-style-type: none"> - maxsus - - <p>I ball</p>	<p>Muammoli vaziyat</p> <p><i>Yangi kelgan rahbar o'zini tanishtirar ekan, «sizlarning ish joyidan tashqaridagi holatingiz meni qiziqtirmaydi, bular meni rahbarlik kompetentlik vakolatlarimga kirmaydi» dedi. Sizningcha rahbarlik kompetentligiga nimalar kiradi? Kompetentlik qanday ma'noni beradi? *</i></p> <p>2 ball</p> <p>Amaliy ko'nikma va malakalar</p> <p>Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda kompetentli yondoshuvning mohiyati</p> <ul style="list-style-type: none"> - - - <p>I ball</p>
--	--

5. Topshiriq. Ushbu krossvordga savollar tuzing.

Index

1	a	u	t	i	2	k	o	m	p	å	t	å	n	s	i	ya
					o											
	3	k	i	m	p	å	t	å	n	t	l	i	k			
					m											
4	u	m	u	m	m	A	d	å	n	i	y					
					u	i										
					i											
	5	k	i	m	6	p	å	t	å	n	s	i	ya			
		a				e										
		t			7	d	i	d	å	r	t	i	k			
8	k	a	s	b	i	y		a								
					v			g								
								î								
								g								
9	i	j	t	i	10	m	î	i	y							
						a		k								
						x										
						s										
						u										
						s										

TA'LIM - TARBIYA JARAYONIDA ILMIY VA UMUMMADANIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH

Reja:

1. Bilim-ilmiy dunyoqarashning asosi.
2. Dunyoqarash mohiyati va uning turlari.
3. O'quvchilar dunyoqarashida yangicha fikrlashni shakllantirish zaruriyati.
4. Dunyoqarash va umummadaniy dunyoqarashning tamoyillari.
5. Dunyoqarashni shakllantirishda madaniyat mezonlari va umummadaniy dunyoqarashning omillari.
6. Axborot texnologiyalari – umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishning samarali vositasi sifatida.
7. Ta'lif va tarbiya jarayonida umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishning ilmiy – nazariy asoslari.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlari bevosita uzlusiz ta'lif tizimi bilan bog'liq. Hozirgi paytda yuqori malakali va madaniyatl, mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'ta muhim, ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilmogda.

Bilim, ma'rifat yaxshi axloq bilan bezanmog'i lozim.

Abu Nasr Farobi

Zamonaviy ta'lif sharoitida bo'lajak mutaxassislarda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar bilan bir qatorda bilimlarni mustaqil egallah va muammoni mustaqil ravishda hal etishda ijodiy yondashish qobiliyatlar ham shakllanishi kerak. Bo'lajak mutaxassislarda ushbu xususiyatlarni shakllantirishda ta'lif oluvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quv – biliш faoliyatini

Ma'lumot bilimlar bilan emas, balki bilganiningni mahorat bilan amalda qo'llash bilan belgilanadi.


A.Disterveg

faollashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lif oluvchilarining o'quv-bilish faoliyatlarini ta'minlovchi va rivojlantiruvchi faol ta'lif metodlarini o'quv jarayoniga joriy etish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ta'lif oluvchilarni mustaqil va ijodiy yondashgan holda muammolarni yechimini izlash, topish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan faol ta'lif metodlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Bilim – bu ta'lif oluvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan zaruratga ko'ra foydalana oladigan dalillar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

Dunyoqarash – insонning cheksiz bilimi. Dunyoning oddiy umumlashtirilgan holda aks ettirilishi emas, balki insонning amaliy qayta o'zlashtirish natijasi sifatidagi bilimlari.

Dunyoqarashning tarixiy turlari



Dunyoqarashning tarixiy turlari (mifologik, diniy, falsafiy)

I. Mifologiya (yunoncha «metos» – «naql, rivoyat», «logos» – «ta'lifot» degani) ibtidoiy ongda vogelikning xayoliy in'ikosidir. Mifologik dunyoqarashda olamning kelib chiqishi, tuzilishi, tabiat va jamiyatning turli hodisa va voqealarni umumlashtirib, xayoliy shakllarda tasvirlanishidir. Masalan, Gomerning «Illiada», hind eposi «Ramayana», o'zbek xalq eposi «Alpomish» va boshqalar.

DUNYOQARASH

Inson o'zini va dunyonni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, hulosa chiqarishi bo'lib, dunyonni inson ongidagi o'ziga hos in'ikosidir.
Insonning o'ziga va uni qurshab turgan borliqqa bo'lgan munosabatlarni ifodalaydigan ko'nikmalari, malaklari, bilimlari hamda dunyonni amaliy va nazariy o'zlashtirish hamdir

2. Diniy dunyoqarash – din, tabiat, jamiyat, inson, uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatni bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqari bo‘lgan, uni yaratgan, insonlarga to‘g‘ri hayot yo‘lini ko‘rsatadigan va o‘rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan qarash, ta’limotdir.

3. Falsafiy dunyoqarash – dunyoni, borliqni ilmiy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizi⁶⁷dir⁶⁷.

1. Dunyoqarashlik funksiyasi – bilimlarning asosiy xususiyati bo‘lib, insonning borliq, materiya, tabiat, jamiyat, inson, inson ongi va tafakkuri, insonni dunyoni bilish haqidagi eng umumiylar qarashlari bilimi bilan qurollantiradigan funksiyasidir.

2. Metodologik funksiyasi – metodologiya sifatida tibbiyot ilmi taraqqiyotining konkret tarixiy sharoitlari bilan qonuniyatli aloqasini tushunishga, ilmiy kashfiyotlar va ularning tabbiq etilishining ijtimoiy qiymatini va umumiylar istiqbolini chuqurroq anglashga yordam beradigan funksiyasidir.

3. Gnoseologik funksiyasi dunyoni bilish asosida uni o‘zgartirish uchun insonni samarali faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Shu bilan birga falsafa amaliy va nazariy masalalarni hal qilishda katta rol o‘ynaydi. Bularning barchasi falsafaning gnoseologik funksiyasida namoyon bo‘ladi.

4. Ijtimoiy funksiyasi. Insonning ijtimoiy tabiatini va mohiyatini ochib berish bilan birga, tabiatga munosabati, jamiyatning tabiat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatib beradi, shuningdek, tabiatga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadigan funksiyadir.

5. Tarbiyaviy funksiya kishining aqliy jihatdan kamol topishida, nazariy tafakkurning qaror topishida, jamiyatning yetuk kishisi bo‘lib yetishishida, yuksak g‘oyaviy, mustahkam e’tiqod ruhida tarbiyalashda, fimmiy dunyoqarashni qaror toptirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dunyoqarash olamni eng umumiylar tarzda tasavvur qilish, idrok etish va biliishdan iboratdir. Shu ma’noda dunyoqarash har qanday

*Dunyoqarash –
insonning tevarak –
atrofini qurshab turgan
voqelik to‘g‘risidagi,
olamning mohiyati,
tuzilishi, o‘zining undagi
o‘rnii haqidagi qarashlar,
tasavvurlar, bilmilar*


⁶⁷ Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma’naviy kamolot. – T.:Mehnat. 2000. 40-43-betlar

ijtimoiy-tarixiy mohiyat kasb etib, kishilarning umri, amaliy faoliyati, hayoti, tabiatga ta'siri va mehnati jarayonida vujudga keladi. Shunday ekan, inson ongingin tabiat va jamiyatga munosabati natijasida qarashlari, e'tiqodi, ideali asosida paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik va xulqini ifodalovchi bilimlar tizimi uning dunyoqarashidir.

Dunyoqarash kundalik faoliyat, dunyoviy, diniy, ilmiy bilimlar, hayotiy kuzatishlar va ijtimoiy tarbiya ta'sirida shakllanadi. Uning shakllanishida his-tuyg'u, aql-drok va tafakkur muhim o'rinni tutadi. Dunyoqarash kishilarning hissiy kechinma va kayfiyatlariga ham bog'liq bo'lib, inson kayfiyatida uning hayot sharoitlari, ijtimoiy ahvoli, milliy xususiyati, madaniy saviyasi, shaxsiy taqdiri, yoshi va boshqalar aks etadi. Dunyoqarash murakkab tuzilmaga ega. Olimlar uni muayyan bilimlar, g'oya va maqsadlar, fan yutuqlariga, diniy tasavvurlar, qadriyatlar, ishonch va e'tiqod, fikr, hissiyot kabi tarkibiy qismalarga ajratadilar.

Buni quyidagi rasmida ko'rish mumkin:

Dunyoqarashning tarkibiy tuzilmasi



Umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda e'tiqod muhim ahamiyatga ega. E'tiqod insonning o'z qarashlari va g'oyalarining to'g'riligiga, orzu-umidlarining asosliligidagi, xatti-harakatlarining umumiyligi maqsad va talablarga mosligiga chuqur ishonchi asosida paydo bo'ladi. U insonning hissiyoti, irodasi va faoliyatini belgilaydi, shaxsni samarali faoliyatga yo'llaydi. Ayniqsa, hissiyot va aql dunyoqarash tarkibida muhim ahamiyatga ega. Madaniy



dunyoqarashda hissiyot emotsional-ruhiy jihatdan muhim bo'lsa, dunyoqarashning aqliy jihat esa dunyonи tushunishdadir.

Hissiyot asosida quvonch, shodlik, zavqlanish, hayotdan va kasb-koridan mammunlik, hayratlanish yoki norozilik, xavotirlanish, asabiylashish, yolg'izlik, zaiflik, ruhiy tushkunlik, g'am-g'ussa, nadomat, Vatani va eng yaqin odamlari

taqdiriga befarq bo'limaslik kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Dunyonи his etish muayyan dunyoqarashning shakllanishiga zamin yaratadi. Har bir kishida hissiyot, fikr, bilim, e'tiqod, intilish, orzu – umid, qadriyatlar dunyoqarash tarkibida birlashib, olamni bir butun, yaxlit holda tasavvur ettiradi. Bilim ma'lum bir kodisa yoki narsani baholashda dunyoqarashga aylanadi. Masalan, kishilarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlari – axloqiy dunyoqarashda; siyosiy, diniy munosabatlari huquqiy va diniy dunyoqarashda; ekologik munosabatlari – ekologik dunyoqarashda; madaniy munosabatlari madaniy dunyoqarashda ifodalananadi.

«Dunyoqarash» tushunchasi o'zlikni anglash, vatanparvarlik va milliy g'urur, tarixiy xotira, ma'naviy barkamollik kabi tuyg'ular bilan uzviylidka shakllana boradi. Shunga ko'ra o'qituvchilar fan asoslarini o'rgatar ekan, doimiy ravishda bilimlarning uzviyligiga rioya etishi kerak.

Jamiyat taraqqiyotida, xususan, barkamol shaxs tarbiyasida madaniyat katta ahamiyat kasb etadi. Chunki madaniyat insonnning iqtidori, salohiyati, qobiliyati va o'zligini namoyon etib, uning bilimlari, ko'nikma va tajribalarini, ma'naviy salohiyatini amaliy faoliyati orqali kamol toptirishda asosiy rol o'ynaydi.

Shunga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: «Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namoyandalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmosg'i kerak», – deb ta'kidlagan edilar.⁶⁸

Haqiqata ham, madaniyat shaxs tarbiyasida muhim o'rinni egallashi dunyo sivilizatsiyasi tajribasida o'zini isbotlagan.

⁶⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat 2008 78 – 80 betlar

Uzluksiz ta'lif tizimida yoshlarning umummadaniy dunyoqarash tarkib topishi va bu jarayon jamiyatning faqat ilg'or qatlami emas, balki butun xalqning madaniy kamoloti – ekologik, iqtisodiy, axborot va ijtimoiy muammolarni hal etishga bog'liqligi hammaga ayon. Axolining umummadaniy saviyasi ishlab chiqarishning ham yuqori sifatiga kafolat beradi. Ayniqsa oliv ta'lifning yuqori darajasi ham bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatiga ta'sir etadi. O'qitishda yoshlarning bilim olishga ishtiyoqini uyg'otish, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lish, ijodiy fikr yuritish, axborot texnologiyalarini qo'llash yo'llarini egallash, ekologik onglilik, jamiyatdagi o'zgarishlarga tayyor turish, global tafakkur va kishilar bilan tolerantlik munosabatida bo'lish kabilalar hozirgi texnologiyalashgan ijtimoiy muhitda oliv ta'lif muassasasi talabalari egallashi lozim bo'lgan talablardir.

Zero, hozirgi mutaxassis o'z faoliyati jarayonida ixtisosligini bir necha marta o'zgartirishga va o'zgarayotgan jamiyatga moslashishiga to'g'ri kelmoqda. Buning barchasi ishlab chiqarishning yangilanib turishi, axborotlarning o'zgarib borishi, mutaxassis tayyorlashda ularni mehnat madaniyatini bilan tanishtirib borish, axborot texnologiyalari bilan ishlashga o'rgatish, ijodiy, ekologik va estetik rivojlanishini takomillashtirishi zarur. Bu borada har bir oliv ta'lif muassasasida ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematikaga oid yoki badiiy-estetik yo'nalishdagi, umuman, barcha o'quv fanlarini o'qitish orqali talabalarni ijodiy, madaniy muhitga kiritish, ularning intellektual qobiliyati va umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirish orqali fuqaro, va yetuk mutaxassis sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

“Madaniyat” tushunchasiga turli faylasuf olimlar turlicha ta'rif berganlar. Lekin ularning barchasi ham uning mazmun-mohiyatini to'g'ri ta'riflaganlar: masalan, **E.Yusupov madaniyat** – bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy va ma'naviy hayoti sohasida yaratgan, o'zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma'naviy boyliklar tizimidir, – deydi va gnoseologik nuqtai nazaridan madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'ladi.

Shunday ekan, madaniyatning o'zi nima? Uning mazmun-mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

Moddiy madaniyat moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi darjasи va ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteri bilan belgilanishi moddiy boyliklarning barchasini qamrab olishi, jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur va foydali bo'lgan mahsulotlar, ularning taqsimlanishi, tarqalishi va hayotda qo'llay bilish muammolari kiradi, deb tushuniladi.

«Ma'naviy madaniyat esa, siyosat, huquqiy va mafkuraviy, axloqiy, badiiy va diniy qarashlar bilan, ikkinchidan, ijtimoiy jarayonlarga rahbarlik qilish va boshqarishning shakl va usullarini ishlab chiqsa bilish, rivojlantirish, ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay bilishni ifodalaydi va moddiy madaniyatning ham asosida ma'naviy madaniyatning yotishi, ularning bir-biri bilan uzviy aloqasiga alohida urg'u beradi». ⁶⁹

«Falsafa» qomusiy lug'atida esa bu tushunchaga («madaniyat» arabcha – madinalik, mohirlik, ta'lim-tarbiya ko'rigan) – tabiat va o'zaro munosabatlarda aks etgan inson faoliyatining o'ziga xos usuli deb ta'rif berilgan. Bu o'rinda biz «inson faoliyatining usuli» degan fikrga qo'shilolmaymiz. Bizningcha, «inson faoliyatining mahsuli» – deyilsa to'g'riroq bo'lar edi. Lekin yuqoridagi ta'rif bilan birga, «Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko'rsatkichi, shu bilan birga insoniyatning o'zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Madaniy muhit qanday bo'lsa, inson ham shunday shakllanadi. Madaniyatning ijodkori, eng avvalo, xalq. Xalq madaniyatida avlodlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklar jamlangan. Ularni o'zlashtirmay, bilmay turib, madaniyatli kishi bo'lib yetishish qiyin», – deyiladi.

Boshqa barcha lug'atlarda va falsafaga doir darsliklarda esa madaniyat («cultura») atamasidan olingan bo'lib, «parvarish qilish, ishlov berish» ma'nosini bildirishi ta'kidlanadi. Mumtoz lotin tilida madaniyat yerni parvarish qilish, ishlov berish ma'nosida ishlatib kelungan. Lekin miloddan avval yashab o'tgan Rim notig'i, mashhur faylasuf Sitseton madaniyat atamasini aqlga ishlov berish ma'nosida ham ishlatganligi keltiriladi.

⁶⁹ Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: Universitet. 1998. 114 bet

Keyinchalik madaniyat tushunchasi bilimdon, ma'rifatli, yuksak tarbiyali insonlarga nisbatan ishlatilgan.

Faylasuf olim J.Tulenov esa «Madaniyat ko'p qirrali va chuqur mazmunga ega tushuncha bo'lib, u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarning majmuidir», – deb ta'rif beradi. J.Tulenov ham moddiy ma'naviyat deganga ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalarini hamda ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni nazarda tutadi⁷⁰.



xalq ma'naviy ijodiyotining barcha turlari kiritiladi.

Ma'lumki, moddiy va ma'naviy madaniyat o'zaro aloqada rivojlanadi. Moddiy boylikning biror turi insonning aql-idroki, tafakkursiz yaratilishi mumkin emas. O'z navbatida inson ongida hech qanday fikr, qarashlar va tushunchalar ham o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Moddiy boylik-tabiiy omillar, tashqi ta'sirlar natijasi mahsuli sifatida paydo bo'ladi.

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» asosida ta'lim tizimi, shu jumladan, oliy ta'lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Ta'lim tizimini yangilash uni texnologiyalashtirish bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda shaxsni tarbiyalash va unga ta'lim berishga yo'naltirilgan faoliyat ta'lim berishni tashkil etishga nisbatan qat'iy va murakkab talablar qo'ymoqda. Zero, hozirgi davrdagi murakkab texnika va texnologiyalar bilan muomala qila oladigan inson tarbiyasiga qo'yiladigan katta ehtiyoj ham ta'lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishni talab etmoqda.

Ma'naviy madaniyatga esa ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, madaniyat muassasalari, maorif, ta'lim-tarbiya, o'rtta, oliy va o'rtta maxsus ta'lim, fan, ommaviy axborot vositalari, san'at,

⁷⁰ Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot. – T.:2000. Nashriyot. 50-51-betlar

Shaxsda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni ham madaniyatga doir axborotlarni qabul qilib olish, ularni tahlil etish, qayta ishlab talabalarga yetkazishda ta'lim-tarbiya texnologiyalarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Talabalarda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismlariga asoslangan holda dastavval ta'lim-tarbiya jarayonining umumiyligi tuziladi, ta'lim-tarbiyanı tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj va maqsad, ta'lim mazmuni, shakl, metod, usullari va vositalari, bu borada o'qituvchi va o'quvchi faoliyati belgilanadi hamda ta'lim natijasi aniqlanadi.

Umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish texnologiyalari ham pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi:

1. Umummadaniy dunyoqarashni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.
2. Uning didaktik hamda tarbiyaviy xarakteri, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tarzda tashkil etishda nazariy va amaliy bilimlarni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

3. Umummadaniy dunyoqarash uning mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

4. Pedagogik texnologiyalar umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

5. Umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish texnologiyasiga va yagona, qat'iy, me'yoriy talablar qo'yilmaydi.

6. Pedagogik texnologiyalar umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Demak, har qanday pedagogik texnologiya, jumladan, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiya ham o'zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bergan holda, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va uslublar, talabalar shaxsi faoliyatni to'g'ri tashkil etish, ular bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va qarashlarni birgalikda hal etish, auditoriyada ijodiy hamkorlik,

ishchanlik muhitini hosil qilishga doir shakl va metodlar bilan qurollangan bo'lishi lozim⁷¹.

Umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) tamoyili talabalarga jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berishni nazarda tutadi. Bugungi kunda o'qituvchining salohiyati va mahoratining yuqori darajada bo'lishigina muammoni hal eta olmaydi. Shu o'rinda zamonaviy fan-texnika imkoniyatlari, kompyuter va multimedya vositalari, shuningdek jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti ham e'tiborga olinadi.

Hozirgi kunda talabalar ongida, yangicha dunyoqarashni tarkib toptirish, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat sohalarida sog'lom fikr yuritishga erishish shu kunning dolzarb muammolaridandir.



Umummadaniy dunyoqarash ham ilmiy dunyoqarash kabi bilimlarning e'tiqodga aylanishida tarkib topadi. Bu esa bilishga oid, axloqiy, estetik voqeahodisalarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga rag'bat

uyg'otish bilan paydo bo'ladi. Shu bilan birga talabalar ijtimoiy-madaniy faoliyatga kirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarurdir. Bu borada «Madaniyatshunoslik» o'quv fani atrof-olam, uning hodisalari, ular o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlari haqida bilim berishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun ham «Madaniyatshunoslik asoslari» o'quv kursi o'rganilganda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish sohalari: ta'lim va tarbiya, fan, din, rasm-rusumlar, odatlar, an'analar, madaniyma'rifiy muassasalar, Yoshlar ittifoqi faoliyati, ommaviy axborot vositalaridan foydalilanadi.

Ta'lim jarayonida «Madaniyatshunoslik asoslari» o'quv fani «madaniyat» tushunchasining falsafiy jihatdan mohiyati,

⁷¹ Aleks Muur. Ta'lim berish va ta'lim olish: pedagogika, ta'lim da'sturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchı nashr. 2012. 93-110-betlar.




madaniyatning moddiy va ma'naviy jihatdan farqi, uning tarkibiy qismlari, madaniy vorislik va uning ko'rinishlari, «madaniy an'analar» tushunchasining mohiyati, madaniy meros va uning tarkibi o'rganilgandan so'ng madaniy rivojlanishning ichki va tashqi omillari, uning ijtimoiy funksiyalari, madaniyat muassasalarining mazmuni, madaniyatning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, madaniyat va sivilizatsiya, shaxsning kamol topishida madaniyatning o'rni va, o'z navbatida, jamiyat madaniyatining rivojlanishida shaxsning roli masalalariga e'tibor beriladi.

Mazkur masalalar o'rganilgandan so'ng talabalar bilan quyidagi muammolar qay darajada o'zlashtirilganliklari ko'rib chiqiladi:

- madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida;
- madaniyatning mohiyati, mazmuni, ijtimoiy vazifalari;
- moddiy madaniyatning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni;
- ma'naviy madaniyatning barkamol shaxsni shakllantirishdagi o'rni;
- madaniy taraqqiyotda ichki va tashqi ta'sirlar;
- madaniy meros va vorislik masalalalari;
- mustaqillik sharoitida madaniy taraqqiyotning asosiy yo'nalishlari;
- madaniyat va qadriyatlar, madaniyat va an'analar, madaniyat va mehnatning o'zaro uyg'unligi;
- jamiyat taraqqiyoti va madaniyat;
- madaniyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar;
- sivilizatsiya va madaniyatning o'zaro aloqadorligi;
- madaniyat sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi;
- madaniyatning tarkibiy qismlari.

Mazkur masalalar umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish modeli (andazasi)ni loyihaflashga yordam berdi va bu quyidagicha tuzildi:

TALABALAR UMUMMADANIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH MODELI



Yuqoridagi model asosida o'quvchilarda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda uning tarkibiy qismlari bo'yicha talabalarga beriladigan bilimlar haqida fikr yuritamiz, chunki «murakkab ijtimoiy tuzilma sifatida madaniyat ilmiy bilimlarni, dunyoqarashni, axloqiy va estetik qadriyatlarni, xulq va huquqiy me'yirlarni, tarixan tarkib topgan urf-odatlar, an'analar, ramziy holatlarni o'z ichiga oladi. Shu asosda madaniyat moddiy va madaniy boyliklarni ko'paytiradi va tarbiya jarayonida muhim ma'naviy rol o'yaydi».

Umummadaniyatning muhim elementlari san'at, moddiy-ma'naviy meros, fan

va boshqalar turli yo'llar bilan o'rganiladi hamda talabalar ongiga yetkaziladi. Umummadaniy dunyoqarashga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'sir qilar ekan, ularning emotsiyonal – hissiy ta'siri estetik ta'sir vazifasini, o'tmishni yaqinlashtirish, ayrim shaxslarning tarixi va psixologiyasini ochib berishga oid vazifani; hayotga bo'lgan munosabati orqali ifodalashga yo'naltirilgan, jamiyatning g'oyaviy hayat jarayoniga kiruvchi mafkuraviy vazifani insonning ma'naviy shakllanishiga aqli, irodasi, hissiyotiga ta'sir etuvchi tarbiyaviy vazifani va nihoyat, ma'naviy boyishiga ta'sir etuvchi kommunikativ vazifani bajaradi.

Umummadaniy dunyoqarash falsafiy dunyoqarashning tarkibiy qismi sifatida quyidagi tamoyillar asosida shakllanadi:

1. Dunyoqarashning ilmiyligi tamoyili. Madaniyatning ta'lim, matbuot, kitobot, radio va televideniye, madaniy – ma'rifiy muassasalar, jamiyatlar, kutubxonalar, kino, teatr, muzeylar, ko'rgazmalar vositasida va fanlarni o'qitish jarayonida umummadaniy ilmiy dunyoqarash shakllanadi.

2. Umummadaniy dunyoqarashning izchilligi tamoyili. Bunda mantiqiy izchillik buzilsa, umummadaniy dunyoqarash ilmiy, aniq, izchil rivojlana olmaydi.

3. Umummadaniy dunyoqarashning tarixiylik tamoyili. Jamiyat tarixida umummadaniy merosning rivojlanishi nazarda tutiladi.



4. Madaniy dunyoqarashning maqsadga muvofiqlik tamoyili. Uning inson manfaatlari, orzu – umidlariga mos kelishi.

5. Madaniy dunyoqarashning universalligi tamoyili. Bunda har qanday dunyoqarash shaklining o‘ziga xosligi nazarda tutiladi.

6. Umummadaniy dunyoqarashda nazariya bilan amaliyotning o‘zaro aloqasi.

7. Didaktik tamoyillarni ta’limning onglilik tamoyillariga qo’llash shart-sharoitlari:

– o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini, mantiqiy fikrlashini me’yorida rivojlantirish, obrazli fikrlashga, ularning shaxsiy tajribasiga tayanish; oldin o‘zlashtirgan bilimlar bilan yangilarining o‘zaro aloqasi; metod va usullarning xilma-xilligi, ularning ma’lum yirik mavzu chegarasida birlashishi;

– didaktik maqsadda mashg‘ulotlar tizimini ishlab chiqish va boshqalar.

Lekin bularning barchasi qator **omillarga** bog‘liq holda amalga oshadi.

1. Talabalar ongiga milliy g‘oyani singdirish tafakkurini yangilash orqali umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Jahon umumbashariy qadriyatları, o‘tmishda madaniyat rivojlanishida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosida kelgusida bajariladigan ishlar ko‘lamini belgilab olish.

3. Turli madaniyat shakllarining o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mustaqil taraqqiyot imkoniyatlaridan foydalanish. Bu borada jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv asosida umumbashariy qadriyatlarni o‘rganish va ta’lim jarayoniga kiritish imkoniyatlarining ortib borishi⁷².

4. Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o‘zgarishlarning madaniyat sohasiga ham ta’siri, mamlakatlararo aloqalarning kengayishi.

5. Davlat siyosatida ma’naviy madaniyatning ustuvor yo‘nalishi kasb etganligininig shaxs umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga ta’siri.

6. Milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg‘usi shakllanishi boy milliy, tarixiy ana’analarga, xalqimizning intellektual merosga hurmatining ortib borishi.

⁷² Aleks Mur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchı nashr. 2012. 178 bet.

Bularning barchasi **umummadaniy** dunyoqarashni shakllantirishda madaniyatning quyidagi yuksalish mezonlariga asoslanish lozimligini belgilaydi:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida yaratilgan ma'naviy qadriyatlar ko'lami va soni, ularning tarqalish darajasi, odamlar tomonidan o'zlashtirilishi.

2. Ma'naviy madaniyatning barcha turlari bir tekis taraqqiy etishi.

3. Madaniy qadriyatlardan bahramand bo'lishda barchaning ishtiroti.

4. Madaniy boyliklarni yaratishda aholining barcha qatlamlari ongli ravishda qatnashishi.

5. Kishilarning madaniy yuksalishiga o'z hissalarini qo'shishlari uchun jamiyatda barcha imkoniyatlarning mavjud bo'lishi.

Yuqoridagi fikrlar asosida **umummadaniy** dunyoqarashni shakllantirishga doir quyidagi **mezonlarni** tushunishimiz mumkin:



- umummadaniyatning mazmun-mohiyatini tushunishi;
- milliy va jahon xalqlarining madaniyatiga hurmat tuyg'usi;
- o'z-o'ziga hurmat;
- tarixiy ongning shakllanganligi;
- men va vandalizm (madaniy boyliklarni g'orat qiluvchilarga qarshi kurashi);
- ma'naviy va moddiy boyliklarga madaniy munosabat;
- taşavvur va fantaziya (men va mif);

- estetika va tarbiya (men va go'zallik);
- axloqiy tarbiyalanganlik (boshqalarning holatini his etish);
- ma'naviyatlilik (men va mening qalbim);
- ekologik madaniyat (atrof – olamga munosabat);
- o'z faoliyatida umummadaniy dunyoqarashni namoyon eta olishi.

Insonni tarbiyalash, unga ta'lim berish har qanday davrda ham asosiy masala bo'lib kelgan. Ajodolarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish, komil shaxs etib tarbiyalash yo'llarini izlaganlar. Hozirgi davrning asosiy talabi – mustahkam va

chuqur bilim, kuchli iroda, g'oyaviy immunitetga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash va ularning dunyoqarashini shakllantirish.

Shunga ko'ra, noan'anaviy ta'lim o'quvchilarni kasbga qiziqtiruvchi, bilim doiralarini kengaytiruvchi, hozirjavoblik xususiyatlarini tarbiyalovchi, faollashtiruvchi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi kabi didaktik funksiyalarni bajaradi.

Tajribalarda ta'kidlaganidek, agar mashg'ulot odatdag'i tinglab o'tirishga asoslangan usulda o'tkazilganda talabalar axborotning ko'pi bilan 20% ni o'zlashtirgan bo'lsa, ilg'or pedagogik usullardan foydalaniyganda esa, bu ko'rsatkich 80-90% gacha oshganligi tasdiqlangan.

Noan'anaviy ta'limning samaradorligi yana shundan iboratki, uning qatnashchilari yaxlit tizimli bilimga ega bo'ladi va bo'lajak kasbiy faoliyatiga oid boshlang'ich ko'nikmalar shakllantirilib, o'quv tarbiyaviy jarayonining amaliyot bilan bevosita bog'lab olib borilishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham, u rivojlantiruvchi o'qitishning

yuqori samarali usullari dan biri hisoblanadi.

Turli g'oya va masfkuralar kurashi kuchaygan bugungi tezkor axborot asrida yoshlar tarbiyasiga bo'lgan salgina befarqlik katta xatolarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, «ommaviy

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonalardan taqdir (orzu) qilib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan va vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonni sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'lur.

(A.Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» kitobidan).

madaniyat» deb ataluvchi salbiy kuchlar butun dunyoga axborot oqimi orqali raxna solib turgan davrda unib o'sayotgan yoshlar ta'limtarbiyasiga e'tibor va mas'uliyatni oshirish juda muhimdir.

«Ana shunday vaziyatda, – ta'kidlagan edi Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov, – odam o'z mustaqil fikriga, insonlar sinovidan o'tgan hayotiy, milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhoniy ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol». Shuni aytib o'tish joizki, globallashuv kuchayishi bilan birga hozirgi davrning yana bir muhim xususiyatlaridan biri – axborot jamiyatning shakllanishidir. Bu jamiyatda axborot asosiy qadriyatga aylangan. Axborot asrinining

muhim ko'rsatkichlaridan biri – davlat va jamiyatning barcha bo'g'inlari uchun axborot bilan almashish birinchi hayotiy zaruratga aylanishi.

Ta'limgiziga yangi pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiradi. Ta'limgiz-jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bir qancha qulayliklar yaratiladi. Shu narsani e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, ayni paytda, axborot olish ko'lami har qachongidan ham kengroq bo'lib, yetarli darajada ortib bormoqda. Demak, yurtimizda fan – texnika rivojlangani sayin axborot olish imkoniyati ham oshib boradi. O'quvchilarga ma'lumotlarni talab doirasida yetkazib berishda, fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanish zarur. Yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashda, yangi axborot texnologiyalaridan o'z vaqtida va unumli foydalanishning istiqbolli tomonlari ko'zga tashlanmoqda. Ta'limgizda olib borilayotgan islohotlar yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan.

Ammo, ta'limgiz jarayonida, an'anaviy tizimdan voz kechmaslik, pedagogik texnologiyalardan foydalanmaslik, darslarни ijodkorlik bilan uyuştirmaslik kabi, holatlar ham ko'zga tashlanadiki, oqibatda, o'quvchilar faol subyektga emas, balki sust obyektga aylanib qolmoqda. Buning natijasida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, dunyoqarashning boyib borishi, mavzularni to'liq idrok etish imkoniyati cheklanib qolmoqda. Ta'limgizning bar'cha bo'g'inlarida olib borilayotgan tub islohotlar, asosan, yuqori malakali, zamon talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashga bo'lgan talabni, ehtiyojni qondirishga qaratilgan.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchilar o'z faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan o'zgalar yordamisiz erkin foydalana olishlari lozim. Jumladan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan malakali mutaxassis sifatida foydalana olishlari uchun shu yo'nalish bo'yicha muayyan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarida innovatsion texnologiyalar yordamida milliy – ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, zamonaviy pedagogik texnologiyadan yangi axborot texnologiyalari bir qancha afzalliklarga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish orqali o'quvchilarda ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan qiziqish, ularni

e'zozlash fazilatlari shakllanadi. AKT bilan ishslash jarayonida ma'naviyatimizga yot «ommaviy madaniyat»ga xos bo'lgan axborotlarga qarshi kurashish uchun yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Buning uchun bo'lajak o'qituvchilar:

- o'quvchilarda milliy qadriyatlarga sodiqlik fazilatlarini shakllantirishi;
- milliy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etuvchi sayt materiallaridan ta'lim jarayonida unumli foydalana olishlari;
- milliy-ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etishda yangi AKT loyihalarini tayyorlash.

Bu, o'z navbatida, ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi. Ta'lim tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalari imkoniyatlarini tatbiq etish ijobiyl natija beradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida odamzot uchun hamma zamonlarda ham eng buyuk boylik bo'lib kelgan ma'naviyatning ma'no-mazmuni, uning inson va jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati, bu murakkab va serqirra tushunchaning nazariy va amaliy tomonlari har tomonlama keng qamrovli fikr va xulosalar orqali tahlil etiladi. Ayni paytda mustaqillik yillarda yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar, bu borada oldimizda turgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Shuningdek, jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga erishish hamda komil insonni tarbiyalash pedagog xodimlarning faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglashimiz lozim deb ta'kidlanadi⁷³.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish yoshlarning har tomonlama erkin fikrlashiga, ijodiy yondashuviga, dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishiga sharoit yaratadi.

Har bir kishining dunyoga nisbatan o'z qarashi, o'zi va o'zgalar, hayot va olam to'g'risidagi tasavvurlari, xulosalari bo'ladi. Ana shu

⁷³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. 86 bet

tasavvurlar, tushunchalar, qarash va xulosalar muayyan kishining boshqa odamlarga munosabati va kundalik faoliyatining mazmunini belgilaydi.

Dunyoqarash – insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olam haqidagi turli qarashlarining majmui, shaxsning barcha bilimlar tizimi. Shu ma’noda dunyoqarash turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, individual dunyoqarash, ijtimoiy dunyoqarash, milliy dunyoqarash, umummadaniy dunyoqarash.

Hozirgi kunda biz e’tibor berishimiz kerak bo‘lgan va kundankunga bir qancha munozaralarga sabab bo‘layotgan mavzu bu – umummadaniy dunyoqarash va uni bo‘lajak pedagoglarda shakllantirishning mexanizmlaridir. Umummadaniy dunyoqarash pedagogika sohasida o‘zining ahamiyatiga ega tushuncha. Chunki aynan umummadaniy dunyoqarash pedagogik mahorat, pedagogik malakani tashkil etuvchi muhim komponentlardan hisoblanadi. Zero taraqqiyot asrida yashar ekan, har bir pedagog faqat o‘z kasbining ustasi bo‘lib xalqining buyuk madaniy merosi haqida bilishi qatorida o‘zga millatlar madaniyati, tili, dini, san’ati, moddiy va ma’naviy meros haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi va ularga nisbatan hurmat bilan qarashi umummadaniy dunyoqarashning asosiy komponentlarini tashkil etadi.

Jahon ta’lim taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyoti shu jarayonda joriy etilgan ta’lim tizimining rivoji va takomillashuvi bilan chambarchas bog‘liqidir⁷⁴.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek: «Aslida ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi yo‘q. Toki hayot davom etar ekan, ta’lim ham, tarbiya ham zamon o‘rtaga qo‘yayotgan yangi-yangi talablarga ko‘ra mustaqil ravishda o‘zgarib – yangilanib boraveradi». ⁷⁵

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlarning markazida esa o‘qituvchi turadi. Qadimdan yunonlar juda ajoyib iborani qo‘llaydilar: «Talaba – to‘ldirilib turilishi kerak bo‘lgan idish emas, balki yoqib turilishi lozim bo‘lgan mash’adir». Bu fikrning tagida chuqur ma’no bor. Zero, o‘qituvchi yetarli bilimgagina ega bo‘lib qolmasdan, darsni qay tarzda tashkil etish usullarini ham mukammal bilishi kerak. Ta’lim jarayonining bugungi kundagi asosiy talablaridan biri erkin

⁷⁴ Aleks Muur. Ta’lim berish va ta’lim olish: pedagogika, ta’lim dasturi va tarbiya. Rutledj. Ikkinchı naschr. 2012. 51 – 53 betlar.

⁷⁵ Karimov I. A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari –T.: O‘zbekiston, 1998. 62 bet.

fikrlovchi, mustaqil tafakkurga va dunyoqarashga ega bo'lgan, shaxsni shakllantirish Umumstandart talablariga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur bo'lgan masala shuki, bo'lajak xorijiy tillar o'qituvchilarida umummadaniy dunyoqarash mukammal shakllantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridaagi fikrga ko'ra talaba yoqib turilishi lozim bo'lgan mash'ala bo'lsa, uni hozirgi innovatsion texnologiyalar rivojlangan asrda dars jarayoniga qiziqtirish biroz qiyinroq masalaga aylanmoqda. Bugun biz ta'lim-tarbiya berayotgan talabalar – bo'lajak o'qituvchilar ertaga bolaga, shaxsga ta'lim-tarbiya beradilar. Ular maktablarda, akademik – litseylar va kasb-hunar kollejlarida pedagog sifatida faoliyat ko'rsatadilar. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim muammolari oldiga mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasini qo'ygan.

Tafakkurni rivojlantirish uchun yodlashdan ko'ra, ko'proq mulohaza yuritish zarur.

R.Dekart

Ularni darsga qiziqtirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayonida esa o'qituvchi o'zida shakllantirilgan umummadaniy

dunyoqarashdan asosli foydalana oladi. Masalan, biror xorijiy tilni o'rgatayotganda o'qituvchi turli qoidalar, materiallardan mohirona foydalanishi mumkin, ammo ba'zan bolada bu tilni o'zlashtirishga qiziqish uyg'onmaydi. Bunday hollarda aksariyat o'qituvchilarda muammoli vaziyat tug'iladi. Lekin mahoratli o'qituvchi bu darsni tashkil etishning yangi usulini o'ylab topadi. Albatta, bu dars o'qituvchining umummadaniy dunyoqarashi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xususan, o'qituvchi mavzuni tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, uning urf – odatlari asosida tushuntiradi. Natijada bu dars o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham samarali bo'ladi. Albatta, bunday usuldag'i darsni tashkil etish pedagogdan izlanish va mehnat talab etadi. Buning uchun o'qituvchida umummadaniyat tushunchasi, umummadaniy dunyoqarash yuksak darajada shakllangan bo'lishi kerak. Zero, o'qituvchidan faqatgina umummadaniyatdan xabardor bo'lish emas, balki umummadaniy dunyoqarashni o'quvehilarda ham to'g'ri yo'nalishda shakllantira olish malakasi talab etiladi. Shu sababli oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishidagi bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarida umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishga hozirdan e'tibor berilmoqda. Oliy o'quv yurtlarida

madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati kabi fanning o'qitilishi bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish maqsadini amalgaloshiradi.

Demokratik jamiyatda har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasini past bo'lishi muqarrar.

Albatta, bilim kerak, ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik. Hozirgi zamон o'quv mussasalarining vazifasi yosh avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Mustaqil fikrlashni o'rgatish oila, bog'cha, maktab, akademik-litsey va kasb-hunar kollejlariagi ta'lim-tarbiya beruvchi shaxslarning zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, bu maktab o'qituvchilaridan katta mehnatni talab etadi. Shu sababdan har bir pedagog o'z ustida tinmay izlanishi va mahoratni ishga solishi kerak.

Xulosa qilib aytish kerakki, yosh avlodga zamонавиy bilim berish, kasb-hunar o'rgatish, iqtidori, qobiliyati va intellektual salohiyatini o'stirish uchun zarur bo'lган barcha imkoniyatlarni yaratish, umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ezgu fazilatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash masalasi doimo e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining taraqqiy etgan mamalakatlar qatoridan munosib o'rин egallashi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish uchun fuqarolarning, ayniqsa, ziyorilarning ma'naviy salohiyati, o'zgarishlarni to'g'ri talqin qilishlari va bu jarayonlarni, boshqara olishlari hamda ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob bera olishlari uchun o'quv maskanlarida sifatli kadrlarni yetkazib berish masalasi hozirda dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi davrda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari XX asrning oxiri XXI asrning boshlarida butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, mustaqil hayotga kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratib berdi. Ayniqsa, fan va texnikaning ilg'or yutuqlari, zamонавиy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet tizimi turli davlatlar va mintaqalar o'rtasidagi chegaralarini ochib berib, o'zaro hamkorlik va integratsiya rivojiga katta hissa qo'shayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Lekin insoniyat tafakkurining yuksak va yorqin ifodasi bo'lган bunday yutuqlar ayni paytda ayrim siyosiy kuchlarning g'arazli niyatlarini oshirishda maskuraviy qurol sifatida ishlatilayotganini ham

e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bunday mafkuralarning ko'proq yoshlarga ma'naviy tahdid o'tkazishga, ularning ongini zaharlashga qaratilgan turli xil g'oyalari, albatta, insonni tashvishlantirmay qolmaydi. Chunki yoshlarning hali shakllanib ulgurmagan umummadaniy dunyoqarashini bunday siyosiy kuchlar o'zlarining g'arazli mafkuralari bilan to'ldiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti muhtaram Islom Abdug'anievich Karimov «Kelajak yoshlар qо'lida,» – deb bejiz aytmagan albatta. Chunki davlatning ertasi qanday bo'lishi bugungi yoshlarga bog'liq. Shunday ekan, yoshlар masalasi barcha davrda ham dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi. Chunki oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar ertaga mutaxassis kadrlar bo'lib yetishishadi. Shu boisdan mavzuni «ommaviy madaniyat» tushunchasini yoritishdan boshlamoqchimiz.

Bugun «o'rgimchak to'ri» bilan bog'liq iste'molga kirib kelgan va tez-tez tilga olinayotgan «ommaviy madaniyat» yoki «olomon madaniyati» so'z birikmalarining lug'aviy ma'nosiga e'tibor bersak, undagi «madaniyat» so'zi asli «taraqqiyot, sivilizatsiya» kabi ma'nolarni anglatadi. Shu o'rinda, «ommaviy madaniyat» tushunchasiga nisbatan salbiy qarashlar boisi nimada ekanligini tushunib yetish lozim. «Ommaviy madaniyat» G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandи. U G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda «pop-kultura» (ya'ni, «ommaviy madaniyat») deb ataladi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida tub mazmun-ma'nosiga, maqsadiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam ma'naviyatning kushandasidir.

Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «pop» (ommaviy) madaniyat tushunchasi nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki «ommaviy madaniyat» aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlikning sinonimidir. Tabiiyki, «ommaviy madaniyat» degan niqob ostida zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarni tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadryatlari, turmush tarzinинг ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni yo'q qilishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Albatta, xalqimiz, jumladan, yosh avlod zamonaliv fan texnika, xorij madaniyati, adabiyoti va san'atining ilg'or jihatlarini inkor

etmaydi. Biroq G'arbdagi taraqqiyat parvar ziyolilaring o'zi «G'arb muammosi» sifatida baholayotgan «ommaviy madaniyat»ning ma'naviy-axloqiy tubanliklarini yoshlarmiz qancha tez anglasa, jamiyat uchun shuncha foyda bo'ladi. Shu boisdan, mustaqillikning dastlabki yillardanoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan jamiyat rivojlanishining quyidagi ma'naviy-axloqiy negizlari aniq belgilab berdilar:

- umuminsoniy qadryatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik⁷⁶.

Haqiqatan ham, bunday tamoyillar negizida yoshlarmiz ma'naviyatini mustahkamlash va umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga zamin yaratgan bo'lamiz. Yuqoridaqilarga qo'shimcha holda yoshlarning umummadaniy dunyoqarashi shakllanishida bir qator pedagogik shart-shareitlarni ham sanashimiz mumkin:

- yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash;
- komil inson tarbiyasida tarbiyani ta'lim bilan, ta'limni tarbiya bilan uyg'unlikda olib borish;
- ta'lim jarayonida yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga shart-sharoitlar yaratish;
- vatanparvarlik tuyg'ulari asosida ta'lim berish. Fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik davlatda har qanday fikr va qiziqishga hurmat bilan qaraladi. Ammo xatarli qiziqish hamda maylardan davlat va jamiyat o'zini himoya qilishi lozim. Dunyoqarash tarbiyasi imkoniyatlarini rivojlantirishimiz uchun «ogohlilik» iborasi ma'nolarini ancha keng miqyosda tushunishimizga to'g'ri keladi. Ya'ni, ogohlilik xalqimiz, ayniqsa, yoshlar dilini, ruhiyatini, aql-idroki va ma'naviyatini diniy aqidaparastlik, jaholatparastlikdan tashqari, jahonda yuz berayotgan siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va estetik manfaatlar yo'nalişidagi kurashlarning xatarli jihatlari, jumladan, «ommaviy madaniyat» ning yemiruvchi ta'siridan muhofaza qilishni o'z ichiga oladi. Zero, globallashuv jarayoni, zamonaliv kommunikatsiya

⁷⁶ "Axborot tehnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish to'grisida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Xalq so'zi gazetasi, 2005-yil, 3-iyun.

tarmoqlarining jadal rivojlanishi, madaniyatlararo, insonlararo muloqot kengayib borayotgan bir pallada Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy-madaniy merosni asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga bekamu ko'st yetkazib berish, yoshlarimizni aqlii, dono, baxtli va barkamol etib tarbiyalashda g'oyatda muhim va ahamiyatlidir⁷⁷

Mavzu yuzasidan savollar

- 1. Bilim – ilmiy dunyoqarashning asosi.**
- 2. Dunyoqarash mohiyati va uning turlari.**
- 3. O'quvchilar dunyoqarashida yangicha fikrlashni shakllantirish zaruriyati.**
- 4. Dunyoqarashning tarkibiy tuzilmasi.**
- 5. Dunyoqarash va umummadaniy dunyoqarashning tamoyillari.**
- 6. Dunyoqarashni shakllantirishda madaniyat mezonlari va umummadaniy dunyoqarashning omillari.**
- 7. Umummadaniyatning muhim elementlari**
- 8. Umummadaniy dunyoqarashni shakllantirishda madaniyatning qaysi mezonlariga asoslanish lozim?**
- 9. Axborot texnologiyalari umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishning samarali vositasi sifatida.**

⁷⁷ "Axborot texnologiyalari sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish to'grisida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xalq so'zi, 2005-yil, 3-iyun.

Mustaqil ta'lif mavzulari:

- 1. Ta'lif va tarbiya jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.*
- 2. Ta'lif va tarbiya jarayonida umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish.*
- 3. Bilim – ilmiy dunyoqarashning asosi.*
- 4. Dunyoqarash mohiyati va uning turlari.*
- 5. O'quvchilar dunyoqarashida yangicha fikrlashni shakllantirish zaruriyati.*
- 6. Dunyoqarash va umummadaniy dunyoqarashning tamoyillari.*
- 7. Dunyoqarashni shakllantirishda madaniyat mezonlari va umummadaniy dunyoqarashning omillari.*
- 8. Axborot texnologiyalari – umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishning samarali yositosi sifatida.*

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1. «Ta'lif-tarbiya jarayonida mustaqil fikrlash va ilmiy dunyoqarashni shakllantirish» mavzusida referat tayyorlang.
2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi, uning vazifalari. Dunyoqarashni tarbiyalashning maqsad va vazifalari. Tarbiyaga kompleks yondoshish haqida gapirib bering.
3. Dunyoqarashning shakllanganlik mezonlari. Fuqarolik asosiy komponentlari tarbiyasining funksiyalari va vazifalari. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni o'rGANING.
4. Ma'naviy qadriyatlar va shaxs o'zligini anglashning paydo bo'lishi. Axloqiy his-tuyg'ular, ong, fikrlash, iroda, xulq. Ekologik ong. Ekologik tarbiyaning vazifalari to'g'risida gapirishga tayyorlaning.
5. Mehnat tarbiyasining yetakchi vazifalari. Estetik tarbiya – o'quvchilar dunyoqarashining bir qismi sifatida. Jismoniy tarbiyaning asosiy tarkibiy qismlari to'g'risida konspekt qiling.

TA'LIM – TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA PEDAGOGIK KORREKSIYA

Reja:

1. Pedagogik diagnostika va pedagogik correksiya ta'limning ajralmas qismi sifatida.
2. Korreksion pedagogikaning nazariy asoslari.
3. Korreksion pedagogika sohalari
 - a) aqliy va psixik rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilarni correksion o'qitish.
 - b) nutqida nuqson bo'lgan o'quvchilarni correksion o'qitish;
 - c) eshitish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni correksion o'qitish;
 - d) ko'rish qobiliyati buzilgan o'quvchilarni correksion o'qitish;
 - e) tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarni correksion o'qitish.
4. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning Glen Doman, Valdorf va Montessori usullari.

Tayanch tushunchalar: pedagogik diagnostika, tarkibiy diagnostika, tuzilmaviy diagnostika, tizimli diagnostika, correksiya, kompensatsiya, ijtimoiy reabilitatsiya, ijtimoiy adaptatsiya, oilaviy tarbiya, reabilitatsiya.

Mavzuning qisqacha mazmuni: ta'lim tizimi oldida* ta'lim va tarbiya jarayonida har bir bolaning barkamol o'sishini ta'minlashdek muhim va mas'uliyatli vazifa turadi. Maktab pedagoglar jamoasi bu murakkab vazifani bajarar ekan, ba'zan ayrim bolalarning o'qishida qiyinchiliklari borligini ko'radi. Bular ta'lim-tarbiyadagi bo'shliqlar natijasida paydo bo'ladi.

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA PEDAGOGIK KORREKSIYA – TA'LIMNING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Korreksion pedagogika turli kategoriyali anomal bolalarni mutaxassislar yordamida maxsus ta'lim dasturiga muvofiq rivojlanadirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlarini ishlab chiqish, ularni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'rghanish hamda kamol toptirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayondir.

Diagnostika – grekcha so'zdan olingan bo'lib (dia – «orasidagi, orqali», gnosis – «bilim» degan ma'nolarni ifodalaydi), ilmiy bilish va alohida olingan individning anglash jarayoni o'rtasidagi o'ziga xos ongli faoliyatdir (N.K. Golubev, B.P. Bitinas).

Pedagogik diagnostika

o'quvchining o'zlashtirishi,
o'qishidagi qiyinchiliklar va bunga
ta'sir qilayotgan ijtimoiy, oilaviy
omillarni o'rghanishga
yo'naltirilgandir. Diagnostika
natijalari esa ta'lim-tarbiya jarayonini
to'g'ri rejalahtirish, yo'l qo'yilgan
xatolarni tuzatish, psixologik-
pedagogik profilaktika ishlarini
to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi.

orqali, gnosis – «bilim» degan ma'nolarni ifodalaydi), ilmiy bilish va alohida olingan individning anglash jarayoni o'rtasidagi o'ziga xos ongli faoliyatdir (N.K. Golubev, B.P. Bitinas).

Pedagogik

diagnostika (tashxislash) esa – nazorat qilish va baholash usullarining jamlanmasi bo'lib, bu

ta'lim jarayonini optimallashtirish, ta'lim oluvchilarga differensial yondashish hamda ta'limiy dasturlar va pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini takomillashtirish orqali namoyon bo'ladi. **Pedagogik diagnostikaning maqsadi** o'quv jarayonida kechadigan barcha jihatlarni uning mahsuli bilan bog'liq holda, o'z vaqtida aniqlash, baholash va tahlil qilishdan iborat.

Pedagogik diagnostikaning vazifalari:

- shaxsga yo'naltifilgan yondashuvni amalga oshirishni ta'minlash;
- o'qituvchining professional diagnostikasi natijalarini to'g'ri belgilab olish;
- pedagogik xatoliklarga yo'l qo'yishni minimal darajaga tushirish;
- o'quvchining qo'shimcha izlanishi uchun turtki berish;
- bola shaxsining samarali rivojlanish sharoitlarini belgilash;

- pedagog faoliyatini baholash (ya'ni, professional mahoratiga baho berish).

Pedagogik diagnostikaning vazifalari (N.K. Golubev va B.P. Bitinas bo'yicha)

Qaytar aloqa	Pedagog o'z faoliyatini nazorat qilmay turib, o'quvchi shaxsining shakllanishiga ta'sir ko'rsata olmaydi.
Baholash	Pedagogik faoliyatning natijasini baholash erishilgan natijalarни mavjud etalon, mezonlar bilan solishtirish orqali ro'y beradi.
Tarblyaviy	Ta'lim oluvchilarining munosabatlari, qadriyatlari, motivatsiyasini rag'batlantirish va muayyan faoliyatni bajarishga ongli ravishda yo'naltirishda namoyon bo'ladi.
Kommunikativ	Ta'lim jarayoni ishtirokchilarining individual - tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxslararo munosabatlarga kirishish malakalarini shakllantiradi.
Konstruktiv	Ta'lim jarayonini tashkil etishga o'zgartirish kiritish va korreksiyalashga xizmat qiladi.
Informatsion	Ta'lim jarayoni ishtirokchilarimi pedagogik diagnostika natijalariga oid ma'lumotlar bilan qurollantiradi.
Prognozlash	Pedagogik rivojlanishning istiqbollarini bashoratlash imkonini beradi.

Pedagogik diagnostikaning darajalari:

1-daraja: qismli diagnostika	Yaxlit obyektning alohida qismlarini o'rganib, ularning xossalarni tadqiq etish qismli diagnostikaga misol bo'la oladi, biroq u to'liq tasavvurlar hosil qilmaydi va samarasini kamroq hisoblanadi.
2-daraja: tuzilmaviy diagnostika	Diagnostikaning mazkur darajasida jarayonning tuzilmaviy holati tadqiq etiladi, alohida komponentlar o'rtaqidagi aloqadorlik, ularning bir-biriga bog'liqlik darajasi o'rganiladi. Ta'lim jarayonining alohida komponentlari orasidagi

	aloqadorlikka oid gipotezalar ilgari suriladi. Diagnostikaning bu darajasi amaliyotga tatbiq etishga yaqindir.
3-daraja: tizimli diagnostika	Mazkur diagnostika yaxlit pedagogik jarayonni baholash imkonini beradi. Diagnostikaning mazkur darajasi qisman tugallangan bo'lib, unda alohida komponentlar va tuzilmalar orasidagi aloqadorlikning yaxlit surati paydo bo'ladi.

Pedagogik diagnostikaning bosqichlari (I.Yu.Gutnig be'yicha)

1. Pedagogik diagnostikaning predmeti, maqsadi va vazifalarini belgilab olish;
2. Kutilayotgan pedagogik diagnoslashni rejalashtirish;
3. Diagnostika vositalarini tanlash (mezon, daraja, metodlar);
4. Diagnostika qilinuvchi obyekt haqidagi ma'lumotlarni to'plash;
5. Diagnostika qilish natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni saralash, tahlil qilish va tizimlashtirish;
6. Tahlil natijasida qo'lga kiritilgan ishonchli ma'lumotlar asosida diagnostika obyektining qismlarini sintez qilib, yangi birlklarga biriktirish;
7. Obyektning keyingi rivojlanish istiqbollarini prognozlash va pedagogik diagnostikani asoslash, baholash;
8. Pedagogik diagnostika natijalarini amaliyotga tatbiq etish, pedagogik jarayonni korreksiyalash⁷⁸.

KORREKSION PEDAGOGIKANING NAZARIY ASOSLARI

Korreksion pedagogikaning predmeti, vazifalari va mohiyati. Rivojlanishida turli nuqson (kamchilik)lari bo'lgan o'quvchilarni korreksion o'qitish va tarbiyalash bilan korreksion pedagogika (defektologiya) shug'ullanadi. Korreksion (maxsus) pedagogika (defektologiya –yunoncha «defectus» – nuqson, kamchilik, «logos» – fan, ta'lilot.) – rivojlanishda jismony yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga asoslangan, salomatlik imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi hamda

⁷⁸Шаршакова Л.Б. Педагогическая диагностика образовательного процесса. Методическое пособие для педагогов дополнительного образования — СПб.: ГБОУ ДОД Дворец детского (юношеского) творчества «У Вознесенского моста», 2013 С. 6-16

shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Pedagogik lug'atda «korreksiya» so'zining (yunoncha «korrektio»

– tuzatish) pedagogik uslub va tadbirlardan iborat maxsus tizim yordamida anomal bolalarning psixik va jismoniy rivojlanish kamchiliklarini tuzatish (qisman yoki to'liq) sifatida tushunilishi ta'kidlab o'tiladi. «Korreksion pedagogika»ning jismoniy yoki psixik kamchilikka ega, maxsus, individual tarbiyalash va o'qitish metodlariga muhtoj bo'lgan, sog'lig'i imkoniyatlari cheklangan bolaning individualligi va shaxsini rivojlantirish jarayonini boshqarish mohiyati, qonuniyatlarini o'rganuvchi fan ekanligi qayd etiladi.

(Новоторсва Н.В. Коррекционная педагогика и специальная психология. Словарь.-М.: Педагогика, 1999.)

Dunyoga mashhur Wikipedia.org Internet ensiklopediyasida esa unga quyidagicha ta'rif beriladi: «Maxsus ta'lism (maxsus yordamga muhtojlar ta'limi, ko'makchi ta'lism nomlari bilan ham ma'lum) – bu maxsus metodlar orqali maxsus ta'limga muhtoj insonlarning individual farq va ehtiyojlarini to'g'ri yo'naltirish imkonini beruvchi amaliyotdir. Ushbu tadbir alohida ehtiyojli shaxslarga jamiyatda yuqori muvaffaqiyatlarga erishishlari uchun maxsus ta'lism orqali yordam berish amaliyotiga asoslanadi. (1784-yil Parijda birinchi maxsus maktab tashkil etilgan. Bu maktab xalqaro DisJeunes Aveugles instituti tarkibida bo'lgan. Bu maktab dunyodagi birinchi ko'rilar maktabi edi. Birlashgan qirollikda birinchi karlar maktabi barpo etilgan. IXX asrda imkoniyati cheklangan yoki normal insonga xos bo'limgan holatdagi insonlar uyda yashirin holda o'qitilgan va bu haqdagi ma'lumotlarni Charls Dikens asarlarida uchratish mumkin)⁷⁹.

Ilmiy tushuncha sifatida **korreksion pedagogika** zamonaviy pedagogika fanida rasman e'tirof etilganiga u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Uzoq vaqt davomida pedagogikada «defektologiya» tushunchasi qo'llanib kelingan.

Korreksion pedagogikaning asosiy maqsadi – belgilangan normal va mavjud kamchilikli faoliyat o'rtasidagi nomuvofiqlikni yo'qotish yoki kamaytirishdan iborat.

Korreksion-pedagogik faoliyat yaxlit ta'lism jarayonini qamrab oluvchi hamda murakkab psixofiziologik va ijtimoiy-pedagogik



⁷⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/Special_education

chora-tadbirlarning amalga oshirilishini nazarda tutuvchi pedagogik tizim.

Diagnostika korreksion, korreksion-rivojlantiruvchi, korreksion-profilaktik faoliyatlar bilan bir qatorda tarbiyaviy va korreksion-o'qitish, psixokorreksion faoliyatning ham amalga oshirilishini ta'minlaydi. Korreksion-pedagogik faoliyat maxsus ta'limga dasturiga muvofiq mutaxassislar yordamida anomal o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan yaxlit jarayondir.

Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari. Turli kategoriyali anomal bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalashning umumiy qonuniyatlari mavjud. Korreksion pedagogikaning asosini anomal bolalarni har tomonlama, fiziologik va psixologik o'r ganish tashkil etib, uning vazifalari sirasiga quyidagilar kiradi:

1) rivojlanishida turli kamchiliklar bo'lgan bolaning korreksion – kompensatorli imkoniyatlarini aniqlash va uning nuqsonlarini tuzatish;

2) differensiatsiyali o'qitish va tarbiyalashni amalga oshirish maqsadida anomal bolalarning muammolarini hal etish;

3) anomal bolalarni aniqlash va hisobga olish;

4) rivojlanish anomaliyasini erta diagnostika qilish metodlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish;

5) bolalarda rivojlanish nuqsonlarini tuzatish, yo'qotish yoki kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

6) anomal bolalikning oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

7) anomal bolani rivojlantirish va uni ijtimoiylashtirish jarayonining samaradorligini oshirish.

Korreksion pedagogikaning kategoriyalari. Korreksion pedagogika quyidagi kategoriyalarga ega:

1. *Anomal bolalarni o'qitish va rivojlantirish* ijtimoiy hayot va mehnatga tayyorlash, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan maqsadli jarayondir. Anomal bolalar uchun ta'limga tizimi va metodlarini tanlashda bolaning yoshi va nuqsonning kelib chiqish vaqtini hisobga olinadi. Eshitish yoki ko'rish qobiliyatini yo'qotish vaqtini alohida ahamiyatga ega.

Anomal bolaning rivojlanishi normal boladan ko'ra ko'proq darajada o'qitishga bog'liq. Shuning uchun anomal bolalar o'qitilmasa yoki o'qitish kech boshlansa uning rivojlanishiga jiddiy zarar yetkaziladi, psixik funksiyalarning shakllanishi susayadi, normal

tengdoshlaridan ortda qolish darajasi oshadi, nuqsonlar o'ta jiddiy bo'lsa, aqliy rivojlanish imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolishi mumkin.

Maxsus didaktikaning markaziy muammosi mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etish masalasi hisoblanib, uni maxsus maktablarda tashkil etish alohida ahamiyatga ega. Binobarin, ushbu jarayon o'quvchilarni ijtimoiy hayotga, imkoniyati darajasida kasbiy faoliyatga tayyorlash, buzilgan funksiyalarini tiklash, shuningdek, aqliy va jismoniy rivojlanish nuqsonlari darajasini pasaytirishga yordam beradi.

2. Anomal bolalarni tarbiyalash – korreksion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, uning maqsad va vazifasi nuqsonning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayotga va mehnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirishdan iborat. Anomal bolalarni tarbiyalash oila va ta'lim muassasasi o'rtasidagi yaqin aloqa, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish, talabchanlik hamda oqilona mehribonlik asosida amalga oshiriladi.

Tarbiyaviy ishlар anomal bolalarning individual va yosh xususiyatlarini inobatga olish asosida ularda mustaqillik, o'ziga xizmat ko'rsatish, mehnat ko'nikmalar, xulq madaniyati, shuningdek, ijtimoiy muhitda yashash va ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Anomal bolani tarbiyalash uning psixik yoki jismoniy kamchiliklariga atrofdagilarning ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini talab etadi. Bunday bolalarda optimizm va ishonchni oshirish, yoki uning o'mini bosuvchi imkoniyatlar qaror toptirish, ijobiy sifatlarni tarbiyalash, xatti-harakatlari va xulqini tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish juda muhim.

3. Korreksiya (yunoncha «tuzatish») bolaning psixik va jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish, yo'qotish va pasaytirishni nazarda tutadi.

4. Korreksion-tarbiyaviy ishlар kategoriya sifatida shaxsning anomal rivojlanishi xususiyatlariga ko'ra umumiy pedagogik ta'sir ko'rsatish chora-tadbirlari tizimidan iborat. Korreksion tarbiyaviy masalalarda sinf va sinfdan tashqari ishlarning barcha tur va shakllaridan foydalilanildi.

Korreksion-tarbiyaviy ishlар anomal bolalarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi va mehnat tarbiyasini samarali tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Mehnat ta'limi jarayonida

faqat kasbiy ko'nikmalar emas, balki o'z ishini rejalashtirish, og'zaki ko'rsatmalarga amal qilish ko'nikmalari, ishning sifatini tanqidiy baholash va boshqa malakalar tarbiyalanadi. Kamchiliklarni tuzatish yordamida anomal bolalarning normal rivojlangan bolalar bilan aloqalari uchun sharoitlar yaratish muhimdir. Bir qator hollarda anomal bolalar uchun davolash – korreksion tadbirlar (davolash jismoniy mashqlari, masala, artikular va nafas olish gimnastikasi, dori – darmonlar qabul qilish va boshqalar) ni tashkil etish zarur bo'ladi.

5. **Kompensatsiya** (yunoncha «compensatio» – «o'rmini to'ldirish, tenglashtirish») organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rmini to'ldirish yoki qayta qurishdir. Kompensatsiya jarayoni oliy nerv faoliyatining zaxira imkoniyatlariiga tayanadi.

6. **Ijtimoiy reabilitatsiya** (yunoncha «rehabilitas» – «layoqati, qobiliyatini tiklash») tibbiy – pedagogik mazmunda anomal bolalarning psixofiziologik imkoniyatlari darajasida ijtimoiy muhitda ishtirok etishi uchun sharoit yaratish, uni ijtimoiy hayot va mehnatga jalb etishni anglatadi. Bu korreksion pedagogikaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Reabilitatsiya nuqsonlarni yo'qotish va yumshatishga yo'naltirilgan maxsus tibbiy vositalar hamda maxsus ta'lim, tarbiya va kasbiy tayyorlash asosida amalga oshiriladi. Reabilitatsiya jarayonida kasallik oqibatida buzilgan funksiyalarining o'rni to'ldiriladi. Reabilitatsiya vazifalari anomal bolalarning turli kategoriyalari uchun maxsus o'quv muassasalari tizimida hal etilib, unda o'quv jarayonini tashkil etish xususiyatlari bolalarning anomal rivojlanishi xususiyatlariga qarab belgilanadi.

7. **Ijtimoiy adaptatsiya** (yunoncha «adapto» – moslashish) – anomal bolalarning individual va guruhli xulqlarini jamoatchilik qoidalari hamda qadriyatları tizimiga mos kelishini ta'minlash. Anomal bola ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda qiynaladi, unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga mos ravishda javob qaytarish qobiliyati past, shu boisdan, murakkab talablarni bajarishga layoqati yetishmaydi. Ijtimoiy adaptatsiya bola uchun ijtimoiy foydali mehnatda faqil ishtirok etish imkonini yaratadi.

8. **Oilaviy, tarbiya** reabilitatsiyani samarali tashkil etish omili. Oila va maktabning hamkorlikdagi harakatlari anomal bolani ijtimoiy faoliyatga jalb etish, uning mehnat qobiliyatlarini aniqlash va imkoniyat darajasida kasb ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi.

3. KORREKSION PEDAGOGIKA SOHALARI

KORREKSION PEDAGOGIKA

Surdopedagogika eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash masalalarini o'rghanadi.

Tiflopedagogika ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni masalalarini

Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishni o'rghanadi

Logopediya – nutqida nuqsonlar bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish masalalarini o'rghanadi

Tayanch – harakat apparatning murakkab nuqsonlarini o'rjanuvchi maxsus pedagogika

Korreksion pedagogika sohalari

Shuningdek, «Wikipedia.rg Internet» ensiklopediyasida maxsus ta'limga muhtoj shaxslar quyidagi turlarga bo'lingan: aloqa faoliyatining buzilishi (ko'r, kar, soqov), aqliy faoliyatning buzilishi, jismoniy imkoniyati cheklanganlik (mo'rt suyak kasalligi, yarim miya falaji, mushak distrofiyasi kabilar) va rivojlanishida nogironlik belgilari mavjud bo'lgan insonlar⁸⁰.

AQLIY VA PSIXIK RIVOJLANISHIDA NUQSONLARI BO'LGAN O'QUVCHILARNI KORREKSION O'QITISH.

AQLI ZAIFLIKNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI, UNING PAYDO BO'LISH SABABLARI

Aqli zaiflikni o'rGANISH bilan bog'liq masalalar korreksion pedagogikada (defektologiyada) eng muhim masalalar qatoriga kiradi.

⁸⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Special_education

Aqliy rivojlanishi buzilgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash, ijtimoiy moslashtirish va o'rganish muammolari korreksion (maxsus) pedagogikaning muhim sohasi – oligofrenopedagogika tomonidan o'rganiladi. «Oligofreniya» (yunoncha olygos – kam va phren – aql) termini XIX asrda mashhur nemis psixiatri Emil Krepelin tomonidan qo'llanilgan.

Oligofreniya – bu natal (tug'ilish payti) yoki postnatal (hayotiy rivojlanishning erta bosqichi) davrlarda markaziy nerv tizimining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan aqliy yoki psixik rivojlanmaslik.

Oligofreniyaning sabablari bosh miya faoliyatining buzilishiga olib keluvchi ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar sirasiga onaning homiladorlik davrida turli infektion kasalliklar bilan

kasallanishi (virusli kasalliklar, qizilcha, qizamiq, kor, Botkin kasalligi va boshqalar), chaqaloqning ona organizmidagi turli parazitlar bilan zararlanishi (toksoplazmos) hamda turli tug'ma shikastlar (asfiksiya) kiradi. Onaning yurak-qon tomir tizimi, buyrak, jigar kasalliklari bilan og'rishi, ruxsat etilmagan dori-darmonlarni qabul qilishi, homiladorlik davrida turli jismoniy va psixik jarohatlar olishi, ayollarning zararli ishlab chiqarish sohasida ishlashi, atrof-muhit ta'siri, chekish, alkogolizm, ota-onalarining giyohvand moddalarni is'temol qilishlari ham chaqaloq bosh miyasining zararlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Aqli zaif shaxslar rivojlanish va nuqson darajasiga ko'ra turlicha bo'ladi. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Ona qornidaligida miyasi shikastlangan bolalar.
2. Tug'ilishi paytida yoki tug'ilgandan keyin uch yil davomida miyasi shikastlangan bolalar.

Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti (VOZ) 1994-yilda aqli zaiflikning sezilmas (kam), o'rtacha, og'ir va chuqur to'rt darajasini e'tirof etgan:

Kam darajadagi aqli zaiflik o'quvchilar maktabni bitirish davrida o'zlarining psixometrik va klinik namoyon bo'lishi bilan normal rivojlanayotgan odamlardan kam farq qiladilar hamda muvaffaqiyat bilan ishga joylashadilar.

Aqli zaiflik tuzatib bo'lmaydigan hodisa sifatida e'tirof etilsa ham, uni korreksiya qilib bo'lmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Aksariyat tadqiqotlarda maxsus (korreksion) ta'lif muassasalarida metodik jihatdan to'g'ri yo'l tutilishi aqli zaif bolalarning rivojlanishida ijobiy natijaga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar. Aqli zaif bola bilan korreksion ishlarni erta boshlash nuqsonni maksimal darajada tuzatish va ikkilamchi chetlanishlarning oldini olishga imkon beradi. Aqliy qoloqlikni psixologik-pedagogik diagnostika qilishni o'z vaqtida o'tkazish juda muhim.

Aqli zaif bolalar oila yoki sog'liqni saqlash tizimiga qarashli maxsus yaslilarda tarbiyalanadilar. Maktabgacha yoshdagি bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chalarida amalga oshiriladi. Aqli zaif bo'lgan maktabgacha yoshdagи bolalar ommaviy bolalar bog'chalaridagi maxsus guruhlarga qabul qilinishlari mumkin. Ularda o'qitish maxsus bolalar bog'chasidagi kabi maxsus dastur bo'yicha amalga oshiriladi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar maxsus (korreksion) maktablarda o'qitiladi, bu yerda o'qitish davlat ta'lif standarti asosida maxsus dastur bo'yicha olib boriladi. Bunday maktablarda umumiy o'rta ta'lif fanlari (ona tili, o'qish, matematika, geografiya, tarix, tabiat, jismoniy tarbiya, rasm, musiqa, chizmachilik) bilan birga maxsus korreksion fanlar ham o'qitiladi. Maxsus maktablarda mehnat ta'lifi muhim o'rin egallaydi. Mehnat ta'lifi IV sinfdayoq professional xususiyatga ega bo'lib, bolalär o'zları bajara oladigan kasbni o'zlashtiradilar. Tarbiyaviy ishlar ham katta ahamiyatga ega bo'lib, asosiy maqsad tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashtirish, ijobiy sifatlarini tarbiyalash, atrofdagilar va o'zlariga to'g'ri baho berishga o'rgatishdir. Ayni vaqtida respublikada aqli zaif bolalar uchun maxsus maktablarning 90 % ini maktab – internatlar tashkil etadi.

Ba'zan aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning umumiy o'rta ta'lif maktabiga jalb etilishi holati ko'zga tashlanadi. Bunday holatda bolaning taqdiri, uni o'qitish va tarbiyalash mas'uliyatini otanonalar o'qituvchi – defektologlar bilan kelishib olishlari zarur. Normal rivojlanuvchi bolalar bilan bir sinfda o'qiydigan aqli zaif bola alohida munosabatni talab etadi. Bola kuchi yetganicha darsning borishiga xalaqit qilmay, sinf faoliyatida ishtirok etishi kerak.

Unga biror narsaning tushunarsiz bo‘lishiga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Bu holat bolaning keyingi o‘quv materialini mutlaqo tushunmasligiga olib keladi. Aqli zaif bolani ommaviy umumiy o‘rta ta’lim mактабида o‘qitish ota-onalarining bevosita ishtirokini talab etadi.

Nutqiy nuqsonlarni o‘rganish, oldini olish va korreksiya bilan korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohaşı – logopediya (yunoncha “logo” – “so‘z” va “paideia” – “tarbiyalash”) shug‘ullanadi. Patogen omil tas’irida yuzaga kelgan nutqiy buzilishlar o‘zididan yo‘qolmaydi va u maxsus tashkil etilgan korresion-logopedik choralsiz bolaning keyingi rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixik rivojlanishdan ortda qoluvchi bolalarning psixologik-pedagogik tavsifnomalari. Tadqiqotlar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilar orasida psixik rivojlanishi ortda qolgan, yaqqol ifodalanmaydigan sensorli, intellektual, nutqiy buzilishlarga ega bolalar mavjudligi, buning sababi markaziy nerv tizimi shikastlanishining asorati, minimal miya disfunksiyalari ekanligini ko‘rsatadi. Psixik rivojlanishi ortda qolgan (PROQ) bolalar predmetlarni o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarning taxminan 50 foizini tashkil etadi.

PROQ bolalar rivojlanishini ko‘rsatuvchi anomaliya sifatida o‘rganish XX asrning 50 – yillari oxirida boshlanib, 60–70 – yillarda keng ommalashdi.

Tadqiqotchilar (G.B. Shoumarov, K.S. Lebedinskaya)

PROQning quyidagi to‘rt variantini keltiradilar:

kонституциональный чигиш	соматоген чигиш	психоген чигиш	Серебрал- органический чигиш
-----------------------------	--------------------	-------------------	------------------------------------

Maktabga berayotgan psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Ular ta’lim olishga to‘la tayyor emaslar, ularda maktabda o‘qish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar shakllanmagan, dastur talablarini o‘zlashtirish uchun layoqati yetarli emas. Maxsus yordamsiz hisoblash, o‘qish va yozishni, shuningdek, maktabdagи tartibni o‘rgana olmaydilar. Faoliyatlarni tashkil etishda qiyinchilikni his etadilar. Bunday bolalarda ruhiy toliqish kuzatilib, tez charchash, ish bajarish

qobiliyatining pasayishi, boshlagan ishini oxiriga yetkazmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Ko'pincha boshlari og'riydi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalarning xulqi ham o'ziga xos. Maktabda ular o'zlarini maktabgacha yoshdag'i bolalar kabi tutishadi. Ularda o'qishga nisbatan qiziqish yo'q yoki juda past bo'lib, maktabga nisbatan ijobjiy munosabat kuzatilmaydi. O'yin ular uchun asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

PROQ bolalarni ko'pincha aqli zaif deb hisoblab, xato qiladilar. Ularni o'zaro farqlashda ayrim omillar qo'l keladi. Chunonchi, PROQ bolalarda oddiy bilimlarni o'zlashtirish, hisoblash ko'nikmalarini egallab olishda qiyinchilik ko'zga tashlanishi bilan birga she'r yoki ertaklarni eslab qolish qobiliyati va idrok etish faolligi ancha yuqori bo'ladi. Bunday xususiyatlar aqli zaif bolalarda kuzatilmaydi.

Ko'pchilik hollarda PROQ (ZPR) o'quvchilar ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladi. Individual korreksion ishlar olib borilmasligi, shu bois ular amalda o'quv jarayonidan chetda qoladilar va predmetlarni o'zlashtira olmaydigan o'quvchilar qatoriga kiritiladi. Maxsus tashkil etiluvchi korreksion – rivojlantiruvchi ta'limga ehtiyoj ularga alohida e'tibor ko'rsatishni talab etadi.

Psixik rivojlanishi ortda qolgan bolalar bilan korreksion ishlar olib borishning xususiyatlari. O'zbekistonda XX asrning 60-yillarda ilk bor psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar bilan maxsus pedagogik ishlar amalga oshirilgan. Bolalarni korreksion muassasalarga qabul qilish PTPK ning xulosasi bo'yicha ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning roziligidiga ko'ra amalga oshiriladi. Sinf 12 nafar o'quvchidan iborat bo'ladi.

Hozirgi kunda psixik rivojlanishdan ortda qolgan bolalar uchun maktab internatlar va maxsus ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ular ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etilgan korreksion-rivojlantiruvchi sinflarda ham o'qitilishi mumkin.

Bunday sinflarda ta'lim jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Boshlang'ich umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati 4-5 yil).

2. Asosiy umumiy o'rta ta'lim (ta'lim muddati 5 yil).

Ular rivojlanishidagi nuqsonlarning bartaraf etilishiga ko'ra ommaviy umumiy o'rta ta'limga muassasalariga o'tkazilishlari mumkin. Ikkinci bosqichda (V-IX sinflar) ta'limga ayrim o'zgartirishlar (muayyan o'quv mavzulari yoki ulardagi materiallar hajmini qisqartirish) bilan ommaviy umumiy o'rta ta'limga muktablarining dasturlari asosida amalga oshiriladi. Korreksion-rivojlaniruvchi sinflarda ta'limning 1-bosqich muddati zarur holatlarda 1 yoki 2 yilga uzaytirilishi mumkin.

Ular bilan ishslashda asosiy vazifa – bolalar tomonidan atrof-muhit haqidagi bilimlarni egallab olinishiga yordam berish, ularda kuzatuvchanlik va amaliy o'quv faoliyati tajribasini hosil qilish, mustaqil ravishda, bilimlarni egallash va amaliyotda ulardan foydalanish malakasini shakllantirishdan iborat.

Bunday o'quvchilar individual yondashishni talab etadilar. Ularni korreksion o'qitish davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari bilan birga amalga oshiriladi. O'quv materiali hamda ta'limga metodi PROQ bolalarning rivojlanish darajalariga mos holda tanlanishi zarur.

NUTQIDA NUQSON BO'LGAN O'QUVGHILARNI KORREKSION O'QITISH. NUTQIY BUZILISHLAR SABABLARI VA ULARNING TURLARI

Nutq – faqatgina insonga xos bo'lgan muhim psixik funksiyadir. Nutqiy munosabatlar yordamida shaxs ongida borliqni aks ettiruvchi bilimlar doimiy ravishda to'ldirilib va boyitib boriladi.

Nutqiy buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar orasida ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar asosiy rol o'yнaydi. Bundan tashqari (anatomic-fiziologik, morfologik), funksional (psixogen), ijtimoiy-psixologik (atrof-muhitning salbiy ta'siri), psixonevrologik (psixik) funksiyalarning buzilishi (aqli zaiflik, xotira yoki diqqatning buzilishi va boshqalar) ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ekzogen-organik omillar sirasiga: bolaning markaziy nerv tizimi va uning organizmiga salbiy ta'sir etuvchi omillar (infeksiya, jarohatlar, intoksicatsiya), turli akusherlik patologiyalar (bel torligi, tug'ilishning cho'zilib ketishi yoki tez sodir bo'lishi, yo'ldoshga o'ralib qolishi, bolaning noto'g'ri joylashishi va boshqalar), malakali akusherlik yordamining ko'rsatilmasligi, chala tug'ilish kabi holatlar sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda logopediyada nutqiy buzilishlarning ikki turi ajratiladi:

- 1) tibbiy-psixologik nutqiy buzilish;
- 2) psixologik-pedagogik nutqiy buzilish.

Tibbiy-psixologik turda ko'rildigan hamma nutqiy buzilishlarni quyidagi yirik guruhlarga ajratish mumkin:

- 1) og'zaki nutqning buzilishi;
- 2) yozma nutqning buzilishi.

Og'zaki nutqning buzilishi o'z navbatida quyidagi ikki turga ajratiladi:

- 1) nutq ifodalanishi fonatsion tuzilishi (nutq talaffuzi) ning buzilishi;
- 2) fikr strukturali-semantik (ichki) tuzilishi (nutqning tizimli yoki polimorf)ning buzilishi.

**Nutqiy buzilish, nutqiy
buzilishning sabablari,
mexanizmlari, simptomatikasi,
borishi va tuzilishi uning oldini
olish, maxsus (korreksion)
o'qitish va tarbiya masalasi
bilan logopediya shug'ullanadi.**

"Logopediya" terminining yunonchadan tarjimasi "to'g'ri nutqni tarbiyalash" ma'nosini anglatadi. Nutqiy buzilish turli mutaxassislar – fiziolog, nevropatolog, psixolog, lingvist va boshqalar tomonidan o'rganiladi.

rivojlanmaganligi)ning buzilishi.

2. Muomala vositalarini qo'llashdagi buzilishlar.

Maktab o'quvchilarida nutq buzilishini psixologik-pedagogik tuzatish. Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari. Nutqiy buzilishi bo'lgan bolalarning markaziy nerv tizimi faoliyatida funktsional yoki organik chetlanishlar ko'zga tashlanadi. Ular tez charchab qolishi, qattiq

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalash uni pedagogik jarayonda qo'llashga yo'naltirilgan bo'lib, bolalar jamoasi bilan nutqiy nuqsonlarni tuzatishga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatish metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Psixologik-pedagogik (pedagogik) klassifikatsiyalashga ko'ra nutqning buzilishi quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

1. Muomala vositalari (fonetik-fonematik va*nutqning umumi)

ta'sirlanish va jahllari chiqishi bilan ajralib turadilar. Emotsional barqaror emaslar, kayfiyatları tez o'zgaradi, jahldor, tajovuzkor bo'ladilar. Shuningdek, ularda sustkashlik va lanjlik kuzatiladi. Bunday bolalar tinch o'tira olmaydi, dars davomida ishchanlik va diqqatini saqlab turish qiyin bo'ladi. Juda tez xafa bo'ladilar, gapga qulq solmaydilar. Tanaffusdan keyin darsda diqqatlarini jamlashlari qiyin bo'ladi. Odatda bunday bolalarda diqqat va xotira, ayniqsa, nutqiy xotiraning bo'shligi, yaxshi tushunmaslik holatlari kuzatiladi.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari qoshida logopedik punkt faoliyat yuritadi. O'quvchilar bilan logopedik punktda korreksion ishlar butun o'quv yili davomida individual va guruhli shakllarda olib boriladi. Nutqi buzilganlik o'ta jiddiy bo'lsa, o'qitish maxsus ta'lif muassasalarida olib boriladi. Bunda o'quvchi bilan davolash-sog'lomlashtirish va psixologik-pedagogik ishlarni birga olib borish nutqiy buzilishni tuzatishning muhim sharti hisoblanadi.

Logopedik yordam ko'rsatish sog'linqni saqlash va aholini ijtimoiy ta'minlash tizimlarida ham amalga oshiriladi. Poliklinikalarda va psixonevrologik dispanserlarda logopedik kabinetlari mavjud bo'lib, bu yerda nutqida buzilishi bo'lgan bolalarga logopedik yordam ko'rsatiladi.

ESHITISH QOBILIYATI BUZILGAN O'QUVCHILARNI KORREKSION O'QITISH. ESHITISH QOBILIYATINING BUZILISHI SABABLARI, ULARNING TURLARI

Anomal bolalar orasida eshitish qobiliyati turli darajada nuqsonli bo'lgan bolalar ko'pchilikni tashkil etadilar. Eshitish – borliqni tovushli hodisalar shaklida aks ettirilishi, inson (tirik jonzot)ning tovushlarni anglash va farqlash qobiliyati. U eshitish organi yoki tovush analizatori (tovush ta'sirini qabul qiluvchi va ajratuvchi murakkab nerv tizimi) yordamida amalga oshiriladi.

Eshitish qobiliyatining buzilishi ko'p hollarda muddatli bo'ladi. Masalan, o'rta qulqning tashkil topishi, shamollah, oltingugurt to'siqlarining yuzaga kelishi, tashqi va o'rta qulqning anomal tuzilishi (qulq suprasining bo'lmasligi yoki yetarlicha rivojlanmaganligi, eshitish yo'llarinining bitib qolishi, qulq pardasidagi nuqsonlar va boshqalar) kabi holatlarda zamonaviy tibbiyot ularni davolashning samarali metodlariga ega. Ular qatoriga konservativ va

operativ metodlarni kiritish lozim. Odatda, samarali, ba'zan uzoq vaqt davolash tadbiri olib borilganda, eshitish qobiliyati tiklanadi.

Eshitish qobiliyatining buzilishiga yuqumli kasalliklar bilan og'rish, zaharlanish, akustik yoki kontuziyali jarohatlar ham sabab bo'lishi mumkin. Qulog'i og'irlik yoki karlik kelib chiqish sabablariga ko'ra: nasliy, tug'ma va orttirilgan turlarga ajratiladi. Yoshlikda eshitish qobiliyatining buzilishiga olib keluvchi sabablar orasida quyidagilar alohida ko'rsatiladi: homiladorlikning birinchi uch oyida onaning virusli kasalliklar bilan kasallanishi (qizamiq, kor, gripp, gepatit viruslari va boshqalar), rivojlanishdagi tug'ma nuqsonlar (masalan, labi va tanglayidagi yoriq), chala tug'ilish, kichik vaznli tug'ilishi (1500 dan kam) hamda yomon tug'ilish kabilari. Eshitish qobiliyatining buzilishiga homiladorlik davrida onaning spirtli ichimlik, giyohvand moddalar iste'mol qilishi, antibiotiklarni qabul qilishi ham sabab bo'lishi mumkin. Karlikning nasliy o'tishi holati juda kam kuzatiladi.

Eshitish qobiliyatidagi kamchiliklarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) Eshitish qobiliyatining zararlanganlik darajasi;
- 2) Eshitish qobiliyati zararlanganda nutqiy rivojlanish darajasi;
- 3) Eshitish qobiliyatida buzilishning yuzaga kelish vaqt.

Yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra eshitish qobiliyatining buzilishi qulog'i og'irlik va karlik kabi guruhlarga ajratiladi.

Karlik – bu eshitish qobiliyatining qattiq yo'qotishi bo'lib, bola mustaqil ravishda nutqni egallay olmaydi va qulog'iga juda yaqin masofadan gapirilganda ham aniq eshitmaydi. Ammo baland tovushlar, yaqin masofadan nutqning ba'zi tovushlarini qabul qilishga imkon beruvchi eshitish qobiliyati saqlanib qoladi.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash masalalari bilan surdopedagogika shug'ullanadi. **Surdopedagogika** (yunoncha «surdus» – kar) – eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonini o'rjanuvchi korreksion (maxsus) pedagogikaning yana bir muhim sohasi.

Qulog'i og'irlik – bu eshitish qobiliyatining qattiq pasayishi (80 detsibaldan kam) bo'lib, eshitish qobiliyati qoldig'i yordamida qulog'i oldida baland ovoz bilan gapirilganda bola nutqni eshita oladi. Bola minimal nutq boyligini mustaqil ravishda egallay oladi.

Karlik va qulog'i og'irlik (yomon eshituvchilar) nutqni qabul qilish usuli bo'yicha farq qiladilar. Karlar so'z nutqini ko'rib (suhbatdoshining lablari va yuziga qarab) va eshitib ko'rish (tovushni kuchaytirish apparati yordamida) orqali qabul qiladilar.

Yomon eshitadiganlar atrofdagilar bilan tabiiy munosabatlar jarayonida baland ohangda so'zlashish asosida nutqni eshitib qabul qiladilar.

Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumiyo'rtta ta'limga muktabalarida korrekcion o'qitish. Eshitish analizatorining normal ishlashi bolaning umumiyo rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitish analizatori buzilganda bolaning nutqi, psixologik rivojlanishi yomonlashadi, idrok etish faoliyati, umumiyo rivojlanishi me'yordan ortda qoladi. Statistik ma'lumotlariga qaraganda, keyingi vaqtarda eshitish organi funksiyasi buzilgan va eshitmaydigan bolalar soni doimiy ravishda ortib bormoqda.

Surdopedagogika oidida quyidagi vazifalar turadi:

- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslar, ularning individual xususiyatlari, shuningdek, eshitishi, nutqi buzilishi xususiyatiga ko'ra ularni o'qitish qonuniyatlarini pedagogik jihatdan o'rganish;
- eshitish qobiliyati buzilgan turli kategoriyalagi bolalar uchun maxsus ta'limga mazmunini ishlab chiqish, uni ilmiy jihatdan asoslash va amalga oshirish;
- eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarni o'qitishning maxsus metodikalarini yaratish;
- qoldiq eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha maxsus ta'limga texnologiyalarini yaratish, pedagogik sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish va boshqalar.

Ommaviy umumiyo o'rtta ta'limga muktabida eshitish qobiliyati bir oz pasaygan bolalar o'qishi mumkin. O'qituvchi bolaning darsda bildirilayotgan fikrlarni yaxshi eshita olishiga e'tibor berishi, buning uchun bolani birinchi yoki ikkinchi partaga, iloji bo'lsa o'rtta qatorga o'tkazishi muhim hisoblanadi. Shuningdek, o'qituvchi bola uning gaplarini to'g'ri tushuna olganligi, topshiriqni to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilib turishi kerak. Ba'zida eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bolalar ommaviy, umumiyo o'rtta ta'limga

maktablarida eshitadigan tengdoshlari bilan birga muvaffaqiyatli o'qiydilar.

Sinfga eshitmaydigan yoki yomon eshitadigan bola qabul qilinganida, o'qituvchi psixofiziologik hamda nutq rivojlanishi xususiyatlarni bilishi talab etiladi.

KO'RISH QOBILIYATI BUZILGAN O'QUVCHILARNI KORREKSION O'QITISH. KO'RISH QOBILIYATI BUZILISHI TURLARI, ULARNING SABAB VA OQIBATLARI

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash xususiyatlari bilan shug'ullanadigan tiflopedagogika (yunoncha "typhlos" – "ko'r") – korreksion pedagogika (defektologiya)ning muhim sohasidir.

Ko'rish – ko'rish analizatori yordamida borliqni sezish va qabul qilishdir. Miya ko'rish orqali tashqi dunyo haqidagi ma'lumotlarni oladi.

Bolaning ko'rish qobiliyati buzilganda uni rivojlantirish, o'qitish va tarbiyalash jarayonlarida jiddiy qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Qobiliyati buzilishining sabablari turlicha bo'lib, ular nasliy kasalliklar, homila ona qorinida rivojlanayotganda ko'rish organlari patologiyasining yuzaga kelishi, homiladorlik paytida onaning tokeplazmoz, qizamiq va boshqa og'ir kasalliklar bilan og'rishi va boshqa omillardan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'rish qobiliyatining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'ladi.

Tug'ma ko'r bo'lish homilaning zararlanishi sababli yuzaga keladi. Ko'rish nuqsonlarining yuzaga kelishida nasl omili ham ko'zga tashlanadi.

Orttirilgan ko'rlik odatda ko'rish organlari – to'r pardasi, shoh parda yoki markaziy nerv tizimining kasallanishi (meningit, miya shishi, meningoentsifalit), organizmning umumiylashtirishidan keyingi asoratlari (kor, gripp, skorlatina), shuningdek, miya yoki ko'zning jarohatli shikastlanishi (boshi yaralanishi, shikastlanishi) oqibatida bo'lishi mumkin.



Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Ko'r tug'ilganlar;
2. Erta ko'r bo'lib qolganlar;
3. Uch yoshidan keyin ko'r bo'lib qolganlar.

Ommaviy maktablarda, ta'lim olganda ko'rish qobiliyati past bola jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Idrok etishning aniq emasligi, sekinligi, torligi kabi xususiyatlar predmetlarni tanib olish, ularning shaklini ajratish, o'ziga xos belgilarini bilib olishda ma'lum qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Bolalar satrlar, harflar va raqamlarni adashtiradilar. Bular o'qish texnikasini egallash, o'qilganlarining mazmunini tushunishga xalaqit beradi. Oddiy maktabda yomon ko'ruchchi bolalar doskada nima yozilganligini ko'rmaydilar, qarab bajariladigan ishlarni tashkil etishda tez charchaydilar, bu ularning ish qobiliyatlarini pasaytiradi. Pedagoglarning oldidagi eng muhim vazifa – yomon ko'radigan bolani o'z vaqtida aniqlash, unga maxsus ta'lim va tarbiya berish masalasini hal etish uchun PMPK⁸¹ga yuborishdan iborat. Yomon ko'radigan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asosan maxsus (korreksion) maktablarda amalga oshiriladi.

Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarni ommaviy, umumly o'rta ta'lim maktablarida korreksion o'qitish va tarbiyalash. Ko'rish qobiliyati buzilgan bolalar bilan ish olib borayotgan o'qituvchi korreksion ishlarning o'ziga xos jihatlarini bilishi zarur.

Ular tuzatuvchi ko'zoynak taqishlari kerak. Lekin ko'zoynak taqishda bolalar pedagogning o'zlariga digqat bilan munosabatda bo'lislariiga ehtiyoj sezadilar. Maktabda va uyda o'quv ishlarni bajarishda sanitariya-gigiyenik talablarga amal qilish lozim. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bola uchun ish o'rni to'g'ri va yetarlicha yoritilgan bo'lishi kerak. Bunday bola deraza yonidagi birinchi yoki ikkinchi qatorga o'tkazilishi lozim. Yaqinnoi ko'radigan bola ham doskaga yaqinroq birinchi yoki ikkinchi partada o'tirishi zarur. Uzoqni ko'radigan bola esa, aksincha, doskadan uzoqroqqa – oxirgi partaga joylashdirilishi talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchining doska, jadval va xaritadagi o'quv materiallarini qabul qilishi va tushunishini nazorat qilib borishi kerak. Anomal refleksiyali bolalarda ko'zi charchashi ko'p kuzatiladi. Shuning uchun dars paytida ularga ko'rish ishlarni boshqa turdag'i

⁸¹ Центр психолого-педагогической, медицинской и социальной помощи

ishlar bilan uyg'unlashtirib berish zarur. Anomal refleksiyali bola 10 – 15 minut davomida intensiv ko'rish ishlarini bajargandan keyin bir necha minut uzoqqa (doska yoki derazaga) qarashi kerak, bu ko'rish charchog'ining bartaraf etilishiga yordam beradi.

Ko'rish qobiliyati ancha og'ir bo'lgan – ko'r va yomon ko'radigan bolalarni o'qitish maxsus ta'lim muassasalarida amalgalashiriladi. Ba'zan ko'rish qobiliyati og'ir buzilgan bolalar ommaviy umumiy o'rtalim mabkablariga ham qabul qilinadi. Bunday vaziyatda anomal bolalar uchun maxsus sharoitlarni yaratish zarur.

Sinfida og'ir ko'rish qobiliyati buzilgan bola bo'lgan o'qituvchi unga differentials yondashuv asosida munosabatda bo'lishi zarur. Buning uchun sinfdagi o'quvchilarining soni 15 nafardan oshmasligi, sinf xonasi yaxshi yoritilgan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning ish o'mi esa qo'shimcha yoritilgan bo'lishi kerak. O'quv-tarbiyaviy ishlar jarayonida o'qituvchining nutqi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Uning nutqi aniq, tushunarli, ifodali bo'lishi, o'qituvchi o'zining har bir harakat mohiyatini so'z yordamida sharhlab borishi zarur.

Sinfida ko'r yoki yomon ko'radigan bola bo'lgan o'qituvchining individual xususiyatlari va imkoniyatlarini bilishi, normal ko'radigan tengdoshlaridan farq qilishini yaxshi anglashi maqsadga muvofiqdir.

Tayanch-harakat apparati buzilgan o'quvchilarini korreksion o'qitish. Tayanch-harakat apparati buzilishining turlari va yuzaga kelish sabablari. Tayanch-harakat apparatidagi turli buzilishlar bolalarni o'qitish va tarbiyalashda muayyan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Tayanch-harakat apparati funksiyalarining buzilishi tug'ma yoki orttirilgan bo'lishi mumkin. Tayanch-harakat apparati patologiyasi quyidagi turlarga ajratiladi:

1) nerv tizimining kasallanishi (bolalar serebral paralichi (BSP), poliomielit);

2) tayanch-harakat apparatining tug'ma patologiyasi; sonning tug'ma chiqqanligi; bo'yin qiyshiqligi; qiyshiq oyoqlik va öyoqning boshqa nuqsonlari; umurtqa pog'onasi rivojlanishidagi nuqsonlar (skolioz); qo'l yoki oyoqlarning rivojlanmaganligi va nuqsonlari; qo'l barmoqlarining anomal rivojlanishi; artrogripoz (tug'ma mayiblik);

3) orttirilgan kasalliklar va tayanch-harakat apparatining zararlanishi; orqa miya, bosh miya va qo'l-oyoqlarning travmatik jarohatlanishi; poliatrit; skelet kasalliklari (tuberkulez, suyaklardagi shishlar, osteomielit), skelet tizimi kasalliklari (raxis, kondodistrofiya).

Tayanch-harakat apparati patologiyasi bo'lgan bolalarda asosiy buzilish harakatlanishdagi nuqson hisoblanadi. Bunday nuqsonlarga ega bolalarning 89 % ini serebral paralichli bolalar tashkil etadi. Ularda harakat buzilishi psixik va nutqiylar bilan birga namoyon bo'ladi. Shu bois bu kabi bolalar nafaqat davolash va ijtimoiy yordamga, balki psixologik-pedagogik va logopedik korreksiyaga ham muhtoj bo'ladi.

Harakatlanish buzilishlari o'rtacha darajada bo'lgan bolalar yurishni o'rganib olsalar-da, biroq ishonch bilan yura olmaydilar, ular uchun maxsus moslamalar zarur. Harakatlanish buzilishining yengil shaklida bolalar uyda va ko'chada mustaqil, qo'rqlay yura oladilar, o'zlariga to'la xizmat ko'rsatadilar

RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASHNING GLEN DOMAN, VALDORF VA MONTESSORI USULLARI

1. Qarama qarshilikka boy Glen Doman usuli

Ko'pgina tortishuv va muhokamalarga sabab bo'lgan usullardan biri, o'tgari asrning 40 yillarida o'z ibtidosini boshlagan, harbiy shifokor, amerikalik Glen Doman tomonidan ishlab

chiqilgan. Glen Doman urush yillarida og'ir miya jarohatini olgan bolalarni davoleydi. Bemor bolalarga katta-katta qizil harfli so'zlar yozilgan kartochkalar ko'rsatildi va bir vaqtning o'zida unda yozilgan so'zlar talaffuz qilinardi. Darslar juda qisqa bo'lib, 5-10 soniya davom etar, ammo kun davomida bir necha marotaba takrorlanardi. Bu shaklda mashg'ulotlarda ishtirok etgan falaj holatida yetgan bolalar sekin-asta harakat qila' boshlaydi, keyinchalik emaklash, yurish va hatto sog'lom bolalar kabi yugurish qobiliyatları ham tiklanadi. Shu sababli, Glen Doman bir vaqtning o'zida ham oddiy, ham geyg'at xulosaga keladi: ko'zni doimiy ravishda stimulyatsiya qilish miya faoliyatining umumiy faollashishiga sabab bo'ladi.

Shundan so'ng Domen bu usulni sog'lom bolalarda ham sinab ko'radi. Bola tug'ilgandan e'tiboran, unga bu kabi kartochkalar ko'rsatiladi. Kartochkadagi so'zlar turli-tuman bo'lishi mumkin: nuqtalardan iborat sonlar, qizil rang bilan yozilgan harflar, hayvonlar

rasmi, arboblar rasmi, tabiat hodisalari va hokazo... Bunday kartochkalarni Doman ma'lumot bitlari deb atardi. Kartochkalar kun davomida bolaga bir necha marta, bir necha soniyaga ko'rsatilardi. Doman o'z usulini qo'llash natijasida daholarni tarbiya qilishiga ishonardi. Bu fikri ko'pgina pedagog va psixologlar yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun qarash natijasida yuzaga kelgan taassurotlar muhim ekanligini tan olishlari ham tasdiqlaydi.

Ammo bu usulning o'ziga yarasha kamchiliklari bor: u bolalarga to'la va mukammal rivojlanish bermaydi. Ayniqsa, bola dunyosi talab qilgan faollik bu usulda mavjud emas. Dars davomida bolaning ko'zi va ko'rish qobiliyatigina ishtirok etadi. Bola esa tabiatidan kelib chiqib, o'zini qiziqtirgan narsani ushlashni «mazasini tatish»ni ma'qul ko'radi. Tili chiqa boshlagan bola esa, albatta, o'zini qiziqtirgan mavzu borasida savollar yog'diradi, ammo Domen usulida boladan qimirlamay o'tirish, diqqatini kartochkalarga qaratish va talaffuz qilinganlarni eshitish talab qilinadi.

Doman inson miyasini kompyuterga o'xshatadi. Uning fikricha, miya muvafaqqiyatlari faoliyat yuritishi uchun ma'lumotlar bazasini to'ldirib olishi lozim. Ammo bola kompyuter emas, balki tirik mavjudot, uni faqat turli sonlar va faktlar bilan to'ldirishning o'zi yetarli bo'lmaydi. U olgan ma'lumotlarini mantiqan to'g'ri qo'llab, foydalana olishi lozim. Kichkina bola tajriba, ijodiy mashg'ulotlar, suhbatlashish, o'yin va sevgiga muhtoj. Shu sababli, Doman usuli daholarni yetishtirish uchun yetarli emas hamda ko'p mehnat talab qiladi. Faqatgina matematika bilan kuniga eng kami 6 marotaba shug'ullanish lozim. Natijada ota-onas aksar vaqtini bu darslar bilan o'tkazadi, kechki soatlarda esa yangi darslar uchun kartochka tayyorlash lozim. Ammo, bu usuldan umuman bosh tortish ham to'g'ri emas, balki, uning samarali tomonlaridan foydalanish mumkin. Masalan, bolaning sevimli kitobini o'qish bilan birgalikda unga turli kartochkalarni ko'rsatsangiz bo'ladi.

2. Valdorf pedagogikasi

Bu ta'lim usuli olim va pedagog R.Shtayner falsafasiga asoslangan bo'lib, uning mohiyati shaxsning ruhiy va estetik rivojlanishiga qaratilgan, bolaning aql-zakovati esa unchalik ahamiyat

kasb etmaydi. Shu sababli, mazkur usul tabiat, ijod va kasb hunarlarni kuzatishni o'z ichiga olgan. Valdorf ta'limi markaziarida o'quvchilar

ganchkorlik, turli musiqa asboblarini chalish, xalq hunarmandchiligi, turli sahna ko'rinishlarida ishtirok etish (aktyorlik mahorati) kabi mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar. O'qish uchun mashg'ulotlarni esa bola 12 yoshga kirgandan so'ngra boshlash tavsiya qilinadi. Ta'lif vaqtida bolaning asosiy bilim manbai va yo'naltiruvchisi o'qituvchidir. Dars o'qituvchi va o'quvchi orasidagi suhbat tarzida o'tkaziladi. O'qituvchi darsni hikoya qilib bergach, o'quvchi o'z tushunganlarini so'zlash va ko'rsatish bilan namoyish qilishi lozim.

Albatta, Valdorf usulining ham-o'ziga yarasha kamchiliklari bor. Ba'zilarning fikriga ko'ra, bu usul real hayotdan uzoq bo'lgan vaziyat yaratishi ehtimoli katta. Undan tashqari, bolaning normal rivojlanishida asossiz to'sqinlik yuzaga keladi, 12 yoshda o'qishni o'rgana boshlash bola uchun juda kech. Bu usulda asos qilib olingan estetik tarbiya esa mantiq va tafakkur rivojlanishining cheklanishiga olib keladi. Valdorf usuli giperaktiv, asabiy, agressiv, o'ziga ishonchi yo'q va e'tibori past bo'lgan bolalar uchun foydalı.

Ammo ishingiz sababli vaqtinigiz kam bo'lsa, bu usul sizga to'g'ri kelmasligi mumkin. Chunki farzandingiz bilan birgalikda chevarlik, ganchkorlik kabi hunarlarni birga qilishingiz lozim. Dars davomida butun e'tibor bolaga qaratiladi, Ota-onalar esa vaziyatga moslashadi va faqat yordamchi vazifasini bajaradi. Valdorf pedagogikasi bolaning sog'lom o'sishiga negativ ta'sirining oldini olish uchun ta'lif tizimida hech qanday shoshilishga yo'l qo'ymaydi.

Mariya Montessori usuli bolalarga o'yin shaklida ta'lif berish, mashqlarni esa mustaqil ravishda bajarishiga asoslangan. Har bir bolaga uning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan

holda yondashiladi. Bola o'zi mustaqil ravishda materiallarni tanlaydi va dars vaqtini belgilaydi, ya'ni individual tarzda shakllanib boradi. Bu usulning asosiy maqsadi bolaga o'z individual qobiliyatlarini namoyon qilish istagini uyg'otishdir. Montessori usuli boshqa ta'lif usullaridan tubdan farq qiladi. U bolaga qilgan xatolarini topib, ularni to'g'rinish huquqini beradi. O'qituvchining vazifasi esa o'qitish emas, bolani mustaqil harakatlanishga undash. Bu usul yordamida bolaning mantiqiy va ijodiy tafakkuri ortadi, diqqat-e'tibori, xotirasasi, nutqi, motorikasi rivojlanadi. Undan tashqari, Montessori uslubi jamoaviy o'yin va mashg'ulotlarga ham alohida e'tibor qaratadi, bu esa bolada

3. Montessori usuli

boshqalar bilan o‘zaro muloqatga kirishish, maishiy faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mustaqil fikrga ega bo‘lish layoqatini rivojlantiradi.

4. Inklyuziv ta’lim

Bu – barcha o‘rganuvchilarni teng huquqlilik asosida maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda va barcha ta’lim muassasalarida birgalikda ta’lim olishini anglatadi.

Inklyuziv ta’lim bu – hamma o‘qiy oladigan maktablarda bolalarni tengdoshlari bilan maxsus ta’lim ehtiyojlariga qaramasdan birgalikda o‘qitish jarayonidir. Shunga qaramasdan maktablarda bunday bolalarni birgalikda o‘qitish masalasi hali ham turli milliy va xalqaro forumlarda katta bahs va munozaralarga sabab bo‘lib kelayotgan muammodir. Inklyuziv ta’lim qizg‘in bahslarga sabab bo‘ladigan qiyin va ziddiyatli muammoligicha qolib kelmoqda.

«Inklyuziv» tushunchasi haqida juda katta noaniqliklar mavjud. Qayerda siyosat yoki amaliyot birinchi bo‘lishi haqida so‘z yuritilganda ishonarli faktni ta’minlab beruvchi ilmiy asosni topish qiyin. Bu yo‘lda ba’zi bir maktablar tomonidan darsga qatnasha olmasliklari ularning umumiy natijalariga yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarni saqlab qolishga norozilik bildirilmoqda. Bir biridan farq qiluvchi ehtiyojlarga nisbatan ta’limda o‘sib kelayotgan harakat mavjud va bu harakat inklyuziv ta’lim falsafasi bilan mos tushmaydiganga o‘xshayapdi.

MAXSUS EHTIYOJLARI BOR TALABALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIMNING FOYDALARI

Maxsus ta’limga ehtiyoj (MTE)ga ega talabalar uchun inklyuziv ta’limning foydali jihatlari quyidagilardan iborat:

- nuqsoni bor talabalarning ta’lim dargohidagi vaqtini sinfdosh(kursdosh)lari bilan o‘tkazishi ularni ko‘plab ijtimoiy munosabatlarga kirishishini ta’minlaydi;
- maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning mos xulq-atvor modellari mavjud. Ular bemaolol MTEsiz talabalarning ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor normalarini kuzata oladilar va taqlid qila oladilar;
- o‘qituvchilar tez-tez MTEga ega talabalar uchun yuqori ijro standartlarini rivojlantirib turishadi;

- ham umumiy, ham maxsus ta’lim beruvchilar hamma sohalarda talabalardan munosib xatti-harakat kutishadi;
- MTEga ega talabalar yoshga va hech qachon o’quv rejasiga kiritilmaydigan ajratilgan sohadagi akademik mundarijaning vazifaviy komponentlari, masalan, ilm-fan, ijtimoiy ta’lim sohalari va boshqalarga qarab o’qitiladi;
- qo’shimcha mashg’ulotlarga qatnashish MTEga ega talabalarning hayoti davomida umumlashgan sohalarning har birida o’zini ko’rsata olish qobiliyatini oshiradi (Rayndek va Alper, 1996)

MAKTAB SHAROITIDA MAXSUS TA’LIMGA EHTIYOJI BO’LMAGAN O’QUVCHILAR UCHUN BA’ZI IMKONIYATLAR ILOVASI

Maxsus ta’limga ehtiyoji bo’lmagan talabalar uchun ba’zi imkoniyatlar ilovasi quyidagilardan iborat:

- maxsus ta’limga ehtiyoji bo’lmagan talabalar o’zlarining yoshlari dagi maxsus ta’limga ehtiyoji bor bo’lgan tengqurlari bilan o’zaro munosabatda bo’lishlari uchun turli – tuman imkoniyatlarga ega bo’ladilar;
- ular ta’lim jarayonida o’zaro sheriklik, sinf rahbarlari sifatida ish olib borishlari mumkin;
- ular tushlik vaqtida, avtobusda yoki o’yingohlarda maxsus ta’limga ehtiyoji bor bo’lgan bolalar uchun o’zgacha maxsus «do’st» rolini o’ynashlari mumkin;
- maxsus ta’limga ehtiyoji bo’lmagan bolalar maxsus ta’limga ehtiyoji bor bolalar bilan o’zaro munosabatda bo’lish jarayonida irodalilik, individual farqlilik hamda imkoniyati cheklangan insonlar haqida ko’plab narsalarni o’rganishlari mumkin;
- maxsus ta’limga ehtiyoji bo’lmagan bolalar maxsus ta’limga ehtiyoji bor bolalarning ko’plab ijobiy xususiyatlar va qobiliyatlarga ega ekanliklari to’g’risida ma’lumotga ega bo’lishi mumkin;
- maxsus ta’limga ehtiyoj bo’lmagan bolalar maxsus ta’lim, nutq muoliasi, psixologik muolaja, hordiq chiqaruvchi muolaja va kasbiy sog’likni tilovchi kabi ko’plab insonlarga xizmat ko’rsatish sohalari haqida o’rganish imkoniyatiga ega bo’ladilar;
- maxsus ta’limga ehtiyoja ega bo’lmagan bolalar uchun inklyuziv ta’lim muloqot qilish va yakka shaxslarning keng sohasi bilan natijaviy shug’ullanishni o’rgatish imkoniyatini beradi. Bundan

tashqari bu ularni o'smirlilik paytlaridanoq ko'p millatli jamiyatda to'liq ishtirok etishlariga tayyorlaydi (Rayndak va Alper, 1996);
— inklyuziv ta'limga tumandagi o'quvchilarning ta'limga ehtiyojlariga maktab javobgar ekanligini kafolatlaydi. Bu esa maktabning jamiyat bilan yaqinlashishiga olib keladi.

O'quv rejasi muammo va masalalari

Inklyuziv ta'limni amalga oshirish va turli xil o'qish qobiliyatlari mavjud talabalarning yaxshiroq moslasha olishlari uchun ta'lim tizimi, o'qitishning tuzilishi va o'qitish amaliyotini namoyish etish ko'proq moslashadigan hamkorlik tarzida bo'lishi zarur⁸².

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Korreksion pedagogika qanday masalalarni o'rganadi?
2. Korreksion pedagogika qanday tamoyillarga ega?
3. Korreksion pedagogikaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Anomal oquvchilar bilan qanday korreksion ishlar olib boriladi?
5. Bola rivojlanishidagi nuqsonlar qanday turlarga bo'linadi?
6. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlashda qanday tashxislash tamoyillariga amal qilinadi?
7. Bola rivojlanishidagi nuqsonlarni aniqlashda qanday metodlar qo'llaniladi?
8. Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish . qanday tartibda amalga oshiriladi?
9. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishslashda nimalarga e'tibor qaratish lozim?
10. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarni o'qitish qanday o'ziga xosliklarga ega?
11. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish samaradorligini qanday ta'minlash mumkin?

⁸² (Dr. Smriti Swarup Education of children with special needs National Council of Educational Research and Training, 2006 P.11-13)

Mustaqil ta'lim mavzusi

1. O'zbekistonda mustaqillik yillarda pedagogik diagnostika sohasida amalga oshirilgan ishlar va ularning natijalari.
2. O'zbekistonda mustaqillik yillarda korreksion pedagogika sohasida amalga oshirilayotgan ishlar.

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI:

1-topshiriq.

Talabalar uchun topshiriq

"Galeriya" metodi asosida quyidagi mavzularda anomal o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion pedagogika kategoriyalari va yo'naliшlariga oid annotatsiya tayyorlang:

- 1 – guruh. Anomal bolalarni o'qitish va rivojlanтиrish.
- 2 – guruh. Anomal bolalarni tarbiyalash.
- 3 – guruh. Korreksiya va korreksion-tarbiyaviy ishlar.
- 4 – guruh. Kompensatsiya va ijtimoiy reabilitatsiya.
- 5 – guruh. Ijtimoiy adaptatsiya va oilaviy tarbiya reabilitatsiyasi.

2-topshiriq. «ASSESSMENT» topshirig'i shartlari bilan tanishib, ularga yozma ravishda javob yozish.

«Assesment» texnologiyasining maqsadi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnologiya orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'naliшlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Namuna. Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

Test

Aqli zaiflar bilan ishlash tamoyili kim tomonidan asoslangan?

- A) Rene Dekart
- B) Filipp Pinei
- C) Logan Pestalotssi
- D) Alfred Bine

Muammoli vaziyat

Ma'ruza darslarida ko'p uchraydigan vaziyat. Talabalar ko'p hollarda o'z xotirasi va o'ziga ishonmaslik yuzasidan shikoyat qilishadi. Bunday vaziyatlarda ular qanday psixologik bilimlarga muhtoj deb bilasiz?

Ma'ruza darsida vaziyatdan chiqishga harakat qilish uchun nima qilgan maqsadga muvofiq?

Belgilari

Tashxislash turlari –

Tashxislash tamoyillari –

Amaliy ko'nkmalar

Korreksion pedagika barcha sohalar bilan bog'liq. Sizning kasbiy faoliyatingizda zarur amaliy-nazariy korreksion pedagogik bilimlar qay darajada bo'lgani ma'qul.

3-topshiriq: Ushbu labirintdan quyida berilgan so'zlarni toping

D	O	L	I	G	O	F	R	E	N	I	Y	A	N	Q
A	I	N	K	L	Y	U	Z	I	V	A	L	K	V	L
B	B	A	H	O	L	A	S	H	M	U	S	O	A	O
P	R	O	G	N	O	Z	R	A	S	H	X	M	Z	G
S	E	M	A	N	T	I	K	U	A	A	O	M	I	O
P	N	U	T	Q	O	N	G	Y	Q	N	S	U	F	P
A	T	G	L	E	N	S	I	I	A	O	X	N	A	E
K	S	X	K	O	N	S	T	R	U	Q	T	I	V	D
A	Q	L	I	Y	K	N	A	I	N	Z	N	K	I	I
D	P	A	N	E	A	D	S	E	K	N	U	A	Y	Y
E	A	S	R	M	T	X	G	Z	A	A	Q	T	G	A
M	Q	R	I	N	F	O	R	M	A	T	S	I	O	N
I	O	L	I	X	Z	H	O	N	O	A	O	V	X	P
K	X	M	P	K	I	D	A	Q	S	P	N	O	A	F
A	S	N	E	R	V	K	H	N	A	M	A	S	H	Q
T	I	F	L	O	P	E	D	I	Y	A	M	E	A	X

1. Tiflopedagogika
2. Oligofreniya
3. Diagnostika
4. Korreksiya
5. Konstruktiv
6. Baholash
7. Prognozlash
8. Anomal
9. Logopediya

10. Psixik
11. Nuqson
12. Semantik
13. Eczogen
14. Kommunikativ
15. Inklyuziv
16. MTE(maxsus ta'limga ehtiyoj)
17. Vazifaviy
18. Nutq

19. Akademik
20. Mashq
21. Mantiq
22. Glen
23. Domom
24. Usul
25. Nerv
26. Ong
27. Informatsiya
28. Aqliy

ELEKTRON PEDAGOGIKA VA PEDAGOGNING KASBIY AXBOROT MAYDONINI LOYIHALASH

Reja:

1. *Ta'linda axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Pedagogik dasturiy vositalar.*
2. *Pedagogik faoliyatda amaliy va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish.*
3. *Internet texnologiyalari. Internet xizmatlari bilan ishlash.*
4. *Pedagogning elektron portfoliosini shakllantirish.*

Tayanch tushunchalar: axborot texnologiyalari, pedagogik dasturiy vositalar, Virtual borliq. Internet xizmatlari, forum, portal, veb-sayt, Ziyonet, qidiruv tizimlari, Internet kataloglar, ixtisoslashgan qidiruv tizimlari, pedagogning axborot maydoni, ta'lim portali, virtual muloqot, reklama sayt, informatsion sayt, ta'limiy sayt.

Mavzuning qisqacha mazmuni: ushbu mavzuda ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bilim, malaka va ko'nikmalar, pedagogik dasturiy vositalar, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish muammolari, ta'limiy saytlar, Internet xizmatlari bilan ishlash, Internet texnologiyalari haqida so'z yuritiladi.

TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR

Texnologiyalar rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitishda qirgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Avvallari televizor, videomagniton, kinoproyektor, diaprojektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o'z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi.

Hozirgi kunda kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisi bo'lib, har bir insonga qayerda, qaysi sharoitda ishlamasin zaruratga aylanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proyektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proyektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;
- uskunaviy dasturiy ta'minot;
- virtual matn konstrukturлari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorлari va hokazo;
- axborotlar majmui – ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, virtual muzeylear va boshqalar;
- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va kabilar).

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

- **O'quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to'rt tartibda:**
- *passiv qo'llash* – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- *reaktiv muloqot* – kompyuter imtihon oluvchi sifatida;
- *faol muloqot* – kompyuter talabaga yo'l-yo'riq berish va imtihon olishda;
- *interfaol muloqot* – kompyuter sun'iy intellekt sifatida, ya'ni talaba bilan muloqat qilishda foydalilaniladi.

Ta'linda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishga;
- o'quv faoliyatni intellektuallashtirishga;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishga;

– ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta’lim jarayonini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

– masofaviy o’quv kurslari va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilari, tegishli mutaxassislarining birlashuvini;

– pedagoglar o’rtasida vazifalarning taqsimlanishini;

– ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonga joriy etilishi:

– talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;

– o’rgani layotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasining chuqur o’zlashtirilishiga;

– o’quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

– interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o’qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalashtirishga;

– sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o’quv materiallarini o’zlashtirish strategiyasini egallashiga;

– axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

– o’rgani layotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqish va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Portal – bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko’lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog‘i tuguni. U quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi:

– ko’p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko’rsatishi;

– axborotlar ko’laming kengligi;

– asosiy tarmoq formatlarini qo’llash;

– oson va samarali qidirish tizimini joriy etilish;

– axborot resurslari integratsiyasi;

– axborot xavfsizligini ta’minlash;

– axborotlarni tabaqlashtirish;

– bilimlarni boshqarish – tahlil etishi va hokazo.

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR TUSHUNCHASI

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlataladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘sishma yordamchi vositalar kiradi.

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARNI QUYIDAGI TURLARGA BO‘LISH MUMKIN:

O‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarining bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;	Test dasturlari – egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni tekshirish yoki baholash maqsadida qo‘llaniladi;	Mashq qildiruvchi dasturlar (trenajorlar) – avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;	O‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar (Virtual borliq tizimlari)
---	--	--	---

Virtual borliq tushunchasini Jaron Lanier (Lane) taklif etgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq.

Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim.

Interfaollik foydalanuvchi real vaqtida virtual borliqdagi obyektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib, ularga ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

Virtual borliq tizimini biz imitatSION dasturiy va texnik vositalar deb qabul qilamiz. Interfaollikni ta’minalash uchun virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko‘pmoddallikkka, ya’ni ko‘z bilan ko‘radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo‘lishi zarur. Bu amallarni bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalari foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlar, shuningdek, odamning

bosh qismiga o'rnatiladigan shlem va ko'zoynak displeylar, «hid sezadigan» sichqonchalar, boshqaruvchi qo'lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlataladi. Yuqoridagilar ekzotik qurilmalarga tegishli.

PEDAGOGIK FAOLIYATDA AMALIY VA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobjiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan **didaktik talablarga quyidagilar kiradi**: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyatini mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzuksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, ma'lum bir fanning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotning zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli-tumanligi, amalga oshirilishi. Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqat (qat'iyligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllar, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvur, yoshi va individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va

malakalarni hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalar, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariiga «mijoz – server» tuzilmasi, Internet – navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonidagi individual va jamoaviy ishlar, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqililik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR

o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibili tuzilma ko'rinishida ta'minlashi, fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim olavchiga o'quv materialini bosqichma – bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

Elektron ta'lif muhitida laboratoriya ishlarini tashkillashtirishning o'ziga xos muammolari mavjud. Aynan bu muammoni virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda tashkillashtirish mumkin. O'quv jarayonida modellardan foydalanish yangi usul emas. Qadim-qadimdan o'quv-o'rganish mobaynida modellardan foydalaniib kelingan. Simulyatorlar o'quv jarayoning qariyb barcha jabhalarida: boshlang'ich ta'lifdan boshlab oliv o'quv yurtlarigacha, oddiy til o'rganishdan to mexanika sohalari gacha qo'llanilishi mumkin. Keyingi vaqtarda meditsina sohasida ham simulyatorlardan foydalanilmoqda.

Simulyatorlardan foydalanishning asosiy sabablaridan biri ularning real obyektlarga nisbatan juda ham arzon alternativ ekanligidadir. Hammaga ma'lumki, axborot texnologiyalar va kompyuter sohasini o'qitishda asosan ma'ruzalardan foydalaniladi, programmalash tillarini o'qitishda ba'zan ma'lum bir dasturlar tuzish bo'yicha mashg'ulotlar olib boriladi. Ammo kompyuter jihozlarini yasash, operatsion va tarmoq tizimlarini o'rnatish hamda sinovdan o'tkazish qimmatbaho uskunalarga ehtiyoj tug'diradi. Simulyatorlar esa shunday haqiqiy asbob-uskuna va jihozlarsiz virtual holatda kompyuter hamda tarmoq qurilmalarini yasash va sinovdan o'tkazishga imkoniyat yaratadi. Bu o'z-o'zidan katta miqdorda mablag'lar tejalishiga yordam beradi. Simulyatorlarning qariyb hech qanday moliyaviy mablag'lar talab etmasligi ma'lum tadqiqotlarni qayta – qayta amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Simulyatorlardan foydalanish jarayonida talabalar ma'ruza vaqtida o'rgangan nazariy bilimlarini virtual bo'lsa-da hayotga tatbiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda nazariya hamda hayotiy tadqiqotlarning rivojlanishiga bevosita hissa qo'shadilar. Bu o'z o'rniда talabalarni faqatgina «tinglovchi» vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilarga aylantiradi va izlanishlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda fan-texnikaning jadal rivojlanishi real-hayotiy tadqiqot uskunalarining taraqqiyoti bilan bir qatorda ketishida qiyinchilik tug'diradi. Simulyatorlarda esa bunday to'siqlar mavjud emas, akincha, ushbu «virtual tadqiqotxonalar» fan-texnika rivojlanish sur'atiga qo'shimcha tezlik qo'shadi.

Albatta, har sohada bo'lgani kabi simulyatorlardan foydalanishga nisbatan ham qarshi fikrlar mavjud. Ulardan eng

birinchisi simulyatorlarning haqiqiy obyekt va jarayonlarni to‘la-to‘kis ifoda eta olmasliklaridir. Bu simulyatorlar yordamida olingan natijalar bilan hayotiy tajribalardan hosil bo‘lgan natijalar o‘rtasida tafovutlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ba’zi simulyatorlar esa o‘yin shaklida yasalgan, masalan, uchuvchilik simulyatorlari. Ular foydalanuvchilarda doimiy ishqibozlik kelib chiqishiga olib keladi, natijada tadqiqotdan ko‘ra ko‘proq o‘yin tarafi ustun keladi.

Shunga qaramasdan, simulyatorlardan foydalanishning salbiy tomonlari ijobjiy tomonlariga nisbatan ancha kuchsiz hamda ularni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud. Shuning uchun ular simulyatorlardan foydalanishning qandaydir ma’noda cheklanishiga asosiy sabab bo‘la olmaydi.

CROCODILE PHYSICS DASTURI

Crocodile Physics dasturi fizikaning mexanika, elektr, optika va to‘lqin hodisalari bo‘limlariga oid virtual laboratoriya ishlarini yaratish va kuzatish imkoniyatini beruvchi konstruktur hisoblanadi. Bu dasturdan maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari va oliy ta’lim muassasalarining talabalari foydalanishlari mumkin.

Ushbu dastur Crocodile Clips Ltd tomonidan 1994-yildan beri takomillashtirilib kelinmoqda. Dasturdan masala yechishda, virtual laboratoriya ishlarini va namoyish tajribalarini tashkillashtirishda keng foydalansa bo‘ladi. Hozirgi kunda dasturdan 35 tadan ortiq rivojlangan davlat ta’lim muassasalarida keng foydalanib kelinmoqda.

Crocodile Technology dasturi. Bu dastur o‘rtta maktab o‘quvchi va o‘qituvchilari, litsey – kollej talabalari uchun fizika fanining «Elektr» qismini chuqurroq o‘zlashtirishda hozirgi zamon axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish imkenini beradi. Bundan tashqari, Crocodile Technology dasturidan elektrotexnika, elektr zanjirlar nazariyasini o‘rganish kurslarida ham foydalanish mumkin. Dastur elektron konstruktur bo‘lib, u monitor ekranida elektr sxemalarini yig‘ish jarayonini xuddi haqiqiy tajriba dagi singari imitatsiya qilish, elektr kattaliklarni multimetrdagi (3 o‘lchovli), ampermetr va voltmetrlarda o‘lchash imkoniyatini beradi.

Crocodile Chemistry dasturi. Crocodile Chemistry dasturi orqali Mendeleyev jadvalida mavjud barcha elementlarning kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini o‘rganish mumkin. Odadta, kimyoviy reaksiyalar ro‘y berish vaqtida reaksiyaga qatnashayotgan

molekulalarning boshqa molekulaga aylanish jarayonini (molekulalar darajada) kuzatishning iloji yo‘q. Lekin bu dastur orqali kimyoviy moddaning boshqa moddalar bilan reaksiyaga kirishish jarayonida molekulalarning dinamikasini kuzatish mumkin bo‘ladi. Bu dastur orqali kimyoviy jarayonlarni modellashtirish, turli reaksiyalarni o‘tkazish va eng asosiysi, buni xavfsiz amalga oshirish mumkin.

Crocodile ICT dasturi. Crocodile ICT dasturi Yevropa mamlakatlarda informatika fanini o‘qitishda juda yaxshi samara bermoqda. Bu dastur yordamida informatikada dasturlash jarayonini, aniqrog‘i algoritmlash bo‘limini o‘quvchiga aniqroq yetkazib berish imkonи mavjud.

«Beginnings of Electronics» dasturi. Dastur elektron konstruktor bo‘lib, u monitor ekranida elektr sxemalarini yig‘ish jarayonini imitatsiya qilishga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan dasturlardan foydalangan holda o‘qitish o‘quvchilarning (talabalarning) fanga qiziqishini oshiradi hamda ta’lim sifatining rivojlanishiga olib keladi.

INTERNET TEXNOLOGIYALARI. INTERNET XIZMATLARI BILAN ISHLASH

Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan o‘quv jarayonini tizimli integratsiyalash hisoblanadi. Bunda o‘quv jarayoni mazmunini tubdan yangilash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitida o‘qituvchining pedagogik faoliyati va talabaning ta’lim olish jarayonini tashkil etish strategik masala sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-texnik taraqqiyotning rivojlahayotgan bosqichida axborotlarning keskin ko‘payib borayotganligi va ulardan o‘qitish jarayonida foydalanish uchun vaqtning chegaralanganligi ta’lim tizimiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Ta’lim mazmunini takomillashtirishning yo‘nalishlaridan biri ta’lim oluvchilar uchun mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari, ta’limning axborot manbalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ta’lim-tarbiya jarayonlarining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab sanalsa-da, ammo bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, axborot texnologiyalarini tub ma’noda joriy etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari talabalar uchun ma'lumotlarni yetkazish, saqlash, qidirish kabi jarayonlarda katta imkoniyatga ega. Hozirda ta'lim muassasalarida elektron shaklda ko'plab axborot-ta'lim resurslari yaratilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirishni rivojlantirish yo'nalishi turli ta'lim axborot resurslarining birlashtirilishi orqali axborot-ta'lim muhitlarini yaratish bilan bevosita bog'liq. Bunday muhitni tashkil etishda, avvalom bor, ta'lim muassasalarida axborotlashtirishni tashkil etish, ya'ni barcha o'quv, ma'muriy va xo'jalik xizmatlarni, kutubxona va boshqaruv (rektorat, dekanat, o'quv bo'limi va boshqalar) bo'limlarini yagona tarmoqqa birlashtirish, ularning Internet tizimiga chiqish imkoniyatlarini yaratish, ta'lim muassasasida o'quv jarayonini nazorat qilish, hujjatlar elektron almanishuvini tashkil etish, axborot texnologiyalari negizida maxsus o'quv-metodik majmualarni yaratish orqali talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish kabi vazifalarni amalga oshirish zarur bo'ladi. Hozirda bunday vazifalarni bajarishda portal texnologiyalarini yaratish orqali axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish mumkin. Ta'lim muassasasining yagona axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida o'quv jarayonida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Axborotlarni tizimlashtirish axborot-ta'lim resurslaridan foydalanishni yengillashtiradi. Axborot-ta'lim portallarining yaratilishi axborotlarni mantiqiy tartiblash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Axborot-ta'lim portallarini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki portal texnologiyalari asosida ta'lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo'lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirishini ta'minlash muhim sanaladi.

Portallarning ko'rsatkichi unda mujassamlashgan axborotlarning ko'lami, ya'ni axborot resurslari hajmi bilan aniqlanadi. Har qanday portalning maqsadi foydalanuvchiga unga zarur axborotlarni qisqa vaqtda va turli interfeyslar orasidagi o'tishlarni ortiqcha xatti-harakatlarsiz taqdim etishdan iborat bo'ladi. Portalning foydalanuvchi interfeysi unda joylashtirilgan resurslarning tarkibini ko'rgazmali namoyish etishi, bir bo'limdan boshqa sahifalarga mantiqiy va tezkor o'tishni ta'minlashi lozim.



Taqdim etilayotgan axborot-ta'lim resurslari mustaqil ta'lim uchun topshiriklarni, o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish uchun test sinovlarini, ijodiy tafakkurni rivojlantirish bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi.

Portal uchun multimedia materiallarni tanlashda ularning axborot mazmuni, tuzilma tarkibi, uzviyligi va axborotlarni taqdim etish shakllariga e'tibor qaratish kerak. Multimedia materiallari axborotlarni oson o'zlashtirish uchun xizmat qilishi: ularning mazmunini ochib berishi, ya'ni axborotlarning mustaqil manbai sifatida foydalanish imkonini berishi lozim.

Texnologik jihatdan axborot – ta'lim portallariga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ilovalarni bajarish;

Hamkorlikdagi faoliyatni ta'minlash

O'zida mavjud resurslarni boshqarish;

Foydalanuvchilarni boshqarish;

Nazorat olib borish;

bilimlarni boshqarish;

Kommunikatsiyani ta'minlash;

qidiruvni ta'minlash;

axborot xavfsizligini ta'minlash;

tizimga ruxsat berish, ya'ni qaytadan o'tishni tashkil etish zarur.

Bilim sohalari yoki fanlar bo'yicha axborot – ta'lim portali faqat ta'lim muassasalari bilan chegaralanib qolmaydi. An'anaviy va elektron shakldagi o'quv materiallari yagona ta'lim muhitining tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini to'ldirishi muhimdir. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni yechishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Axborot-ta'lim portallarini fan-ta'lim-ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlovchi, uning rivojlanishini, ilmiy-pedagogik salohiyatdan samarali foydalanishni tashkil etish sharoitini yaratuvchi sifatida qarash mumkin. U ta'lim muassasalarining bitiruvchilariga ehtiyojlari bo'lgan buyurtmachilar uchun ham foydalidir. Portal bitiruvchilar bo'yicha axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa, ta'lim xizmatlarini taqdim etuvchilar va uning iste'molchilari bilan yangi shakldagi o'zaro aloqani yo'lga qo'yadi.

Bunday portalni yaratish, rivojlantirish uchun, avvalo, ta'lim muassasalarini kompyuterlashtirishni takomillashtirish, telekommunikatsiya tarmoqlarini yanada rivojlantirish, axborotlarni tizimlashtirish va ularni portalda joylashtirish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik kadrlarni yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakalarini shakllantirish, ularni muntazam tarzda oshirib borishni rivojlantirish muhimdir. Yagona axborot-ta'lim muhitini rivojlantirishning muhim sharti portalning o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish, elektron o'quv nashrlarni yaratishni takomillashtirish sanaladi.

Axborotlashtirish jarayonini samarali rivojlanishini ta'minlash uchun axborot infratuzilmasini mukammal shakllantirishga e'tibor qaratmoq zarur bo'ladi.

TA'LIM JARAYONIDA INTERNET RESURSLARIDAN FOYDALANISH

O'quv jarayonlarida Web – saytlardan foydalanishning ko'pgina yutuqlari mavjud. Shu bois bunday saytlarni yaratish va mazmunan yangilab borish ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o'quv muassasalari uchun bag'ishlangan saytlarni yaratish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bunday saytlarni yaratish uni o'rganish mobaynida Internet tizimi bilan bog'liq omillarni hisobga olish lozim.

Bunday omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

dunyo bo'yicha Internet xizmati imkoniyatlarining kengligi;
Web – saytlar xizmatidan foydalanishning oddiyligi;
Web – texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik;
real vaqt mashtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
muassasa va xususiy shaxslarning o'zлari to'g'risidagi axborotlarni Internetga joylashtirishga intilishi.

Bugungi kunda Internetga joylashtirilgan Web – saytlarning quyidagi turlari mavjud:

1. Reklama sayti – ixtiyoriy reklama singari Internet informatsion muhitidagi aniq mahsulot va xizmat yoki brendni reklama qilish uchun xizmat qiladi. Katta miqdordagi grafik element va multimedia vositalari (Flash) sahifalarida qo'llanilishi bilan farqlanadi.

2. Informatsion sayt – mijozlarning virtual uyushmasini tuzish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilishda «informatsion to‘sinq» ni olib tashlash uchun tashrif buyuruvchilarni mahsulot va xizmat turlari to‘g‘risidagi ma'lumotlar bilan to‘la-to‘kis boxabar etish uchun xizmat qiladi. Sahifalar tashqi ko‘rinishining ko‘rkamligi (ixchamligi) bilan ajratib turadi, chunki Web – saytdagi barcha elementlar kerakli axborotlarni tez va qulay usulda qidirib topish uchun xizmat qiladi.

3. Biznes-sayt – kompaniyaning alohida tashqi biznes – jarayonlarni tashkil qilish uchun xizmat qiladi (masalan, ta'minotchi va dillerlarning ombordagi mahsulotlar; mahsulot yoki xizmatlarga ega bo‘lishdagi buyurtmalari, xizmatchi va dillerlarni o‘qitish; suhbatlar olib borish jarayonlari to‘g‘risida). Biznes jarayonlarni tashkil etish uchun dasturiy modullar (Internet – ilova) mavjudligi bilan farqlanadi.

4. Korporativ portal kompaniya ichki va tashqi biznes-jarayonlarining servislarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, korporativ portal tarkibiga kompaniyaning turli xil bo‘limlari o‘rtasida axborot almashuvi, buxgalteriya ilovalari, ombor, kadrlar bo‘limi, statistik va analistik axborotlar, spravochnik, o‘quv axborotlari; ta’minotlar, dillerlar, iste’molchilar bilan ishlash uchun avtomatlashtirilgan vositalar kiradi. Biznes – jarayonlarni tashkil etish uchun Internet-ilova, kompaniya (buxgalteriya, ombor, rejalashtiruvchilar va boshqalar.) da foydalilaniladigan amaliy dasturlarga kirish uchun interfeyslar mavjudligi bilan farqlanadi.

5. Ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan saytlar. Bunday saytlar asosan ta’lim muassasasi haqida ma'lumotlarning keng ommaga tanishtirish, ta’lim muassasasida faoliyat olib boruvchilar hamda o‘quvchilarni ta’lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta’minlab turish maqsadida yaratiladi. Shuningdek, ta’lim va tarbiyaga bag‘ishlangan bir necha saytlar mazmunan va mantiqan birlashtirilib, ta’limiy portalni tashkil qilishi mumkin.

O'QUV MUASSASASI UCHUN YARATILGAN SAYTLARNING AHAMIYATI

Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi foydalanuvchilarning har daqiqa ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini talabalar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan, o'quv muassasalariga bag'ishlangan veb – saytlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet xizmatining turlari va ularning xarakterini aniqlab olish nihoyatda muhim. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib Internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW (ma'lumotlar majmuasi) va GTR (dasturlar majmuasi) lar kiritiladi.

Kommunikatsion xizmatni esa ikkiga: **bevosita** (PC, chat) va **bilvosita** muloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin.

Internetdagi barcha "o'quv muassasa uchun yaratilgan sayt"larni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin:

• o'rgatuvchi Internet manbalari;

• maslahat beruvchi Internet manbalari;

• axborotli Internet manbalari;

• baholovchi Internet manbalari;

• taqdimotli Internet manbalari

Quyida ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

O‘rgatuvchi Internet manbalariga masofaviy ta’lim, virtual maktablar, laboratoriylar va vebsinflarni misol sifatida keltirish mumkin.

Maslahat beruvchi Internet manbalariga turli telekonferensiyalar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy birlashmalar, muammoviy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol qilish mumkin.

Axborotli Internet manbalariga elektron o‘quv qo‘llanmalarini, ma‘lumotnomalarni, elektron kutubxonalar, lug‘atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi Internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin:

Taqdimotli Internet manbalariga ta’lim muassasalarining ta’lim yo‘nalishlari haqida atroflicha ma‘lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin.

Ta’lim muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o‘qituvchilar ta’lim oluvchilarga masofadan turib bilim olishlariga imkon yaratadi. O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar, ayniqsa, o‘qitish joylariga qatnashi qiyin bo‘lgan ta’lim oluvchilarga qulaydir. O‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o‘qitish, o‘quv jarayonini an’anaviy tashkil etishning asosiy shakllarini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarining ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O‘quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarini mustaqil bilish faoliyatini turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o‘qituvchi yoki tyutor bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarining guruh bo‘lib ishlarni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ta’lim muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o‘qituvchilarga:

- Internet tarmog‘i yordamida u yoki bu o‘quv fanlaridan to‘plangan tajriba va uslublarni boshqa hamkasblari bilan almashish;
- bir vaqtning o‘zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o‘qitish uslublarini amalga oshirish orqali o‘quv jarayonini individuallashtirish;
- o‘quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan

bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazish;

– qo'lida bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalar bilan yakka tartibda ishslash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish;

– talabalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Ta'lif muassasalari saytlardan foydalanish talabalarda:

– o'z xohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash;

– tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;

– oldin o'r ganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtida murojaat qilish;

– turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish;

– o'r ganilayotgan obyektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish;

– kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagи to'siqlardan xoli bo'lishga (kulgu bo'lmaslik, jur'at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;

– tayyorgarlik darajalari yetarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- darslik;
- audio va video darsliklar;
- onlayn darslar (Internet sahifa);
- elektron kutubxonalar;
- testlar;
- multimedia – elektron darsliklar;

Respublikamiz Oliy va o'rta maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarni kataloglashtirish, respublika ta'lif muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lif muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalaning ijobjiy yechimini topish hamda ta'lif muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lif muassasalari saytlarini ta'lif jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan www.zivonet.uz axborot – ta'lif portali ishga

tushirildi va unda barcha ta'lif muassasalari uchun ta'lif resurslari joylashtirilganligi ahamiyatga molikdir.

ZIYONET AXBOROT – TA'LIM PORTALI

ZiyoNet jamoat axborot ta'lif tarmog'i O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lif axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida»gi 2005-yil 28-sentabrdagi 191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.



ZiyoNet axborot tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lif oluvchilarga bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. ZiyoNet axborot ta'lif tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamlini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinislari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni o'z zimmasiga oladi.

Foydalanuvchilar

• ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga ZiyoNet portalini barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. ZiyoNet portalining kutubxonasiga axborot-ta'lifiy ma'lumotlarni joylashtirish.
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt – satelitlarni yaratish.
3. ZiyoNet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish.
4. ZiyoNet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

An'anaviy va elektron shakldagi o'quv materiallari yagona ta'lif muhitining tarkibiy qismi sifatida bir-birlarini to'ldirishlari muhim sanaladi. Yangi axborot texnologiyalarining imkoniyatlardan foydalanish ayrim pedagogik muammolarni yechishga xizmat qiladi.

Shu maqsadda Tempus loyihasi doirasida www.pedagog.tdpn.uz portalni ishlab chiqilgan bo'lib, unga ta'lif muhitining birligini, pedagogik ta'lif sifatini, rivojlanishini, ilmiy-pedagogik salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish sharoitini yaratuvchi sifatida qarash mumkin.



www.pedagog.tdpn.uz portalini bosh sahifasi

Yagona axborot portalning yaratilishi quyidagi ijobiy natijalarga olib kelishi maqsad qilingan:

- respublika pedagogika ta'lif muassasalarining yagona axborot muhiti tashkil qilinadi;
- yagona kutubxona muhiti shakllantiriladi (elektron kutubxona yaratilishi, elektron darsliklar va noan'anaviy axborot tashuvchilar fondining shakllanishi, yagona ma'lumotlar bazasi yaratilishi va hokazo.);
- pedagogik ta'lif sohasida yagona telekommunikatsiya tarmog'i muhiti yaratiladi;
- yangi axborot-ta'lif muhитini shakllantiradi, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy-psixologik asoslari takomilashtiriladi;
- yangi axborot madaniyatiga ega pedagogik kadrlarini shakllantirish orqali pedagogik ta'lif sifati oshiriladi;
- yangi ta'lif texnologiyalarining ilmiy va metodik ta'minoti tizimini yaratiladi;



- ta'lim axborotlariga, axborot resurslariga ommaviy tashrifni ta'minlashi, hujjatlarni uzatish, hisobga olish mexanizmini tizimlashtirishi, respublikada pedagogik ta'limning holati bo'yicha axborotlarni jamoatchilik uchun ochiqligi amalga oshiriladi;
- masofaviy ta'lim tizimi rivojlantiriladi.

Pedagogika ta'lim muassasalarining yagona axborot makonining yaratilishi pedagogik ta'lim sifati va axborot ta'minotining rivojlanishiga sharoit yaratadi. Hozirda portalda pedagogika ta'lim yo'naliishlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalar, o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ma'ruzalar matnlari, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalari, avtoreferatlar, "Pedagogik ta'lim" jurnalining elektron versiyalari joylashtirilgan elektron kutubxona va masofaviy kurslar, testlar, elektron konferensiyalar, har bir pedagogik OTM haqida ma'lumotlar va pedagogika OTMlari bitiruvchilari, yangiliklar haqidagi ma'lumotlar joylashtirilgan.

O'z – o'zini nazorat qilish uchun savollar

1. Qidiruv tizimlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Internetda nisbatan ommabop qidiruv mashinalarini ayting?
3. Portal nima?
4. Portallarga qanday talablar qo'yiladi?
5. Portalning maqsadi nima?
6. Internetga joylashtirilgan Web – saytlarning qanday turlari mavjud?
7. ZiyoNet jamoat axborot ta'lim portali qachon ish boshlagan?
8. ID.UZ qanday sayt?

AMALIY MASHG'ULOT TOPSHIRIQLARI

1-topshiriq. «FSMU» texnologiyasi asosida berilgan vazifani bajaring.

“FSMU” texnologiyasi

- (F) – Fikringizni bayon eting.
- (S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating.
- (M) – Ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring.
- (U) – Fikringizni umumlashtiring.

Ushbu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rnatadi.

2-topshiriq. Berilgan savollarga kalit so'zlar toping va esse yozing.

1. ZiyoNet nima?
2. O'quv jarayonlarida Web – saytlardan foydalanishning qanday yutuqlari mavjud?
3. Portallar deganda nimani tushunasiz?
4. Ta'lim muassasalari saytlardan foydalanish talabalarda murakkabliklar tug'dirmaydimi?

3-topshiriq. «Elektron pedagogika va uning o'ziga xos xususiyatlari» mavzusida taqdimot tayyorlang.



GLOSSARIY

Termin	O'zbek tilidagi izohi	Rus tilidagi izohi	Ingliz tilidagi izohi
Modernizatsiya Модернизация Modernization	Pedagogik ta'limgarayoni va pedagogika fanini davr talablari asosida yangilash	Процесс педагогического образования и образовательной науки на основе обновления периода	Modernization of pedagogical process and pedagogical science on the basis of time requirements
Uzluksiz ta'lim Непрерывное образование Continuous education	O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi	Ссылка на основе логической последовательности и простоты, в зависимости от сложности разработки и требует один шаг целостной системы образования	Integrated learning system consisting of interconnected and interconnected stages, connected by a logical sequence
Milliy model Национальная модель National model	«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning o'zagini tashkil etuvchi yaxlit tizim	«Национальная программа» составляет ядро всей системы	A unified system that forms the core of the National Program of Personnel Training
Ta'limming milliy modeli Национальный модель об образования Education national model	O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'limgarbiya	Система образования Республики Узбекистана на основе обновленного звука педагогического мышления радикальных	Theoretical and methodological, practical and pedagogical approaches to radical reforming of the education system in the Republic of Uzbekistan on the

	<p>muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ta rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondashuvlar majmui.</p> <p>Ta'limming milliy modelida ma'naviy-intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qibiliyatini to'la namoyon etishini ta'minlash ko'zda tutiladi.</p>	<p>реформ, учебные заведения и персонал подготовили интеллектуальный, духовный и нравственный уровень развитых стран в соответствии с уровнем теоретико-методологического и практического набором педагогических подходов.</p>	<p>basis of up-to-date healthy pedagogical thinking, as well as bringing the cadres trained in the educational institutions to the level of developed countries at the level of intellectual, spiritual and ethical level.</p>
<p>Ta'lim Образования Education</p>	<p>O'quvchi va talabalarga bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayoni, yoshlarni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi</p>	<p>Школьники и студенты по развитию знаний, подготовки, навыков и квалификации, чтобы убедиться, что процесс, основным средством</p>	<p>The process of educating, educating, developing skills and skill in pupils and students is a major tool for preparing young people for life and work.</p>

		подготовки молодых людей к жизни и работе	
Тизим Система System	Tartibga solingan, o'zaro bog'langan va ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa	Следственная связь между образовательны- м событием	A regulated, interdependent and influential pedagogical event
Ta'lism tizimi Система образования, Educational system	Turli daraja va yo'nalishdagi o'zaro aloqador uzhuksiz ta'lism dasturlari va davlat ta'lism standartlari, tashkiliy-huquqiy turlaridan qat'iy nazar ta'lism muassasalarining barcha tarmoqlari, ta'limga boshqaruv organlari va ular qoshidagi muassasa hamda tashkilotlarni qamrab oluvchi tizim	Различные степени и взаимные связанные программы непрерывного образования и государственные образовательные стандарты, независимо от организационно- правового ТАрлев все сектора образовательных учреждений, органы управления образования и учреждения и организации в рамках системы контейнера	Integrated continuing education programs of varying degrees and directions, and the system of inclusive education, regardless of organizational and legal status, covering all sectors of educational institutions, education management bodies and their institutions and organizations
Ta'lism prinsiplari, Принципы образования, Education Principles	Yoshlarga ta'limga tagbiya berishda ta'lism maqsadlariga muvofiq q'itishning asosiy xarakterini belgilab beruvchi tayanch qoidalar	По образованию молодежи в образовательных целях преподавания основных правил, которые определяют характер базы	Guidelines for determining the basic character of education in accordance with educational objectives for young people

Tarbiya Воспитание Education	Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; yosh avlodni muttasil rivojlanadirishga yo'naltirilgan umuminsoniy hamda milliy ijtimoiy tajribani o'quvchi va talabalarga uzliksiz taqdim etish jarayoni	Личные определенные физические, психические, моральные и духовные образования, направленные на учебном процессе; развитие молодого поколения, сочетающее в себе человеческий и социальный опыт школьников и студентов, чтобы обеспечить непрерывный процесс	Practical pedagogical process aimed at the formation of certain physical, psychological, moral, spiritual qualities in a person; Continuous delivery of universal and national social experience to students and students aimed at the inclusive development of the younger generation
Innovatsiya Иновация Innovation	Yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, texnologiyalar va yangiliklar	Новые концепции, процедуры и технологии новости	New concepts, rules, technologies and news
Menejment Менеджмент Management	Mavjud minimal imkoniyatlarda maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhgaga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik	Для достижения текущего минимума максимал эффекта конкретного лица или группы лиц, они должны сотрудничать с процессом	Effect on a particular employee or team, the process of collaboration with them in order to achieve the best possible results in the existing minimum

	qilish jarayoni		capabilities
Kompetentsiya Компетация Competency	Lotinchada «competo» «erishyapman, munosibman, loyiqman»- u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribaga degan ma'nolarni anglatadi.	Латинская «Конкурировать » цель, достойная, loyiqman- он или средства познания, опыт работы в этой области.	In Latin, I'm gaining a "competo", meaning worthy, worthy, or knowledgeable, or experience.
Boshqaruv Управление Management	Bu qadimgi san'at va eng yangi fandir	Это самое древнее искусство и наука	It is the oldest art and the latest fanatic
Ko'pqirrali qobiliyatlar Множественные способности Multiple abilities	Ko'pqirrali qobiliyatlar deganda turli xil insonlar turli xil ushublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'r ganilishi tushuniladi. Xou ta'kidlashicha hech qachon ikki o'r ganuvchi bir xil bo'lmaydi: har bir shaxs o'ziga xos qobiliyatlar egasidir	Простое объяснение многообразных навыков с помощью различных методов для разных людей означает разные вещи для человека или понять различные виды обучения. Хоу сказал, что никакие два исследования не являются не то же самое: каждый человек имеет недостаток состояние	To illustrate, it is understood that multidimensional abilities can mean that different people learn differently or in different ways. As Hoe argues, the two learners will never be the same: each person has his own abilities
Avtoritar rahbar Уполномочен-	Barcha ko'rsatmalarni ishchanlik ruhida,	Все инструкции конструктивный дух, четкие,	It sends all instructions to its employees in a

ный руководитель Authorized leader	aniq, ravshan, keskin ohangda xodimlariga yetkazadi	яркие, острые навыки	business sense, clear, clear, sharp tone
Liberal (loqayd) rahbar Либеральный лидер Liberal leader	Bunday rahbar kayfiyatini, ishga munosabatini, ishdan mammun yoki mammun emasligini bilish qiyin. Unda ta'qidlash, po'pisa bo'lmaydi, uning o'mniga, ko'pincha, ishning oxirgi oqibati bilan tanishish bilan cheklanadi, xolos.	Управление материальных потоков - настроение, отношение, довольное или недовольное знать, что тяжелую работу. Запрет не будет угрожать, а, по большей части ограничивается встретить конец последнего случая.	It is difficult to know how the manager working in style - mood, work attitude, satisfaction, or dissatisfaction with the job. It does not intimidate, and it is often limited to getting acquainted with the final outcome of the case.
Demokratik rahbar Лидер демократов Democrat leader	Aksincha, o'z qo'l ostidagilarga mustaqillik, erk berish tarafdoi. Ishda topshiriqlar berganda ishchilarning qobiliyatini, shaxsiy moyilliklarni ham hisobga oladi.	Напротив, его подчиненные, выступающие за независимость, свободу. Учитывая возможность работы в предоставлении инструкции работников, принимая во внимание личные наклонностей.	On the contrary, he is a supporter of freedom and self- determination. She takes into account the capabilities of the worker when she gives her assignments, and takes into account individual trends.
Tarbiya Образование Education	Muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama	Цель конкретного, ясно и растет все асpekты человека на основе	A process of comprehensively cultivating a person, developing consciousness,

	o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.	социального и исторического опыта, сознания, поведения и перспективы процесса разработки контента.	behavior and outlook on the basis of specific, concrete goals and socio-historical experience.
Aqliy tarbiya Умственное образование Mental education	Ilm-fan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ularga ijtimoiy va tabiiy fanlar asoslari xususidagi bilimlarni berish tarzida tafakkurni shakllantirish, dunyoqarashini rivojlantirish.	Науки, техники и технологии достижения, инновации и открытия осведомлены о социальных и естественных наук основе знаний о формировании стиля мышления и мировоззрения-развития;	Developing the world of thought and thinking in the way of science, technology and technology achievements, innovations and discoveries, teaching them the basics of social and natural sciences;
Estetik tarbiya Эстетическое образование Aesthetic education	Estetik histuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatları, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish	Эстетические эмоции, эстетическое и культурное наследие их творческих способностей, потребностей развития чувства погоне за любви и красоты, красоты, культуры;	Aesthetic feelings, upbringing of aesthetic taste, love of their creative abilities, aesthetic needs and beauty, development of emotions of beauty, formation of aesthetic culture;

Ekologik tarbiya Экологические образование Ecological education	Ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarmi qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish;	Экологические знания о единстве личности, общества и природы, и объяснить студентам, их участие в человеческой экосистеме, важная роль в развитии человеческого общества, а также укрепить наше понимание сущности природы осторожный и ответственное отношение к уходу за сохранение дикой природы, создание таких чувств а также формирование экологической культуры;	Explanation to the reader of the individual, society and nature on the basis of the ecological knowledge, as well as the understanding of the ecosystem's role in the development of human, humanity and society, careful and responsive attitude to nature, care for nature conservation , As well as the formation of ecological culture;
Oila Семья Family	Oila – er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiyo xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-onva bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa	Семейный брак, семейные отношения, ЕС экономический и жена, родители и дети, братья и сестры и другие родственники, основанные на	A small social group based on relationships between family and marriage, kinship relationships, common husband and wife, parents and children,

	qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.	отношениях между малой социальной группой; основа общества, источник власти государства	brothers and sisters and other relatives; The basis of society is the source of state power.
Dunyoqarash Кругозор Outlook	Dunyoqarash – insonning tevarak-atrofini qurshab turgan voqelik to‘g‘risidagi, olamning mohiyati, tuzilishi, o‘zining undagi o‘rnini haqidagi qarashlar, tasavvurlar, bilimlar tizimidir	Перспективы на людях вокруг вокруг окружающей действительности и, суть Вселенной, ее структура, ее система знаний о роли креста,	The world is a system of knowledge, reality, structure, conceptions, sections, knowledge about the reality surrounding human surroundings
Motivatsiya Мотвация Motivation	Skot Barmenning fikriga ko‘ra, motivatsiya 4 ta asosiy kategoriyadan iborat: faoliyatning o‘zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan holat – ichki motivatsiya. Boshqa odamlarni xursand qiladigan holat yoki vazifa – ijtimoiy motivatsiyadir. Yutuq	По словам Скотта мотивации барменов состоит из 4-х основных категорий: xolat – от интереса к функционированнию внутренней мотивации. Или удовлетворить других людей, которые случились делать – социальную среду. Победа	According to the Scottish bartender, motivation consists of four main categories: the motivation behind the activity itself is internal motivation. The social status or motivation that other people enjoy. Winning motivation is to perform tasks well in order to

	<p>motivatsiyasi – bunda boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish. Ko'makchi motivatsiya – bunda motivatsiya rag'batlash yoki jazolash orqali paydo qilinadi. (jelf helstead. Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching. 26-b.)</p>	<p>мотивации для выполнения задач, для того, чтобы конкурировать с другими - это хорошо. Вспомогательна я мотивация - мотивация или стимулы, кажется, наказывая</p>	<p>compete with others. Assistant motivation - motivation is generated through encouragement or punishment</p>
Didaktika Дидактика Didactics	<p>(grekcha «didaktikos» – «ο 'qituvchi», «didako» – «ο 'rganuvchi») pedagogikaning ta'lim muammolarini ishlab chiquvchi qismi.</p>	<p>Греческие didaktikos «» учитель «исследование didako») педагогика является частью разработчиков проблем.</p>	<p>Greek language "didactic" - teacher, "didako" learning) is a part of the educational problem of pedagogy.</p>
Metod Метод Method	<p>1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi; 2) maqsadga eltuvchi yo'l, ya'ni, maqsadga</p>	<p>1) природные и социальные явления, пытаясь познать образ жизни; 2) Путь к цели, то есть специфика действий, путь к достижению этой цели.</p>	<p>1) prirodnye i socialnye yaveniya, pytays pozniynye tasvir; (2) Put a clause, an est specification, a description and a description.</p>

	erishish yo‘lidagi xatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.		
Kasbiy yo‘nalganlik Профессиональная ориентация Professional orientation	Shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo‘lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat’iy ishonchi (a.b. Seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqish, qat’iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o‘rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda yetakchilik qilishi (n.k. Stepankova).	Тип деятельности, который нуждается человек, интересов и твердо верит в способности (США Seyteshev); 2) выбор профессии, уверенность, интерес и выбор мотивов связи между личными качествами руководства (мобильные телефоны Štěpánková).	Ability, interests, needs and perseverance of a person for a particular activity (a. Seyteshev); 2) Leadership of choice, choice of profession, motivation and choice of occupation in private qualities (eg, Stepankova).
Dars Урок Lesson	Bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli, o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayoni.	Непосредственная форма обучения определенной группе студентов под руководством преподавателя к активному процессу обучения, проведенному группой студентов под руководством процесса подготовки	The main form of the instructional process with a specific group of students under the guidance of a teacher is a learning process conducted with a group of students under the guidance of a teacher.

		учителей.	
Metod Метод Method	Grekcha «tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli» deganidir. Bu so'zning etimologiyasi (kelib chiqishi) uning ilmiy kategoriya sifatidagi talqinida ham aks etgan. «Metod – eng umumiy ma'noda – maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat».	Греческое исследование, путь к достижению этой цели, способ работы. Эта этимология (происхождение) слова в своей категории, как передача прошла. «Метод - метод для достижения цели здравого смысла, определенных регулируемых видов деятельности».	Greek research means the way to achieve goals. The etymology of this word is reflected in its scientific category. "Method - in the most general sense - the method of achieving the goal, the activity that has been specifically regulated".
Seminar Семинар Seminar	Bu o'qituvchining ta'lim oluvchilar bilan faol muloqotga kirishishiga yo'naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitni ta'minlovchi ta'limi tashkil etish shaklidir.	Этот учитель обучен общаться с активными теоретическими знаниями с практической деятельностью, направленной на обеспечение необходимых условий для реализации формы организации образования.	This is a form of education that provides the teacher with an opportunity to communicate effectively with the learners, providing the necessary conditions for the implementation of theoretical knowledge in practical activities.
Amaliy mashg'ulot Практика Practice	O'quv ishini tashkil etishning asosiy shakllaridan biri	Обучение является одной из основных форм	One of the main forms of the curriculum is the independent tasks

	bo'lib, eksperimental tavsifdagi mustaqil topshiriqlarni talabalarning professor- o'qituvchi bilan birgalikda bajarishini o'zida aks ettiradi.	эксперименталь- ной работы независимых задач, описанных студентов, преподаватели отражают соответствие с	of the experimental character, reflecting the joint work of the students with the professor-teacher
Mustaqil ish Независимая работа Independent work	O'qituvchining topshirig'i va uning rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan ta'limni tashkil etish shakli.	Задача и обязанность подготовки руководства учителя, которые будут формировать организацию образования.	The way in which the instructor's assignment and the way he organizes his / her educational work are under his / her supervision.
Pedagogik mahorat Педагогиче- кий опыт Pedagogical experience	Kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi sifatida tushuniladi. Pedagogik mahorat kategoriyasi kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi.	Это понимается как легкий пример индивидуальнос- ти в профессиональн- ой деятельности. Категория педагогических навыков характеризует индивидуальнос- ть личности с точки зрения профессиональн- ой деятельности	It is understood as a light example of individuality in professional activity. the category of pedagogical skills characterizes the individuals personality in terms of professional activity.
Pedagogik mahorat asoslari Основы педагогических навыков	Kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik	Профессиональ- ные педагогические знания, гуманистическая	Professional pedagogical knowledge , humanistic orientation,

The basics of pedagogical skills	texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasidir.	ориентация , педагогическая техника , профессиональный педагогический опыт	pedagogical technique , professional pedagogical experience.
Mahoratning shakllanish bosqichlari	Reproduktivlik (boshlang'ich), ijodiylik, ijodiy-novatorlik.	Репродуктивность, креативность, теоретические инновации	Reproductivity, creativity, creative innovation
Kommunikativ qobiliyat Коммуникативные навыки Communicative skills	Bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasidagi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqot qobiliyatidir.	Это способность четко общаться в контексте педагогических отношений	This the ability to communicate clearly in the context of pedagogical relationships.
Refleksiya Отражение Reflection	O'qituvchining o'z ongi va faoliyatini belgilash va tahlil qila olishdir (o'z fikri va harakatlariga tashqaridan nazar V.A.Slastenin).	Уметь определять анализ собственных знаний и действий учителей (со стороны его идей и действий В.А. Сластина)	To be able to define a analyze the teachers own consciousness and actions.(from the outside to his ideas and actions V.A.Slastenin.)
Innovatsionlik Новаторство Innovation	Pedagogik jarayonni ifodalab, nafaqat <u>uning didaktik qurilmasiga, balki</u> o'qituvchining ijtimoiy mohiyatli natijalari va ruhiy qiyofasiga ham taalluqlidir.	Он выражает педагогический процесс не только дидактического устройства, но и социально значимых результатов и психологически	It express pedagogical process not only its didactic device, but also on the socially significant results and psychological characteristics of the teacher. –

	Ochiqlikni, boshqalar fikrining tan olinishini bildiradi.	х характеристиках учителя- открытость , признание других идей	openness, recognition of others ideas .
Muloqotning yangi vaziyati The new situation of the dialogue	Bu o'qituvchining o'z mustaqillik mavqeini, dunyoga, pedagogik fan, o'ziga bo'lgan yangi munosabatni yarata olish qobiliyatidir.	Это способность учителей создавать позицию независимости , мир , педагогическую науку, новое отношение к себе	This is the teachers ability to create a position of independence, a world, a pedagogical science , a new relationship to himself.
Yangilik Новости News	Pedagogik yangilik me'yori sifatida o'zida taklif qilinadigan yangini, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagog olimlar yangilikning qo'llanish mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutlaq, chegaralangan mutlaq, shartli, subyektiv farajalarini farqlaydilar.	Он отражает сущность инноваций и инноваций , предлагаемых в качестве педагогической инновационной формы. Ученые-педагоги отличаются от абсолютных , условных субъективных уровней, которые варьируются в зависимости от степени и характера новизны.	It reflects the essence of innovation and innovation proposed as a pedagogical innovation form. the pedagogues scientists differ from the absolute , conditional subjective, levels, which vary according to the degree and nature of the novelty.
Maqbullik me'yori Показатель приемлемости Eligibility	O'qituvchi va talabaning . natijaga erishish uchun sarflagan kuch va	Учитель и ученик, сила и средства , которые они потратили на	The teacher and the student , the power and the means they have spent to achieve

measure	vositalarini bildiradi.	достижение результата	the result.
Natjalilik Результат Outcome	O'qituvchi faoliyatidagi muayyan muhim ijobiy natjalarni bildiradi.	Указывает на некоторые существенные положительные результаты в деятельности учителей	Indicates certain significant positive outcomes in teacher activities.
Shaxsning ijodiy-motivatsion yo'nalganligi Творческая и мотивационная ориентация человека Creative and motivational orientation of the person.	Bu - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlarga intilish, peshqadamlikka intilish, o'z kamolotiga intilishdir.	Это любопытство , творческий интерес, стремление к творческим достижениям , стремление к лидерству и стремление к совершенству	It is curiosity, creative interest, aspiration to creative achievements, aspiration to leadership and aspiration to perfection.
Kreativlik. Креативность Creativity	Bu – xayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya.	Это фантазия, гипотеза «воздержание», оценка риска , критическое мышление, самокритика, рефлексия	This is the fantasy, hypothesis' abstinence, risk assessment, critical thinking, self-criticizing, reflection.
Kasbiy faoliyatni baholash. Оценка профессиональной деятельности Evaluation of	Bu – ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini	Это умение овладевать творческой методологией, умением овладевать методами педагогических	This is the ability to master the creative methodology ;ability to master pedagogical research methods;the

professional activity	egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiysi faoliyat texnologiyasini yaratish qibiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyatidir.	исследований, умением создавать технологию авторской концепции, способность преодолевать противоречия, способность сотрудничать и поддерживать друг друга в творческой деятельности	ability to create the technology of the author's concept, the ability to overcome the contradictions; the ability to collaborate and support each other in creative activities.
Muloqot atamasi Контактний термин Contact term	Falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati jihatidan ilmiy talqin etilib, shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishi natijasida atrofdagi insonlar bilan ilmiy, maishiy, madaniy, ma'naviy, ruhiy aloqa o'rnatish jarayonidir.	Философский, социальный, психологический и процесс установления научных, культурных, духовных связей с окружающими их людьми в результате социальных взаимодействий людей	Philosophical, social, psychological, and the process of establishing scientific, cultural, spiritual, connections with the people around them as a result of the persons social interactions.
Pedagogik muloqot madaniyati Культура педагогической коммуникации Culture of pedagogical	Umumiy madaniyatning namoyon bo'lishidir.	Это общая культура	It is a common culture

communication			
Pedagogik loyihalash madaniyati Культура педагогического дизайна The culture of pedagogical design	U obyektiv imkoniyatlar bilan talab va istaklarni o‘zaro nisbatlagan holda maqsadni to‘g‘ri tanlay olish, vazifalarni belgilab olish, ularning yechilish bosqichlarini rejalashtirish, zatur qurollarni tanlab olish malakasidir. Loyihalash madaniyatini namoyish qilish bu ijodga, ya’ni favqulodda yangini yaratish, o‘rnatilgan me’yorlar va namunalar chegarasidan chiqib keta olish qobiliyati hamdir.	Он способен выбирать объективные возможности , потребности и желания в правильном направлении – способность выбирать цели, определять задачи, планировать этапы их удаления и выбирать необходимое оружие. Демонстрация культуры развития –это создание необычайных новостей, способность выйти за рамки установленных стандартов и образцов.	It is capable of selecting the objective opportunities , needs and desires in the right direction –the ability to choose objectives, define tasks, plan stages of their removal , select the necessary weapons. The demonstration of the culture of development is the creation of an extraordinary news , the ability to move beyond established standards and samples
Tashkiliy madaniyat Организационная культура Organizational culture	Pedagogik madaniyat tizimiga kiradi va u o‘qitish hamda tarbiya jarayonini pedagogik doiraning turli darajalarida (jamiyatda, o‘quv yurtlarida, bolalar guruhlarida)	Также является частью системы педагогической культуры и дает возможность организовывать процессы обучения и обучения на разных педагогическом	It also part of the pedagogical culture of system, and it provides the opportunity to organize teaching and learning processes at different levels of the pedagogical circle (society)

	tashkil etish imkoniyatini beradi.	кружка (общество, учебные заведения , детские группы)	educational institutions , children's groups)
Pedagogik texnika Педагогическая техника Pedagogical technique	O'qituvchiga o'quv faoliyatida ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar majmuidan tashkil topadi.	Представляет собой набор общих педагогических навыков, необходимых учителю в образовательной деятельности.	It is a set of general pedagogical skills required for the teacher in educational activities
Nutq madaniyati Речевая культура Speech culture	Nutqning adabiy til me'yori mezonlariga asoslangan muayyan bir holda, mantiq ilmi talablariga bo'ysungan ko'rinishda namoyon bo'lishidir. Nutq tafakkur va fikrlashda o'zaro muloqot yordamida fikr almashish vositasining har bir kishi (shaxs)ga xos shakli, ko'rinishidir.	Заключается в том что речь проявляется в конкретном случае, основанном на критериях литературного языка в форме подчинения логике. Речь-это форма личности средств обмена идеями посредством взаимного общения в мышлении	It is that the speech is manifested in a particular case based on the criteria of literary language , in the form of subordination to logic . speech is the form of personality of the means of exchange of ideas by mutual communication in thinking
Didaktik tamoyillar: Дидактические принципы Didactic	Bu o'quv jarayoni uning umumiya maqsadlari va qonumiylariga binoan	Это отправная точка для определения содержания, организационны	This is the starting point for determining the content , organizational

principles	mazmunini, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidadir	х форм и методы учебного процесса соответствия с его общими задачами правилами	forms and methods of the learning process according to its general objectives and rules
Tamoyillar Принципы Principles	(yunoncha principium) Biror bir nazariyaning asosi, boshlanishi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oja, faoliyat asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.	(Греческий принцип) – основа теории, начало, базовая отправная точка, управляющая идея , основные принципы деятельности, обобщенные требования	(Greek principium) the basis of a theory, the beginning, the basic starting point; managing idea, basic principles of activity , generalized requirement
Kompetensiya Компетенция Competency	Lotinchada « Competo» erishyapman, munosib, loyiqman-u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar degan ma'noni anglatadi	На Латинском языку «Competo» означает нечто ценное, достойное или знание, опыт в разных аспектах	In Latin «Competo» means something that was worthwhile, worthy or knowledge , experience in different aspects.
Standart kompetentsiya Стандартная компетенция Standard competence	Ushbu faoliyatga oid odatiy vazifalarni bajarish qobiliyati	Способность выполнять регулярные и регулярные задания для этой деятельности	The ability to carry out regular and regular tasks for this activity.
Muhim kompetentsiya Значительная компетенция Significant competence	Shaxsning umumkasbiy bilim, ko'nikma va malakalari, shaxsiy sifatlari va qobiliyati	Общие профессиональные знания личности, навыки и квалификация,	General professional knowledge of the person, skills and qualifications , personal qualities

		личные качества и способности.	and abilities.
Kasbiy kompetentsiya modeli Модель профессиональной компетентности Professional competency model	Kasbiy qadriyat, kasbiy ko'nikma va malaka. kasbiy bilim va tushuncha	Профессиональных ценностей, профессиональных навыков и опыта. Профессиональные знания и понимание.	Professional values, professional skills and experience .Professional knowledge and understanding

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abul-qosim Mahmud az-Zamaxshariy. «Nozik iboralar». - Т.: «Kamalak», 1992,
2. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 13 том.-Т.: 1966.
3. Aleks Mur. Ta'lif berish va ta'lif olish: pedagogika, ta'lif dasturi va tarbiya. "Rutledj". Ikkinchি nashr, 2012.
4. Aminov M.N. Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya)/ mas'ul muharrir M.A.Majidov. -Т.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. 528 b.
5. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. -Т.: «O'qituvchi», 1994.
6. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1 jild, - Toshkent, «Fan», 1968.
7. Бабашенко Ю.К. Педагогика. Учебное пособие для студентов педагогических/Под.ред.-М: Просвещение.
8. Форобий. Фозил одамлар шахри.-Т.: Абдулла Қодирий номидаги Ҳалқ мероси, 1993.
9. Hasanboeva O, Hasanboev J, Hamidov Q. Pedagogika tarixi. -Т. O'qituvchi. 2006.
10. Helstead. Jelf Navigating the new pedagogy: six principles that transform teaching.
11. Ibragimov.X, Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. - Т.: "Fan", 2008.
12. Ibrohimov A. va boshqalar. Vatan tuyg'usi / Ibrohimov A, Sultonov X, N.Jo'rayev. -Т.: O'zbekiston, - 1996. 396 b.
13. Karimov I. A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori»-Т. «Sharq» 1998.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-Т.: "Ma'naviyat", 2008.
15. Karimov I.A.Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – Т:, Sharq, 1993.
16. Крившенко Л. П, М. Е Вайндорф-Сысоева и др. Педагогика: Учебник / Под ред. Л. П. Крившенко. С.278.
17. Mavlonova.R. To'rayeva.O, Xoliqberdiyev.K. Pedagogika. - Т.: "O'qituvchi", 2001.
18. Munavarov.A.K. Pedagogika. - Т.: "O'qituvchi", 1996.
19. Musurmonova.O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur. - Т.: "O'qituvchi", 2000.
20. Орловой. А.В. Педагогическая психология: Учебное пособие. Под ред. Л.А.Регущ,- СПб.: Питер, 2010. 416 стр.

21. Ochilov M. , Ochilova N. «O'qituvchi odobi». - T.: «O'qituvchi», 1997.
22. Peshkova B.E. Педагогика. Часть 3. Теория и методика воспитания. Курс лекций. Учебное пособие. Майкоп-2010.
23. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar:Sh.Qurbanov, va. B. – T: Sharq, 1999.
24. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino. Ta'lim va tarbiya haqida.-T.: O'qituvchi. 1967.
25. Saidaxmedov.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - T.: "Moliya", 2004.
26. Savin N.B. Педагогика. Учеб. пособие для пед. училищ. Изд. 2-е, доп. – М., «Просвещение», 1978. 351 с.
27. Smriti Dr.Swarup Education of children with special needs National Council of Educational Research and Training, 2006.
28. Sog'uniy A, Karamatov H forschadan tarj. Temur tuzuklari /So'zboshi muallifi va mas'ul muharrir M.Ali.- T.: «Sharq», 2005.
29. Tulenov J. Falsafiy madaniyat va ma'naviy kamolot.-T.: «Mehnat», 2000.
30. Tuxliyev N. Osiyo taraqqiyoti modeli.-Toshkent: O'zbekiston, 2015.
31. To'xtaxodjaeva M.T., Nishonova S. Pedagogika nazariyasi va tarixi I qism. Pedagogika nazariyasi, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent –2010.
32. Usanova O.H. Psichik rivojlaniishiда муаммолари бўлган болалар.-Москва, Педагогика, 1995
33. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - T.:»Universitet», 1998.
34. Zaripov K. O'qituvchilar malakasini oshirishda maktab rahbarining roli. - T.: «O'qituvchi», 1993..
35. Zununov A, Mahkamov U. Didaktika. - T.: "Sharq", 2006
36. Zunnunov A, Xayrullaev M, To'xliev B., Xolmatov N. Pedagogika tarixi. T. Sharq. 2009.
37. G'ulomov S, Knorring V.I. «Menejment: boshqaruv san'ati, nazariyasi va amaliyoti»: ToshDAU, 2002.
38. Шаршакова Л.Б. Педагогическая диагностика образовательного процесса. Методическое пособие для педагогов дополнительного образования — СПб.: ГБОУ ДОД Дворец детского (юношеского) творчества «У Вознесенского моста», 2013 С.

39. Shomaxmudova R.Sh. Inklyuziv ta'lif (Xalqaro va O'zbekistondagi tajribalar), Toshkent 2011.

40. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma olti yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i nutqi. //Xalq so'zi, 2017-yil 1-sentabr.

41.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. //Xalq so'zi, 2017-yil 20-sentabr.

42. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Oliy ta'lif: meyoriy hujjatlar to'plami.-T.,Sharq nashriyoti.2001.

Elektron ta'lif resurslari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.tdpu.uz
3. www.pedagog.uz
4. www.psychology.uz
5. www.psychology.net.ru
6. lex.uz

MUNDARIJA

Muqaddima	3
Umumiy pedagogika – ta’lim-tarbiya nazariyasi. Umumiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari.....	5
O’zbekistonda ta’lim tizimining isloh qilinishi va uning huquqiy asoslari....	27
Ta’lim menejmenti. O’zbekiston respublikasida ta’lim tizimini boshqarish ...	60
Tarbiya nazariyasi va tarbiya turlari	78
Oila pedagogikasi va uning milliy o’ziga xos xususiyatlari	106
Globallashuv jarayonlari va uning zamонави sharoitlarda tarbiyaga ta’siri ...	127
Didaktika – ta’lim nazariyasi. Pedagogik jarayon Va-uning o’ziga xos xususiyatlari. Ta’lim qonuniyatlar va tamoyillari	149
Ta’lim shakllari, usullari va vositalari. Ta’lim sifatini nazorat qilish	180
Dars – ta’limning asosiy shakli sifatida. Zamонави dars tiplari va unga qo‘yiladigan didaktik talablar	204
Peagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari.....	229
Pedagogik kasbiy kompetentlik va kreativlik	253
Ta’lim - tarbiya jarayonida ilmiy va umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish	277
Ta’lim – tarbiya jarayonida pedagogik diagnostika va pedagogik korreksiya .	302
Elektron pedagogika va pedagogning kasbiy axborot maydonini loyihalash ..	331
Glossariy	351
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	372

UMUMIY PEDAGOGIKA

I QISM

Muharrir *Axtam Ro'zimurotov*
Badiiy muharrir va texnik muharrir *Dilmurod Jalilov*
Sahifalovchi *Madina Abdullayeva*
Musahhih *Nigora G'aniyeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2020-yil 8-oktabrda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 60x84 1/16. Times New Roman garniturasи.
Ofset bosma. 23,5 shartli bosma taboq. 22,5 nashъ tabog'i.
Adadi 300 nusxa. 152 raqamlı buyurtma.
Bahosi shartnomaga asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi. 100113. Toshkent,
Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

ISBN 978-9943-6679-0-7

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-6679-0-7.

9 789943 667907